Jamiyatda jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish masalasi har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Shu maqsadda yaratilgan probatsiya tizimi — bu nafaqat nazorat mexanizmi, balki shaxsning jamiyatda yangi hayot boshlashiga ko‘maklashuvchi insonparvar tizimdir. Ichki ishlar organlari xodimlari ushbu tizimda markaziy o‘rin tutadi, chunki ular probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatini chuqur o‘rganib, ularni jamiyatga qayta moslashtirish jarayonida bevosita mas’ul hisoblanadi [1].

Ijtimoiy-psixologik ishlarning asosiy maqsadi — shaxsning ichki dunyosidagi salbiy holatlarni aniqlash, ijobiy motivatsiyani shakllantirish va ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirishdan iborat. Buning uchun IIO xodimlari tomonidan shaxsning psixologik portreti tuziladi, undagi stress, agressiya yoki ijtimoiy moslashuvdagi muammolar aniqlanadi. Psixologik suhbatlar, kuzatish va test sinovlari orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida individual reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqiladi. Bu jarayonda har bir shaxsga individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Probatsiya xizmati faoliyatining samaradorligi, avvalo, profilaktika inspektorlari va psixologlarning o‘zaro hamkorligiga bog‘liq. Ijtimoiy-psixologik ishlarning muhim jihatlaridan biri — shaxsni jamiyatga ijobiy tarzda integratsiya qilishdir. Buning uchun ularga ish topish, o‘qishga joylashtirish, ijtimoiy yordam olishda amaliy ko‘mak ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, xodimlar shaxsning oilasi bilan ham muntazam muloqot olib borib, ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiladilar.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, probatsiya nazorati ostidagi shaxslar bilan doimiy psixologik aloqaning yo‘qligi ularning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi. Shu bois, IIO tizimida psixologik xizmatlarning faoliyatini yanada kuchaytirish, xodimlarni zamonaviy psixologik yondashuvlarga o‘rgatish, ijtimoiy treninglar va reabilitatsion dasturlarni takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, probatsiya jarayonida “ijtimoiy sheriklik” tamoyili asosida fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar, mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim. Bu orqali nazorat ostidagi shaxslar nafaqat huquqiy, balki ma’naviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z hayotini yangidan boshlashga undaladi.

IIO xodimlarining bunday faoliyati O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, inson qadrini yuksaltirish va adolatli jamiyat barpo etish siyosatining amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Shu bois probatsiya tizimini yanada takomillashtirish, psixologik xizmatlar salohiyatini oshirish, xodimlarning kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirish kelgusida jinoyatchilikning kamayishiga, ijtimoiy muhitning sog‘lomlashishiga xizmat qiladi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi me’yoriy hujjatlari to‘plami.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Inson qadrini yuksaltirish va xalqparvarlik – siyosatimizning bosh mezoni”. Toshkent, 2022.

ENHANCING EDUCATIONAL IMPACT THROUGH ACTIVE TEACHING METHODS

FAOL O‘QITISH USULLARI ORQALI TA’LIMGA TA’SIRNI KUCHAYTIRISH
ПОВЫШЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПОСРЕДСТВОМ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ

Xamrozoda Zarinai Mirzo-Ulug‘bek.
Guliston davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

ABSTRACT. Active teaching methods enhance both the developmental and educational outcomes of learning by fostering student participation, open dialogue, and independent thinking. These approaches promote critical and creative thinking, strengthen communication and teamwork, and help students build professional competencies. Moreover, active learning increases motivation, encourages responsibility for learning, and prepares students for real-world professional challenges.

KEYWORDS: active learning, student development, educational effects, professional skills, critical thinking, motivation, collaboration, communication, interactive methods, higher education

ANNOTATSIYA. Faol o‘qitish usullari o‘quvchilarning faol ishtirokini, ochiq muloqotni va mustaqil fikrlashni rivojlantirish orqali o‘rganishning rivojlanish va ta’lim natijalarini yaxshilaydi. Ushbu yondashuvlar tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, muloqot va jamoaviy ishlarni kuchaytiradi va talabalarga kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, faol o‘rganish motivatsiyani oshirish bilan birga bilim olish bo‘lgan uchun mas’uliyatni rag‘batlantiradi va talabalarni haqiqiy professional muammolarga tayyorlaydi.

KALIT SO‘ZLAR: faol ta’lim, talabalarni rivojlantirish, ta’limning ta’siri, kasbiy mahorat, tanqidiy fikrlash, motivatsiya, hamkorlik, muloqot, interfaol usullar, oliy ta’lim

АННОТАЦИЯ. Активные методы обучения улучшают как развивающие, так и образовательные результаты обучения, стимулируя участие учащихся, открытый диалог и самостоятельное мышление. Эти подходы развивают критическое и творческое мышление, укрепляют коммуникацию и командную работу, а также помогают учащимся развивать профессиональные компетенции. Более того, активное обучение повышает мотивацию, развивает ответственность за учёбу и готовит учащихся к решению реальных профессиональных задач.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: активное обучение, развитие студентов, образовательные эффекты, профессиональные навыки, критическое мышление, мотивация, сотрудничество, коммуникация, интерактивные методы, высшее образование

INTRODUCTION. In educational literature, teaching methods are often categorized as "active" or "passive." However, from a psychological standpoint, this distinction is considered inaccurate, since it is the individual—not the method—who demonstrates activity or passivity in the learning process. Nevertheless, the use of active teaching methods, particularly in the study of economics, plays a crucial role in fostering students' personal development.

Active learning approaches engage students in real or simulated situations, encouraging active participation in structured communication. Through this process, learners express their individuality, collaborate with others, and gain a deeper understanding of both the subject matter and themselves [1].

METHODOLOGY. The study employed a qualitative and analytical approach to examine the effectiveness of active learning methods in higher education. The research involved analyzing pedagogical literature, observing classroom practices, and identifying the most effective techniques—such as problem-based learning, business games, role-playing, and discussions. Data were collected through classroom observations and interviews with teachers and students to determine how these methods influence motivation, communication, and professional skill development. The findings were analyzed to reveal common strategies for integrating active methods into the educational process and to assess their role in fostering student engagement and cognitive growth.

RESULTS AND DISCUSSION. Contemporary teaching technologies highlight the importance of a teacher's ability not only to design an effective lesson but also to create a supportive environment that facilitates the use of active learning methods [2]. As some of the most efficient forms of group interaction, these methods strengthen both the educational and developmental aspects of learning, foster conditions for students to freely express their ideas and viewpoints, and contribute to shaping their perspectives.

In professional education, active learning techniques can be applied in situations where the exchange of experiences, ideas, and beliefs encourages learners to adopt new understandings of their professional roles, phenomena, or interpersonal relations. Such methods also promote the transformation of behavioral patterns, stimulate critical and value-based thinking, enhance interpersonal communication, and enable constructive feedback [1].

Active learning methods such as problem-based learning, business games, and discussions engage students in solving challenging situations created by the teacher. Through this process, learners independently acquire professional knowledge and skills while developing creativity and critical thinking.

Problem-based learning, as a form of developmental education, integrates students' independent inquiry with the understanding of scientific principles. It aims to foster cognitive independence, motivation, and creative thinking by organizing instruction around purposeful, problem-centered tasks [3].

Thus, the core of problem-based learning lies in the teacher's ability to design a sequence of problem situations and guide students' cognitive and exploratory activities, enabling them to acquire new knowledge through independent or collaborative problem-solving.

Since the inclusion of exploratory stages within a lesson indicates its problem-based nature, these stages form the core structure of a problem-based lesson. They include:

- identifying a problematic situation and formulating the problem;
- developing and justifying hypotheses;
- proving the proposed hypothesis;
- verifying the accuracy of the problem's solution.

A business game is a learning method that simulates the professional and social aspects of a specialist's future work. It models real-world relationships, professional challenges, and typical situations, allowing students to experience and resolve authentic problems within their field.

Educational games vary in methods and objectives and include several main types:

1. Simulation games – develop specific professional or production skills.
2. Role-playing games – model real-life or business situations.
3. Innovative games – feature flexible structures and may involve digital or virtual environments.
4. Organizational and activity-based games – focus on analyzing situations and selecting effective solutions.
5. Business training and brainstorming – promote creative and economic thinking, teamwork, and respect for diverse opinions.

A discussion is a structured exchange of ideas and opinions on a debatable issue, combining elements of dialogue and argumentation. Effective discussions encourage alternative viewpoints, constructive criticism, and psychological safety. Participants must have basic background knowledge, either previously acquired or provided during the session.

CONCLUSION. Thus, the defining feature of all active learning methods is their focus on creating learning situations that closely resemble real-life contexts. These methods not only promote the application and synthesis of knowledge but also develop practical skills and foster a positive emotional attitude toward learning through collective creative activity.

REFERENCES.

1. Alhawiti, N. M., & Alshahrani, A. M. (2023). The influence of active learning on the development of student capabilities. Advances in Social Sciences Research Journal, 10(8), 533–545.
2. Frontiers Research Topic: Preparing educators for the digital age: teacher perceptions of active teaching methods and digital integration. (2024). Frontiers in Education. https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1473766
3. Loyens, S. M. M., Wijnia, L., Van der Sluijs-Duker, I., & Rikers, R. M. J. (2020). Problem-Based Learning. In Oxford Research Encyclopedia of Education. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190264093.013.861

PROBATSİYA XİZMATİNİNG MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QİLİSH JAZOSİNİ İJRO ETİSHDA KORXONA, MUASSASA VA TASHKİLOTLAR BİLAN HAMKORLİGİ

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ***3-kurs 337-guruh kursanti***
Usmonov Xumoyun Xurshidbek o'g'li

Annotatsiya:Maqolada probatsiya xizmatining muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etishdagi o‘rni va korxona, muassasa hamda tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati tahlil qilingan. Unda hamkorlikning huquqiy asoslari, ijtimoiy-psixologik jihatlari hamda probatsiya tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar yoritilgan. Shuningdek, mehnat jamoalarining huquqiy madaniyatini oshirish orqali takroriy jinoyatlarning oldini olish masalasiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar:Probatsiya, huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish, ijtimoiy reabilitatsiya, hamkorlik, korxona va tashkilotlar, profilaktika, psixologik yondashuv, ijtimoiy mas’uliyat, mehnat jamoasi, nazorat tizimi.

O‘zbekiston Respublikasida jinoyat siyosatini insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida olib borish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu ma’noda, probatsiya xizmati tizimi shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda, u bilan ijtimoiy, psixologik va huquqiy ishlashni tashkil etuvchi muhim institut sifatida alohida ahamiyatga ega. Xususan, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish jarayonida probatsiya xizmati organlari korxona, muassasa va tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritadi [1].

Mazkur hamkorlikning asosiy maqsadi — jazoni o‘tayotgan shaxsning ijtimoiy mehnat faoliyatini saqlab qolish, uni jamiyat hayotiga ijobiy tarzda qayta jalb etish va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat. Probatsiya organlari bu jarayonda nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki ularning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va mehnat jamoasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishda vositachi sifatida ham qatnashadi.

Korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik, avvalo, muayyan huquqdan mahrum etilgan shaxslarning mehnat faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularning mehnat intizomiga rioya etishini ta’minlash hamda ijtimoiy reabilitatsiyasini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan, haydovchilik yoki pedagoglik huquqidan mahrum etilgan shaxslar boshqa yo‘nalishlarda mehnat faoliyatini davom ettirishlari mumkin. Probatsiya xizmati esa bu

jarayonni qonun doirasida muvofiqlashtiradi va tegishli korxona rahbarlari bilan hamkorlikda nazorat olib boradi [2].

Bundan tashqari, probatsiya inspektorlari muassasa va tashkilotlarda muntazam tushuntirish ishlari olib borib, xodimlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, jinoyat va huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu esa nafaqat jazoni o‘tayotgan shaxsning, balki mehnat jamoasining ham ijtimoiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Probatsiya xizmatining hamkorlik tizimi samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, yagona elektron nazorat tizimini yaratish, korxona va tashkilotlar bilan o‘zaro ma’lumot almashish mexanizmini kuchaytirish zarur. Shuningdek, ushbu hamkorlik jarayonida psixologik maslahat, ijtimoiy yordam va huquqiy ko‘mak kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish probatsiya faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi [3].

O‘zbekiston Respublikasida inson manfaatlarini himoya qilish, shaxsni tuzatish va jamiyatga qayta moslashtirish siyosati doirasida probatsiya tizimining ahamiyati ortib bormoqda. Shu bois, probatsiya organlarining korxona, muassasa va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi jinoiy jazolarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni takomillashtirish kelgusida jinoyatchilikning kamayishiga, mehnat jamoalarida sog‘lom muhitning mustahkamlanishiga hamda shaxsni ijobiy o‘zgarishlarga yo‘naltirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Inson manfaatlarini himoya qilish – islohotlarning bosh maqsadi”. Toshkent, 2021.
4. Karimov I.A. “Huquqiy demokratik davlat barpo etish yo‘lida”. Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

QUYOSH PANELLARINING SOVUTISH TIZIMLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT (AI) TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI

Sharifova Madina
Buxoro, O’zbekiston, tel: +99890-412-83-65,
E-mail: madinasharifova075@gmail.com

Anotatsiya

Ushbu ishda quyosh panellarining sovutish tizimlarini optimallashtirishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining ahamiyati o‘rganiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mashinaviy o‘rganish, neyron tarmoqlar va genetik algoritmlar asosidagi modellar yordamida panellar harorati va sovutish tizimlari samaradorligini boshqarish mumkin. Sun’iy intellekt real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilib, optimal sovutish strategiyasini tanlaydi.

Kalit so‘zlar: quyosh panellari, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish, sovutish tizimi, optimallashtirish, energiya samaradorligi.

Annotation

This study examines the importance of artificial intelligence (AI) technologies in optimizing the cooling systems of solar panels. A review of the literature shows that models based on machine learning, neural networks, and genetic algorithms can be used to control panel temperature and improve cooling system efficiency. Artificial intelligence analyzes data in real time and selects the optimal cooling strategy. **Keywords:** solar panels, artificial intelligence, machine learning, cooling system, optimization, energy efficiency.

Аннотация

В данной работе изучается значение технологий искусственного интеллекта (AI) в оптимизации систем охлаждения солнечных панелей. Анализ литературы показывает, что с помощью моделей, основанных на машинном обучении, нейронных сетях и генетических алгоритмах, можно контролировать температуру панелей и эффективность систем охлаждения. Искусственный интеллект анализирует данные в реальном времени и выбирает оптимальную стратегию охлаждения.

Ключевые слова:солнечные панели, искусственный интеллект, машинное обучение, система охлаждения, оптимизация, энергоэффективность.

So‘nggi yillarda quyosh panellari samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar nafaqat materiallar, balki boshqaruv tizimlari sohasida ham rivojlanmoqda. Quyosh panellari harorati

oshgan sari ularning elektr samaradorligi pasayadi, shu sababli sovutish tizimlarini optimal boshqarish energiya tejamkorlik nuqtai nazaridan muhimdir.Quyosh panellarining samaradorligi ularning ishchi haroratiga bevosita bog‘liq. Harorat oshgani sari yarimo‘tkazgich elementlarining elektr o‘tkazuvchanligi pasayadi va bu energiya ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1]. Shu sababli, sovutish tizimlarini boshqarish va ularni optimal holatda ushlab turish qayta tiklanuvchi energiya tizimlarida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda bu sohada sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi samarali natijalar bermoqda. AI asosidagi tizimlar quyosh panellaridan olinadigan ma’lumotlarni — nurlanish darajasi, havo harorati, shamol tezligi va ishlab chiqilgan quvvatni — real vaqt rejimida tahlil qiladi [2]. Ushbu ma’lumotlar asosida sovutish tizimining ish rejimi avtomatik tarzda o‘zgartiriladi, ya’ni suv oqimi, ventilyator tezligi yoki sovutish burchagi optimallashtiriladi [3].Bundan tashqari, AI texnologiyalari panellar texnik holatini kuzatish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini rejalashtirishda ham qo‘llaniladi. Masalan, sun’iy intellekt tizimlari issiqlikning notekis taqsimlanishi, changlanish yoki ventilyatsiya muammolarini oldindan aniqlab, servis xarajatlarini kamaytiradi [4].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini sovutish tizimlariga integratsiya qilish quyosh panellarining samaradorligini oshirish, energiya isrofini kamaytirish va O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitida barqaror energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Optimization of photovoltaic systems using artificial intelligence techniques: A review. Renewable and Sustainable Energy Reviews*, Elsevier, 2024.
2. *Deep learning-based intelligent control for PV cooling systems. Applied Energy*, Elsevier, 2024.
3. *Artificial Intelligence for optimization of photovoltaic thermal systems. Energy Conversion and Management*, Elsevier, 2023.
4. Rustamov, A. (2022). *Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: nazariyasi va amaliyoti.* Toshkent: Fan va texnika nashriyoti.
5. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1364032124008917

INTERNET IZOHLARIDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK NIYAT VA ADRESANT–ADRESAT MUNOSABATLARI

Djurayeva Maxbuba Usmanovna
Termiz shahridagi 4-umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilidagi internet izohlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, xususan, foydalanuvchining nutqiy maqsadi (niyati) va adresant–adresat o‘zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot antroposentrik paradigma doirasida olib borilib, virtual muloqotdagi subyektlarning nutqiy pozitsiyasi, ijtimoiy roli hamda ularning nutqiy strategiya va taktikalari aniqlanadi. Shuningdek, izoh matnlarida baholovchi, tanqidiy, ijobiy yoki neytral niyatlar qanday ifodalanishi lingvopragmatik mezonlar asosida izohlanadi.
Kalit so‘zlar: kommunikativ niyat, adresant, adresat, nutqiy strategiya, pragmatika, interaktiv muloqot, baholovchi tildan foydalanish.

Kirish

Zamonaviy axborot makonida internet tarmoqlari insonlar o‘rtasidagi muloqotning eng faol maydoniga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, yangiliklar saytlarida qoldiriladigan izohlar (kommentariyalar) esa kommunikativ jarayonning yangi, dinamik shakli sifatida e’tirof etiladi. Bu jarayonda izoh matnlari nafaqat fikr bildirish vositasi, balki ijtimoiy kayfiyat, shaxsiy pozitsiya, nutq madaniyati va axborot almashinuvi darajasining ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun izoh matnlarini tahlil qilish — zamonaviy lingvistikaning, xususan, pragmalingvistika va diskurs tahlilining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Internet izohlarida kommunikativ-pragmatik niyat muallifning maqsadli nutq strategiyasini belgilaydi. Har bir izoh ma’lum ijtimoiy, madaniy yoki hissiy motivatsiyaga ega bo‘lib, muallifning kommunikativ niyatini – xabar berish, fikr bildirish, bahslashish, e’tiroz yoki qo‘llab-quvvatlashni ifodalaydi. Bu jarayonda adresant (izoh muallifi) va adresat (izoh o‘quvchisi yoki javob beruvchi) o‘rtasidagi munosabatlar lingvopragmatik tizimning markaziy elementlaridan biri sifatida shakllanadi. Ushbu munosabatlar ko‘pincha bevosita (dialogik) yoki bilvosita (guruhli, kollektiv) muloqot shaklida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, internet izohlarining o‘ziga xosligi shundaki, ularning kommunikativ muhiti real vaqtli muloqotga asoslangan bo‘lsa-da, yozma shaklda kechadi. Bu esa yozma va og‘zaki nutq belgilarining sintezini yuzaga keltiradi. Natijada, izoh matnlarida shaxsiylik (subyektivlik), hissiylik, kinoya, ironik ifoda, emodji va qisqartmalar kabi zamonaviy lingvistik belgilar faol ishlatiladi. Shunday xususiyatlar, o‘z navbatida, internet kommunikatsiyasida adresant va adresatning o‘zaro ta’sirini aniqlash, ularning til vositalari orqali namoyon bo‘ladigan niyatini tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Mazkur tadqiqot

internet izohlaridagi kommunikativ-pragmatik niyat va adresant–adresat munosabatlarini aniqlash, ularning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda bu jarayonning o‘zbek tilidagi ifoda vositalarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, internet muloqotida shakllanayotgan yangi nutq madaniyati, til birliklarining ijtimoiy-semantik yuklamasi va foydalanuvchilar o‘rtasidagi interaktiv aloqaning tabiati hozircha yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois, bu yo‘nalish o‘zbek tilshunosligi uchun nazariy va amaliy jihatdan ham muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Asosiy qism

Kommunikativ niyat — izoh muallifining til orqali amalga oshirmoqchi bo‘lgan maqsadi bo‘lib, bu niyat izoh matnining lingvistik vositalarida turlicha ifodalanadi. Masalan, izoh muallifi tanqid, maqtov, maslahat berish yoki savol yo‘llash niyatida bo‘lishi mumkin. Bunday niyat turli pragmatik strategiyalar — implikatura, illokatsion aktlar yoki tonlov (modality) yordamida namoyon bo‘ladi Shuningdek, izoh matnlarida ko‘plab hollarda niyat yashirin qoladi — ya’ni muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaydi, balki kontekst yoki qo‘shimcha iboralar orqali anglatadi. Bunday holatlar implikatura, presuppozitsiya va subtekst darajasida kichadi [Yus, Pragmatics and the Internet, ch.1].

Izohdagi niyatni aniqlashda kontekst, ko‘p hollarda ilgari yuzaga kelgan suhbatlar va auditoriyaning bilim darajasi muhim rol o‘ynaydi. Izoh muallifi auditoriyani taxmin qila olsa, u o‘z niyatini qisqaroq, murakkab bo‘lmagan shaklda ifodalashga harakat qiladi. Bu — virtual diskursda samarali kommunikatsiya tamoyili [Kamsinah, *Pragmatic Analysis in Digital Communication*. -B. 380].

Adresant va adresat o‘rtasidagi munosabat — izoh matnida kim gapiradi va kimga qaratilgan — kommunikativ-pragmatik tahlilning muhim elementi. Internet izohlarida bu munosabat, odatda, bevosita (muallif-o‘quvchi) yoki bilvosita (muallif-jamoatchilik) dialog tarzda kechadi. Bu pozitsiyani aniqlashda muallif muloqot markazida joylashganligini his qilish va auditoriyani “siz” shaklida qaratish, yoki kollektiv auditoriyani nisbatan umumiy tarzda jalb qilish strategiyalari qo‘llaniladi. Masalan, blog post ostidagi izohlar ko‘plab o‘quvchilarga qaratilgan bo‘lishi mumkin, shuning uchun muallif “sizlar”, “hammasi” kabi ko‘plik shakllardan foydalanadi.

Adresat javobi yoki ko‘p izohli muloqotda, auditoriyaning fikr-mulohazalari muallif pozitsiyasiga ta’sir qilishi mumkin. Bunday o‘zaro ta’sir izoh matnining shaklini, qo‘shimcha izohlar qo‘shilishini va niyatni o‘zgartirishni keltirib chiqaradi. Pragmatik tahlil uchun bu dinamik jihatni e’tiborga olish muhim. Shuningdek, adressant–adresat o‘rtasidagi muloqotda “implied audience” tushunchasi ham muhim — ya’ni muallif ideal auditoriyani oldindan taxmin qiladi va izohni aynan o‘sha auditoriyaga yo‘naltiradi. Bu taxmin ma’no o‘qilishida va interpretatsiyada muhim rol o‘ynashi mumkin. Internet izohlarida kommunikatsiyani yanada silliq qilish uchun turli pragmatik strategiyalar qo‘llaniladi. Masalan, “politeness strategy” — muloyimlik strategiyasi, yumshatish konstruktsiyalari orqali muallif

auditoriyaga hurmat ko‘rsatadi .

Niyatning amalga oshirilishi uchun implikaturalardan foydalanish keng tarqalgan: muallif so‘zlarni ortiqcha izohlamasdan, kontekstga tayanib ma’no hosil qilishga undaydi [Ayuwọ & Mandah, *The Pragmatics of Social Media Posts and Comments*, -B. 11]. Emoji, hashtag, skriptlar va intertekstual iboralar ham komunikativ strategiya vositasi sifatida ishlatiladi — ular matnga qo‘shimcha niyat yoki tuyg‘u yuklashga imkon beradi [ICCMS, *An Analysis of Pragmatic Cues in Online Communication,* -B. 3]. Shuningdek, ba’zan muallif “face saving” strategiyasini qo‘llaydi — ya’ni o‘z fikrini yumshoqroq shaklda, tinchlik va hurmat muhiti saqlangan holda ifodalaydi. Bu, ayniqsa salbiy baho yoki tanqid izohlarida o‘zini ko‘rsatadi. Izoh matnlaridagi niyat va adresant–adresat munosabatlarini tahlil qilishda kontekstual inferensiya, ya’ni o‘quvchining kontekstni to‘ldirish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Internet muloqotida kontekst ba’zan matndan tashqarida bo‘lishi mumkin, shuning uchun auditoriya ilgari qurilgan bilim bazasi va shaxsiy tajribaga tayanadi. Ba’zan izoh matni qisqa bo‘lishi sababli, muallif tomonidan tushunilmagan qismlar auditoriya tomonidan talqin qilinadi. Bunday hollarda inferensiya va pragmatik strategiyalar yordamida ma’no qayta quriladi. Bu jarayon “skriptli inferensiyalar” deb ataladi. Niyat va kontekst o‘rtasidagi qarama-qarshilik — izoh matni auditoriyani anglashda qanday imkoniyat va cheklovlarga ega bo‘lishi — pragmatik tahlil uchun markaziy masala hisoblanadi. Virtual muloqotda bu qarama-qarshilik tez-tez yuz beradi. Pragmatika va internet kommunikatsiyasining kesishmasi, ya’ni internet-pragmatika nazariyasi, kontekstual voqealarga, auditoriyaning angalanish mexanizmlariga hamda niyat–interpretatsiya modellariga yondashadi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan o‘tkazilgan “O‘zbek tilida bildirgan fikrlarni aspektli sentiment tahlil qilish” loyihasi izoh matnlarida kommunikativ niyatning turli jihatlarini, xususan baho (sentiment) va aspekt (masalan, mahsulot sifati, xizmat) kabi elementlar orqali auditoriyaga murojaat usullari tahlilini taqdim etadi [Matlatipov & Komilova, O‘zbek tilida bildirgan fikrlarni aspektli sentiment tahlil qilish, -B. 2-4].

Bundan tashqari, D.Elova va S.Allanazarova ijtimoiy tarmoqlardagi sharh va postlarda ishlatiladigan his-tuyg‘u (sentiment) ifodalari va ularning auditoriyaga qanday ta’sir qilishini – ya’ni adresant-adresat munosabatlarini tahlil qilgan. Bu ishda leksik-sentiment usullari va mashinaviy o‘rganish modellari yordamida izohlarni ijobiy, salbiy va neytral kategoriyalarga ajratish bo‘yicha natijalar keltirilgan. Shuningdek, so‘z turkumlari asosida izoh matnlarida emotsional intensivlik va kontekstual elementlarning rolini o‘rganish bo‘yicha B. Elov, Z. Xusainova va A.Abdullayevlar tadqiqotlari tajriba natijalarini e’lon qildi. Ular, xususan, sifat (adjective), fe’l (verb) va ravish (adverb) turkumlarining baho va niyat ifodasida qanday farq qilishi, adresant-adresat munosabatida so‘z tanlovi qanchalik aniqlikni oshirishi masalasini ko‘rib chiqdi [Elov, Xusainova, Abdullayev, O‘zbek tilidagi matnlarni so‘z turkumlari orqali sentiment tahlil qilishda gap modellarini ishlab chiqish, -B. 4-6].

Va nihoyat, “O‘zbek tilidagi hissiy so‘zlar lug‘ati uchun korpus asosida bilimlar bazasi tuzish

tamoyillari” nomli maqolada H. Rahimov hissiy so‘zlarning auditoriyaga ma’no etkazishida, ya’ni adresant-adresat munosabatlaridagi o‘rni va niyatga bog‘liq pragmatik yuklamasi qanday ifodalanishini korpus texnologiyalari yordamida nazariy-amaliy jihatdan yoritadi [Rahimov, O‘zbek tilidagi hissiy so‘zlar lug‘ati uchun korpus asosida bilimlar bazasi tuzish tamoyillari. -B. 117-119].

Internet izohlarining kommunikativ-pragmatik tahlili shuni ko‘rsatadiki, virtual muloqotda ishtirokchilar o‘z nutqiy niyatlarini ifoda etishda yangi, dinamik va ko‘p qirrali vositalardan foydalanadilar. Ularning nutq aktlari, adresant–adresat o‘rtasidagi munosabatlar, pragmatik strategiyalar va kontekstual omillar birgalikda ijtimoiy-psixologik holatni ifoda etuvchi yagona kommunikativ tizimni shakllantiradi.

O‘zbek olimlari tomonidan bu borada olib borilgan tadqiqotlarda pragmatikaning o‘zbek tili kontekstida talqini, muloqotdagi illokutsion va perlokutsion aktlarning milliy-madaniy ko‘rinishlari, shuningdek, axloqiy-me’yoriy qadriyatlarning til orqali ifodalanishi masalalari keng yoritilgan. Bu tadqiqotlar asosida internet izohlarining milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyat va kommunikativ madaniyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Xususan, G.Yuldasheva o‘zbek tilidagi onlayn muloqotda qo‘llaniladigan pragmatik markerlarning sotsiokommunikativ funksiyalarini ochib beradi, M.Abdurahmonova esa muloqot etikasining raqamli maydondagi buzilishi bilan bog‘liq pragmatik muammolarni tahlil qiladi. Sh.Tursunov esa tilning pragmatik imkoniyatlari orqali nutqiy niyatlarni aniqlashning metodologik asoslarini ishlab chiqadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, internet izohlarida adresant–adresat o‘rtasidagi muloqot jarayoni ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu holat o‘zbek tilshunosligida antroposentrik yondashuvning dolzarbligini yanada oshiradi. Shuningdek, virtual muhitda nutq aktlari orqali shaxsning nutqiy strategiyasi, niyati va hissiy holatini aniqlash, ularni lingvopragmatik tahlil asosida o‘rganish o‘zbek tilining zamonaviy kommunikativ tizimini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu bois, internet izohlarining kommunikativ-pragmatik tadqiqi nafaqat lingvistik, balki sotsiopsixologik, madaniyatshunoslik va etik jihatdan ham keng ilmiy tahlil talab qiladigan masaladir. Kelgusida bu yo‘nalish bo‘yicha o‘zbek tilidagi izohlarning milliy muloqot madaniyatiga xos xususiyatlarini tahlil qilish va korpus asosida ularning tipologiyasini yaratish ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M. *Lingvopragmatika va nutq madaniyatining o'zaro bog'liqligi*. — Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021. — 112 b. — URL: https://tsul.uz/library/articles/lingvopragmatika-va-nutq-madaniyati.pdf
2. Ayuwọ J., Mandah, A. *The Pragmatics of Social Media Posts and Comments*. — *Global Academic Star Publications*, 2021. — P. 11. — URL: https://www.globalacademicstar.com/download/article/the-pragmatics-of-social-media-posts-and-comments.pdf
3. Elov B., Xusainova Z., Abdullayev A. *O'zbek tilidagi matnlarni so'z turkumlari orqali sentiment tahlil qilishda gap modellarini ishlab chiqish*. — *Computational Linguistics Conference Proceedings*, Navoiy Universiteti, 2024. —P. 4–6. — URL: https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/1208
4. Elova D., Allanazarova S. *O'zbek tili matnlarida sentiment tahlil usullari*. — *Uzbek Language and Culture Journal*, 2023. — P. 1–3. — URL: https://uzlc.tsuull.uz/index.php/uzlangcult/article/view/91
5. ICCMS. *An Analysis of Pragmatic Cues in Online Communication*. — *International Conference on Communication and Media Studies*, 2024. — P. 3. — URL: https://iccms.ifrel.org/index.php/ICCMS/article/view/30
6. Kamsinah K. *Pragmatic Analysis in Digital Communication: A Case Study of Language Use on Social Media*. — *ResearchGate*, 2024. — P. 380. — URL: https://www.researchgate.net/publication/385900672_Pragmatic_Analysis_in_Digital_Communication_A_Case_Study_of_Language_Use_on_Social_Media
7. Matlatipov B., Komilova N. *O'zbek tilida bildirgan fikrlarni aspektli sentiment tahlil qilish*. — *Computational Linguistics Conference Proceedings*, Navoiy Universiteti, 2023. — P. 2–4. — URL: https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/1140
8. Noor S. *A Pragmatic Analysis of Social Media*. — *Journal of Applied Linguistics and Translation (JALT)*, 2025. — P. 7. — URL: https://jalt.com.pk/index.php/jalt/article/view/365
9. Rahimov H. *O'zbek tilidagi hissiy so'zlar lug'ati uchun korpus asosida bilimlar bazasi tuzish tamoyillari*. — *Zenodo*, 2024. — P. 117–119. — URL: https://zenodo.org/records/15774239
10. Tursunov Sh. *Pragmatik tahlil tamoyillari va metodlari*. — *Til va adabiyot*, 2019. — №2. — B. 33–39. — URL: https://tilvaadabiyot.uz/articles/2019/pragmatik-tahlil-tamoyillari.pdf
11. Yuldasheva G. Sh. *Kommunikativ-pragmatik munosabatlarda muloqot strategiyalari*. — *Filologiya fanlari jurnali*, 2020. — №3(1). — B. 45–53. — URL: https://uzjournals.edu.uz/philology/vol3/iss1/5

INNOVATIVE TEACHING METHODS BASED ON THE STEAM APPROACH IN ENGLISH LESSONS

Khatamqulova Zarinabonu Ma'murjon qizi
English teacher at the 3rd State Specialized Boarding School, Markhamat District, Andijan Region, Uzbekistan
Email: zarinamadraximova62@gmail.com

Abstract: This paper explores the use of innovative STEAM-based teaching methods in English lessons. Integrating Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics helps students develop creativity, communication, and critical thinking skills. The STEAM approach makes English learning more engaging and practical for 21st-century learners.

Аннотация: В статье рассматривается использование инновационных методов обучения на основе STEAM на уроках английского языка. Интеграция науки, технологий, инженерии, искусства и математики способствует развитию у учащихся креативности, коммуникации и критического мышления. Подход STEAM делает изучение английского языка более увлекательным и практичным для учащихся XXI века.

Keywords: STEAM education, innovative methods, English language teaching, creativity, 21st-century skills, project-based learning, interdisciplinary approach

Ключевые слова: STEAM образование, инновационные методы, преподавание английского языка, креативность, навыки XXI века, проектное обучение, междисциплинарный подход.

The STEAM approach in education is an evolution of the well-known STEM model. By adding "Art" to the traditional STEM components, educators bring creativity and imagination into the learning process. This inclusion of artistic thinking allows students to design, visualize, and present their ideas in expressive and meaningful ways. In English lessons, the STEAM methodology provides a platform for students to learn language through creativity and discovery rather than rote memorization. STEAM-based teaching focuses on the development of practical and analytical skills through real-world applications. For example, during a lesson on environmental protection, students may conduct a simple science experiment, collect data, and then present their findings in English. This kind of task integrates science, technology, and language skills while fostering teamwork and communication. Similarly, while studying technological innovations, learners can prepare digital presentations, design posters, or create short videos where they explain a concept in English, combining technology, art, and language learning. Another important aspect of STEAM integration is project-based learning (PBL). PBL allows students to work

collaboratively on projects that have tangible outcomes. In English lessons, projects can include designing a magazine, building a model of a smart city, or preparing an English-language science fair. Through these projects, students learn how to plan, research, discuss, and present in English — thus improving both linguistic and soft skills. Digital tools play an essential role in modern STEAM-based English classrooms. Teachers can use interactive applications, virtual reality experiences, and online quizzes to engage learners. For instance, using apps like Kahoot, Quizizz, or Canva, students can collaborate, compete, and learn vocabulary or grammar in enjoyable ways. Technology also allows the use of virtual labs or online exhibitions, where learners can describe experiments or innovations using English as a communication medium. Furthermore, the Art component of STEAM encourages creative activities such as storytelling, role-play, and dramatization. Students might write short stories inspired by scientific facts or act out dialogues related to social or technological themes. These artistic experiences enhance emotional intelligence, empathy, and linguistic fluency. They help students express themselves freely while practicing English in authentic contexts. By integrating all five components of STEAM, English teachers create a multidimensional learning environment that caters to various learning styles and intelligences. This interdisciplinary approach nurtures curiosity and lifelong learning habits among students. Instead of learning English as an isolated subject, they experience it as a living, practical, and meaningful tool.

Practical Experience: To identify the effectiveness of STEAM-based teaching in English lessons, a small experiment was conducted with two groups of 7th-grade students at the State Specialized Boarding School No. 3 in Marhamat District, Andijan Region. The experimental group learned through STEAM-integrated lessons, while the control group followed the traditional method. During a four-week period, the experimental group participated in project-based and interdisciplinary activities. For instance, in one lesson titled "My Dream House," students used elements of engineering and art by designing 3D models of eco-friendly houses from paper and recyclable materials. They then described the houses in English using vocabulary related to colors, materials, and environmental protection. In another project called "Water in Our Life," students explored the scientific and environmental aspects of water through mini-experiments. They measured water purity, discussed results, and wrote short English reports on how to save water. These lessons integrated Science, Art, and English, fostering creativity and practical communication. At the end of the experiment, students were tested through a speaking and writing task. Results showed that the STEAM-based group demonstrated a 25% improvement in speaking fluency and 30% higher engagement compared to the control group. Learners expressed greater motivation and confidence in using English for real-life communication. In conclusion, STEAM-based innovative teaching methods significantly enrich English language education by connecting linguistic skills with creativity, critical thinking, and real-world problem-solving. The

integration of Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics transforms English lessons into dynamic, student-centered experiences. Teachers adopting this approach empower learners to become active participants, innovators, and communicators prepared for future challenges. Implementing STEAM principles in English classes encourages a holistic form of education where knowledge, imagination, and practical application meet harmoniously.

References

1. Beers, S. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. National Education Association.
2. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education.
3. Drake, S. M., & Burns, R. C. (2004). Meeting Standards Through Integrated Curriculum. ASCD.
4. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. The Autodesk Foundation.
5. Fullan, M. (2013). The New Pedagogy for Deep Learning. Pearson Education.

O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAGI NUTQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

To`rayeva Dilafruz Maxammadjonovna
Andijon viloyati Marxamat tumani 47-IM

Annotatsiya:
Mazkur tezisda o‘quvchilarning ingliz tilidagi nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining lingvistik asoslari tahlil qilinadi. Til tizimining fonetik, leksik, grammatik va pragmatik qatlamlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Annotation:
This paper explores the linguistic foundations of developing students’ English speaking skills. It focuses on the interrelation among phonetics, lexis, grammar, and pragmatics, emphasizing how each linguistic aspect contributes to communicative competence.

Аннотация:
В работе рассматриваются лингвистические основы развития речевых навыков учащихся по английскому языку. Анализируется взаимосвязь фонетического, лексического, грамматического и прагматического уровней языка, а также их роль в формировании коммуникативной компетенции.

Kalit so‘zlar: nutqiy ko‘nikma, kommunikativ kompetensiya, fonetika, leksika, grammatika, lingvistik asos, pragmatika.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ta’lim, fan va texnologiyalar tili sifatida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli maktab o‘quvchilarining ingliz tilida to‘liq muloqot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Til o‘rganish jarayonida lingvistik bilimlar — ya’ni fonetik, leksik va grammatik asoslar — nutqiy malaka va kompetensiyani shakllantirishning poydevorini tashkil etadi. O‘quvchi bu komponentlarni mukammal o‘zlashtirmas ekan, kommunikativ kompetensiyaga erishish mushkul bo‘ladi.O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan tilni amaliy o‘rganish, ya’ni so‘zlash, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shunday ekan, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda lingvistik asoslarni chuqur o‘rganish zarur.

O`quvchilarning ingliz tilidagi nutqiy ko`nikmalarini rivojlantirishning lingvistik asoslari.

Nutq murakkab jarayondir, uni o‘rganishda va ifodalashda ko‘plab nazariy hamda amaliy

bilimlarga tayangan holda ish yuritish lozim. Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi yuqori sur’atdagi jarayon hisoblanadi. Bu jarayon aqliy faoliyat hisoblanadi va u nutqni tinglash qobiliyatini, o‘ylash, mulohaza qilish kabi psixologik mexanizmlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda tilning leksik, grammatik va fonetik jihatlarini o‘rganish hamda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq mahorati kundalik hayotda qo`llaniladigan til qobiliyatlaridan biridir. Nutq mahorati ikki jihatni o`z ichiga oladi: lingvistik jihat va nolingvistik jihatdan iborat. (1-jadval)

Lingvistik jihat	Nolingvistik jihat
1.Nutqning aniqligi	1. Munosabat.
2.Bosim, ohang, bo`g`inlar va davomiylik joylashuvi.	2.Taqlid qilish va ovoz balandligi
3.Diksiya	3. Ravonlik
4.Suhbat maqsadining aniqligi	4.Fikrlash

Nutq qobiliyatlariga ta`sir ko`rsatadigan ba`zi asosiy lingvistik omillar:

1.Fonologik ong.

2.Lug`at.

3.Grammatika va sintaksis.

4.Pragmatika.

1.Fonologik jihatdan-bu til tovushlarini tanib olish va boshqarish qobiliyati. Bu so`zlarni tshkil etuvchi alohida tovushlar yoki fonemalardan xabardor bo`lishni, shuningdek, so`zlar ichidagi tovushlarni aralashtirib, segmentlarga bo`lish va boshqarish kabi harakatlar orqali ushbu tovushlarni boshqarish qobiliyatini o`z ichiga oladi. Nutq ko`nikmalarini rivojlantirish uchun fonologik ongni rivojlantirish muhimdir.

Fonologik idrok o`qish va yozishni rivojlantirishning asosiy qobiliyatidir, chunki u o`quvchilarga tilning tovush tuzilishini tushunishga yordam beradi. Fonologik jihatdanning ba`zi bir tarkibiy qismlari mavjud. (2-jadval)



2-jadval. Fonologik jihatdan o`rganishning tarkibiy qismlari

1.Qofiyalash: qofiyadosh so`zlarni tanib olish va hosil qilish (masalan, cat –cap,map, run-fun, cry - dry …)

2.Alliteratsiya: bir xil tovush bilan boshlangan so`zlarni aniqlsh (masalan, big bear, busy bee, big bag, dirty desk, purple pencil…)

3.Aralashtirish: so`zlarni hosil qilish uchun alohida tovushlarni birlashtirish (masalan, /c/ /a/ /t/ = cat, /d/ /o/ /g/ =dog, /b/ /e/ /a/ /r/ =bear …)

4.Segmentatsiya: so`zlarni alohida tovushlarga ajratish (masalan, cat =/c/ /a/ /t/, bat = /b/ /a/ /t/, dog = /d/ /o/ /g/, bear =/b/ /e/ /a/ /r/…)

5.Manipulyatsiya qilish: so`zlar ichidagi tovushlarni o`zgartirish (masalan, cat /c/ ni /b/ = bat ga o`zgartirish).

Grammatika - gaplar tuzish uchun so`zlarni tuzilishi va tashkil etilishini tartibga soluvchi qoidalarni bildiradi. U so`z tartibi, fe`l zamoni, fe`l kelishigi, tinish belgilar haqida ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. To`g`ri grammatika aniq vq samarali muloqot qilish uchun muhimdir.

Sintaksis - tilda yaxshi tuzilgan gaplar yaratish uchun so`z va iboralarni joylashishini bildiradi. Jumla tuzilishini, so`z tartibini va jumla ichidagi nutqning turli qismlari o`rtasidagi munosabatni tushinishni o`z ichiga oladi. Sintaksis tilde ma`no va izchillik yetkazishga yordam beradi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida grammatikani o`qitish va o`rgatish uchun mashqlar qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalam bor o`quvchilarda grammatik ko`nikma hosil qilish orqali nutqiy potensiallarini o`stiriladi. Grammatik materiallarni mashq qilish orqali dastavval og`zaki matn tanlab olinadi va o`sha matnni taqlidiy, takroran aytish orqali mustahkamalanadi. Muallim: I see a cat. I can speak English.

Oquvchi: I see a cat too. I can speak English too.

Pragmatika tilning ijtimoiy qoidalarini: navbat berish va turli kontekslarda mos tildan foydalanishni anglatadi. Pragmatik ko`nikmalarni rivojlantirish samarali muloqot qilish hamda boshqalar bilan o`zaro munosabatda bo`lish uchun muhimdir. Boshlang`ich sinf o`quvchilari grammatika va sintaksis bo`yicha mustahkam poydevor yaratib, nutq ko`nikmalarini oshirishlari, yozish qobiliyatlarini yaxshilashlari va samarali muloqot qilishlari mumkin. Og`zaki va yozma muloqotda ravshanlik, izchillik va aniqlikka erishish uchun grammatika qoidalari va jumla tuzilishini tushunish va qo`llash juda muhimdir.

Xulosa

Ingliz tilidagi nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish fonetik, leksik, grammatik va pragmatik asoslarning uyg‘unligiga tayanadi. Til tizimini chuqur o‘zlashtirish o‘quvchining fikrni to‘g‘ri, ravon va madaniyatga mos tarzda ifodalashini ta’minlaydi.Lingvistik asosga tayanilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarni real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi hamda ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching.
4. Nunan, D. (1991). Communicative Tasks and the Language Curriculum.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘qitishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–5117-son qarori.
6. Jalolov, J. (2020). Chet tillar o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
7. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language.

IJTIMOIY TARMOQLARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI.

Amirova Nodira Shamshiyevna
Alfraganus Universiteti Psihalogiya PS-23-1 guruh talabasi**.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlari tahlil qilingan. Internet va raqamli kommunikatsiyalar zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangani bois, ularning shaxs ruhiy holati, o‘zini baholash darajasi hamda ijtimoiy munosabatlarga ta’siri keng o‘rganilgan. Maqolada yoshlar va kattalar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning psixologik oqibatlari, virtual muhitdagi muloqot xususiyatlari va “raqamli stress” tushunchasi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan ongli va sog‘lom foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.
Kalit so‘zla: ijtimoiy tarmoqlar, psixologik ta’sir, virtual muloqot, raqamli stress, o‘zini baholash, internet odatlari, shaxs ruhiy holati, kommunikatsiya, yoshlar psixologiyasi, onlayn muhit.

Kirish: Bugungi raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Har kuni millionlab foydalanuvchilar turli platformalarda muloqot qiladi, fikr almashadi va o‘z hayotidagi voqealarni boshqalar bilan baham ko‘radi. Shu jarayonda internet va virtual muloqot inson ruhiy holati, o‘zini baholash darajasi hamda ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi insonning kundalik hayotini o‘zgartirib, uning fikrlash uslubi, his-tuyg‘ulari va o‘zini ifoda etish shakliga ham ta’sir etmoqda. Ba’zi hollarda ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchiga motivatsiya, ma’lumot va ijobiy emotsiyalar manbai bo‘lsa, ayrim holatlarda u raqamli stress, ruhiy bosim yoki o‘zini past baholash kabi muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganish, ularning shaxs ruhiyatiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqola aynan shu yo‘nalishda olib borilgan tahlillar va kuzatuvlarga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning inson ruhiyatiga ta’siri psixologiya fanida keng o‘rganilayotgan mavzulardan biridir. Ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlar insonning emotsional holati, o‘zini baholash darajasi, motivatsiyasi va muloqot madaniyatiga ta’sir etishi qayd etilgan. Jumladan, G. Yusufova (2019) o‘z tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zini namoyon etish ehtiyoji kuchayishini, ammo bu jarayon ba’zan raqamli stress va tashvish holatlarini ham keltirib chiqarishini ta’kidlaydi. Shuningdek, V. Karimova (2017) tomonidan olib borilgan psixologik kuzatuvlarda virtual muloqot real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning o‘rnini to‘liq

bosa olmasligi, aksincha, ayrim hollarda yolg‘izlik hissini kuchaytirishi aniqlangan. Xorijiy manbalarda esa, internet odatlarining shakllanishi, yoshlar orasida vaqt boshqaruvining buzilishi va onlayn muhitga qaramlik kabi muammolar keng tahlil etilgan. Ushbu maqola tayyorlanish jarayonida tahliliy, taqqoslovchi va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Mavzu doirasida ilmiy maqolalar, psixologik tadqiqotlar va amaliy kuzatuv natijalari o‘rganildi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’siri bo‘yicha ayrim xulosalar shakllantirildi.

Natijalar: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish inson psixologiyasiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, foydalanuvchilarning bir qismi uchun ijtimoiy tarmoqlar axborot olish, do‘stlar bilan aloqa qilish va o‘z fikrini ifoda etish vositasi sifatida ijobiy rol o‘ynaydi. Bunday insonlarda virtual muloqot ijtimoiy faollikni oshiradi, o‘zini baholash darajasini mustahkamlaydi va emotsional qo‘llab-quvvatlash manbai bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ayrim foydalanuvchilarda ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish raqamli stress, hissiy charchoq va o‘zini past baholash holatlarini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, boshqalarning muvaffaqiyatlarini tez-tez kuzatish insonda solishtirish hissini kuchaytiradi, bu esa ruhiy bosimga olib kelishi mumkin. Yoshlar orasida internet odatlarining kuchaygani, vaqtni noto‘g‘ri boshqarish va real muloqotdan chetlashish holatlari kuzatilgan. Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan ongli va me’yorida foydalanadigan insonlar o‘z ruhiy holatini yaxshiroq nazorat qila oladi, raqamli stressga kamroq duch keladi va virtual muloqot bilan real hayot o‘rtasida muvozanatni saqlay oladi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar inson ruhiyatiga ikki yo‘nalishda — ijobiy va salbiy tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Ularning foydali tomoni shundaki, zamonaviy kommunikatsiya vositasi sifatida ular insonlarga axborot almashish, ijtimoiy faol bo‘lish, o‘zini ifoda etish va shaxsiy fikrini erkin bildirish imkonini yaratadi. Bu esa shaxsning o‘zini baholashini oshirish, ishonchni mustahkamlash hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, virtual muloqotning haddan tashqari ko‘pligi shaxsning ruhiy muvozanatini buzishi mumkin. Raqamli stress, internetga qaramlik, yolg‘izlik hissi va real hayotdagi muloqotdan chetlashish kabi holatlar inson psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yosh foydalanuvchilar orasida “ideal hayot” tasvirlariga ishonish, o‘zini boshqalar bilan solishtirish va o‘z qadrini past baholash kabi muammolar tez-tez uchraydi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish insonning kommunikativ salohiyatini oshiradi, yangi bilimlar olish va ijobiy aloqalar o‘rnatishga xizmat qiladi. Muhimi, foydalanuvchi o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi, internet odatlarini nazorat qilishi va onlayn muhit bilan real hayot o‘rtasida sog‘lom muvozanatni saqlashi zarur.

Xulosa: Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, ularning psixologik ta’siri har doim ham bir xil bo‘lmaydi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me’yorida foydalanish insonning o‘zini

ifoda etish, muloqot qilish va yangi bilimlar olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, ularni haddan tashqari ko‘p ishlatish raqamli stress, hissiy charchoq va o‘zini past baholash kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda psixologik madaniyatga ega bo‘lish, vaqtni to‘g‘ri boshqarish hamda onlayn va real hayot o‘rtasida sog‘lom muvozanatni saqlash muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlar inson uchun foydali vosita bo‘lishi uchun ularni ongli, mas’uliyatli va maqsadga muvofiq tarzda qo‘llash zarur. Ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ta’siri murakkab, ammo boshqariladigan jarayon bo‘lib, bu sohada psixologik savodxonlikni oshirish jamiyatning ruhiy salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva, S. (2020). *Psixologik barqarorlik va axborot muhitining ta’siri*. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Alimov, R. (2021). *Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta’siri*. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Jo‘rayev, A. (2022). *Zamonaviy kommunikatsiya vositalari va ularning psixologik ta’siri*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Karimova, D. (2019). *Raqamli davr va inson psixologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Tursunov, B. (2022). *Axborot texnologiyalari va jamiyat taraqqiyoti*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Yo‘ldosheva, M. (2023). *Virtual muloqotning ijtimoiy va ruhiy oqibatlari*. Namangan: Ziyo nuri.

SUG‘URTANING MOHIYATI, FUNKSIYALARI VA IQTISODIY TIZIMDAGI O‘RNI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Shukurova Sarvinoz Abdivaxobovna
G-mail: shukurovasarvinoz749@gmail.com

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorida infratuzilmaviy o‘zgarishlar va institutsional rivojlanish jarayonlari jadal sur’atlar bilan kechmoqda. Jumladan, sug‘urta faoliyatini amalga oshiruvchi professional ishtirokchilarning — ya’ni sug‘urta kompaniyalari, brokerlar, aktuarlar va tahlilchilar sonining ortib borishi bozor mexanizmlarining takomillashuvida muhim rol o‘ynamoqda. Bozor ishtirokchilarining son jihatdan ko‘payishi raqobat muhiti kuchayishiga olib kelib, sug‘urta kompaniyalarini xizmat ko‘rsatish sifati va iste’molchilarga bo‘lgan yondashuvni zamonaviy talablarga mos tarzda takomillashtirishga majbur qilmoqda. Ayniqsa, kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan sug‘urta xizmatlari sifati xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda va bu jarayonda ISO 9001:2015 kabi xalqaro sifat menejmenti tizimlarining joriy etilishi muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu tizimlar xizmat ko‘rsatishda tizimlilik, shaffoflik, mijozga yo‘naltirilganlik va uzluksiz takomillashuv prinsiplarini joriy etishga imkon yaratmoqda. Natijada, sug‘urta kompaniyalari mijoz ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini standartlashtirish va sifatni nazorat qilish tizimlarini kuchaytirish orqali xizmatlar samaradorligini oshirmoqda. Bozordagi bunday o‘zgarishlar nafaqat xizmat sifati, balki iste’molchilar ishonchi va bozorning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyotining ajralmas bo‘g‘ini sifatida sug‘urta sohasi har bir mamlakatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, aholining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini kuchaytirish hamda investitsion muhitni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu yo‘nalishda bosqichma-bosqich va tizimli islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda sug‘urta tizimining rivojlanish sur’atlari sezilarli darajada ortib, bu sohada sifat jihatdan yangi bosqich kuzatilmoqda. Davlat tomonidan sug‘urta bozorini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada sug‘urta infratuzilmasi rivojlanib, barqaror o‘sish tendensiyasi shakllanmoqda. Mazkur islohotlar zamonaviy, tizimli va raqobatbardosh sug‘urta bozorini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sug‘urta faoliyatining milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini yanada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoqda. Sug‘urta sohasi – bozor mexanizmlarining ajralmas elementi bo‘lib, u iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sanaladi. Milliy sug‘urta tizimining

rivojlanish istiqbollari hamda uning iqtisodiyotga tobora ortib borayotgan ta’siri yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ushbu soha mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy aloqalarning izchil faoliyat yuritishi va samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatida turli moliyaviy va ishlab chiqarish tavakkalchiliklariga duch keladi. Aynan ana shunday tavakkalchiliklarni kamaytirish va ularning salbiy oqibatlarini yumshatishda sug‘urta xizmatlarining ahamiyati beqiyosdir. Shu boisdan sug‘urta tizimining samarali faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakatimiz sug‘urta tizimida risklarni uzatish (risk transferi) mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, ushbu jarayonni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganish masalasi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot subyektlarining faoliyat erkinligi kengayib borayotgani, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishning yangi yo‘nalishlari o‘zlashtirilayotgani sug‘urta faoliyatida risk transferining nazariy-metodologik asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

1991 yilda O‘zbekistonning o‘z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo‘lga kiritishi hayotimizning barcha jabhalari qatorida sug‘urta sohasini ham bozor munosabatlari tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To‘g’ri, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotda ro‘y bergan keskin o‘zgarishlar qisqa muddat bo‘lsada pulning qadrsizlanishiga, pirovardida, aholi turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi [1].

Bunday sharoitda sug‘urta mexanizmlarining samarali ishlashi, risklarni to‘g‘ri baholash va ularni optimal tarzda taqsimlash tizimining rivojlanishi nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki milliy iqtisodiyotda xavf-xatarlarni kamaytirish hamda investitsion muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois sug‘urta faoliyatida risk transferining ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish, ularni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Sug‘urta jarayoni mohiyatiga ko‘ra, ma’lum bir to‘lov — sug‘urta mukofoti (badali) evaziga sug‘urtalanuvchi shaxs o‘zining mol-mulki, hayoti yoki sog‘lig‘i bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy zararlarni sug‘urtalovchiga (sug‘urta kompaniyasiga) o‘tkazadi. Bunda sug‘urta mukofoti riskni taqsimlashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, agar kutilmagan hodisa yoki sug‘urta holati yuz bersa, sug‘urtalovchi tashkilot zararni qoplash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Bu esa nafaqat sug‘urtalanuvchining moliyaviy manfaatlarini himoya qiladi, balki umuman olganda, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va jamiyatda xavfsizlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘lishi.

Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati uning risklarni boshqarish, zararlarni qayta taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi asosiy funksiyalari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Sug‘urta tizimi jamiyat a’zolari o‘rtasida iqtisodiy xavflarni teng taqsimlash va ularning oqibatlarini yumshatish orqali ijtimoiy adolatni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, sug‘urta fondlarini shakllantirish jarayoni mamlakat iqtisodiyotida investitsion resurslar manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, sug‘urta nafaqat alohida shaxslar va korxonalarning manfaatlarini himoya qiladi, balki butun iqtisodiy tizimning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sug‘urta iqtisodiy tizimning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, u risklarni boshqarish, zararlarni qayta taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Sug‘urta faoliyati orqali jamiyat a’zolarining moliyaviy manfaatlari himoya qilinadi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida barqarorlik va ishonchlilik vujudga keladi. Shu bilan birga, sug‘urta fondlarining shakllanishi milliy iqtisodiyot uchun muhim moliyaviy resurs manbai sifatida xizmat qiladi. Demak, sug‘urta tizimi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotda sug‘urta tizimini yanada rivojlantirish masalasi bugungi kunda eng muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri sanaladi. Chunki sug‘urta munosabatlarining kengayishi bo‘sh turgan moliyaviy resurslarning jamlanishiga, ularning faqat sug‘urtalash jarayonida emas, balki iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari va sohalariga investitsiya shaklida yo‘naltirilishiga imkon yaratadi. Natijada, ushbu jarayon mamlakatning

yetakchi tarmoqlari va iqtisodiy sohalarining barqaror o‘sishiga, shuningdek, umumiy iqtisodiy rivojlanishning jadallashishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.11.2021 y. O‘RQ-730-son "Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. ПлаховаТ.А. Учет страховых операций: Учебное пособие. М.: Финансовый университет, 2010. 136 с.
3. Федарова А.Т. ва бошқалар. Страхование (2-нашр). М.:Магистр, 2006. 251 б.;

O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Shukurova Sarvinoz Abdivaxobovna
G-mail: shukurovasarvinoz749@gmail.com

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlashda sug‘urta tizimi muhim o‘rin tutadi, chunki samarali faoliyat yurituvchi sug‘urta sektori moliya bozorining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyalari nafaqat aholining moliyaviy himoyasini ta’minlab, ularning turli tavakkalchiliklardan sug‘urtalanishiga imkon yaratadi, balki mamlakat iqtisodiyotida kapitalning to‘planishi va qayta taqsimlanishida ham bevosita ishtirok etadi.

Shu bilan birga, sug‘urta tizimi investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Sug‘urta mukofotlari hisobidan jamlangan mablag‘lar uzoq muddatli investitsiya manbai sifatida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltiriladi, bu esa ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va aholining daromadlari o‘sishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, O‘zbekistonda sug‘urta tizimining samarali faoliyati nafaqat moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash omili, balki iqtisodiy barqarorlik va investitsion salohiyatni kuchaytiruvchi muhim strategik vosita sifatida qaralishi lozim.

Bugungi kunda sug‘urta bozorida raqobatning kuchayishi, yangi kompaniyalar paydo bo‘lishi va mijozlar talabining ortib borishi kompaniyalardan yangicha boshqaruv va marketing yondashuvlarini talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Milliy sug‘urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash, sug‘urta xizmatlarining talab yuqori bo‘lgan yangi turlarini joriy etish, iste’molchilarning sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish kunning eng dolzarb masalasi bo‘lgan bir paytda sug‘urta xizmatlarini rivojlanishiga bir qancha omillarning salbiy ta’siri mamlakatimizdagi real voqelikni va unga xos xususiyatlarni hamda ilg‘or xorij tajribasini hisobga olgan holda sug‘urtalash sohasida innavatsion mexanizmni ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan tegishli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada esa, sug‘urta sohasining har bir potensial sug‘urtalanuvchilarini ushbu faoliyat turiga jalb etuvchanligini yanada oshirish orqali uning uzoq muddatli progressiv rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi lozim.

Raqobatbardoshlik — bu korxonaning bozor sharoitida o‘z mahsulotlari va xizmatlari orqali raqiblardan ustunlikka erishish, mijozlarning e’tiborini jalb etish hamda ularning ishonchini saqlab qolish qobiliyatidir.

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish sur’atlarini ko‘rsatmoqda. Bozor ishtirokchilari soni ortib, ularning faoliyati segmentlarga ajralmoqda: hayot sug‘urtasi, mol-mulk, sog‘liqni saqlash va transport sug‘urtasi yo‘nalishlari kengaymoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari soni 35 dan ortiq bo‘lib, ular orasida “Kafolat”, “O‘zbekinvest”, “Gross Insurance”, “Universal Sug‘urta”, “Kafolat-Hayot” kabi kompaniyalar yetakchi o‘rinda turadi.

Shunga qaramay, raqobat muhiti hali ham to‘liq shakllanmagan: ayrim kompaniyalar bozorda katta ulushga ega, qolganlari esa innovatsion xizmatlar va marketing yetishmovchiligi sababli sust rivojlanmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshlikni oshirish omillari va strategiyalarini oshirish yo‘llari qo‘yidagilardan iborat.

Kapital bazasini kuchaytirish va kapital yetarliligi. Hozirgi va yaqin kelajakda sug‘urta kompaniyalariga qo‘yilayotgan minimal ustav kapitali normativlarini oshirish orqali, kichik va zaif kompaniyalarni bozor ichida ham raqobatbardosh produktsiya va xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan holatga o‘tkazish. Moody’s ma’lumotiga ko‘ra, majburiy sug‘urta bozorida ishtirok etayotgan sug‘urtalovchilarning minimal ustav kapitali yaqin yillarda oshiriladi[1]. Qayta sug‘urtalash (reinsurance) tizimini rivojlantirish: katta risklar to‘planayotgan yo‘nalishlarda sug‘urtalovchilar tomonidan o‘z zimmasidagi risklarni qayta sug‘urtalovchilarga uzatish imkoniyatini kengaytirish. Bu sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyatini va barqarorligini oshiradi2.

Risk menejmentini takomillashtirish. Underwriting siyosatini ilg‘or metod va standartlar asosida yangilash: risklarni baholash, tarif va shartnomalarni tuzishda sifatli aktuarial hisob-kitoblar, statistik tahlillar va prognozlash vositalaridan foydalanish. Portfellarni diversifikatsiyalash: mahsulotlar, geografik maydon, risk turlari bo‘yicha portfellarni diversifikatsiyalash orqali katta yo‘qotishlardan himoyalanish. Ichki nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish, risklarni monitoring qilish va stress-testlar o‘tkazish.

Innovatsiyalar va raqamlashtirish. Mahsulotlar va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish: onlayn sug‘urta polislari, mobil ilovalar, veb-platformalar orqali sug‘urta so‘rovnomalari va da’volarni (claims) boshqarish, avtomatlashtirish. Masalan, TBC Sug‘urta tomonidan hayot sug‘urtasi onlayn xizmatlari joriy etilishi va qisqa muddatda polislari soni sezilarli darajada oshgani misol bo‘la oladi.[3] Yangi texnologiyalar: ma’lumotlar analitikasi, sun’iy intellekt, blokcheyn yoki smart shartnomalar, big data, IoT (Internet of Things) kabi vositalar orqali risk bashoratini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish jarayonini soddalashtirish va

[1] Moody’s. *Uzbek Insurance companies face growth slowdown and profit pressure*. UzDaily, 2024.
[2] Baxramjon Kamilov. *O‘zbekiston sug‘urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtaning roli*. “Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot”, Vol. 1, No. 6, 2023.
[3] “Uzbekistan’s Insurance Market: Growth, Innovation, and Privatization”. Kiaifund, 2025. (KiAI – Global Insights)

tezlashtirish. Innovatsion mahsulotlar: hayot sug‘urtasi, sog‘liq sug‘urtasi, mikro-sug‘urta, ijtimoiy sug‘urta yo‘nalishlarida yangi takliflarni ishlab chiqish.

Mamlakatda aholining bandligini ta’minlash, daromadlarini ko‘paytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida sug‘urta munosabatlarining rivojlanish darajasi muhim ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Sug‘urta tashkilotlari sonining ko‘payishi tadbirkorlik subyektlariga kengroq tanlov imkoniyatini yaratadi, sug‘urta xizmatlari sifati oshib, sug‘urta bozorida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash jarayonida unga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillarni guruhlash hamda ularning asosiy jihatlarini tahlil etish muhim o‘rin tutadi (1-rasm).

Tashqi omillar	
Bevosita ta’sir etuvchi	***Bilvosita ta’sir etuvchi***
Sug‘urta kompaniyalar faoliyatini davlattomonidan tartibgasolish	Tashqi, ichki iqtisodiy vasiyosiy vaziyat
Soliq, valyuta, kredit va bojxona siyosat	Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning darajasi
Korporativ tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaromoliyaviy munosabatlar	Moliya bozori konyunkturasining rivojlanish holati

Ichki omillar	
Bevosita ta’sir etuvchi	***Bilvosita ta’sir etuvchi***
Mijozlar sonining miqdori, rivojlanganligi va barqarorligi	Kompaniyaning umumiy strategiyasi
Kompaniyaning faoliyat hajmi va ixtisoslashuvi	Sug‘urta portfelining diversifikatsiyalashuvi va sug‘urta xizmatlarning miqdori
Zamonaviy risk menejmentini rivojlanganlik darajasi	Xususiy kapital va sug‘urta zaxiralarining miqdori

1-rasm. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarning tasnifi[4]

[4] Haqberdiyev Bekzod “O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llari”, “MUHANDISLIK VA IQTISODIYOTJURNALI” ilmiy jo‘rnal, 2024 yil, noyabr, 4-son, https://zenodo.org/records/14541336

Har bir sohaning moliyaviy barqarorligiga turlicha omillar ta’sir ko‘rstadi, xususan, sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga esa ta’sir etuvchi faktorlar ikkiga bo‘linadi, tashqi va ichki omillar. Sug‘urta bozorining jadal rivojlanib borishida kompaniyalarning faoliyati muhim sanaladi, bundan tashqari jamiyatning sug‘urta sohasiga bo‘lgan munosabatida ham aks etadi, shuningdek, ularning moliyaviy barqarorligini uzoq muddat ichida ushlab turish esa ta’sir etuvchi omillarni baholash va risklarni minimallashtirish bilan bog‘liq mexanizmlarni yaratishga qaratilgan.

Sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi uchun muhim shartdir. O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda o‘sib bormoqda, lekin raqobatbardoshlik va barqarorlik yo‘lida hali ko‘plab muammolar bor. Yuqoridagi strategiyalarni amalga oshirish orqali sug‘urta kompaniyalari nafaqat bozordagi o‘rnini mustahkamlashi, balki xalqaro standartlarga mos, innovatsiyalar bilan boy, iste’molchilarga sifatli xizmat ko‘rsatadigan tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Moody’s. *Uzbek Insurance companies face growth slowdown and profit pressure*. UzDaily, 2024.
2. Baxramjon Kamilov. *O‘zbekiston sug‘urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtaning roli*. “Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot”, Vol. 1, No. 6, 2023. yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
3. “Uzbekistan’s Insurance Market: Growth, Innovation, and Privatization”. Kiaifund, 2025. (KiAI – Global Insights)
4. Haqberdiyev Bekzod “O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llari”, “MUHANDISLIK VA IQTISODIYOTJURNALI” ilmiy jo‘rnal, 2024 yil, noyabr, 4-son, https://zenodo.org/records/14541336

MO‘MİYONİNG SHİFOBAXSH HUSUSİYATLARİ

Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi 3-kurs talabalari
Bahodirova Mohichehra
Pardayeva Munavvar

Annotatsiya: Mo‘miyo Sharq tabobatida bundan bir necha ming yilla burun ma’lum bo‘lgan va o‘sha zamonlardan beri turli kasalliklarni davolashda ishlatib kelinadi. Hozirgi kunda ham xalq tabobatida keng ravishda ishlatiladi
Ushbu maqoladan mo‘miyoning foydali hususiyatlari va qo‘llanish usuli haqida malumot beramiz.
Kalit so‘zlar: davolash, kamqonlik, suyak xastaliklari, bronxial asma, mo‘miyo.
Аннотация: Мумие известно в восточной медицине уже несколько тысяч лет и с тех времён используется для лечения различных заболеваний. В настоящее время оно также широко применяется в народной медицине.
В данной статье мы расскажем о полезных свойствах мумие и способах его применения.
Ключевые слова: лечение, анемия, заболевания костей, бронхиальная астма, мумие.
Annotation: Mumiyo has been known in Eastern medicine for several thousand years and has been used since ancient times to treat various diseases. Even today, it is widely used in folk medicine.
In this article, we provide information about the beneficial properties of mumiyo and its methods of application.
Keywords: treatment, anemia, bone diseases, bronchial asthma, mumiyo.

Kirish: Afsonalarga ko‘ra, osmono‘par qorli tog‘larda ulkan tosh odamlar yashar ekan. Ular yig‘laganda, tog‘ bag‘riga yumalagan ko‘z yoshlari qotib, dunyodagi barcha kasalliklarga davo shifobaxsh balzamga aylanar ekan. Ulkan odamlarning ko‘z yoshlarini ko‘rish hammaga ham nasib qilmas, ammo uni topib olgan kishi dunyodagi eng sog‘lom va kuchli insonga aylanar ekan.
Miloddan avval yashab o‘tgan Arastu mo‘’jizaviy mo‘miyoning shifobaxsh xususiyatlarini batafsil tasvirlagan va uni tug‘ma karlikda, burundan qon ketishida davo sifatida tavsiya qilgan. Abu Bakr Robiy al-Buxoron bu ajoyib malhamni mukammal davolovchi vosita deb atagan. U mo‘miyoni asal bilan birgalikda qo‘llash tibbiyotda mo‘’jiza yaratadi degan.

Mo‘miyoni to'rtta asosiy navi mavjud:

1.Oltin mo'miyo (u rang diapazonida farq qiladi - qorong'u to'q sariqdan bordovgacha).

2.Kumush (sutli rangga ega).
3.Mis (quyuq ko'k yoki mayiz palitrasi ko'rinishini zararsiz).
4.Temir - ko'pincha sodir bo'ladi. Qora va jigarrang ranglarga bo'yalgan.
Mo‘miyo dunyoning turli joylaridagi tog‘larning, ayniqsa, Osiyo tog‘larining qoyalaridagi toshlar yorig‘laridan oqib chiqib, qotadi. U, asosan, O‘rta Osiyo, En, Afg‘oniston, Xitoy, Tibet, Hindis-ton, Nepal, Birma, arab mamlakatlari va boshqa davlatlardagi tog‘larda ko‘p uchraydi.
Mo‘miyo tog‘larning g‘orlaridagi mumiyoli toshlardan qirib yig‘iladi yoki mumiyoli toshlardan maxsus usul yordamida tozalab olinadi. Mo‘miyo qadim zamonlardan ma’lum bo‘lib, turli kasalliklarni davolashda ishlatib kelingan. Mo‘miyo 20-30 ga yaqin mikro va makroelementlar, oqsil va 18 aminokislota vitaminlar, efir moylari, gormonlardan tashkil topgan murakkab tabiiy balzam.
Mo‘miyoning qora rangdagi, sirti yaltiroq, yengil neft hidlisi eng yaxshisi deb hisoblanadi.
Mumiyo tarkibiga kiruvchi organik va anorganik moddalar yig‘indisi organizmda modda almashinuviga mo‘tadil biologik tas’ir qilib, odamga quvvat bag‘ishlaydi. Organizmda kechayotgan tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi.
Tabiblar mo‘miyoni hali ham ming dardga davo deb bilishadi. Sharq xalqlari mo‘miyoni ko‘pgina kasalliklarni davolaydi deb qattiq ishonadilar.
Mo‘miyo qadimdan, asosan, singan va chiqqan suyaklarni davolashda singan joyni bitishini tezlatuvchi vosita sifatida qo‘l-lanadi. Shu sohada respublika tibbiyot amaliyotida mo‘miyo dorivor preparatlarini ishlatishga O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi ruxsat berdi.

Asosiy qism: Mo‘miyoni qo‘llar usullari:

1.Suyak-bo‘yin xastaliklarida. Suyak kichik singanda, bo‘g‘im chiqqanda, mushaklar lat yeganda va uzilganda 0,1-0,5 g.dan 2 mahaldan ovqatdan oldin (nahorda va uyqudan oldin) 25-30 kun ichish tavsiya etiladi. 10 kun ichib, 5 kun dam beriladi.

2.Katta suyaklar (son va boldir) singanda, suyak chiqqanda, to‘qimalar lat yeganda mo‘miyoni 2–5 foizli suvdagi yoki 40 foiz spirtdagi eritmasini surish yoki bog‘lash mumkin. Umuman suyaklar singanda mo‘miyo bilan birga tuxum po‘chog‘ini quritib, tolqon qilib, 0,5 g.dan 3 mahal ichiladi.

3.Parodantoz kasalligida mo‘miyo 0,2 g.dan 1-2 mahal (nahorga yoki uyqudan oldin) 25-28 kun davomida ichiladi, hamda 5-10 foiz eritmasidan har kuni kechqurun dokani ho‘llab, milkka qo‘yiladi (10-15 kun).

4.Mo‘miyoni 1-5 foizli distillangan suvdagi yoki qaynatilgan suvdagi eritmasi bilan kuygan yer yoki yaralar yuviladi yoki 1-5 foizli mumiyo malhami bilan yarani yiringdan tozalab surtiladi.

5.Periferik nerv tolalari yallig‘lanishi, pleksit, radikulit, nevralgiya, neyrodermit kasalliklarida mumiyoning 5-10 foiz spirtdagi eritmasi 20 kun davomida surtiladi, hamda 0,2 g.dan ichiladi.

6.Ichki va o‘rta quloq yiringi tufayli eshitish pasayganda mumiyoni 1:10 nisbatda shaftoli, o‘rik, zaytun moyiga aralashtirib, ertalab va kechqurun 2 tomchidan tomiziladi. Ayni vaqtda 0,2-0,3 gramm sut yoki asalga qo‘shib kuniga ichish quloqdan yiring oqishini va yallig‘lanishini to‘xtatishini tezlashtiradi.

7.Bola duduqlanganda mo‘miyoni 1:10 yoki 1:20 nisbatida asal bilan aralashtirib, 4-6 oy mobaynida bir choyqoshiqdan 2 mahal ichish tavsiya etiladi (ertalab va kechqurun).

8. Bronxial astmada bemor vazniga qarab 0,2-0,5 g. Dan kuniga 2 mahal (nahorda va uyqudan oldin) suv yoki sut bilan 25-30 kun ichish tavsiya etiladi.

9.Yuqori nafas yo‘llari kasalliklari, ayniqsa, allergik tabiatdagi yallig‘lanishlarda mo‘miyo 0,2-0,3 g.dan sut yoki mol yog‘iga qo‘shib, kuniga 2 mahal (nahorda va uyqudan oldin), 25-28 kun ichiladi

10.Nurdan zararlanganda mo‘miyo 0,1-0,2 g.dan 2 mahal 25-30 kun ichiladi.

11.Kamqonlik (anemiya)da mo‘miyoni 0,2 g.dan 10 kun davomida ertalab va kechqurun suvda eritib ichiladi, so‘ngra 5 kun dam berib, yana davolash kursi takrorlanadi.

12.Teridagi ajin-burishlarni yo‘qotish, kamaytirish uchun mo‘miyoni 10 foiz malhamini uzoq vaqtgacha surtib yurish kerak.

Qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar.

Mo‘miyo spirtli ichimlik ichganda, tamaki mahsulotini iste’mol qilganda aslo mumkin emas. Chunki ular organizmda parchalanish jarayonini tezlashtirib, shifobaxshli xususiyatini yo‘qotadi. Me’da-ichagi, qizilo‘ngachi va bavosilidan qon ketayotgan bemorlarga mo‘miyo tavsiya etilmaydi. Chunki mo‘miyo qon oqishini kuchaytirib, bemor ahvolini og‘irlashtirishi

mumkin.

Xulosa: Shunday qilib, mumiya inson uchun tabiatning bebaho mahsulotidir. U an'anaviy tibbiyotning barcha sohalarida qo'llaniladi. 2000 yildan boshlab, Sog'liqni saqlash vazirligi mushakni tabletka shaklida og'izdan qabul qilish uchun umumiy restorativ sifatida tavsiya qildi. Shunday qilib, rasmiy tibbiy mineral moddalarni chora sifatida tan oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guvohnoma: №1040. Berilgan sanasi: 24.09.2019-yil. Muassis: “High Networks” MChJ. Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mavlono Riyoziy ko'chasi, 31A uy, 20 xonadon
2. https://www.medicalnewstoday.com
3. Abu Ali ibn Sino. “Tib qonunlari.” – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
4. Jalilov, B. “Mo‘miyo – ming dardga davo.” // Tibbiyot va sog‘lom turmush jurnali, №3, 2021.
5. Karimov, A. “Sharq tabobatida mo‘miyoning o‘rni va ahamiyati.” – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018

ROZMARİNNİNG TABİATDA TARQALİSHİ VA TİBBİYOTDAGİ AHAMİYATİ.

Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi 3-kurs talabalari
Bahodirova Mohichehra
Pardayeva Munavvar

Annotatsiya: Rozmarindan qadim zamonlarda dorivor vosita sifatida foydalanishgan. Uning foydali xususiyatlari to’g’risida har bir xalqda turlicha qarashlar bo’lgan: rimliklar uni xotirani yaxshilaydi deb hisoblashsa, greklar uning yordamida yaralarni davolashgan, xitoyliklar esa uning yordamida bosh og’rig’idan xalos bo’lganlar.
Ushbu maqolada rozmarining tibbiyotda qo‘llanilishi haqida malumot beramiz.
Kalit so‘zlar: efir moyi, qon bosimi,shamollash,bosh og‘rig‘i,rozmarin.
Аннотация: Розмарин с древних времён использовался как лекарственное средство. В разных народах существовали различные представления о его полезных свойствах: римляне считали, что он улучшает память, греки лечили с его помощью раны, а китайцы избавлялись от головной боли.
В данной статье приведены сведения о применении розмарина в медицине.
Ключевые слова: эфирное масло, кровяное давление, простуда, головная боль, розмарин.
Annotation: Since ancient times, rosemary has been used as a medicinal remedy. Different nations have had various views about its beneficial properties: the Romans believed it improved memory, the Greeks used it to heal wounds, and the Chinese used it to relieve headaches.
This article provides information about the use of rosemary in medicine.
Keywords: essential oil, blood pressure, cold, headache, rosemary.

Kirish: Rozmarin (Rosmarinus) — labguldoshlar oilasiga mansub o‘simliklar turkumi, efir moyli ekin. O‘rta dengiz havzasida 1—3 turi usadi. Doim yashil buta. Bo‘yi 1,5–2 m cha. Bargi va to‘pgulidan efir moyi olinadi. Asosan, Yevropa mamlakatlarida, shuningdek, Qrim va Kavkazda o‘stiriladi. Qalamchasidan, kamdankam urug‘idan ko‘paytiriladi. 2—3 yillik ko‘chatlari ekiladi. Ekilgandan keyin 2—3yildan boshlab bargi va to‘pguli yig‘ib olinadi. Hosildorligi 40—120 s/ga. Bargi va to‘pguli tarkibida parfyumeriya va tibbiyotda ishlatiladigan 1,5 — 2,5% (quruq moddaga nisbatan) efir moyi, 0,5% gacha rozmaritsin va boshqa alkaloidlar, ursol va rozmarin kislotalari bor.
Hozirgi zamon olimlari rozmarinni o’rganib quyidagi xusisytalarini o’rganib chiqishgan: u o’zida juda ko’p miqdordagi efir moylarini, A va C guruh vitaminlarini, kaliy, kalsiy va natriyni saqlaydi. Rozmarinning quyidagi xususiyatlari ilmiy tasdiqlangan:
U bosh, qorin va muskullar og’rig’ida yordam beradi;

Revmatizm, radikulit va fibromialgiyada yordam beradi;
Spazmda yordam beradi;
Oshqozon buzilganida ham yordam beradi;
Qon bosimi oshishini oldini oladi;
Mikrob va zamburug’larga qarshi kurashadi;
Antioksidant vositasini bajarib, miyadagi qarilik belgilari paydo bo’lishini sustlashtiradi.
Qanday rozmarin yaxshiroq hisoblanadi: yangi uzilganmi yoki quritilganmi
Bozor yoki supermarketlardan rozmarin xarid qilayotganingizda iloji bo’lsa yangi uzilganidan xarid qiling, chunki:
Birinchidan, u yumshoq va to’yingan ta’mda;
Ikkinchidan, quritilgan rozmarinni qanday sharoitda quritilganini bilmaysiz.
Quritilgan rozmarin o’tkir hidda bo’lib, yangi uzilganidan keskin farq qiladi. Shi sabab ham siz quritilgan rozmarindan ishlatmoqchi bo’lsangiz, unda haddan ziyod solmaslik yodingizdan chiqmasin. Shuningdek rozmarinni quritish jarayonida ba’zi bir efir moylari parchalanib ketadi.
Rozmarin – yangi uzilgan holatda ham, quritilgan holatda ham ishlatiladigan xushbo’y o’tdir.
Rozmarinni to’g’ri tanlash va saqlash
Sifatli rozmarin barglarida hech qanday dog’lar va yoriqlar bo’lmasligi, barglari osilib qolmagan bo’lishi lozim.
Rozmarinni sovutgichda to’g’ri saqlasangiz, u bir oygacha o’z sifatini yo’qotmaydi:
Birinchi usul: rozmarinni pergament qog’ozga o’rab, suvpurkagich bilan yaxshilab suv sepamiz va yelim xaltaga solib, sovutgichda saqlaymiz;
Ikkinchi usul: qo’l sochiq olib, uni namlaymiz va ichiga rozmarinni solib, o’raymiz. Sovutgichda saqlab, sochiqni vaqt-vaqti bilan namlab turamiz.
Asosiy qism: Rosemaryning sog’liq uchun foydalari
Rosemary yog’i sog’liq uchun foydali bo’lgan eng mashhur efir moylaridan biridir. Yillar davomida u tobora muhim va mashhur bo’lib bormoqda, chunki uning turli xil sog’liq uchun foydalari, jumladan, soch o’sishini rag’batlantirish, aqliy faollikni oshirish, nafas olish muammolarini bartaraf etish va og’riqni kamaytirish qobiliyati tushuniladi.
Rosemary yog’i teriga ta’sir qiladi
Bibariya efir moyi kuchli qisqarishi, bo’shashgan terini qattiqlashtiradi, lekin bibariya yog’i ham tiqilishi, vaziyatning shishishini kamaytirishdir; kepekni yaxshilash va soch o’sishini rag’batlantirish.
Rosemary yog’i psixologik ta’sirga ega
Rosemary yog’i – miya hujayralarini faollashtiradi, ongni tozalaydi, xotirani kuchaytiradi; bibariya yog’i kuchlanish, turg’unlik ko’ngil aynishi va uyquchanlik yaxshilash mumkin; bibariya yog’i odamlarni baquvvat qiladi, ongni kuchaytiradi, kuchaytiradi va ogohlantiradi.
Rosemary yog’i fiziologik ta’sirga ega

Rosemary normal qon bosimini tiklashi mumkin, anemiya konditsioner ta’siri ham juda yaxshi; o’ng o’pka bibariya yog’i shamollash, astma, surunkali bronxit va grippni yaxshilashga yordam beradi.

Xalq tabobatida o‘simlikning yer ustki barglari va yosh poyalaridan tayyorlangan damlama va spirtdagi eritmalari (nastoykasi) bosh og‘rig‘i, oshqozon – ichak kasalliklari, shamollashda, ayollarda uchraydigan ayrim xastaliklarni davolashda ijobiy naf beradi. Shu bilan birga organizmni tetiklashtirib, quvvat bag‘ishlash xususiyatiga ham ega.

Barglarida o‘ziga xos **xid** va **tam** berganligi sababli rozmarin go‘shtli mahsulotlarni pishirishda va ularni uzoq vaqt saqlashda ziravor sifatida ham qo‘llaniladi. Konditer mahsulotlariga qo‘shib tayyorlanganda o‘ziga xos ta’m va maza beradi. O‘simlik qish mavsumida ham barglarini to‘kmasligi va o‘ziga xos hid tarqatib turishini hisobga olgan xolda u park va xiyobonlar, xovli va dam olish maskanlarida manzarali buta sifatida o‘stiriladi.

Aqlni tinchlantirish tadqiqotga ko’ra, rozmarin kislotasi kukuni xavotirni kamaytiradi va xotirani yaxshilaydi. Rosmarin kislotasi hidlari miya qanday ishlashida va oxir-oqibat o’zingizni qanday his qilishingizda katta rol o’ynaydi. SPA bilan shug’ullanganingizda, aromaterapistlar ko’pincha bibariyani taklif qilishadi.

Immunitetni oshirish Bibariya hidi bevosita miya va inson tanasining bir qismiga ta’sir qiladi. Bibariya surunkali stressning oldini oladi, qon bosimini pasaytiradi, kattalardagi unutuvchanlikni kamaytiradi va inson immunitetini mustahkamlaydi. Shunday qilib, bibariya bilan bog’liq mahsulotning ko’plab sog’lig’ini ko’rishingiz mumkin.

Toza havo Odamlar ofisda o’tirganlarida, ular binolarda qayta ishlangan havoni his qilishlari mumkin va yopiq ish joylari juda zararli bo’lishi mumkin. Odamlar kayfiyatni ko’tarish va havoni tozalash uchun havo tozalagichlar va tabiiy aromaterapiyalardan foydalanishni xohlashadi.

Xushbo’y hid berish

Odamlar Rosmarin kislotasi kukunidan foydalanadilar, bizning ovqatlarimizni yanada sog’lom (va mazali ham) qilishlari mumkin. Biz biftek pishirganimizda, biz bir oz rozmarin kukunini olamiz va uni barmoqlarimiz bilan sindirib, biftek ustiga qo’yamiz va yana o’sha yoqimli yog’ni surgan joyga suramiz. Shunday qilib, yog ‘erib ketganda, u atrofida bibariya amaki bilan eriydi va juda ajoyib hid!

U ziravorlar va ziravorlar sifatida ishlatilishi mumkin. Makaron, pitsa, soslar va güveçlarni tayyorlashda go’shtning kuchli hidini kamaytirish va taomning ta’mini yaxshilash uchun qo’shilishi mumkin. Yog’ni kamaytirish va taomni yangi va mazali qilish uchun uni salat, salat sousi va baliq sho’rvasiga qo’shish mumkin.

Rozmarinning salbiy tomonlari:

Rozmarin ziravor sifatida kam miqdorda ovqatlarga, choy va limonadlarga solishga yaxshi bo’lib, me’yoridan ortiq iste’mol qilinganda esa, ovqat hazm qilish tomonidan

muammolarning kelib chiqishiga, bosh og’rig’iga va qon bosimining ko’tarilishiga sababchi bo’lishi mumkin. Quyidagi insonlar esa undan juda kam miqdorda tanovvul qilishlari kerak:
Homilador ayollar;
Kron kasalligi, oshqozon yarasi va qorin sanchishi kasalliklaridan aziyat chekuvchi insonlarga;
Gipertoniya kasalligiga duchor bo’lgan kishilarga.

Xulosa: Rozmarin o‘simligi qadimdan buyon tabobatda, xususan, xalq tibbiyotida muhim o‘rin tutib kelgan. Uning tarkibidagi efir moylari, vitaminlar va foydali mikroelementlar inson salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Rozmarin bosh og‘rig‘i, shamollash, revmatizm, oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi kabi holatlarda samarali yordam beradi. Shuningdek, u mikrob va zamburug‘larga qarshi tabiiy vosita sifatida qo‘llaniladi, qon bosimini me’yorda ushlab turadi hamda immunitetni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, rozmarin — tibbiyot, oziq-ovqat va go‘zallik sohalarida foydali, tabiat in’om etgan noyob o‘simliklardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.© gujum.uz | Ma’naviy-ma’rifiy, tibbiy-ijtimoiy axborot portali. “Sog‘lom ona va bola” ayollar va yoshlarni qo‘llab quvvatlash nodavlat notijorat tashkiloti
2.Губанов, И. А. (2011). Фармакогнозия [Farmakognoziya]. – Moskva: Медицина.
3.Sodiqov N. O‘simliklar kimyosi va farmakologiyasi. – Toshkent: “Tibbiyot nashriyoti”, 2020.
4.Xudoyberdiyeva D. Sharq tabobatida dorivor o‘simliklardan foydalanish. – Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2021
5.www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali.

ALOE VERANİNG AJOYİB HUSUSİYATLARİ.

Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi 3-kurs talabalari
Bahodirova Mohichehra
Pardayeva Munavvar

Annotatsiya: Aloe vera – aloe jinsiga mansub suvli o’simlik turi. U keng tarqalgan va dunyoning ko’plab mintaqalarida invaziv tur hisoblanadi. Doim yashil ko’p yillik o’simlik, Arabiston yarim orolidan kelib chiqadi, lekin dunyoning tropik, yarim tropik va qurg’oqchil iqlimida yovvoyi holda o’sadi.
Ushbu maqolada aloening ajoyib hususiyatlari haqida ma’lumot beramiz.
Kalit so‘zlar: yallig‘lanish, immunitet, saraton, surtma, teri, aloe vera.

Kirish: Aloe — loladoshlar oilasiga mansub, ko‘p yillik doim yashil o‘simlik bo‘lib, tropik va subtropik mintaqalarda o‘sadi. Uning sersuv, qalin va tikanli barglari shifobaxsh hisoblanadi; sharbatidan yaralar, kuyishlar, gastritni davolashda, shuningdek, kosmetika va immunitetni mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi. Aloe tarkibida vitaminlar, mineral tuzlar, aminokislotalar, antioksidantlar va flavonoidlar mavjud bo‘lib, u yallig‘lanishga qarshi, bakteritsid, tiklovchi va qon aylanishini yaxshilovchi xususiyatlarga ega.
Tashqi ko‘rinishi va xususiyatlari:
Aloe qisqa poyali, ko‘pincha tikanli, qalin va sersuv bargli bo‘ladi. Barglarining ichida 99,5% suv bo‘lgan salqin va tinchlantiruvchi jel mavjud. Aloe kuchli antioksidant, tetiklantiruvchi va namlovchi xususiyatlarga ega.

Asosiy qism:

Qo‘llanilishi: Suyuq ekstrakt: Ko’z kasalliklari va surunkali artritni davolashda ishlatiladi.

Surtma va emulsiyalar: Teri kasalliklari, kuygan joylar va yaralarni davolash uchun ishlatiladi.

Sharbat: Oshqozon-ichak kasalliklarini davolash va immunitetni oshirish uchun ichiladi.

tibbiyotda: Yaralarni bitkazish, kuygan terini davolash va yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi.

Oshqozon-ichak tizimi muammolarini, jumladan, gastrit va ich qotishini oldini olishga yordam beradi.

Organizmni mustahkamlash va immunitetni oshirishda qo‘llaniladi.

Hazm tizimini qo’llab-quvvatlash: Ichak va oshqozon-ichak traktini yaxshilaydi, ich qotishini oldini oladi va ovqat hazm qilish jarayonini rag’batlantiradi.

Yallig’lanishga qarshi va antibakterial ta’sir: Kuchli yallig’lanishga qarshi xususiyatlari tufayli turli yallig’lanishlar va mikroblarga qarshi kurashadi.

Immunitetni mustahkamlash: Organizmni turli kasalliklardan himoya qiladi va immunitet tizimini qo’llab-quvvatlaydi.

Qon shakarini nazorat qilish: Qon shakarining normal darajada saqlanishiga yordam berishi mumkin.

Og’riqni qoldirish: Og’riqni kamaytiradi, ayniqsa kuyish va tirnash xususiyati beruvchi holatlarda.

Yurak qon tomir sog‘lig‘ini himoya qiladi, aytishlaricha aloe vera davolash usuli yurak-qon tomir sog’lig’ini himoya qilishda juda foydali. Aloe vera qon oqimini tezlashtirish xususiyatiga ega bo’lganligi sababli, u qon tomirlarining tiqilib qolishining oldini olishga ham yordam beradi. Bu xususiyat tufayli qon tomirlari va yurak sog’lig’ini himoya qilishga yordam beradi va tanadagi kislorod aylanishining sog’lom darajaga yetib borishini va muvozanatni saqlashni ta’minlaydi.

Saraton o‘smalari bilan kurashadi! Aloe vera o’simligi muntazam foydalanishda saraton o’smalarining shakllanishiga to’sqinlik qilishi mumkin. Ba’zi tadqiqotlarda, aloe vera choyi muntazam ravishda iste’mol qilinganida saraton o’smalarining o’sishini oldini olishi aytilgan. Xuddi shunday, aloe vera choyini muntazam iste’mol qilish saraton rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Ovqat hazm qilish tizimi uchun foydali! Aloe vera muntazam ravishda iste’mol qilinsa, u ichak va ovqat hazm qilish tizimiga juda ijobiy ta’sir ko’rsatadi. U gemorroy va ich qotishi kabi ichak muammolarini oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, u oshqozon va buyrak salomatligini himoya qilishni qo’llab-quvvatlaydi.

Kasmetologiya: Terini yangilaydi, tarang va yumshoq bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyoshdan himoya qiluvchi va oftob urishini davolovchi mahsulotlarda ishlatiladi.

Shampunlar, niqoblar va soch balьzamlari tarkibiga kiradi.

Go‘zallik uchun foydalari: terini tiklash Teridagi yaralar, kuyishlar va turli kasalliklarni davolashga yordam beradi, terini namlaydi va yangilaydi.
Soch va tirnoqlarni mustahkamlash: Soch to’kilishini oldini oladi, sochlarni oziqlantiradi va mustahkamlaydi.
Yuzni tiniqlashtirish: Yuzga tiniqlik va yoshlik baxsh etadi, teridagi ajin va toshmalarni kamaytirishga yordam beradi.
Xolisterin bilan kurashadi: Aloe vera yomon xolesterin bilan kurashadigan o’simlikdir. U yuqori xolesterolni kamaytiradi va xolesterin miqdorini muvozanatda saqlashga yordam beradi. Bu ta’sirga aloe vera yoki aloe vera choyi o’z ichiga olgan aralashmalarni muntazam ravishda iste’mol qilish orqali erishish mumkin.
U terini namlaydi: Aloe vera yuqori namlovchi xususiyatlarga ega. Shu sababli, aloe vera geli yoki tozalash vositalaridan tayyorlangan niqoblar va aloe vera o’z ichiga olgan sovunlar muntazam foydalanilganda terining namlik muvozanatini himoya qiladi. Bundan tashqari, quruqlikdan kelib chiqqan qizarish va qobiq kabi muammolarni oldini oladi. U namlovchi ta’siri bilan terining sog’lom ko’rinishiga ega bo’lishingizga yordam beradi.
Qarishni kechiktiradi: Aloe vera tarkibidagi faol moddalar tufayli terining qarishini kechiktiradi. Aloe vera sovunidan muntazam foydalanish terining osilishining oldini oladi va terini himoya qiladi, chunki u terining tabiiy elastikligini saqlaydi. Bundan tashqari, uning namlovchi ta’siri terining erta qarishini oldini oladi. Mineral va suvning yuqori miqdori tufayli u qarishning, ayniqsa etuk teriga ta’sirini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari , aloe vera geliga oz miqdorda (bir necha tomchi) yangi siqilgan limon sharbati qo’shib, teringiz uchun vitamin C ni o’z ichiga olgan gel tayyorlashingiz mumkin.
Aloe veraning zararli hususiyatlari: Aloe veraning barcha afzalliklaridan tashqari, u zararli bo’lgan holatlar ham bo’lishi mumkin. Shu sababli, ichki yoki tashqi foydalanish uchun shifokordan yordam olish va shunga mos ravishda iste’mol qilish foydalidir.
Aloe vera gelidan uzoq muddatli va ortiqcha foydalanish mushaklar kuchsizligiga , past qon bosimiga, diareya va buyrak muammolariga va nosog’lom vazn yo’qotishiga olib kelishi mumkin.
Aloe veradan ichki foydalanish, ayniqsa homiladorlik va laktatsiya davrida xavfsiz emasligi aniqlandi.
Aftidan, bolalar tomonidan aloe vera ichki foydalanish ham qorin og’rig’i va diareya olib kelishi mumkin.
Ba’zi tadqiqotlarda aloe vera ichki foydalanishda qon shakarini kamaytiradiganligi aniqlangan.
Xulosa:aloe vera – tabiatning eng qadimiy va eng foydali o‘simliklaridan biridir. Uning shifobaxsh xususiyatlari tufayli u tibbiyot, farmatsevtika va kosmetologiya sohalarida keng qo‘llaniladi. Aloe vera organizmning tabiiy himoya tizimini mustahkamlaydi, yallig‘lanishga qarshi, antibakterial va antioksidant ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, terini yangilaydi, kuyishlar

va yaralarni tezroq bitishiga yordam beradi, soch va tirnoqlarni mustahkamlaydi hamda terining yoshligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Biroq, aloe veradan foydalanishda me’yorni saqlash zarur, chunki ortiqcha yoki noo‘rin qo‘llanilishi sog‘liq uchun zararli bo‘lishi mumkin. Shifokor tavsiyasi asosida va ehtiyotkorlik bilan foydalanish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Umuman olganda, aloe vera inson salomatligini mustahkamlovchi, tabiiy davo manbai sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan o‘simlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev, S. “Fitoterapiya asoslari.” – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
2. Karimova, M. “Tabiiy davo vositalari: aloe vera.” – “Tibbiyot va hayot” jurnali, 2021, №3.
3. World Health Organization (WHO). Monographs on Selected Medicinal Plants, Volume 4. Geneva, 2020.
4. Axmedov, H. “Dorivor o‘simliklar va ularning tibbiyotdagi qo‘llanilishi.” – Toshkent: Fan, 2019.

NA'MATAKNİNG TABİATDA TARQALİSHİ VA TİBBİYOTDAGİ AHAMİYATİ.

Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo'nalishi 3-kurs talabalari
Bahodirova Mohichehra
Pardayeva Munavvar

Annotatsiya: Na'matak (yovvoyi atirgul) dorivor o'simlik bo'lib, uning mevalari xalq tabobatida keng qo'llaniladi. Unda C vitaminining tabiiy manbai bo'lib, immunitetni mustahkamlaydi, qon tomirlarini baquvvat qiladi, qon bosimini pasaytiradi va hazm qilishni yaxshilaydi. Na'matakning moyli ekstrakti va preparatlari kuyish, ekzema kabi teri kasalliklari, jigar va me'da-ichak kasalliklarini davolashda ham ishlatiladi.
Ushbu maqolada na'matakning barcha foydali hususiyatlari haqida malumot beramiz.
Kalit so'zlar: immunitet, kam qonlik, c vitamini, ozish, shamollash, na'matak

Kirish: Na'matak urlari O'rta Osiyoning hamma respublikalaridagi o'rmonlarda, tekisliklarda, tog'-cho'l tumanlarida, to'qaylarda, tog'larning pastki (tog etaklari), o'rta va yuqori qismlarigacha bo'lgan ariq bo'ylarida, bo'talar orasida, tog'larning quruq toshloq yonbag'irlarida, archazorlarda, bog'larda va boshqa yerlarda o'sadi.
Na'matak turlari orasida keng tarqalgan tur, tabiiy holda Markaziy Osiyodan tashqari MDHning Yevropa qismida, Kavkazda ham uchraydi. Quyi va oila tog'li hududlarda tog' daryolari va soylar havzalarida ko'plab o'sadi. Madaniy atirgullar uchun asosiy payvandtag hisoblanadi, manzarali buta sifatida ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Na'matak turlari tog'li hududlarda 1000-2800 metr dengiz sathidan balandliklarda keng tarqalgan. Na'matak. Mevalari tabiiy vitaminlar konsentrati deb ham ataladi. Mevalari S vitamini miqdoriga ko'ra o'simlik dunyosida birinchi o'rinda turadi (6% gacha). Bundan tashqari mevasida qandlar, karotin, lirnon kislotasi, pektin oshlovchi moddalar mavjud. Tog' o'rmon melioratsiyasida va shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Mevasi (gipantiy) ichida 8-15 tagacha urug'lar rivojlanadi. Urug'lari bir urug'li yong'oqcha, och jigarrangda bo'lib dumaloq, tuxumsimon shaklida ham bo'ladi.
May oyida gullaydi, gullari oq pushti rangda, sentabrda mevasi pishib yetiladi. Mevasi olovrang qizil, cho'zinchoq, tuxumsimon shaklga ega. 2-3 yoshidan boshlab mevaga kiradi, mevalari uzoq vaqt qishgacha butada saqlanadi. Atirgul uchun yaxshi payvandtag hisoblanadi. Hozirgi paytda na'matakning ushbu turi sanoat plantatsiyalarida ko'plab ekilmoqda.
Asosiy qism: Na'matakni to'g'ri tanlash va saqlash
Na'matakdan damlangan choy nordongina ta'mda bo'lib, mazali hamdir. Uning ta'mi sizni quvontirishi uchun ularni to'g'ri tanlash lozim.
Quritilgan na'matak donalari kichkina va bujmaygan bo'lishi kerak. Silliq va katta

na’mataklar ularning gaz pechida quritilganidan dalolat beradi, bunda uning ko’pgina foydali xususiyatlari yo’qoladi.
Yangi uzilgan na’mataklar esa bir xil kattalikda, hech qanday dog’larsiz bo’lishi kerak. Na’mataklarni shisha bankalarga solib, ustini doka ro’mol bilan yopamiz va salqin va quruq joyda saqlaymiz. Quritilgan na’mataklar 2 yilgacha yaxshi saqlanadi.
Na’matakning dorivor hususiyatlari: Immunitetni ko’taradi: Na’matak mevalaridan tayyorlangan damlama organizmning himoya kuchlarini oshiradi.
Qon tomirlari uchun foydali: Qon tomirlarini mustahkamlaydi, yurak faoliyatini barqarorlashtiradi va qon bosimini pasaytirishga yordam beradi.
Hazm qilishni yaxshilaydi: Me’da-ichak tizimini me’yorga keltiradi va xolesterin darajasini kamaytiradi.
Na’matak o’zida ko’pgina C guruh vitaminini saqlaydi: qorag’atga nisbatan 10 marotaba, limonga nisbatan 50 marotaba ko’proq; Bundan tashqari, u bir qator foydali mikroelementlar, shu jumladan kaliy, magniy, kaltsiy va natriyni o’z ichiga oladi. Na’matakni hozir ayni kuzda avjiga chiqadigan shamollash va viruslarni oldini olishda ham, ularni davolashda ham iste’mol qilish kerak;
U immunitetni mustahkamlab, organizmni sog’lom qiladi;
Yurak va qon-tomir tizimiga yaxshi ta’sir ko’rsatadi;
Qon bosimini normallashtiradi;
Kamqonlikda ham foydali sanaladi;
Oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilab, zarali toksinlar va shlaklarni chiqarib tashlaydi;
Ozishga yordam beradi;
O’t va siydik haydovchi vosita sanaladi.
Homiladorlik davrida na’matak alohida ahamiyatga ega. Na’matak damlamasi bo’lajak onalarga toksikoz xurujlarini yengishga, qizil qon tanachalarini yoxud eritrositlar shakllantirishni rag’batlantirishga, gemoglobinni ko’paytirishga va kamqonlik rivojlanishining oldini olishga yordam beradi.
Ozishda na’matakning o‘rni: Na’matak ozishga yordam beradi, ammo faqatgina unga ishonib, ozib bo’lmaydi.
Ozmoqchi bo’lganlar avval shifokor ko’rigidan o’tib, undan so’nggina uni quyidagicha damlab ichish kerak bo’ladi:
3 osh qoshiq na’matak ustidan 1 litr qaynagan suv solinadi va damlab qo’yiladi. Kelasi kuni esa yarim stakandan kuniga 4-5 marta ovqatdan so’ng iste’mol qilinadi.
Go‘zallik uchun foydasi: Intensiv namlaydi va oziqlantiradi
Keksayishga qarshi antioksidantlar mavjud
Terining mustahkamligini tiklashga yordam beradi, uni yumshoq va elastik qiladi.
Kosmetologiyada na’matak yog’ining mashhurligini alohida ta’kidlash kerak. U terining holatiga juda ijobiy ta’sir qiladi: qarish belgilariga qarshi kurashadi, ajinlar va yosh dog’larini

yo’qotadi, teri osilishi belgilari paydo bo’lishining oldini oladi. Qon tomirlariga ta’siri tufayli mahsulot teri va soch hujayralarini oziq moddalar bilan to’yintiradi, namlaydi, teri va sochni sog’lomlashtiradi.

Na’matak siropi yoki mevalardan tayyorlangan choy sovuq mavsumda juda samarali ichimlik sanaladi, ayniqsa viruslar faollashganda va immunitet darajasi pasayganda. Agar ushbu xalqona vosita muntazam ravishda qabul qilib boriladigan bo’lsa, unda shamollashdan saqlanish, shifo jarayonini tezlashtirish va kasallikdan keyin tezroq tiklanish mumkin bo’ladi.

Damlama tayyorlash: Na’matak damlamasi tayyorlash uchun termosga uning 3 osh qoshiq quruq mevalari va bir litr qaynoq suv solinadi. Aralashma 12 soat davomida tindiriladi. Tayyor damlama ovqatdan 30-40 daqiqa oldin qabul qilinadi. Damlama tayyorlashdan oldin mevalarni yaxshilab yuvib, maydalash tavsiya etiladi. Bu holda vosita tezroq tayyor bo’ladi.

Nojoya ta’siri: Na’matak tarkibidagi askorbin kislotasi tish emalini emirish xususiyatiga ega. Shu bois osimlik damlamasidan istemol qilgach, ogizni iliq suv bilan chayish kerak.

Mumkin bo‘lmagan holatlar: qizil allergik toshmalarga moyilligi bor kishilarga tavsiya etilmaydi. Shuningdek, oshqozon yarasi, gastrit, yurak xastaliklarida shifokor ko`rsatmasi bilan qabul qilish kerak.

Xulosa: Na’matakning kimyoviy tarkibi, farmakologik xossalarini o‘rganish natijasida olingan tahlillar na’matakning vitaminlarga boy, shifobaxsh o‘simlik ekanligini ko‘rsatadi. Shifokorlar shamollashning oldini olish va davolash uchun tavsiya etishadigan na’matak mevalarining damlamasi askorbin kislotasi va C vitaminining tabiiy manbai sanaladi. Bundan tashqari, u bir qator foydali mikroelementlar, shu jumladan kaliy, magniy, kaltsiy va natriyni o‘z ichiga oladi. Na’matak organizmning himoya kuchlarini mushtahkamlaydi va kuchaytiradi, qon tomirlarini mustahkamlaydi, yurak ishini barqarorlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi. Hazm qilish tizimini me’yorga keltiradi.

Xalq tabobatida damlama va qaynatmalaridan me’da-ichak kasalliklari, bachadondan qon oqishini to‘xtatuvchi, isitma tushiruvchi, o‘t va siydik haydovchi sifatida ishlatiladi. Bu damlama bilan milk shamollashi va qon oqishida chayiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.E-mail: contact@med360.uz
2.© 2017-2025 OOO «Zira Chef».
3.O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Axborot texnologiyalarini rivojlantirish markazi” DUK – 2021
4.Po’latova T.P, Xolmatov H.X Farmokognoziya amaliyoti Toshkent 2002
5.A.S. Dariyev, B.A. Sirojiddinov, E.YU. Ro’zmatov Na’matak (Rosa L) morfologiyasi, anatomiyasi, ekologiyasi Andijon-2016

SARİMSOQ PİYOZNİNG TABİATDA TARQALİSHİ VA TİBBİYOTDAGİ AHAMİYATİ.

Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi 3-kurs talabalari
Bahodirova Mohichehra
Pardayeva Munavvar

Annotatsiya: Butun dunyo bo‘ylab sarimsoq piyozdan uzoq vaqt davomida gipertoniya, infeksiyalar, ilon chaqishi kabi ko‘plab kasalliklarni davolashda keng foydalanilgan. Keling, har kuni sarimsoq iste’mol qilinganda, organizmda qanday o‘zgarishlar bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.
Kalit so‘zlar: yurak, mikroblar, saraton, infeksiyalar, sarimsoq piyoz.

Kirish: Sarimsoq (Allium sativum) — piyozdoshlar oilasi piyozlar turkumiga mansub ikki va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turi, sabzavot ekini. Vatani — O‘rta Osiyo. Yovvoyi xolda Hindiston, O‘rta dengiz atroflarida, Qozog‘iston, Sibir, Kavkaz va O‘rta Osiyoda uchraydi. O‘zbekistonda yovvoyi sarimsoq (A. Longicuspis Pgl.) tog‘li mintaqalarda o‘sadi. Jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda yetishtiriladi. Madaniy sarimsoqning 2 turi mavjud bo‘lib, biri gulpoya chiqarmaydi, ikkinchisi gullab, urug‘ hosil qiladi. Sarimsoqning O‘zbekistonda tarqalgan gulpoya chiqaruvchi navlari serhosil, qishga chidamli. Bargi lentasimon, ildizi patak. Gullari mayda, ikki jinsli, qo‘ng‘iroqsimon, oq yoki binafsharang. Piyozi murakkab, pardasimon umumiy qobiq ichida 7–30 dona mayda piyozchalari bo‘ladi. Tarkibida qand, S, V vitaminlari, efir moyi, fitonsidlar bor. Oziq-ovqatga, tibbiyotda, veterinariyada, sabzavotlarni konservalashda ishlatiladi.
Sarimsoq boshqa sabzavotlarga nisbatan tez o‘sadi. -7, -8° sovuqqa chidamli, 10— 12° issiqda yaxshi o‘sib rivojlanadi, 20—25° da pishib, yetiladi. Sarimsoq ikki marta — bahorda va asosan, kuzda ekiladi. Kuzda ekilganidan kelgusi yili bahorda hosil olinadi. Madaniy sarimsoq urug‘ bermaydi, balki piyozidan tashqari gulpoyasi to‘pgulida 10 dan 45 tagacha poya sarimsoqchalari hosil qiladi. Sarimsoq vegetativ yo‘l bilan, kuzda va bahorda piyozini bo‘laklarga ajratib ekib ko‘paytiriladi. 100 m² yerga shunday piyozchalardan 10–15kg sarf qilinadi. Sug‘oriladigan unumdor yerlarga qator oralarini 45 sm, o‘simlik oralig‘ini 4-8 sm qilib, 4-6 sm chuqurlikka ko‘miladi. Ekib bo‘lingach, tuproq, somonli go‘ng, chirindi bilan mulchalanadi. O‘suv davrida 5-6 marta sug‘oriladi, oziqlantiriladi, parvarishi piyozga o‘xshash. Bahorda o‘sib chiqqan gulpoya (karnay)lari yulib tashlanadi.
O‘zbekistonda ertapishar (Mayskiy) navi may oyining oxirlarida, kechpishar (Binafsharang, Janubiy binafsharang, Andijon) navlari iyul boshlarida yetiladi.
Asosiy qism: Sarimsoq yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ushbu sabzavotni muntazam iste’mol qilish qon hosil bo’lishini rag’batlantiradi, shuningdek qon

bosimi va xolesterin darajasini pasaytiradi. Tromboz xavfi va qonning yopishqoqligi kamayadi. Kislorodni qabul qilish qobiliyati, chidamlilik va a’zolarga qon kelishi tezligi qon tomirlarining holatiga ham bog’liq, shuning uchun sarimsoq erkaklar jinsiy funktsiyalariga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, u erkaklar jinsiy gormoni — testosteron ishlab chiqarilishiga yordam beradi.

Yurak salomatligini yaxshilaydi

Olimlarning fikricha, sarimsoq qon quyqa (tromb)lari xavfi oldini oladi. Aterosklerotik blyashka hajmini kamaytiradi, yosh va qon bosimi bilan bog‘liq bo‘lgan aorta qattiqligining kuchayishini susaytiradi.

Saraton o‘smasiga qarshi ta’sir ko‘rsatadi

Sarimsoq oshqozon va yo‘g‘on ichak saratoni rivojlanish xavfini kamaytiradi, ammo bu ta’sir hali o‘rganilmoqda.

Mikroblar bilan kurashadi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sarimsoq gramm-musbat va gramm-manfiy bakteriyalar, virus, zamburug‘, parazit va mikroblarga qarshi faollikka ega. Shuning uchun u infeksiyalarni davolash uchun ishlatilishi mumkin.

Sarimsoqning ayollar salomatligidagi foyda va zarari: Sarimsoq menopauza davrida kamayadigan asosiy ayollar gormoni — estrogen darajasini oshiradi. Shu sababli suyak zichligi va terining elastikligi pasayadi. Agar mahsulot juda ko‘p iste’mol qilinsa, zarar yetkazishi mumkin.

Sarimsoqni me’yordan ortiq istemol qilishning salbiy ta’siri: Jigarga zarar yetkazishi mumkin:

Jigar organizmdagi muhim organ bo‘lib, u qonni tozalash, yog‘, oqsil almashinuvi, organizmdan ammiakni chiqarib tashlash kabi turli funksiyalarni bajaradi. Bir nechta tadqiqotlarga ko‘ra, sarimsoq allitsin deb ataladigan birikmaga boy bo‘lib, ko‘p miqdorda qabul qilingan taqdirda jigarning zaharlanishiga olib keladi.

Diareya: Mahsulotni och qoringa iste’mol qilish diareyaga olib kelishi mumkin, chunki uning tarkibida oltingugurt kabi gaz hosil qiluvchi birikmalar mavjud.

Og‘izdan badbo‘y hid kelishi

Og‘izda yoqimsiz hid paydo bo‘lishining asosiy sababi unda mavjud bo‘lgan oltingugurt birikmasidir.

Qon ketishini kuchaytiradi

Mahsulot qonni suyultiruvchi tabiiy vositadir, shu bois uni ko‘p miqdorda va qonni suyultiruvchi dorilar bilan birga iste’mol qilmaslik kerak. Bunda ichki qon ketish xavfi oshishi mumkin

Qonni suyultiruvchi xususiyatlari tufayli mahsulotni antikoagulyantlar bilan birlashtirgan holda qabul qilish mumkin emas degan qarash mavjud. Bundan tashqari, operatsiyadan bir necha kun oldin uni iste’mol qilishni to‘xtatish tavsiya etiladi, chunki bu qon ketishini

kuchaytirishi mumkin.

Xulosa: Sarimsoq tarkibida o’simlikni parazit va bakteriyalardan himoya qiluvchi uchuvchi moddalar — fitonsidlar mavjud. Uni oziq-ovqat sifatida iste’mol qilganda bakteritsid, antiparazitar va zamburug’larga qarshi ta’sir kuzatiladi. O’tkazilgan tadqiqot natijalari muntazam ravishda sarimsoq iste’mol qiladigan shaxslar guruhi sarimsoqni umuman iste’mol qilmaydiganlarga qaraganda shamollashdan uch baravar kam aziyat chekishlari ma’lum bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov M. O‘simlikshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
2. Jabborov B. Fitoterapiya asoslari. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2020.
3. World Health Organization (WHO). Medicinal uses of Allium sativum (Garlic). – Geneva, 2021.
4. To‘xtayev A., Raxmonov Sh. Dorivor o‘simliklar va ularning tibbiyotdagi ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2019.
5.Sultonova M., Mamatqulova D. Sarimsoq piyozning shifobaxsh xususiyatlari. – Tibbiyot va hayot jurnali, №3, 2023.

OQ DOG‘LAR.

Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi 3-kurs talabalari
Bahodirova Mohichehra
Pardayeva Munavvar

Annotatsiya: ushbu maqolada oq dog‘lar bu o‘zi nima davolash usullari, ko‘rinishi va qay holatda paydo bo‘lishi haqida malumot berib o‘tamiz.
Kalit so‘zlar: oq dog‘lar, akne, teri parvarishi, tashxis, davolash usullari.

Kirish: Oq dog’lar, keng tarqalgan teri kasalligi, har qanday yoshdagi odamlarga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan akne turidir. Ko’pincha oddiy kosmetik muammo sifatida e’tibordan chetda qolsa-da, ular o’z-o’zini hurmat qilish va terining umumiy salomatligiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin. Oq dog’larni tushunish samarali davolash va oldini olish uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada oq dog’larning ta’rifi, sabablari, belgilari, diagnostikasi, davolash usullari, asoratlari, oldini olish strategiyalari va prognozi ko’rib chiqiladi, bu keng tarqalgan teri holatini tushunishga intilayotganlar uchun keng qamrovli ma’lumot beradi.
Yopiq komedonlar deb ham ataladigan oq dog’lar teri yuzasida hosil bo’ladigan kichik, dumaloq, oq dog’lardir. Ular soch follikulalari yog ‘, o’lik teri hujayralari va bakteriyalar bilan tiqilib qolganda paydo bo’ladi. Oksidlanish natijasida qoraygan ochiq komedonlar bo’lgan qora nuqtalardan farqli o’laroq, oq nuqta sirtda yopiq qoladi va ularga o’ziga xos oq ko’rinish beradi. Ular ko’pincha yuzda, ayniqsa peshonada, burunda va iyakda uchraydi, lekin orqa, ko’krak va elkada ham paydo bo’lishi mumkin.
Geografik joylashuvi: Nam iqlimda yashovchi odamlarda ter va yog ‘ishlab chiqarishning ko’payishi tufayli ko’proq oq dog’lar paydo bo’lishi mumkin.
Asosiy shartlar: Polikistik tuxumdon sindromi (PCOS) kabi holatlar akne xavfini oshiradigan gormonal nomutanosiblikka olib kelishi mumkin.
Belgilari: Oq dog’larning umumiy belgilari
Oq dog’lar quyidagilar bilan tavsiflanadi:
Terida mayda, dumaloq, oq yoki go’sht rangli dog’lar.
Bir oz ko’tarilgandek tuyulishi mumkin bo’lgan silliq sirt.
Ta’sirli hududda vaqti-vaqti bilan sezgirlik yoki sezuvchanlik.
Asosiy qism: Oq dog’lar quyidagilar bilan tavsiflanadi:
Terida mayda, dumaloq, oq yoki go’sht rangli dog’lar.
Bir oz ko’tarilgandek tuyulishi mumkin bo’lgan silliq sirt.
Ta’sirli hududda vaqti-vaqti bilan sezgirlik yoki sezuvchanlik.
Tibbiy yordam uchun ogohlantirish belgilari
Oq dog’lar odatda tashvishga sabab bo’lmasa-da, ba’zi alomatlar tibbiy baholash zarurligini ko’rsatishi mumkin:

Oq nuqta atrofida kuchli yallig’lanish yoki qizarish.
Og’riq yoki noqulaylik davom etuvchi yoki yomonlashadi.
Yiring yoki isitma kabi infektsiya belgilari.
Kistik akne yoki tugunlarning rivojlanishi.
Diagnoz:
Klinik baholash: Oq dog’larni tashxislash odatda to’liq klinik baholashni o’z ichiga oladi. Tibbiy yordam ko’rsatuvchi provayder bemorning batafsil tarixini, shu jumladan oldingi teri kasalliklarini, oiladagi akne tarixini va turmush tarzi omillarini oladi. Terining fizik tekshiruvi oq dog’lar mavjudligini aniqlashga va ularning zo’ravonligini baholashga yordam beradi.
Tashxis Testlari: Aksariyat hollarda oq dog’larni aniqlash uchun maxsus laboratoriya tekshiruvlari talab qilinmaydi. Ammo, agar akne kuchli yoki atipik bo’lsa, dermatolog tavsiya qilishi mumkin:
Terini qirib tashlash: Qo’ziqorin infektsiyalarini istisno qilish uchun.
Gormonal test: Gormonal muvozanatdan shubha qilingan hollarda.
Differentsial tashxis
Oq dog’larni boshqa teri kasalliklaridan farqlash juda muhim, masalan:
Qora nuqtalar: Oksidlanish tufayli qorong’i ko’rinadigan ochiq komedonlar.
Kistik akne: Skarlanishga olib kelishi mumkin bo’lgan chuqur, og’riqli bo’laklar.
Miliya: Oq dog’larga o’xshash kichik, oq kistlar, lekin tiqilib qolgan teshiklardan kelib chiqmaydi.
Tibbiy yordam uchun ogohlantirish belgilari: Oq dog’lar odatda tashvishga sabab bo’lmasa-da, ba’zi alomatlar tibbiy baholash zarurligini ko’rsatishi mumkin:
Oq nuqta atrofida kuchli yallig’lanish yoki qizarish.
Og’riq yoki noqulaylik davom etuvchi yoki yomonlashadi.
Yiring yoki isitma kabi infektsiya belgilari.
Kistik akne yoki tugunlarning rivojlanishi.
Genetik/autoimmun sabablar
Oq dog’lar paydo bo’lishida genetika muhim rol o’ynaydi. Oilada akne tarixi bo’lgan odamlarda oq dog’lar paydo bo’lishi ehtimoli ko’proq. Oq dog’lar otoimmün holat sifatida tasniflanmagan bo’lsa-da, gormonal tebranishlar, ayniqsa balog’atga etishish, hayz ko’rish yoki homiladorlik davrida, yog ‘ishlab chiqarishning ko’payishiga olib kelishi mumkin, bu esa oq dog’lar paydo bo’lishiga olib keladi.
Turmush tarzi va ovqatlanish omillari
Turmush tarzini tanlash va ovqatlanish odatlari ham oq dog’lar paydo bo’lishiga ta’sir qilishi mumkin. Qayta shakar, sut mahsulotlari va nosog’lom yog’larga boy dietalar akne rivojlanishiga hissa qo’shishi mumkin. Stress, uyqusizlik va noto’g’ri gigiena qoidalari vaziyatni yanada kuchaytirishi mumkin.

Asosiy xavf omillari
Yosh: O’smirlar va yoshlar gormonal o’zgarishlar tufayli oq dog’larga ko’proq moyil.
Jins: Ayollarda gormonal o’zgarishlar, ayniqsa hayz davrida, oq dog’lar paydo bo’lishiga olib kelishi mumkin.
Asosiy shartlar: Polikistik tuxumdon sindromi (PCOS) kabi holatlar akne xavfini oshiradigan gormonal nomutanosiblikka olib kelishi mumkin.
Xulosa: Natijalar va xavf omillari
Yuqumli ekologik sabablar: Oq dog’lar yuqumli vositadan kelib chiqmasa-da, ba’zi atrof-muhit omillari ularning shakllanishini kuchaytirishi mumkin. Masalan, ifloslantiruvchi moddalarga ta’sir qilish, namlik va ortiqcha terlash teshiklarning tiqilib qolishiga yordam beradi. Bundan tashqari, og’ir yoki komedogen (teshiklarni yopish) terini parvarish qilish

vositalaridan foydalanish oq dog’larning ko’payishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi. (2020). Dermatovenerologiya bo‘yicha klinik qo‘llanma. Toshkent.
2. Mayo Clinic Staff. (2023). Whiteheads (closed comedones): Symptoms and causes. Mayo Clinic. www.mayoclinic.org
3.Akhmedova, S., & Karimova, D. (2021). Teri kasalliklari va ularning diagnostikasi. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
4. James, W. D., Berger, T. G., & Elston, D. M. (2020). Andrews’ Diseases of the Skin: Clinical Dermatology. 13th Edition. Elsevier.

BOSHLANG‘ICH TA’LİMDA İNNOVATSİON METODLAR ORQALİ O‘QUVCHİLARDA MA’NAVİY TARBİYANİ SHAKLLANTİRİSHDA BADİİY MATNLARNİNG O‘RNİ

Xolmonov Fayoziddin Akmal o‘g‘li
Tel: +998(99)182-80-90
El-pochta: xolmonovfayoziddin@gmail.com

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ularni har tomonlama yetuk insonlar etib voyaga yetkazishimiz zarur[1].”

Boshlang‘ich ta’lim – bu har bir inson kamolotining eng muhim poydevori bo‘lib, aynan shu bosqichda o‘quvchilarning nafaqat bilim va tarbiya, balki ma’naviy dunyosini, tafakkurini boyitish, ularni mustaqil fikrlash hamda hozirjavoblikka o‘rgatish dolzarb vazifalar sifatida hisoblanadi.. Innovatsion metodlar yordamida dars jarayoni va sifatini qiziqarli, interaktiv va maqsadli tashkil etish, har bir o‘quvchiga e’tibor berish orqali o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarga hurmat, ezgulik va mehr-oqibat tuyg‘ulari, fikrlash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Qolaversa, bolaning ilk adabiy-estetik tajribasi ona allasi orqali shakllana boshlaydi. Bu og‘zaki ijod namunalari bolaning dastlabki ruhiy kechinmalariga tasir ko‘rsatib, uni ertaklar dunyosiga tayyorlaydi. Ayniqsa, ikki yoshdan boshlab bolalar ertaklar orqali murakkab ijtimoiy munosabatlar, tabiat hodisalari hamda kundalik hayot hodisalari haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo‘la boshlaydilar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metodlar o‘qituvchidan yangicha yondashuv, kreativlik va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini talab qiladi. “Aqliy hujum”, “Insert”, “Baliq skeleti”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Debat” kabi interaktiv metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi[3; 5]. Kreativ fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashda boshlang‘ich sinflarda bu kabi innovatsion va interaktiv metodlarning qo‘llanilishi nafaqat o‘qituvchilarni o‘z ustida ishlashga undaydi, balki o‘quvchilarni ham darsda faol qatnashib, o‘z bilim salohiyatini rivojlantirishga, darsga qiziqishini oshirib, ko‘proq o‘rganishga zamin yaratadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ta’lim tizimiga ilg‘or metod va texnologiyalarni joriy etish – bu nafaqat bilim berish, balki tafakkur va ma’naviyatni o‘stirishning eng muhim yo‘lidir [2].” Demak, innovatsion metodlar o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, uni dars jarayonining faol subyekti sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, o‘qish darslarida bunday metodlar o‘quvchilarni matn mazmunini anglash, g‘oyani tahlil qilish va ma’naviy xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy matnlar – o‘quvchilar qalbiga bevosita ta’sir

etuvchi vosita. Hikoya, ertak, she’r va dialoglar orqali bola ezgulik, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni anglay boshlaydi. Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Mehnatsevar bola”, “Yoriltosh” kabi asarlar o‘quvchilarni mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, mehr-oqibat ruhida tarbiyalaydi. O‘qituvchi bu matnlarni tahlil etishda “Rol o‘ynash” yoki “Klaster” metodidan foydalansa, o‘quvchilar asar qahramonlarining ichki kechinmalarini his etadi, ularning xatti-harakatiga munosabat bildiradi[4]. Mazkur jarayonda o‘quvchi nafaqat badiiy asar mazmunini anglaydi, balki undagi voqealar va qahramonlar taqdiri orqali hayotiy haqiqatlarni idrok etishni o‘rganadi. Bunday tahlil jarayoni o‘quvchilarning badiiy tafakkurini, og‘zaki va yozma nutqini, shuningdek, ma’naviy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Ven diagrammasi” metodidan foydalanish orqali o‘quvchilar asar qahramonlarining o‘ziga xos jihatlarini, ularni bir-biridan farqlovchi xislatlarni hamda ularni birlashtiruvchi umumiy fazilatlarni aniqlaydilar. Ushbu metod tahliliy fikrlashni, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada o‘quvchilar badiiy asardagi obrazlarni tahlil qilish bilan cheklanmay, hayotdagi insonlarni ham to‘g‘ri baholash, ularning xatti-harakatlari va his-tuyg‘ularini chuqurroq anglash malakasini bosqichma-bosqich egallab boradilar.

Innovatsion metodlar bilan badiiy matnlar uyg‘unligi o‘quvchining ruhiy va aqliy dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[5]. Masalan, “Rol o‘ynash” metodida o‘quvchilar asardagi qahramonlarni jonlantirib, ularning o‘rniga o‘zlarini qo‘yadilar. Bu esa empatiya, sabr, hamdardlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Bundan tashqari, badiiy asar qahramonlarining ichki kechinmalarini anglash jarayonida o‘quvchilar rollarni ijro etish orqali ularning ruhiy holatini chuqurroq his etadilar. Qahramonning jahldor, quvonchli yoki hayajonli holatlaridagi hissiyotlarini ifodalash orqali bolalar nafaqat obrazning ichki dunyosini tushunadilar, balki u bilan ma’naviy hamnafas bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu interaktiv metod o‘quvchilarda empatiya, his-tuyg‘ularni boshqara olish va ularni ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga, badiiy asarlarni chuqur tahlil qilishga, ularning g‘oyaviy-badiiy mazmunini teran anglashga zamin yaratadi.

“Baliq skeleti” metodida esa o‘quvchilar asardagi asosiy g‘oya va sabab-oqibat bog‘lanishlarini tahlil qiladi. Har bir badiiy asar qahramonining shaxsiyati, xatti-harakati va dunyoqarashini chuqur tahlil qilish o‘quvchilarning matnni anglash, mazmunni to‘laqonli idrok etish hamda asarning g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o‘quvchilar har bir qahramonni yaqindan o‘rganib, ular haqidagi ma’lumotlarni asarda tasvirlangan voqealar, hodisalar va muallifning fikr-mulohazalari orqali tahlil qilib boradilar. Bu jarayon o‘quvchilarda obrazli tafakkurni rivojlantirish, tahliliy fikrlashni shakllantirish hamda asar mazmuniga ilmiy-nazariy yondashuvni mustahkamlash imkonini beradi.Natijada, o‘quvchilar darsni nafaqat bilim manbai, balki ma’naviy o‘sish maktabi sifatida qabul qiladilar. Shu tarzda innovatsion metodlar badiiy so‘zning tarbiyaviy kuchini yanada oshiradi[1;6].

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish darsning mazmunini boyitadi, o‘quvchilarni faol, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, badiiy matnlar orqali ularning ma’naviy olamiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Shunday qilib, innovatsion metodlar va badiiy asarlarning uyg‘unligi – o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Xoliqova D. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2019.
4. Yo‘ldosheva M. O‘qish darslarida badiiy matnlar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2010.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4319-son qarori – “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”.

ИСТОРИЯ КИТАЙСКОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Турсунова Наргиза Сардор кизи
НУУз. Имени Мирзо Улугбека

Аннотация. Работа посвящена анализу китайской трудовой миграции в Республику Узбекистан в контексте углубляющегося узбекско-китайского сотрудничества.
Ключевые слова: китайская миграция, культурно-гуманитарное сотрудничество, межкультурная коммуникация, адаптация, сотрудничество.

После обретения независимости в 1991 году Узбекистан вступил в новый этап внешнеэкономических и гуманитарных связей, среди которых особое место заняла динамично развивающееся сотрудничество с Китайской Народной Республикой. В рамках инициативы «Один пояс, один путь», деятельности ШОС наблюдается не только рост инвестиций и инфраструктурных проектов, но и постепенное увеличение присутствия китайской рабочей силы на территории Узбекистана. Особый интерес вызывает трудовая миграция и рост присутствия китайцев в странах Центральной Азии, в том числе и в Республике Узбекистан.

История китайской миграции в Узбекистан хоть и является актуальной темой для исследователей, но всё еще недостаточно изучена и рассмотрена. В основном, исследованы сотрудничество двух стран в рамках различных проектов, сотрудничество в сфере экономики, взаимодействие в культурно-гуманитарном направлении. Также существуют отдельные статьи и научные работы про миграционные процессы в целом, и китайскую трудовую миграцию в страны Центральной Азии. Важными источниками для исследования служат статистические данные, наглядно демонстрирующие рост туризма, миграцию китайских рабочих, предпринимателей, возникновение совместных китайско-узбекских предприятий или же предприятий с китайским капиталом и инвестициями.

Трудовая миграция из Китая в Узбекистан носит в основном временный и проектный характер, связанный с реализацией строительных, энергетических и транспортных проектов. Основой для такой миграции служат требования КНР. Которые государство выдвигает при подготовке экономических проектов, выдаче льготных кредитов или внедрении инвестиций из китайских банков (Эксимбанк, Китайский банк развития) или источников финансирования инициативы «Один пояс, один путь» (Азиатский банк развития, Азиатский банк инфраструктурных инвестиций).

Китайские трудовые мигранты вносят значительный вклад в экономику Узбекистана. Они активно участвуют в развитии инфраструктуры, особенно в строительстве и сельском хозяйстве. Кроме того, китайские мигранты передают технологии и опыт в

различных отраслях, что способствует модернизации экономики страны. Создание рабочих мест и стимулирование местной экономики через потребление и налоги также являются важными аспектами их вклада. С социальной точки зрения китайские мигранты способствуют передаче современных технологий и трудовых практик, но одновременно вызывают определённые культурные и адаптационные трудности в принимающем обществе. Взаимодействие китайских и узбекских работников формирует новый тип межкультурной коммуникации, основанный на прагматизме и взаимной экономической выгоде.

Таким образом, китайская трудовая миграция в Узбекистане выступает не только следствием экономической глобализации, но и важным индикатором социально-исторических трансформаций в регионе, где пересекаются интересы крупных держав, национальные стратегии развития и процессы культурной адаптации.

Использованная литература:

1. Кашин А., Королев А. Помощь КНР странам Центральной Азии. Мировая экономика и международные отношения, 2018, том 62, №3, с. 78-85
2. Парамонов В., Строков А., Столповский О. Внешняя политика Китая в Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ. 2010. №4. URL: https://cyberleninka.ru (дата обращения: 10.12.2024).
3. Рогожин А.А. Экспансия Китая в Узбекистан: экономический аспект. Анализ и прогноз. Журнал ИМЭМО РААН, 023, №2, сс. 43-56. DOI:10.20542/AFIJ-2023-2-43-56.

Рост китайской трудовой миграции в Республике Узбекистан в период независимости: социально-исторические аспекты

Турсунова Наргиза Сардор кизи
НУУз им. Мирзо Улугбека

Аннотация. В работе рассматриваются особенности китайской трудовой миграции, а также ее социально-экономические и культурные последствия. Особое внимание уделено усилению взаимодействия между двумя странами в рамках инициативы «Один пояс, один путь» и Шанхайской организации сотрудничества, на фоне чего наблюдается рост китайского присутствия в экономике, социальной сфере и культуре Узбекистана.
Ключевые слова: трудовая миграция, «Один пояс, один путь», китайская диаспора, экономическое присутствие, узбекско-китайское сотрудничество.

В последние десятилетия наблюдается всестороннее развитие отношений между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой. Сотрудничество двух стран усиливается в рамках инициативы «Один пояс, один путь» и Шанхайской организации сотрудничества, что сопровождается ростом китайского присутствия в экономике, культуре и социальной сфере. Изучение китайской трудовой миграции в Узбекистане актуально, поскольку этот процесс отражает изменение баланса сил в Евразии и формирование новой модели взаимодействия Китая и Центральной Азии.
Кроме того, растущая численность китайских мигрантов вызывает дискуссии о культурной интеграции, социальном восприятии и экономическом влиянии Китая, что делает тему исследования значимой для понимания современных миграционных и геополитических процессов в регионе.
Проблема узбекско-китайского сотрудничества отражена в трудах А.Ходжаева, В.Парамонова, Ф.Джуманиёзовой, Г.С.Джумаевой, Р. Алимова, а также зарубежных исследователей Кун Дэкун, Ли На, Ду Гэгэ. Вопросы участия Китая в экономике Узбекистана рассматриваются в работах А.А.Рогожина. Однако социальная адаптация китайских мигрантов, их культурная интеграция и влияние на межнациональные отношения в Узбекистане остаются недостаточно изученными, что определяет научную новизну и необходимость дальнейшего анализа.
Выявить особенности китайской трудовой миграции в Республику Узбекистан в постсоветский период, определить её социально-экономические последствия и влияние на развитие культурного взаимодействия между народами двух стран.
Источниковую основу составляют:

- статистические данные Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике.
- публикации в официальных СМИ, сайтах национальных центров;
- интервью и аналитические материалы, освещающие деятельность китайских компаний и диаспоры в Узбекистане.

Исторически взаимодействие Китая и Центральной Азии насчитывает несколько тысячелетий. Уже во времена династии Хань устанавливались дипломатические и торговые связи с Даванем (Ферганской долиной), а в эпоху Тимуридов происходил активный обмен посольствами с династией Мин, что свидетельствует о глубине исторических контактов.

Современная миграция из Китая в Узбекистан началась в 1990-е годы, после обретения независимости, и усилилась в XXI веке. С 2016 года в Узбекистане реализуются меры по либерализации экономики, привлечению инвестиций и созданию благоприятного климата для иностранного бизнеса. По данным на 2025 год, в стране действует более 4000 предприятий с китайским участием. Китайские компании активно работают в сферах строительства, промышленности, сельского хозяйства, науки и образования.

Китайская диаспора в Узбекистане неоднородна и включает бизнесменов, инженеров, специалистов и рабочих. Часть мигрантов проживает в стране с 1990-х годов, а их дети уже стали полноправными членами узбекского общества. Тем не менее, сохраняются языковые и культурные барьеры, которые осложняют интеграцию китайцев в местную среду.

Несмотря на трудности, китайцы отличаются трудолюбием, бережливостью и устойчивостью к экономическим кризисам, что способствует их социальной адаптации. Большинство мигрантов сохраняют связь с исторической родиной и направляют часть заработков семьям в Китае.

В то же время растущее экономическое присутствие Китая вызывает опасения и дебаты. Хотя китайская дипломатия подчёркивает взаимовыгодный характер сотрудничества, ряд случаев (например, территориальные уступки Таджикистана в 2011 году или условия кредитов, требующие использования китайских материалов и рабочей силы) демонстрируют экономическую зависимость принимающих стран.

Таким образом, китайская трудовая миграция в Узбекистане является не только экономическим, но и социокультурным феноменом, формирующим новые реалии региональной интеграции. Китайская диаспора в Узбекистане сегодня является активным элементом социально-экономического пространства страны. Она способствует развитию торговли, науки, культуры и укреплению двусторонних отношений. Одновременно миграционные процессы требуют сбалансированного подхода, включающего государственное регулирование, культурный диалог и защиту интересов всех сторон. Изучение китайской миграции помогает глубже понять

процессы глобализации, регионального сотрудничества и формирования новой Евразийской системы взаимодействия.

Использованная литература:

1. Информация о демографии предприятий и организаций в Республике Узбекистан. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2025.
2. Турсунова Н. Международное сотрудничество Узбекистана в рамках проекта «Один пояс, один путь». 2025.
3. Умаров А.К., Ходжаев М.П. Дипломатические отношения Тимуридского двора с династией Мин. // Вестник Педагогического университета. 2023. №3.

Ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibdagi "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora tadbirlarni yakunlash bo'yicha profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs 321-guruh kursanti
Alijonov Firdavs Xayrulla o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibdagi "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora tadbirlarni yakunlash bo yicha profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvini ta'minlash, ularni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish va jinoyatchilikning qayta sodir etilishining oldini olish bo yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, qo'shma xulosa tuzish jarayonining samaradorligini oshirish, profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda elektron nazorat mexanizmlarini joriy etish muhimligi ta'kidlangan.
Kalit so'zlar. Ijtimoiy profilaktika, E-ijtimoiy moslashtirish, profilaktika inspektori, mahalla yettiligi, huquqbuzarlik, reabilitatsiya, jamiyatga moslashish, jinoyatchilikning oldini olish, elektron nazorat, ijtimoiy integratsiya

Ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibdagi "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora-tadbirlarni yakunlash bo yicha profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish jarayoni huquqbuzarliklarning oldini olish va qayta sodir etilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvini tizimli ravishda nazorat qilish, ularning ijtimoiy va mehnat faoliyatini tiklash bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturi doirasida rejalashtirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish uchun profilaktika inspektori va mahalla yettiligi har bir shaxs bo'yicha individual reabilitatsiya rejasini ishlab chiqishi, ularning hayotiy sharoitlarini o'rganishi, psixologik va ijtimoiy ko'mak mexanizmlarini joriy qilishi lozim. Qo'shma xulosa tuzish jarayoni fagat huquqiy baholash bilan cheklanmasdan, balki huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning ijtimoiy va psixologik holatini ham hisobga olish orqali yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning jamiyatga moslashish darajasini baholash, ularni mehnat faoliyatiga jalb qilish, ijtimoiy hayotga qayta qo'shish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish va bu jarayonni nazorat qilish profilaktika inspektori va mahalla yettiligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirishda ularning oilaviy va jamoat

hayotidagi o'rnini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi, shu bois mahalla yettiligi bu shaxslarning mahalladagi faoliyatini nazorat qilish, ijtimoiy tadbirlarga jalb etish, ularni o'zini o'zi boshqarish tizimiga integratsiya qilish orqali qayta jinoyatchilikka yo'1 qo'ymaslikka harakat qilishi lozim. Qo'shma xulosa tuzish jarayonini takomillashtirish uchun huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni kuzatish tizimini yanada rivojlantirish, elektron nazorat mexanizmlarini joriy qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo yicha monitoring tizimini yo'lga qo'yish ham muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o'rtasidagi axborot almashinuvini
kuchaytirish, har bir shaxsning reabilitatsiya jarayonidagi natijalarini doimiy baholab borish va ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun maxsus metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish lozim. "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish uchun shaxsiy yondashuvga asoslangan reabilitatsiya tizimini yaratish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ehtiyojlariga mos ravishda psixologik, ijtimoiy va mehnat yordamini ta'minlash, ularning jamiyatda ijobiy o'rnak bo'ladigan shaxslar bilan muloqotini yo'lga qo yish, kasbiy tayyorgarlik kurslariga jalb qilish va mehnat bozorida munosib o'rin topishiga ko'maklashish kabi masalalar ustuvor yo nalishlardan biri bo lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, profilaktika inspektori va mahalla yettiligining qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish orqali huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvi jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin.

Xulosa qilib aytagnda, ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibdagi "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora-tadbirlarni yakunlash bo'yicha profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish huquqbuzarliklarning oldini olish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon samaradorligini oshirish uchun profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, individual yondashuv asosida ish olib borish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zarur. Elektron nazorat mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning psixologik va ijtimoiy reabilitatsiyasiga e'tibor qaratish, ularni bandlik va ta'lim jarayonlariga jalb etish orqali qayta huquqbuzarlikning oldini olish mumkin.

Shuningdek, qo'shma xulosa tuzish jarayonini tizimli tahlil qilish, baholash va takomillashtirish kelgusida profilaktik tadbirlarning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari, mahallalar hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va barqaror ijtimoiy muhitni yaratish mumkin bo ladi.

UO'K 635.1 /.9.

Fraxinus sogdiana Bunge (Sugdiyonashumtoli): Biologiyasi, Ko'chat Yetishtirish Texnologiyasi

Fraxinus sogdiana Bunge (Согдийский ясень): Биология и Технология Выращивания Саженцев

Fraxinus sogdiana Bunge (Sughd Ash): Biology and Seedling Cultivation Technology

Ilmiy rahbar q.x.f.f.d
Eshanqulov Bobomurod Inayativich
Tayanch doktorant
Zokirov Dostonbek Rustamjon o'g'li
O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti instituti tayanch doktoranti
O'rmon xo'jaligini rivojlantirish innovatsiya markazi
dostonbekzokirov42@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Fraxinus sogdiana Bunge — Sugdiyonashumtoli daraxtining bioekologik xususiyatlari, urug' va ko'chat yetishtirish texnologiyasi, hamda amaliy qo'llanilish sohalari yoritilgan. O'simlikning tabiiy yashash muhiti, o'sish omillari, ekologik ahamiyati va xo'jalikda foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinan.*

Аннотатsiя: *В данной статье освещены биоэкологические особенности* Fraxinus sogdiana *Bunge — согдашского ясеня, технологии выращивания семян и саженцев, а также области его практического применения. Проанализированы естественная среда обитания растения, факторы роста, экологическое значение и возможности использования в хозяйственной деятельности.*

Annotation: *This article highlights the bioecological characteristics of* Fraxinus sogdiana *Bunge — the Sogdian ash tree, the technology of seed and seedling cultivation, and its practical applications. The natural habitat of the plant, growth factors, ecological significance, and its potential uses in various economic sectors are thoroughly analyzed.*

Kalit so'zlar: **:** *Sugdiyonashumtoli, Fraxinus sogdiana, ko'chat yetishtirish, biologik xususiyat, ekologik rol, yog'och xom ashyosi, xalq tabobati.*

Ключевые слова: *Fraxinus sogdiana (Согдийский ясень): Биология, Технология Выращивания Саженцев и Практическое Значение*

Key words: *Fraxinus sogdiana (Sughd Ash): Biology, Seedling Cultivation Technology, and Practical Significance*

Kirish: Fraxinus sogdiana Bunge (Sugdiyonashumtoli) — O‘rta Osiyo va Xitoy janubi-g‘arbida o‘sadigan, o‘rmon barpo etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yirik daraxt turidir. U ekologik muvozanatni saqlash, eroziyaning oldini olish, va iqtisodiy foydali mahsulotlar manbai sifatida ahamiyatlidir. Ushbu maqolada o‘simlikning biologiyasi, ekish texnologiyasi va amaliy qo‘llanilishi haqida ma’lumot beriladi. Shumtol daraxti tez o‘suvchi o‘simlik hisoblanadi. Uning yer yuzasiga yaqin joylashgan, tarvaqaylagan ildiz tizimi yaxshi rivojlanadi. Bu daraxt turining ildizi ham, kesilgan joyidan qayta o‘sish (ko‘kartirish) xususiyati ham kuchli. Shumtol yorug‘sevar o‘simlik bo‘lib, 200–250 yilgacha yashashi mumkin. U har xil tuproq turlarida o‘sishga moslashgan.Shumtol turkumi vakillarining aksariyati Shimoliy yarimsharning mo‘tadil iqlim mintaqalarida o‘sadi. Taxminan 20 turi madaniy holda, ya’ni odamlar tomonidan ekib o‘stiriladi. Ushbu turkum o‘zaro sezilarli farq qiluvchi ikki asosiy bo‘limga – sektsiyaga bo‘linadi Birinchi sektsiya – bu guruhga kiruvchi o‘simliklar barg yozishdan oldin gullaydi. Ularning gullari o‘tgan yilgi novdalar qo‘ltig‘ida hosil bo‘ladi, gultoji bo‘lmaydi, ayrim hollarda hatto kosachasi ham bo‘lmaydi. Ikkinchi sektsiya – bu turkumga barg yozgach gullaydigan, gullari joriy yilgi novdalarning qo‘ltig‘ida rivojlanadigan va gullari ikki qavatli gultojga ega bo‘lgan turlar kiradi. Birinchi sektsiyaga quyidagi mashhur turlar kiradi.

- Oddiy шумтол (Fraxinus excelsior L.)
- Manjuriya шумтоли (Fraxinus manschurica Rupr.)
- Namsevar шумтол (Fraxinus potamophylla Hand.)
- Suriya шумтоли (Fraxinus syriaca Boiss.)
- Tumshuqsimon bargli шумтол (Fraxinus rhynchophylla Hand.)
- Momiq Пенсильвания шумтоли (Fraxinus pubescens Marsh.)
- Yashil lantsetbargli шумтол (Fraxinus viridis Michx.)
- Shuningdek, Amerikadan keltirilgan boshqa turli шумтол navlari ham ushbu guruhga kiradi.

Maqsad: Jizzax viloyatining bo‘z tuproqli hududlarida sug’diyona shumtoli ko‘chatlarini intensiv usulda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni o‘rmon xo‘jaligi tizimiga ilmiy asoslangan tarzda joriy etish juda zarur va o‘z vaqtida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir.

Predmeti: sifatida urug’larning labaratoriya unuvchanligi, urug’larni ekish muddatlari, urug’larni ekish chuqurligi, meniral o’g’it meyorlari, sug’orish rejimi, ko’chatlarga mexanik ishlov berish.

Usullari: Labaratoriya va dala tajribalari, fenologik kuzatuv, biometrik o‘lchash, statistik usullar.

Shumtol o‘simligining xususiyatlari: Sho’r tuproqlarda bemalol o’sa oladi.

Qurg’oqchilikka, xavoning keskin isib ketishiga, sovuqqa chidamli daraxt. O’zining ko’p sonli to’q yashi barglari bilan quyuq soya beradi va yozning issiq paytida daraxt soyasida salqin xavo shakllantiradi.

Parvarish va ko‘paytirish: Sug’diyona shumtolidan o’rmon barpo etish, o’rmon meliorasiyasida foydalanish, ko’kalamzorlashtirish, yog’och olishda foydalanish va ko’chatlarini yetishtirish texnalogiyasini ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Ko‘paytirish texnologiyasi: shumtol asosan generativ usulda, ya’ni urug’i orqali ko‘paytiriladi. Urug’larni undirish uchun suvga solinadi so’ng unib chiqishi yashi bo’ladi. Shuningdek, qalamcha orqali ko‘paytirish ham mumkin, lekin bu usul sekin va kam samarali hisoblanadi.

Introduksiya tarixi: Sug’diyona shumtoli – *Fraxinus sogdiana* Bunge. Xaqida birinchi marta 1852 yilda maqola chop etilgan bo’lsada, bu turni turli yilarda xar xil nomlar bilan atab kelishgan, *Fraxinus oxycarpa* var. *sogdiana* (Бунге) Wenz.- 1883, *Fraxinus potamophila* Пастух. - 1868, *Fraxinus regeli. Диппель.*- 1889, *Fraxinus turkestanica* Карьер. – 1887.

Bioekologik xususiyatlari: Sug’diyona shumtoli - balandligi 20 metrga, tana diametri 60-70 sm gacha o’suvchi daraxt. Novdalari sariq-kulrangdan to’q jigar rangacha bo’ladi, 3-6 bargli, chekalari mayda tishchali. Gullari mayda, martning ikkinchi yarmida gullaydi. mevalari qanotchali, 4 sm uzunlikda va 0,7 sm kenglikda Urug’i cho’zinchoq, tuximsimon shaklda. Tabiiy sharoitlarda asosan urug’idan ko’payadi. Yog’ochi pishiq. Daraxtning tik o’suvchi va qiyshiq o’suvchi shallari mavjud. Sho’r tuproqlarda bemalol o’sa oladi. Qurg’oqchilikka, Havoning keskin isib ketishiga, sovuqqa chidamli daraxt. O‘zining ko‘p sonli to‘q yashil barglari bilan quyuq soya beradi va yozning issiq paytida daraxt soyasida salqin xavo shakllantiradi.

Xulosa: Fraxinus sogdiana Bunge o‘zining biologik barqarorligi va amaliy ahamiyati bilan o‘rmon xo‘jaligida muhim o‘rin egallaydi. Ko‘chat yetishtirish texnologiyasi oddiy va ekologik sharoitga mos holda olib borilishi mumkin. O‘simlikdan samarali foydalanish iqlim o‘zgarishiga moslashish va barqaror landshaftni saqlab qolishda muhim vosita bo‘lishi mumkin..

Bibliografik ro‘yxat:

1. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. Новосибирск: Наука, 1974. - 156 с.
2. Булыгин Н.Е. Дендрология. – Ленинград: Агропромиздать, 1991. - С. 291.
3. ГОСТ 13056.11-68 “Семена деревьев и кустарников. Правила арбитражного определения качества” (1968).
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.- М: Агропромиздат, 2011.- 351 с.
5. Каппер В.Г. Об организации ежегодных систематических наблюдений над плодоношением древесных пород //Труды по лесному опытному делу. – 1930. – С. 103-

147.
6. Кайимов А., Бердиев Э.Т. Дендрология. –Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 252-255 б.
7. Костяков А.Н. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований почв Средней Азии” (1977).
8. Костяков А.Н. Основы мелиорации. Москва, 1951.– С.140–142.
9. Қаландаров М.М. Дарахтзорларда илмий тадқиқот ишларида таксацияга оид ўлчашлар ва ҳисоблаш усуллари // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси журнали. – Тошкент, 2022. – № 4. – 138-146 б.
10. Новосельцева А.И.Справочник по лесосеменному делу.- изд: Лесная промышленность, 1978. – С. 35-105.14.
11. Ефимов В.Н. Система удобрения: Учебник// В.Н.Ефимов, И.Н.Донских, В.П.Царенко: Колос. С, 2002. –с 150.
12. Победов В.С., Шиманский П.С. и др. Справочник по применению минеральных удобрений в лесном хозяйстве. Изд-во «Лесная промышленность», Москва, 1977 с. 62-75.
13. Якимов Н.И., Гвоздев В.К., Праходский А.Н. Лесные культуры и защитное лесоразведение. - Минск, – 2007. С.– 24-90.
14. https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:928001-1
15. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AF%D1%81%D0%B5%D0% BD %D1%8C.
16. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B0%D1%81%D0%BB% D0% B8%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D1%8B%D0%B5.
17. https://wfoplantlist.org/taxon/wfo-0000832962-2023-06?page=1
18. https://dom.ukr.bio/ru/articles/226/.

Mualliflar haqida ma`lumot

1). Zokirov Dostonbek Rustamjon o‘g‘li. O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti instituti tayanch doktoranti, telefon (+998) 94 565-02-34, e-mail: zokirovdostonbek842@gmail.com

Сведение об авторов

2).Закиров Достонбек Рустамжонович Аспирант базовой докторантуры Научно-исследовательского института лесного хозяйства Телефон:(+998 94 565-02-34
Электронная почта: zokirovdostonbek842@gmail.com

Author`s personal details

3). Zokirov Dostonbek Rustamjonovich PhD student, Research Institute of Forestry

Phone: (+998) 94 565-02-34
E-mail: zokirovdostonbek842@gmail.com

Қайта жарроҳликда юрак тўқималарининг зарарланишини камайтиришга қаратилган инновацион ёндашувлар

Turgunov Abdinosir Ismoilovich
PhD, ADTI Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedrasi assistenti.
Tel. number +99894 562-50-02
@mail: doctorabdunosir@gmail
ORCID/0009-0007-1199-8370
Turgunov Botirjon Abdiqayumovich
ADTI Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedrasi assistenti.
Tel. number +99893 002 -93-51
@mail:botircardiosurgery@gmail.com
ORCID/0009-0006-4847-6835
Jo'rayev G'anijon G'ulomovich
PhD ADTI Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedrasi assistenti

Аннотация

Қайта юрак жарроҳлиги (реоперация) — аввалги операциядан сўнг юзага келадиган мураккаб клиник ҳолатлардан бири бўлиб, у юқори хавф даражаси ва тўқима зарарланиши билан тавсифланади. Мазкур мақолада юрак тўқималарининг анатомик ва функционал яхлитлигини сақлаб қолишга қаратилган замонавий инновацион ёндашувлар таҳлил қилинади. Жумладан, минимал инвазив техникалар, роботлаштирилган жарроҳлик, тўқима мослашувчан материаллардан фойдаланиш ва юқори аниқликдаги навигация системалари қўлланилиши орқали тўқималарга етказиладиган шикастланиш даражасини камайтириш имкониятлари кўриб чиқилади. Шунингдек, қайта аралашувларда операцияолди тайёргарлик ва индивидуаллаштирилган жарроҳлик стратегияларининг аҳамиятига ҳам алоҳида эътибор қаратилади. Тақдим этилган ёндашувлар қайта жарроҳлик самарадорлигини ошириш ва асоратлар ривожланишини камайтиришда муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: қайта юрак жарроҳлиги, тўқима зарарланиши, инновацион ёндашувлар, минимал инвазив техникалар, роботлаштирилган жарроҳлик, индивидуаллаштирилган тиббиёт, юрак клапанлари

Кириш

Орттирилган юрак нуқсонлари (ОЮН) дунёнинг қатор минтақаларида, жумладан Ўзбекистон Республикасида ҳам кенг тарқалган. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) ва халқаро Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ўрта Осиё давлатларида ОЮНни замонавий тиббиётнинг долзарб муаммоларидан бири сифатида кўриб

келади[1]. ОЮНлари жарроҳлигида нуқсоннинг аоратланган турлари меҳнатга қобилятли (ўрта ёшдаги) беморлар орасида кенг тарқалганлиги, оғир клиник кечиши, тез декомпенсацияси беморларнинг ҳаёт сифати ёмонлашиши, эрта ногиронлиги билан тавсифланади[2].

Охирги йилларда ОЮНларини ташхислашда янги ёндошув ва даволаш усулларини такомиллаштириш натижалари бўйича юқори самарадорликка эришиш мақсадида қатор илмий-амалий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Ташхисот усулларини такомиллаштириш ва соддалаштириш, хирургик даволаш ва такрорий аралашувларга кўрсатмаларни сезиларли ошиши кўплаб мутахассисларни эътиборини тортмоқда. ОЮНлари жарроҳлигида замонавий механик ва биологик протезларнинг қўлланилиши сунъий протезлар дисфункцияси, протез эндокардити, клапанни обструктив шикастланиши, клапан фистулалари (оқимаси) ривожланишини истисно этмайди. Жаҳон амалиётида ОЮНлари жаррохлигида такрорий хирургик аралашувларнинг улуши 12,8 % дан 24 % гача, шифохонадаги ўлимни учраши 20% дан 55% гачани ташкил қилади[3].

Материаллар ва методлар

ОЮНлари жаррохлик йўналиши, бу кардиология ва кардиохирургияни муҳим қисми ҳисобланади. Бу йўналишда жаҳонда кўплаб изланишлар олиб борилмоқда. ОЮНларида юрак ремоделлашуви жараёнлари ва юрак клапанлари дисфункцияси сабабларини ўрганиш, ташхислаш, консерватив ва хирургик даволаш усулларни такомиллаштириш масаласини ўрганиш шу кабилардандир.

ОЮНларини жарроҳлик йўли билан даволаш усуллари кенг тарқалган. Ушбу тоифадаги беморларда СЮЕнинг оғир даражасини кўплаб учраши даволаш-ташхислаш усулларини муқобиллаштириш учун асос бўлади. 20-асрнинг 60-йилларида сунъий юрак клапанларини протезлаш, 80-йилларда кардиохирургияга рентгенэндоваскуляр амалиётларини жорий этилиши ҳозирги вақтда юракда юқори технологияли операцияларни кўплаб ўтказилишига сабаб бўлди[4]. Шу билан бир қаторда, айрим ҳолларда жарроҳлик тактикасига ёндошувларнинг ноаниқлиги ва операциянинг қониқарсиз натижалари беморларни тахшислаш-даволашни усулларини янада такомиллаштириш зарурлигини белгилайди[5].

Охирги йилларда ОЮНларни даволашда реконструктив-тикловчи амалиётлари билан бир қаторда биопротезлардан фойдаланиш катта қадамлар билан одимлади. Бироқ, адабиётлардаги маълумотларига кўра, биологик клапанларни дисфункциясини учраши 0,5 дан 2,9 гача бемор/ёши кузатилади. Адабиётларда ОЮНларида реконструктив-тикловчи амалиётларни ўтказиш ва ренуқсонларни ривожланиш омилларини баҳолаш, реимплантация учун суньий протезларни танлаш ва такрорий аралашувларни натижалари таҳлили кўплаб музокараларга сабаб бўлмоқда[6].

Натижалар

Тадқиқотда 2012-2023 йилларда академик В.Воҳидов номидаги РИХИАТМнинг катталар кардиохирургияси бўлимида ва АДТИ клиникасининг юрак ва қон-томир жарроҳлиги бўлимида 436 нафар беморларда ўтказилган 470 та такрорий ташҳисот ва хирургик амалиётларнинг натижалари таҳлил қилинган. Касалликнинг давомийлиги ўртача 23,6 йилни, илгари ўтказилган операциялардан ҳозирги ташҳисот ва реоперациягача бўлган давр ўртача 13,7 йилни (6 ойдан 40 йилгача) ташкил этган. Улардан 106 (22,5 %) тасида такрорий операциялар 5 йилгача бўлган даврда ва 364 (77,5 %) тасида - 6-11 йиллар ўтиб ўтказилган.

Беморларнинг ёши 21 ёшдан 72 ёшгача (ўртача ёши 48,7±04 ёш), эркаклар 119 (25,3 %) тани, аёллар 351 (74,7 %) кишини (жинслар бўйича 1:2,94 нисбатни) ташкил қилган. Тадқиқотда 21-40 ёшли беморлар улуши 21,3 % ни, 41-59 ёшли беморлар - 67,2 % ни ва кекса ёшдаги беморлар - 11,5 % ни ташкил қилган.

ОЮНлари жарроҳлигида такрорий операцияларнинг таҳлили икки даврга бўлиб ўрганилган. Биринчи (2012-2017 йиллар) даврда – амалиётлар асосан (61,7 %) ишлаб турган юракда (“ёпик“ комиссуротомия амалиётлари), иккинчи (2017-2023 йиллар) даврда – операцияларнинг катта қисми (86,2 %) сунъий қон айлантириш (СҚА) ва кардиоплегия (КП) шароитида бажарилган

Тадқиқотда беморларга ташхис қўйиш ва такрорий аралашув усулларини аниқлаш учун умумий клиник ва нурли ташхисотлардан фойдаланилган. 45 ёш ва ундан катта бўлган 319 (68,7 %) нафар беморларда КАГ текшируви ўтказилган.

Хулоса

Шундай қилиб, адабиётлар таҳлилидан маълум бўладики, ОЮНларини ривожланишини олдини олишга қаратилган ташхислаш ва даволаш чора-тадбирларини ишлаб чиқишга қаратилган, СЮЕ оғир даражаси ривожланишини олдини оладиган ва асоратланган беморларни даволаш борасида устувор илмий тадқиқотлар олиб борилмаган, мавжуд тадқиқотлар эса муаммонинг ечимини тўлиқ топа олмаган. Шу жиҳатдан, ушбу илмий тадқиқотнинг мақсади ва вазифаси сифатида кўриб чиқилаётган ревматик ОЮНлари жарроҳлигида илгари ўтказилган хирургик амалиётдан кейин ривожланган “ренуқсон”ларни ташхислаш ва даволашнинг барча босқичларини оптималлаштириш, борларини такомиллаштириш зарурияти бугунги кунда ҳам долзарблигича қолмоқда.

Тадқиқотда кичик А гуруҳидаги беморларнинг 24 (36,9 %) тасида, кичик Б гуруҳидаги 6 (9,2 %) нафар беморларда ва кичик В гуруҳидаги 4 (6,15 %) нафар беморларда жарроҳлик аралашувлари вақтида техник қийинчиликлар кузатилган. ОМАКНлари такрорий жарроҳлигида кичик Б гуруҳида 15 (88,2 %) нафар беморларда реоперация

анъанавий усулда, кичик А ва В гуруҳларда такомиллаштирилган усулда ўтказилган. ОМАКН нуқсонларида такрорий операциялардан кейин яхши ва қониқарли натижалар 47 (72,3 %) ҳолатда қайд этилган. Уларда митрал клапанни протезлаш 15 (31,9 %) нафар беморларда анъанавий усулда ва қолган 32 (68,1 %) нафарида такомиллаштирилган усулда ўтказилган. Қониқарсиз натижалар 11 (16,9 %) нафар беморларда кузатилган: 8 (72,7 %) нафарида митрал клапанни протезлаш операцияси анъанавий усулда ва 3 (27,3 %) нафарида такомиллаштирилган усулда бажарилган. Такрорий операциялардан кейинги ўлим 6 (9,2 %) нафар беморларда кузатилган: кичик А гуруҳда ўлим ҳолати 3 (50 %) нафар беморлар, кичик Б гуруҳида 1 (16,7 %) нафар ва кичик В гуруҳида 2 (33,3 %) нафар беморларда кузатилган. ОМАКНлари жарроҳлигида такрорий аралашувлардан кейинги ўлим ҳолати даволашнинг биринчи даврида 17,4 %ни, даволашнинг иккинчи даврида 4,7 %ни ташкил этган.

Изохлар

[1] Всемирная организация здравоохранения исполнительный комитет, 141 сессия, пункт 6.2 предварительной повестки дня. Ревматическая болезнь сердца. Доклад Секретариата. EB 141/4, 1 мая 2017г.

[2] Beyersdorf F, Vahanian A, Milojevic M, et al. Guidelines for the management of valvular heart disease. // Eur J Cardiothorac Surg. 2021; 60: 727-800.

[3] Белов Ю.В., Лысенко А.В., Леднев П.В., и др. Повторная клапанная коррекция у пациента с ревматической болезнью сердца. // Кардиология и сердечно-сосудистая хирургия. 2020; 13 (5): 443-447.

[4] Ata Firouzi, Niloufar Samiei, Somayyeh Ahmadi, et al. Percutaneous Transluminal Mitral Commissurotomy in Pregnant Women with Severe Mitral Stenosis. J. Tehran Heart Cent. 2019 Jan; 14(1): 12-17

6 Хубулава Г. Г., Малиев З. О., Шихвердиев Н. Н., и др. Протез-пациентное несоответствие как предиктор ускоренной структурной дисфункции биологических протезов аортального клапана. // Вестник хирургии имени И. И. Грекова. -2022; - №.181 (1), - С. 21–26.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'XSHATISH QURILMALARI TADQIQI

Xolmuratova Diana Alisher qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti filiologiya fakulteti

Annotatsiya

O'xshatish (metafora, taqqoslash, analogiya va boshqa stilistik vositalar) til vositasi sifatida turli tillarda obrazlilik, emotsional ta'sirchanlik va tushunarlilikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Dunyo tilshunosligida o'xshatish qurilmalari ko'p yillardan buyon semantika, stilistika, madaniyatshunoslik va kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolada ingliz, fransuz, nemis, rus va boshqa tillarda qo'llaniladigan o'xshatish vositalari, ularning tuzilishi, funksiyasi va milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli tillarda o'xshatishning metaforik va metonimik asoslari, universal va milliy o'ziga xosliklari solishtirma yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikdagi kognitiv yondashuvni chuqurlashtirish va tarjima amaliyotida o'xshash vositalardan to'g'ri foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar:
o'xshatish, metafora, stilistik vositalar, kognitiv lingvistika, solishtirma tahlil, milliy-madaniy xususiyat, metaforik model, til va tafakkur, analogiya, tarjima

Til jamiyatda kishilar o'rtasidagi munosabatni ta'minlaydi, ma'lum voqelik haqida axborotlarni yetkazadi. Shuningdek, kishi ruhiyatiga ta'sir etib, estetik zavq beradi va madaniy, milliy, iqtisodiy taraqqiyot, hayotning barcha jabhalari bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Har qanday fan tarixni, jumladan, o'zbek tilshunosligi tarixini tadqiq qilish va o'rganish ham ma'naviyatimizning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

"Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar[1]. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi[2]. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarashlarga ko'ra, til nafaqat madaniyat bilan bog'liq, balki u o'zida madaniyatning o'sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o'zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta'minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma'naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish , materiallari real yaratiladi.

Ana shu g'oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga

keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.
Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida sotsial guruh.
Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi.
Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarni ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullandi.
Tavsifiy lingvokuturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtayi nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyekti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar olingan.
Lingvokulturologik leksikografiya. Lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi[3]. Lingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Malsevaning lingvoo‘lkashunoslik lug‘atini keltirishimiz mumkin. Bu lug‘at 25 bobdan iborat. Unda Germaniya realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf- odatlar, an’analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi; uzunlik, og‘irlik, hajm, yuza; savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan. Shuningdek, lug‘atda berilgan ma’lumotlar ichidan til, kitobatchilik, xattotlik san’ati, talaba va talabalar hayoti, maktab, milliy kiyim-kechak spetsifik elementlari, milliy taomlar, milliy o‘yinlar, milliy raqslar, an’anaviy ko‘rishish usullari va tilaklar, etiketga xos jumlalar, shaxsiy ism va familiyalar, milliy imo-ishoralar, badiiy ijod namunalari, aforizm, milliy xarakter kasb etuvchi olmon qo‘shiqlari joy olgan.

[3] см.: Amerikana. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. – Смоленск, 1996; Рума Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. – М., 1999; Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. – М., 1998; Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. – М., 1997; Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. – М., 1995; Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. – М.,

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bunday lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini yaratishda til va madaniyat munosabati xarakterini to‘g‘ri belgilash o‘ta muhim sanaladi.
Hozirgi kunda lingvokulturologiya tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri ekan, u

o‘zining muayyan rivojlanish bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.V.Maslova ushbu soha rivojini 3 bosqichga ajratadi:
fan shakllanishiga sabab bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, A.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);
lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;
lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi[4].
Lingvokulturologiyaning rivojida Moskva lingvokulturologik maktablari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma’lumki, Moskva lingvokulturologik maktablari
XX asr oxirlarida paydo bo‘ldi. Bu borada rus tilshunoslaridan Y.S.Stepanov, N.D.Arityunova, V.N.Teliya, V.A.Vorobyovlar asos solgan bir qancha maktablar yuzaga keldi:
Y.S.Stepanov lingvokulturologik maktabi. Bu maktab metodologiya bo‘yicha E.Benvenist konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, o‘zida madaniyatni aks ettiruvchi til birliklarining diaxronik aspektini tekshirish bilan shug‘ullangan. Ular o‘z maqsadlarini turli davrlarga oid matnlarini solishtirish orqali amalga oshirishgan.
N.D.Arutyunov maktabi turli davr va xalqlarga oid matnlardan olingan universal madaniy terminlarni o‘rganish bilan shug‘ullangan.
V.N.Teliya maktabi esa, frazeologizmlarni lingvokulturologik analiz qiluvchi Moskva maktabi sifatida Rossiya va chet davlatlarda taniqlidir. Teliya va uning shogirdlari til va uning haqiqiy mohiyatini semantik madaniyat nigohida, uni

ham tilshunoslik, ham madaniyat subyekti sifatida o‘rgandi. Uning konsepsiyasi A.Vejbitskaya pozitsiyasiga yaqin (lingua – mentalis – mental lingvistika).
V.V.Vorobyov va V.M.Shaklein va boshqalar Rossiya xalqlar do‘stligi universitetida tashkil etgan lingvokulturologik maktabida V.M.Vereshagin,V.G.Kostomarov konsepsiyasi rivojlandi.
Shunday qilib, **lingvokulturologiya** – o‘z ichiga olgan jonli milliy tilni va tilda paydo bo‘ladigan o‘zgarishlarni ijtimoiy-madaniy jarayonda o‘rganuvchi gumanitar soha sanaladi. U tilning fundamental funksiyalaridan biri bo‘lib, tilning rivojlanishi, saqlanishi madaniy translyatsiyasini o‘z ichiga oladi.
Ayni damda inson va jamiyat o‘rtasida quyidagi farqlar ko‘zga tashlanadi:
Kommunikatsiya vositasi sifatida til xalq madaniyatida va taraqqiyotda yuz bergan o‘zgarishlarni ozmi-ko‘pmi aks ettiradi.
Madaniyatning belgi sistemasiga o‘tishi tildan farqli ravishda mustaqil shakllanish xususiyatiga ega emas.
Til va madaniyat boshqa-boshqa (semiotik) belgi tizimidir. Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni tilga ozomorf emas, balki “gamomorf”, ya’ni aloqador ekanligini isbotlaydi.
Lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining madaniy ahamiyatini nutqiy vaziyat

birliklari – frazeologizmlar yoki boshqa ekstralingvistik til birliklari, madaniyatning ma’lum “kodlarini” ifoda etuvchi simvolik belgilarni solishtirish asosida ish yuritishdan iboratdir.
Lingvokulturologiya uchun taraqqiyotga nisbatan madaniyatni o‘rganish muhimroq sanaladi, chunki taraqqiyot moddiy, madaniyat esa ramziydir. Mif, urf- odatlar, marosimlar madaniyatga xos, ular xalqning turmushi va marosimlari shaklida til birliklari va ifodalarida jo bo‘ladi. Shu sababli, ulardagi til birliklari lingvokulturorologiyaning obyekti sirasiga kiradi.
XX asr boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib,
o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandir”[5]. G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, ”Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”[6].
Hozirgi kunda dunyo tilshunosligida ko‘plab tillarning turg‘un o‘xshatishlar lug‘ati tuzilgan. Masalan, ingliz tilining turg‘un o‘xshatishlari lug‘ati 1924-yilda J.Frank Vilstax tomonidan «Dictionary of Similes» (O‘xshatishlar lug‘ati) yaratilgan. Lug‘atning ikkinchi nashri taxminan 20 mingga yaqin turg‘un va individual – muallif o‘xshatishlarni o‘z ichiga oladi.
Rus tilida turg‘un o‘xshatishlar lug‘ati ko‘plab rus tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan. Lebedeva tomonidan tuzilgan “Устойчивые сравнения русского языка”[7] lug‘atida 12000ga yaqin rus xalqining nutqiga barqarorlashgan o‘xshatishlar asoslab berilgan. Lug‘atda asos so‘z yuqoriga chiqarilib, ma’nosi, qanday vaziyatda ishlatilishi, misollar bilan izohlar o‘rin olgan. Y.Ogolseva “Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический)[8] lug‘ati orqali turg‘un o‘xshatishlarning aksariyati ko‘p ma’noli ekanligi va ular o‘rtasida sinonimik-antonimik va graduonomik munosabatlar mavjudligini aytadi.
V.M.Mokiyenko tomonidan yaratilgan katta rus milliy o‘xshatishlar lug’ati (Болшом словаре русских народных сравнений) 45 mingga yaqin rus xalqi milliy tilidagi turg‘un, xususiy, xalq sheva va jargonlaridagi o‘xshatishlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to‘g‘risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik.-Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 23-40.
[2]Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М., 1987. – С.654.

[3] см.: Amerikana. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. – Смоленск, 1996; Рума Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. – М., 1999; Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. – М., 1998; Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. – М., 1997; Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. – М., 1995; Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. – М., 1999; Томахин Т.Д. США: Лингвострановедческий словарь. – М., 1999; Франция: Лингвострановедческий словарь / Под ред. Л. Г. Ведениной. – М., 1997. –С.342.

[4]Маслова В.А. Лингиокультурология. – М.: Академия, 2001. –С.24-28

[5] Телия В.Н. Русская фразеология. – М., 1982. – С. 20-25.

[6]Bu haqda qarang: Маслова В.А. Лингиокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 154.

[7] Тематический словарь. Краснодар. Кубанский ГУ, 2003. – С.564.

[8] М., Русские словари. АСТ. Астрел, 2001. – С.650.

Profilaktika inspektorining ilgari talonchilik jinoyatlari sodir etgan shaxslar bilan ishlashda yakka tartibdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini qo‘llash faoliyatini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs 315-guruh kursanti
Xakimov Bahrom Ikrom o'g'li
Ilmiy rahbar: Fuqaroviy va huquqiy fanlar
kafedrasi dotsenti kapitan
Sh.X.Kushboqov

Annotatsiya:**Ushbu maqolada profilaktika inspektorining ilgari talonchilik jinoyatini sodir etgan shaxslar bilan olib boradigan yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada qayta jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarning psixologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan moslashuvi, ularni jamiyatga qayta integratsiya qilishda profilaktika inspektorining o‘rni, shuningdek, individual yondashuvning samarali metodlari tahlil qilinadi.**

Kalit so‘zlar:**Profilaktika inspektori, yakka tartibdagi profilaktika, talonchilik jinoyati, retsidiv, ijtimoiy moslashuv, psixologik yondashuv, nazorat, reabilitatsiya, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi.**

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi — jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish, shuningdek, ilgari jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyat hayotiga qayta jalb etishdan iboratdir. Ayniqsa, talonchilik kabi ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda ishlash masalasi bugungi kunda alohida e’tiborni talab etadi. Chunki bunday shaxslar ko‘pincha iqtisodiy, psixologik yoki ijtimoiy muammolar sababli qayta jinoyat yo‘liga kirish xavfiga ega bo‘ladi. Shu bois, profilaktika inspektorlari ularning hayot tarzi, psixologik holati va ijtimoiy muhitini chuqur o‘rganib, shaxsiy yondashuv asosida faoliyat yuritishlari lozim [1].

Yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlari, avvalo, shaxsning shaxsiy hayot tarzi, oilaviy muammolari, ijtimoiy aloqalari va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Profilaktika inspektori ushbu shaxslar bilan muntazam ravishda suhbatlar o‘tkazib, ularning psixologik kayfiyatini, kelajakdagi rejalari va ijtimoiy pozitsiyasini tahlil qilishi zarur. Shu bilan birga, ularning bandligini ta’minlash, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, o‘qish yoki kasb-hunar o‘rganish jarayoniga jalb etish ham qayta ijtimoiylashtirishning muhim omillaridan biridir [2].

Talonchilik jinoyatini sodir etgan shaxslarning aksariyati yoshlar orasida uchrashi, ularning ijtimoiy muhitdan ajralganligi yoki yengil yo‘l bilan daromad topishga odatlanganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun, profilaktika inspektori ularning oilasi, yashash joyidagi jamoa, mahalla faollari va psixologlar bilan hamkorlikda ishlashi kerak. Ayniqsa, mahalla profilaktika kengashlari bilan birgalikda bunday shaxslarning nazoratini olib borish, ularni ijobiy faoliyatga yo‘naltirish va ijtimoiy moslashuviga sharoit yaratish zarur [3].

Yakka tartibdagi ishlarda psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ilgari jinoyat sodir etgan shaxslarning ko‘pchiligi o‘zini jamiyatdan ajralgan, ishonchsiz yoki inkor etilgan deb hisoblaydi. Profilaktika inspektori shunday holatda shaxs bilan ishonchli aloqa o‘rnatishi, uni jamiyatga foydali inson sifatida ko‘rishga undashi lozim. Psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali shaxsda ijobiy o‘zgarishlarga erishish, unda mehnat qilishga, qonunga bo‘ysunishga va ijtimoiy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni shakllantirish mumkin.

Huquqbuzarliklarning qayta sodir etilishiga qarshi kurashda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhimdir. Masalan, profilaktika inspektori tomonidan nazoratdagi shaxslar haqidagi ma’lumotlar elektron bazalarda yuritilishi, ularning ijtimoiy faolligi, ish joyi yoki yashash joyi bo‘yicha o‘zgarishlar doimiy monitoring qilinishi lozim. Bu esa qayta jinoyat sodir etish xavfini oldindan aniqlash va profilaktik chora ko‘rish imkonini beradi [4].

Profilaktika inspektorining faoliyatida jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish ham dolzarb masaladir. Mahalla raislari, yoshlar yetakchilari, diniy ulamolar va psixologlarning hamkorlikdagi ishlari natijasida jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish mumkin. Bunday yondashuv insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, “inson – eng oliy qadriyat” g‘oyasiga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, ilgari talonchilik jinoyatini sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish zarur:

psixologik diagnostika va reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish;

ish bilan bandlik va kasb-hunar o‘qitish dasturlarini joriy etish;

mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlash;

profilaktika inspektorlarini zamonaviy kommunikatsiya va psixologik yondashuv usullariga o‘rgatish.

Bu yo‘nalishlar asosida olib boriladigan tizimli ishlar jinoyatchilikni kamaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 14-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hujjatlari to‘plami. — Toshkent, 2023.
3. G‘afurov S., “Huquqbuzarliklarning oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlari”, Toshkent, 2022.
4. Normurodov B., “Profilaktika faoliyatining zamonaviy mexanizmlari”, Jurnal: Huquq va Xavfsizlik, 2021.

DAVLAT XAVFSİZLİK XİZMATİ ORGANLARİNİNG HUQUQBUZARLİKLAR PROFİLAKTİKASİ FAOLİYATİNİ TAKOMİLLASHTİRİSHDA HAMKORLİKNİNG O‘RNİ VA DOLZARBLİGİ

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs 315-guruh kursanti
Nematillayev Samandarbek Xayrulla o'g'li
Ilmiy rahbar:Huquqbuzarliklar profilaktikasi
faoliyati kafedrasi dotsenti,
y.f.b.f.d, **Sh.Dj.Xaydarov**

Annotatsiya:**Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati, hamkorlik tizimi va uni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Davlat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika choralari, axborot xavfsizligi, korrupsiyaga qarshi kurash, yoshlar ongiga g‘oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish yo‘nalishlaridagi sa’y-harakatlar tahlil etilgan. Shuningdek, boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlikni yanada samarali qilish uchun amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.**

Kalit so‘zlar:**Davlat xavfsizlik xizmati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, milliy xavfsizlik, hamkorlik, axborot xavfsizligi, profilaktik choralar, g‘oyaviy tahdidlar, korrupsiyaga qarshi kurash, huquqiy hamkorlik, tahlil va monitoring.**

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy xavfsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari jamiyat barqarorligi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) mamlakat xavfsizlik tizimining markaziy bo‘g‘ini sifatida nafaqat tashqi tahdidlarga, balki ichki xavf omillariga qarshi ham faoliyat yuritadi. DXX faoliyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki xavfsizlik faqat jinoyat sodir bo‘lgach emas, balki unga zamin yaratuvchi holatlar paydo bo‘lishidan avval bartaraf etilishi zarur [1].

Davlat xavfsizlik xizmati organlarining asosiy vazifalaridan biri — milliy manfaatlarga tahdid soluvchi omillarni erta aniqlash, ularning manbalarini tahlil qilish va zararsizlantirishdan iboratdir. Bunda profilaktika ishlari strategik darajada olib boriladi. Masalan, DXX ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va axborot sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni doimiy ravishda monitoring qiladi. Bu jarayonda xavfsizlik tahlillari, axborot almashinuvi va tezkor ogohlantirish mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega [2].

Huquqbuzarliklarning oldini olishda DXXning boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi juda muhim o‘rin tutadi. Xususan, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Bosh prokuratura, hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda olib borilayotgan kompleks profilaktik chora-tadbirlar ijobiy samara bermoqda. Masalan, 2023-yilda DXX tashabbusi bilan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan 1 200 dan ortiq qo‘shma tekshiruv va monitoring tadbirlari o‘tkazilgan, natijada yuzlab noqonuniy faoliyat holatlari aniqlanib, ularning oldi olingan [3].

DXX faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u faqatgina jinoyatga qarshi kurash bilan cheklanmaydi, balki axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari bilan kurashadi. Bugungi raqamli davrda axborot maydonida turli tahdidlar, soxta ma’lumotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi g‘arazli targ‘ibotlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, DXX axborot xavfsizligini mustahkamlash, axborot oqimini tahlil qilish va kiberxavfsizlikni ta’minlashni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab olgan [4].

Huquqbuzarliklarning profilaktikasida g‘oyaviy-ma’naviy yo‘nalish ham muhim o‘rin tutadi. DXX boshqa davlat organlari va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlarni milliy g‘oya, vatanparvarlik, huquqiy madaniyat va axborot savodxonligi ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratmoqda. Chunki, har qanday xavfsizlik choralari inson ongida barqaror qadriyatlar bilan mustahkamlanmaguncha, u to‘liq natija bera olmaydi.

Shuningdek, DXX faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurash, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni oldini olish kabi yo‘nalishlar ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda Markaziy bank, Moliya vazirligi va Bosh prokuratura bilan o‘zaro axborot almashish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu tizim jinoyatlarning moliyaviy manbalarini erta aniqlash imkonini bermoqda [5].

Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun bir nechta yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, xavfsizlik tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalar, tahliliy algoritmlar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Ikkinchidan, davlat organlari o‘rtasida yagona elektron ma’lumotlar almashish tizimini shakllantirish, bu orqali hamkorlikni tezkorlashtirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish kerak. Uchinchidan, xavfsizlik xodimlarining kasbiy mahorati va psixologik barqarorligini oshirish uchun muntazam o‘quv-trening dasturlarini amalga oshirish muhimdir.Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati — bu nafaqat jinoyatchilikni kamaytirish, balki milliy xavfsizlikni har tomonlama mustahkamlashning

asosiy omilidir. DXXning boshqa davlat organlari bilan tizimli hamkorligi, axborot xavfsizligini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurash va yoshlar ongida huquqiy madaniyatni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda olib borayotgan ishlari mamlakatimiz xavfsizlik tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati hisobotlari, 2023-yil.
4. Karimov B. ***Axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlik masalalari.*** – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
5. Xudoyberdiyev R. ***Huquqbuzarliklar profilaktikasida davlat organlari hamkorligi.*** – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020.

PROFİLAKTİKA İNSPEKTORİNİNG AHOLİ O‘RTASİDA HUQUQİY TARG‘İBOT FAOLİYATİNİ TAKOMİLLASHTİRİSH

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs kursanti
Bekmurodov Nizombek Erkinovich
Ilmiy rahbar:yu.f.b.f.d **O.X.Narzullayev**

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarning qonunlarga hurmat bilan qarashini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda profilaktika inspektorining o‘rni va vazifalari tahlil etilgan. Shuningdek, huquqiy targ‘ibot ishlarini zamonaviy uslublar asosida olib borish hamda aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Profilaktika inspektori, huquqiy targ‘ibot, huquqiy madaniyat, fuqarolik ong, qonuniylik, huquqiy ta’lim, ijtimoiy barqarorlik, jamoatchilik bilan hamkorlik.

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, qonuniylik va tartibni mustahkamlash, aholining huquqiy savodxonligini oshirish profilaktika inspektorining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki profilaktika inspektori nafaqat huquqbuzarliklarni aniqlovchi va ularning oldini oluvchi shaxs, balki fuqarolarning ongiga qonuniy qadriyatlarni singdiruvchi targ‘ibotchi hamdir.

Huquqiy targ‘ibot faoliyatining samaradorligi birinchi navbatda, aholining turli toifalariga — yoshlar, o‘qituvchilar, tadbirkorlar, mahalla faollari va boshqa qatlamlarga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvga bog‘liq. Shu bois profilaktika inspektorlari o‘z faoliyatida aholining psixologik xususiyatlari, ijtimoiy sharoitlari va hududiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, huquqiy targ‘ibot dasturlarini ishlab chiqishlari zarur. Bu borada mahalla fuqarolar yig‘inlari, ta’lim muassasalari, diniy idoralar va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, huquqiy targ‘ibot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham dolzarb masalalardan biridir. Bugungi raqamli jamiyatda aholiga huquqiy ma’lumotlarni yetkazish, ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarga qonuniy maslahatlar berish, onlayn targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish profilaktika inspektorining faoliyatini sezilarli darajada samarali

qiladi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqiy videoroliklar, interaktiv seminarlar, testlar va vebinarlar orqali huquqiy madaniyatni oshirish bo‘yicha ishlarni kengaytirish lozim.

Profilaktika inspektorining huquqiy targ‘ibot faoliyatida individual yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Har bir fuqaroni huquqiy ong jihatidan baholab, ularning huquqiy ehtiyojlariga mos ma’lumotlar berish orqali ishonchli aloqa o‘rnatish mumkin. Shu maqsadda “profilaktik suhbatlar” tizimi takomillashtirilib, u faqat nazorat yoki ogohlantirish shaklida emas, balki ijobiy psixologik muloqot, tushuntirish, maslahat tarzida olib borilishi kerak.

Huquqiy targ‘ibotning muhim jihatlaridan biri — fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Mahalla yetakchilari, xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari va diniy soha vakillari ishtirokida o‘tkaziladigan suhbatlar va uchrashuvlar aholi orasida huquqiy madaniyatni shakllantirishda katta samara beradi. Shu bilan birga, huquqiy targ‘ibot faoliyatida profilaktika inspektorlari ijtimoiy psixologik bilim va kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari ham talab etiladi, chunki ular bevosita odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [1] hamda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun [2] profilaktika inspektorlariga huquqiy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bir qatorda, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish profilaktika faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.Profilaktika inspektorining aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot faoliyatini takomillashtirish — bu nafaqat huquqbuzarliklarning kamayishiga, balki fuqarolarning qonunlarga sadoqatini mustahkamlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladigan muhim omildir. Bu yo‘nalishda har bir profilaktika inspektori o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashib, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda, fuqarolarga yaqin va ishonchli hamkor sifatida faoliyat yuritmog‘i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni,
3. Nurmatov, A. “Huquqiy madaniyat va fuqarolik ongini rivojlantirish yo‘nalishlari”. – Toshkent: Adolat, 2022.
4. Qodirov, M. “Ichki ishlar organlari faoliyatida targ‘ibotning psixologik asoslari”. – Toshkent, 2023.

Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyati va yo‘nalishlari hamda boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs 315-guruh kursanti
Nematillayev Samandarbek Xayrulla o'g'li
Ilmiy rahbar:Huquqbuzarliklar profilaktikasi
faoliyati kafedrasi dotsenti,
y.f.b.f.d, Sh.**Dj.Xaydarov**

Annotatsiya:**Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati, uning asosiy yo‘nalishlari hamda boshqa davlat idoralari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Unda milliy xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, korrupsion xavflarni kamaytirish, shuningdek, axborot xavfsizligini mustahkamlashda davlat xavfsizlik organlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada profilaktik faoliyatni takomillashtirishning huquqiy, tashkiliy va axborot-kommunikatsion asoslarini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.**

Kalit so‘zlar:**Davlat xavfsizlik xizmati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, milliy xavfsizlik, hamkorlik, jinoyatchilik, axborot xavfsizligi, profilaktika yo‘nalishlari, davlat idoralari o‘zaro hamkorligi, xavfsizlik siyosati, huquqiy mexanizmlar.**

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida ushbu sohaning asosiy tamoyillari, maqsadlari va subyektlari aniq belgilab berilgan. Ushbu subyektlar orasida **Davlat xavfsizlik xizmati (DXX)** alohida o‘ringa ega bo‘lib, u milliy xavfsizlik, jamiyat barqarorligi va davlat suverenitetini himoya qilishda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. DXXning faoliyati nafaqat jinoyatlarni aniqlash va ularning oldini olish bilan, balki ularni keltirib chiqaruvchi xavfli omillarni bartaraf etish bilan ham uzviy bog‘liqdir [1].

Huquqbuzarliklarning oldini olishda Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyatining o‘ziga xos jihati shundaki, ularning asosiy maqsadi — jamiyatda beqarorlik, ekstremizm, separatizm, korrupsiya va boshqa xavfli jarayonlarning ildizini erta bosqichda aniqlash va zararsizlantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, DXX profilaktik faoliyatni strategik darajada olib boradi. Masalan, u axborot xavfsizligini ta’minlash, yoshlarni radikal

g‘oyalardan himoya qilish, korrupsion xavflarni kamaytirish va davlat sirlarini saqlash bo‘yicha muntazam monitoringni amalga oshiradi [2].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xavfsizlik tizimining huquqiy asoslari yanada mustahkamlanib, DXX faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezident tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar asosida xizmatning vakolatlari aniq belgilab berildi, ularning boshqa davlat organlari — xususan, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya va Adliya vazirligi bilan hamkorligi tizimli tus oldi. Bu esa profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish, ma’lumot almashish va tezkor axborot tahlilini yo‘lga qo‘yish imkonini berdi [3].

DXX faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning boshqa davlat idoralari bilan o‘zaro aloqasiga bog‘liq. Masalan, Ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan qo‘shma reydlar, jinoyatchilikka qarshi kompleks profilaktik tadbirlar, ma’lumotlar bazasi integratsiyasi hamda xavfsizlikka oid birgalikdagi tahliliy ishlar yuqori natija bermoqda. Shu bilan birga, prokuratura organlari bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarning sabablarini o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. Bu esa huquqbuzarliklarning ildizini chuqur tahlil qilish va tizimli yondashuv asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi [4].

Bundan tashqari, DXX profilaktik faoliyatida **axborot xavfsizligi yo‘nalishi** alohida ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda kiberjinoyatchilik, yolg‘on axborot tarqatish va ijtimoiy tarmoqlar orqali provokatsion xabarlar tarqalishining oldini olish milliy xavfsizlikning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu sababli, DXX axborot maydonida monitoring tizimini takomillashtirish, internetdagi tahdidlarni erta aniqlash va ularni neytrallashtirish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarni joriy etmoqda.

Profilaktika samaradorligini oshirishda **psixologik va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlar** ham muhim o‘rin tutadi. DXX xodimlari boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish bo‘yicha ma’rifiy dasturlarni amalga oshirmoqda. Chunki har qanday xavfsizlik choralari, eng avvalo, inson ongidagi barqarorlik va milliy g‘oya bilan mustahkamlanadi.

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining takomillashtirilishi uchun bir nechta yo‘nalishlar alohida e’tiborga loyiq. Birinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida yagona elektron axborot tizimini yaratish zarur, bu orqali jinoyatchilik, terrorizm yoki korrupsiya bilan bog‘liq ma’lumotlarni tezkor almashish mumkin bo‘ladi. Ikkinchidan, profilaktika faoliyatiga zamonaviy axborot-analitik metodlarni joriy etish, uchinchidan esa xodimlarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini oshirish muhimdir. Chunki, zamonaviy xavfsizlik muhitida xodimlardan nafaqat yuridik bilim, balki tahliliy fikrlash, kommunikatsion malaka

va stressga bardoshlilik ham talab etiladi.Xulosa qilib aytganda, Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini yanada takomillashtirish — bu mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik va milliy manfaatlarni himoya qilishning muhim kafolatidir. DXXning boshqa davlat organlari bilan tizimli hamkorligi, ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish hamda huquqbuzarliklarning ildiz sabablariga qarshi kurashish choralari ushbu tizim samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 14-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy xavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil.
3. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Nizom. — Toshkent, 2023.
4. Jo‘rayev B., “Huquqbuzarliklar profilaktikasida davlat organlari hamkorligi”, Toshkent: Huquq va Xavfsizlik jurnali, 2021.
5. Karimov A., “Axborot xavfsizligi va milliy manfaatlar”, Toshkent, 2020.

QOYATOSH SUR’ATLARINING ISHLANISH USLUBLARI.

Fayzulloyeva Xurshidabonu O’lmas qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix talim yo’nalishi 1TAR23 guruh talabasi
U2402236@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada insoniyatning dastlabki badiiy tafakkur namunalari bo‘lgan qoyatosh suratlarining ishlanish uslublari, ularning tarixiy bosqichlari hamda estetik va ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda toshga o‘yib chizish, qirg‘ich bilan qirralash, bo‘yoq yordamida tasvir berish kabi qadimiy texnikalar o‘rganilib, ularning arxeologik yodgorliklar tarkibidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston hududidagi Sarmishsoy, Zarautsoy, Takatosh kabi qoyatosh suratlari misolida mahalliy uslublarning o‘ziga xos jihatlari va badiiy evolyutsiyasi tahlil etiladi. Maqola qadimiy tasviriy san’atning inson tafakkurini, diniy qarashlarini va mehnat jarayonini aks ettirishdagi o‘rnini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

Аннотация: В данной статье анализируются способы создания наскальных изображений — первых проявлений художественного мышления человечества, их исторические этапы, эстетическое и социальное содержание. В исследовании рассматриваются древние техники, такие как гравировка на камне, процарапывание и нанесение рисунков с использованием красок, а также их роль в составе археологических памятников. На примере наскальных изображений Сармышсая, Зараутсая и Така-Таша, расположенных на территории Узбекистана, раскрываются особенности местных художественных стилей и их эволюция. Статья научно обосновывает значение древнего изобразительного искусства в отражении мировоззрения, религиозных представлений и трудовой деятельности человека.

Abstract: This article analyzes the methods of working with rock paintings, which are examples of the earliest artistic thinking of mankind, their historical stages, and their aesthetic and social content. The study studies ancient techniques such as rock carving, scraping, and painting, and highlights their role in the structure of archaeological monuments. Also, the specific aspects of local styles and artistic evolution are analyzed using the example of rock paintings such as Sarmishsay, Zarautsay, and Takatash in Uzbekistan. The article shows the role of ancient fine arts in reflecting human thinking, religious views, and the labor process on a scientific basis.

Kalit so’zlar: qoyatosh suratlari, petroglif, tasviriy san’at, arxeologiya, ibtidoiy jamiyat, o‘yma uslub, Sarmishsoy, Zarautsoy.

Ключевые слова: наскальные рисунки, петроглифы, изобразительное искусство,

археология, первобытное общество, стиль резьбы, Сармишсай, Зараутсай.
Keywords: rock paintings, petroglyph, fine arts, archeology, primitive society, carving style, Sarmishsay, Zarautsay.

Insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlari haqida yozma manbalar mavjud bo‘lmaganligi sababli, o‘tmish hayotini o‘rganishda arxeologik topilmalar, ayniqsa qoyatosh suratlari (petrogliflar) muhim ahamiyat kasb etadi. Qoyatosh suratlari — bu ibtidoiy jamiyat insonlarining dunyoqarashi, diniy tasavvurlari, mehnat faoliyati va estetik didini ifodalovchi eng qadimiy badiiy yodgorliklardir.

Petrogliflar O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Fransiya, Ispaniya, Hindiston kabi ko‘plab hududlarda topilgan bo‘lib, ular inson tafakkurining ilk shakllanish bosqichlarini yoritib beradi. Tadqiqotchilar fikricha, bu suratlar Paleolit davridan to Temir davrigacha bo‘lgan uzoq tarixiy jarayonni qamrab oladi.

Qoyatosh suratlari nafaqat badiiy namuna, balki o‘sha davr madaniy hayotining “toshga muhrlangan xronikasi” sifatida ham katta ilmiy qimmatga ega. Ular orqali ibtidoiy insonning tabiat bilan munosabati, ovchilik jarayonlari, diniy marosimlari va ijtimoiy hayoti haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Asosiy qism

1. Qoyatosh suratlarining paydo bo‘lishi va tarixi

Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, eng qadimiy qoyatosh suratlari Paleolit davrining oxiri (miloddan avvalgi 30–10 ming yilliklar) ga mansub. Dastlabki tasvirlar asosan hayvonlar — bug‘ular, otlar, ho‘kizlar, yovvoyi echkilar, arxarlar shaklida tasvirlangan. Bu suratlar insonning ovchilik faoliyati va tabiatga bo‘lgan e’tiqodiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

O‘zbekiston hududidagi Zarautsoy (Surxondaryo viloyati) qoyatosh suratlari Markaziy Osiyoda eng qadimgi petrogliflar sirasiga kiradi. U yerda ov sahnalari, hayvonlar, raqsga tushayotgan insonlar tasviri uchraydi. Ushbu suratlar Neolit–Bronza davri (mil. avv. IV–II ming yillik) oralig‘ida ishlangan deb hisoblanadi.

2. Ishlanish uslublari va texnikalar

Qoyatosh suratlarining ishlanish uslublari har xil bo‘lgan, ammo ularning barchasi tabiiy sharoitga mos ravishda ishlab chiqilgan. Asosiy uslublar quyidagilardir:

- blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish. Bank kredit bitimlari va kafolat jarayonlarida blokcheyn texnologiyasini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Bu kredit shartnomalari shaffofligini ta’minlaydi, kredit tarixi va garov ma’lumotlarini soxtalashtirishdan himoya qiladi hamda xalqaro to‘lovlar va eksport-import operatsiyalarida ishonchni oshiradi.
- “Open banking” (ochiq bank xizmatlari) modeli. “O‘zmilliybank” AJ Fintech kompaniyalari bilan integratsiyani kuchaytirib, “Open API” tizimini yo‘lga qo‘ymoqda. Bu mijozlar haqida turli platformalar orqali to‘plangan ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Natijada, kredit baholash yanada aniq, tez va ishonchli bo‘ladi.
- yashil va barqaror moliyalashtirish. “O‘zmilliybank” AJ O‘zbekistonda “yashil kreditlash”ni rivojlantirayotgan ilk banklardan biridir. Masalan, bankda quyosh panellari, shamol turbinalari va energiya tejamkor uskunalar sotib olish uchun maxsus imtiyozli kredit

liniyalari joriy etilgan. Ushbu yo‘nalish bankning xalqaro reyting agentliklari oldidagi barqarorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

- sun’iy intellekt asosida risk-menejment. “O‘zmilliybank” AJda kredit risklarini monitoring qilishda sun’iy intellekt tizimlari joriy etilgan. Ular kredit portfelini har kuni tahlil qilib, potentsial muammoli kreditlarni oldindan aniqlashga imkon beradi. Mazkur tizim kredit defoltlarini kamaytiradi, risklarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi va bank kapitali yetarlilik darajasini barqaror ushlab turadi.

Shuningdek, “O‘zmilliybank” AJ tomonidan joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda (1-jadval):

1-jadval

O‘zmilliybank tomonidan joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar yo‘nalishlari va natijalari[1]

Yo‘nalishlari	Natijalari
raqamli skoring	kredit ajratish tezligi 2 barobarga oshdi
blokcheyn asosida bitimlar	korrupsiya va soxtalashtirish xavfi kamaydi
sun’iy intellekt va risk-menejment	kredit yo‘qotishlari 15–20 % ga qisqardi
yashil kredit liniyalari	2024-yilda 200 mlrd. so‘m ekologik loyihalar moliyalashtirildi
open banking	fintech integratsiyasi orqali yangi mijozlar oqimi 30 % ga oshdi

“O‘zmilliybank” AJ tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya va “yashil” moliyalashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada bank kredit portfeli sifatini oshirish, risklarni kamaytirish, xalqaro moliya institutlari bilan reytingini mustahkamlash hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va ishonchliligini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlamoqda. Kelgusida esa raqamli ekotizimga to‘liq integratsiyalashuv, mijozlar bilan “open banking” platformalarida ishlash, hamda sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan kredit siyosati “O‘zmilliybank” AJ kreditga layoqatlilikni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, “O‘zmilliybank” AJ uchun kreditga layoqatlilikni oshirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamli texnologiyalar, altarnativ ma’lumotlar tahlili, yangi kredit mahsulotlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va hamkorliklarni kuchaytirish orqali bank o‘z mijozlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlay oladi, kredit risklarini kamaytiradi va iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Bu yo‘nalishlarda doimiy izlanish va yangiliklarni joriy etish bankning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

[1] Muallif ishlanmasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 23-мартдаги “Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3620-сон Қарори. https://lex.uz/docs/3593541
2. Магомаева Л.Р. Банковские инновации и условиях цифровой экономики: теория и практика. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономической наук. – Владикавказ: ФГБОУ ВО “Северо-Осетинский государственный университет им К.Л.Хетагурова, 2020. - с. 20.
3. Бровкина Н.Е. Направления инновационного развития кредитного рынка и его роль в содействии росту национальной экономики. // Экономика, налоги, право, №3, 2019. - с. 60.

O‘zbek va ingliz tillaridagi turg‘un o‘xshatishlaretalonlarining semantik tavsifi

Xolmuratova Diana Alisher qiz
O’zbekiston Milliy Universiteti filiologiya fakulteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi turg‘un o‘xshatishlar etalonlarining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘xshatishlarning til tizimidagi o‘rni, ularning obrazlilik va ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, turg‘un o‘xshatishlarda milliy-madaniy omillar, etalonlarning shakllanishida xalq dunyoqarashi va mentalitetining roli yoritiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshash va farqli semantik modellarning qiyosiy tahlili asosida umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari turg‘un o‘xshatishlarning lingvokulturologik va semantik tahlilini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:
turg‘un o‘xshatish, etalon, semantika, o‘zbek tili, ingliz tili, frazeologiya, lingvokulturologiya, milliy-madaniy xususiyat, obrazlilik, qiyosiy tahlil.

Kirish

Bugun zamonaviy tadqiqotlarda o‘xshatishlarning lingvokulturologik jihatlariga katta e’tibor berilmoqda. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova o‘xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini ta’kidlab, bu fikrini rus, belorus, va qirg‘iz tilida qo‘llanuvchi o‘xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi. Uning fikriga ko‘ra, *глаза блестящие как Иссык-Кулстройный как марал силный как Манас* kabi qurilmalar qirg‘iz xalqining milliy dunyoqarashini aks ettiradi[1].

“V.A.Maslova, shuningdek, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi, xususan, o‘sha xalq tilida qo‘llanuvchi o‘xshatishlarda ham yaqqol namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Olimaning bu fikrini o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar ham tasdiqlaydi. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” uchun yig‘ilgan materiallar shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi, harakat- holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda ham namoyon bo‘ladi”[2].

Jumladan, buni o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Tilshunos olima D.Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasida o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarni quyidagi ma’noviy guruhlarga tasnif qiladi:

Inson a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.

Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.
Insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
Insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
Inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
Insonning xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.

Insonning xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar. Bu o‘xshatishlarning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.
“inson a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar: alifdek / sarvdek / sambitdek / shamshoddek tik qomat, angishvonadek kichkina og‘iz, anorday qizil yuz, burgutnikiday o‘tkir ko‘z, gilosday qizil lab, guruchday oppoq, mayda tish, zulukdek qora qosh, ipday ingichka qosh, kulchadek yumaloq yuz, tunday qora soch, cho‘michday katta burun;
insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: azroilday xunuk, bo‘rdoqiday / meshday semiz, devday bahaybat, zangidek qop-qora, niholday nozik, oyday go‘zal, suqsurday chiroyli, terakday novcha, chigirtkaday / arvohday
/ kosovday / cho‘pday ozg‘in;
insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar: ajdarhoday kuchli, ayiqday baquvvat, alpday pahlavon, gulday nafis;
insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: ayiqday / sherday / arslonday / tuyaday bo‘kirmoq, na’ra tortmoq, bo‘riday uvullamoq, momaqaldiroqday gumburlamoq, qo‘ng‘iroqday jarangdor;
inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: avtomatday gapirmoq, bedanaday / bulbulday sayramoq, itday qopmoq, itday irillamoq, chumchuqdek chirqillamoq;
insonning xarakteri bilan bog‘liq o‘xshatishlar: bir qop yong‘oqday shaldir-shuldur, avliyoday begunoh, ammamning buzog‘idek bo‘sh, ipakdek muloyim, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, sutday oq, tayoqday to‘g‘ri, tulkiday ayyor, eshakday qaysar, qo‘yday yuvosh;
insonning holati bilan bog‘liq o‘xshatishlar: baqaday / shamday / haykalday / toshday qotmoq, bezgak tutganday qaltiramoq, yosh boladay quvonmoq, dokaday / devorday / bo‘zday oqarmoq, tilla topgan gadoyday sevinmoq, to‘rvasini yo‘qotgan gadoyday talmovsiramoq, yetimchadek mung‘aymoq, yog‘day erimoq, igna ustida o‘tirganday betoqat, ilonday to‘lg‘anmoq, kuydirgan kalladay tirjaymoq, lavlagiday / sholg‘omday qizarmoq, suvga tushgan bo‘lka nonday bo‘shashmoq;
insonning xatti-harakati bilan bog‘liq o‘xshatishlar: yelimday yopishmoq, yeb qo‘yguday qaramoq, yov quvganday yugurmoq, itday / devday / eshakday / molday / qulday ishlamoq, och kalxatday yopirilmoq, ko‘z qorachig‘iday asramoq, maymunday / echkiday sakramoq,

molday / itday / cho‘chqaday / ho‘kizday ichmoq, toshbaqaday sudralmoq, o‘qdek otilib chiqmoq.
O‘zbek tilidagi inson bilan bog‘liq o‘xshatishlar shuni ko‘rsatadiki, ularda insonning holati va harakatini ifodalovchi o‘xshatishlar miqdori boshqa ma’noviy guruhdagi o‘xshatishlarga nisbatan ko‘p. Keyingi o‘rinda esa inson a’zolarini ifodalovchi o‘xshatishlar turadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalari ko‘proq insonning harakat- holatini obrazli tarzda ifodalaydi”[3].

O‘xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so‘zlar ham o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi til birligidir.
Insonning xarakteri xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlarda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining etalon sifatida turli hayvon va jonivor turlarini bildiruvchi so‘zlardan ko‘proq foydalangani ma’lum bo‘ladi. Masalan, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, eshakday qaysar (xarakter bilan bog‘liq); itday ishlamoq, echkiday sakramoq, toshbaqaday sudralmoq, ilonday sudralmoq, bulbulday sayramoq (harakat bilan bog‘liq o‘xshatishlar). O‘zbek tilida o‘simlik va meva nomlarining o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishi ham ko‘p uchraydi. Bunday o‘xshatish etalonlariga *sambit, shamshod, sarv, terak, lavlagi, sholg‘om, gilos, olma, yong‘oq* kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin. Hayvonni bildiruvchi so‘zlarning o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishi shaxsning subyektiv munosabatini bildirish harakati bilan bog‘liq ekanligi yaqqol seziladi. Masalan, *it* so‘zi etalon bo‘lib kelgan o‘xshatishlar soni o‘ndan ortiq bo‘lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo‘llangan. *Ilon* etaloni ham shunday xususiyatga ega”[4]. It leksemasi kognitiv maydonini idrok etish va tasavvurda obraz hosil qilish yo‘li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi, natijada bezovtalik,

---

xo‘rlik, subutsizlik, ozor berish, qolaversa, vafodorlik va sodiqlik konseptini aks ettirgan bo‘lsa, qo‘y leksemasi kognitiv maydonida esa boylik, xursandchilik va beozorlik konseptlarini ifoda etgan. Turg‘un o‘xshatishlarning milliy-madaniy xususiyatlari ularning ekstrolingvistik omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ekstrolingvistik omillar deganda, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’daniy shart-sharoitlar, funksional va tilning ichki strukturaviy rivojlanishi va hosil bo‘lishida katta ahamiyatga ega bo‘ladigan, ularning milliy xarakterini ko‘rsatib berishga sabab bo‘ladigan omillar yig‘indisi tushuniladi.
Muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi xalq tilida qo‘llaniluvchi o‘xshatishlarda yaqqol o`z ifodasini topadi. Masalan, *baqa go‘shtidan tayyorlangan taomlar* fransuzlarning eng lazzatli taomi hisoblanadi. Demak, fransuzlarda *baqa* so‘zi qatnashgan o‘xshatishlar ijobiy ma’noda keladi. Xuddi shunday holatni boshqa xalqlar tili misolida ko‘rishimiz mumkin. Xitoyliklarda *ilon* so‘zini ijobiy ma’noda yuklagan holda *ilon* go‘shtiga nisbat berishadi, demak, xitoyliklar ilon so‘zi qatnashgan o‘xshatishlarni ijobiy ma’noda qabul qiladilar.

O‘zbek tilida esa, aksincha, ilon so‘zi qatnashgan o‘xshatishlar salbiy ma’noda qo‘llaniladi. Misol uchun *ilonday sudralmoq* yoki *ilonday zahar* kabi. Inglizlar *mushuk* bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlarni ijobiy ma’noda ishlatishadi, chunki *mushuk* inglizlarda “go‘zallik ramzi” hisoblanadi. Mana shunday o‘xshatishlar kishilarning ongi, tashqi dunyoni idrok qilishi, dunyoqarashi rang- barangligini ko‘rsatib turadi. Insonlarning qaysi millat vakillari, ular atrofdagi narsalarga qanday munosabatda ekanligini bilmoqchi bo‘lsa, eng avvalo, tilini o‘rganish lozim. Chunki ularning uzoq yillik madaniyati, albatta, tilida o‘z ifodasini topadi. Turg‘un o‘xshatishlar deyarli barcha tillarda uchraydigan lingvopoetik birlik hisoblanadi. Biz mazkur bobda o‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli milliy tafakkur mahsuli, har ikki millatga xos urf-udum, an’analarni ko‘rsatib beruvchi turg‘un o‘xshatishlarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Chunki “o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar deyarli tavsiflanmagan, ularning tilimizning leksik-frazeologik
xazinasidagi o‘rni belgilanmagan”[5]. N.Mahmudov va D.Xudoyberganovaning “O‘zbek tilida o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da shunga harakat qilingan. Ingliz tilida ham shunday lug‘atlar mavjud. Tilshunosligimizda o‘xshatishlarning to‘rt unsurdan: o‘xshatish subyekti, o‘xshatish obyekti, o‘xshatish asosi, o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidan tarkib topishi tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Iqtibos: Xudoyberganova D.ning “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasidan olindi. Маслова В.А. Человек в зеркалесравнения // htt: / wwwgumer. Info / biblioter – Burs / Linguist / maslova / 06 / php.

[2] Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.94

[3] Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.95

[4] Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. –B.96.

[5] Mahmudov. N. Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – T.: Ma’naviyat, 2013. – B.16.

O‘ZBEK TILI MATNLARIDA NUTQ AKTLARI TIPOLOGIYASINING KORPUS ASOSIDAGI TAHLILI

Babayeva Gulchexra Tashpulatovna
Termiz shahar 16-sonli informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili matnlarida nutq aktlari tipologiyasi korpus lingvistika asosida tahlil qilinadi. Maqolada J. Searle va J. Austinlarning nutq aktlari nazariyasi g‘oyalari asosida o‘zbek tili milliy korpusida uchraydigan lokutsion, illokutsion va perlokutsion birliklar aniqlanadi hamda ularning funksional-semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Tahlil jarayonida turli janrdagi (publitsistik, badiiy, ilmiy va ma’muriy) matnlarda nutq aktlarining taqsimlanish dinamikasi, ularning kommunikativ vaziyatdagi o‘rni va mazmuniy-pragmatik farqlari aniqlanadi. Natijada o‘zbek tili korpusida nutq aktlarining avtomatik tasnifi uchun model yaratish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot o‘zbek tili pragmatik tizimini korpus asosida o‘rganishning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.
Kalit so‘zlar: nutq akti, tipologiya, korpus lingvistika, illokutsion maqsad, pragmatik birlik, semantik tahlil, o‘zbek tili milliy korpusi.

Kirish

Til inson tafakkurining eng muhim vositasi bo‘lib, unda nafaqat ma’lumot, balki maqsad, niyat va ta’sir kuchi ham mujassamdir. Shu bois, zamonaviy lingvistika so‘nggi o‘n yilliklarda tildagi pragmatik birliklar va nutq aktlarining tahliliga alohida e’tibor qaratmoqda. J. Austinning “How to Do Things with Words” asarida nutqning faqat ma’lumot uzatuvchi emas, balki harakatni amalga oshiruvchi xususiyatga egaligi isbotlanadi. Keyinchalik J. Searle bu nazariyani rivojlantirib, nutq aktlarini lokutsion, illokutsion va perlokutsion turlarga ajratdi. O‘zbek tili misolida bu jarayonni tahlil qilish, ayniqsa milliy korpus asosida olib borish, til birliklarining real qo‘llanishdagi semantik va pragmatik funksiyalarini ochish imkonini beradi. Mazkur maqolada o‘zbek tili matnlarida uchraydigan nutq aktlari tipologiyasi, ularning korpus lingvistikasi asosida avtomatik tahlili va modellashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Asosiy qism

O‘zbek tili matnlarida nutq aktlarining tahlili hozircha dastlabki bosqichda bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning rivojlanishi kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika va pragmatik tahlil sohalarida muhim amaliy natijalar beradi. Korpus lingvistika metodologiyasi asosida nutq aktlarini aniqlashning asosiy bosqichlari quyidagicha belgilangan:

Ma’lumotlar tanlovi. O‘zbek tilining milliy korpusidagi badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy

matnlar tahlil uchun tanlanadi. Ushbu janrlar nutq aktlarining turlicha pragmatik funksiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Annotatsiya va belgilash. Matnlardagi so‘zlar, iboralar va gaplar illokutsion maqsadiga ko‘ra belgilab chiqiladi. Masalan, so‘rov, buyruq, iltimos, rad etish, ogohlantirish kabi nutq aktlari turlari ajratiladi.

Avtomatik aniqlash. Korpus texnologiyalari asosida illokutsion indikatorlar – modal so‘zlar, fe’lning mayl shakllari, kesimdagi shaxs kategoriyasi va boshqa grammatik-pragmatik belgilar tahlil qilinadi.

Searle tomonidan taklif etilgan beshta asosiy nutq akti turi – assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ o‘zbek tili matnlarida ham aniqlanadi. Misol tariqasida:

“Yozing, bu masala muhim.” (direktiv)

“Men sizni samimiy tabriklayman.” (ekspressiv)

“Men bu ishni bajaraman.” (komissiv)

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili milliy korpusida eng ko‘p uchraydigan nutq aktlari — direktiv va ekspressiv turlardir, bu esa milliy madaniyatda muloqotning hissiy ifoda va o‘zaro hurmatga asoslanganligini bildiradi.

Bundan tashqari, pragmatik markyorlar – “iltimos”, “marhamat”, “iltimos qilaman”, “iltimos sizdan”, “agar mumkin bo‘lsa” kabi birikmalar illokutsion maqsadni aniqlashda asosiy ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Korpus tahlili jarayonida bu birliklar avtomatik tarzda ajratilib, statistik tahlil orqali nutq aktlari turlarining taqsimoti aniqlanadi.

Mazkur tahlil o‘zbek tilining milliy korpusi uchun pragmatik belgilash (pragmatic tagging) tizimini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, nutq aktlarini avtomatik aniqlash modeli o‘zbek tili uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida katta imkoniyatlar yaratadi. Nutq aktlarini korpus asosida tahlil qilishda formal-grammatik, semantik va pragmatik darajalar o‘zaro uzviy bog‘liq holda tadqiq etilishi lozim. Chunki, nutq aktining mazmuni nafaqat gapning grammatik shakliga, balki so‘zlovchining maqsadiga, muloqot kontekstiga va adresat bilan munosabat turiga ham bog‘liqdir. Shu bois korpus tahlilida faqat grammatik belgilarga tayanish yetarli emas — diskurs konteksti va situativ pragmatikani ham hisobga olish talab etiladi.

O‘zbek tili milliy korpusi hozircha pragmatik belgilash imkoniyatlariga to‘liq ega bo‘lmasa-da, undagi matn turiga ko‘ra teglanish (badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy, og‘zaki) nutq aktlarini aniqlashda samarali yordam beradi. Masalan, badiiy matnlarda ekspressiv aktlar, rasmiy hujjatlarda esa deklarativ va direktiv aktlar ustunlik qiladi. Shu tarzda nutq aktlari janr-pragmatik xaritasini yaratish mumkin.

Korpus tahlili asosida aniqlangan ma’lumotlar quyidagi yo‘nalishlarda muhim ilmiy natija beradi:

1. Korpus lingvistikasi uchun — nutq aktlari tipologiyasi bo‘yicha avtomatik belgilash tizimining yaratilishi.

2. Til o‘qitish metodikasi uchun — real muloqotdagi nutq aktlari namunalarini o‘quv materiallariga kiritish imkoniyati.
3. Nutq madaniyati tadqiqotlari uchun — muloqotning milliy madaniyatga xos pragmatik me’yorlarini aniqlash.

Ayrim xorijiy tadqiqotlarda nutq aktlari avtomatik tarzda ajratish algoritmlari taklif etilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati ingliz tiliga moslashtirilgan. O‘zbek tili uchun esa morfologik va sintaktik jihatdan moslashtirilgan lokutsion birliklar modelini ishlab chiqish zarur. Chunki o‘zbek tilidagi mayl, shaxs-son va modallik shakllari nutq aktining illokutsion kuchini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, quyidagi fe’l shakllari turli illokutsion maqsadni bildiradi:

“Yozing!” → direktiv (buyruq, talab)

“Yozmoqchiman.” → komissiv (niyat, va’da)

“Yozganingiz yaxshi bo‘ldi.” → ekspressiv (minnatdorlik, baho)

“Men sizni rahbar etib tayinlayman.” → deklarativ (huquqiy-harakat ifodasi)

“Bugun yomg‘ir yog‘moqda.” → assertiv (xabar, fakt bildirish)

Bu misollar o‘zbek tilidagi fe’l shakllarining illokutsion kuch indikatorlari sifatida tahlil qilinishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, leksik-pragmatik birliklar ham (masalan, “iltimos”, “marhamat”, “mumkinmi”, “sizdan so‘rayman”) nutq aktining turini aniqlashda asosiy signal bo‘lib xizmat qiladi. Bu birliklarni avtomatik aniqlash uchun tokenizatsiya, lemmatizatsiya va POS-tagging bosqichlarida maxsus pragmatik belgilash moduli kiritish zarur.

Natijada, o‘zbek tili korpusida nutq aktlarini avtomatik aniqlash imkonini beruvchi pragmatik xarita (pragmatic map) yaratiladi. Bu xarita korpusdagi matnlar bo‘yicha nutq aktlari taqsimotini vizual ko‘rinishda aks ettiradi va keyingi bosqichda nutq aktlari semantikasini modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbek tili matnlarida nutq aktlari tipologiyasini korpus asosida o‘rganish tildagi muloqotning chuqur pragmatik qatlamlarini ochish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili uchun nutq aktlarini avtomatik aniqlashda grammatik shakllar, leksik indikatorlar va kontekstual belgilarning integratsiyalashgan yondashuvi eng samarali hisoblanadi. Korpus lingvistikasining texnik imkoniyatlari, ayniqsa korpus belgilash tizimlari, bu borada yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirishga zamin yaratadi. Shunday qilib, o‘zbek tili milliy korpusi asosida nutq aktlarini avtomatik modellashtirish istiqbollari nafaqat nazariy pragmalingvistika, balki amaliy tilshunoslik va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. Остин Дж. Слово как действие: Избранные труды по философии языка / пер. с англ. – М.: Прогресс, 1986. – 352 с.

2. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 17. – М.: Прогресс, 1986. – С. 170–194.
3. Vanderveken D. Meaning and Speech Acts: Principles of Language Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 312 p.
4. Leech G. N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.
5. Kadirova Z. Kh. O‘zbek tili matnlarida nutq aktlari pragmatik belgilanishining korpus yondashuvi // Tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya jurnali. – 2024. – № 3. – B. 93–99.
6. O‘zbekiston Milliy korpusi (O‘zTK). O‘zbek tili milliy korpusi: tuzilishi, imkoniyatlari va tahliliy modullar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, 2022. – 210 b.
7. Nurmonov A. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 176 b.
8. Jo‘rayev A. O‘zbek tili pragmatik birliklarining lingvistik tahlili. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. – 214 b.
9. Mamatov N. O‘zbek tili nutq aktlari semantikasi va ularning matn tuzilishidagi roli // O‘zbek tilshunosligi masalalari. – 2021. – № 2. – B. 56–65.
10. Hasanov U. Korpus lingvistikasida pragmatik belgilash va avtomatik tahlil muammolari // Filologiya va lingvotexnologiya jurnali. – 2023. – № 1. – B. 77–84.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВОСПРИЯТИЯ И ДОВЕРИЯ К ФЕЙКОВЫМ НОВОСТЯМ В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Жураева Вазира Фарходовна
Психолог
Jurayevavazira@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические механизмы, влияющие на восприятие и формирование доверия к фейковым новостям в условиях цифрового пространства. Подчёркивается, что в эпоху информационной перенасыщенности и высокой скорости распространения данных социальные сети становятся ключевым источником не только достоверной, но и искажённой информации. Анализируются когнитивные искажения, эмоциональные реакции и групповые эффекты, определяющие особенности доверия к недостоверным сообщениям.
Ключевые слова: фейковые новости; дезинформация; социальная психология; когнитивные искажения; доверие; восприятие информации; эмоциональное влияние; групповое поведение.
Annotation: The article examines the socio-psychological mechanisms that influence the perception of and trust in fake news within the digital environment. It emphasizes that in the era of information overload and rapid data dissemination, social networks have become a key source of not only reliable but also distorted information. The study analyzes cognitive biases, emotional reactions, and group effects that determine the specific features of trust in unreliable messages.
Keywords: fake news; disinformation; social psychology; cognitive biases; trust; information perception; emotional influence; group behavior.

Современное общество переживает эпоху интенсивной цифровизации, в которой информационные потоки стали неотъемлемой частью повседневной жизни человека. Наряду с позитивными эффектами развития коммуникационных технологий наблюдается рост масштабов распространения фейковых новостей - намеренно искажённой или ложной информации, ориентированной на формирование общественного мнения и поведенческих установок. Феномен доверия к подобным сообщениям является сложным социально-психологическим процессом, включающим когнитивные, эмоциональные и социокультурные механизмы.

С точки зрения социальной психологии, восприятие информации всегда происходит в контексте социальных взаимодействий и групповых норм. Люди склонны доверять сообщениям, исходящим от членов их референтной группы или соответствующим их

мировоззренческим установкам. Это обусловлено действием механизма социальной идентичности (Тэджфел, Тёрнер), который определяет восприятие информации через призму «своих» и «чужих». В цифровом пространстве, где коммуникация строится на принадлежности к сообществам и тематическим группам, этот механизм усиливается, способствуя распространению и закреплению фейковых новостей внутри замкнутых информационных систем.

Одним из ключевых факторов формирования доверия к недостоверным сообщениям выступают когнитивные искажения, систематические ошибки восприятия и мышления, свойственные человеческому сознанию. Среди них наиболее значимыми являются эффект подтверждения (confirmation bias), побуждающий индивида искать и интерпретировать информацию в пользу уже существующих убеждений; эффект повторения (illusory truth effect), усиливающий восприятие достоверности через многократное воспроизведение сообщения; а также эвристика доступности (availability heuristic), когда люди склонны оценивать правдоподобие информации на основе частоты её встречаемости, а не объективных фактов. Эти когнитивные механизмы формируют основу для некритического восприятия фейков и их последующего распространения. Не менее важную роль играет эмоциональный компонент восприятия информации. Исследования показывают, что фейковые новости чаще вызывают сильные эмоциональные реакции - страх, возмущение, сочувствие или тревогу. Эмоционально окрашенные сообщения легче усваиваются и чаще запоминаются, что усиливает их влияние на массовое сознание. Психологический феномен эмоционального заражения и эффект зеркальных нейронов делают пользователя восприимчивым к настроению, транслируемому в контенте, что снижает уровень рациональной критичности. В итоге эмоции становятся инструментом внушения и средством манипуляции общественным мнением.

Формирование доверия к фейковым новостям также тесно связано с социально-коммуникативными механизмами влияния. В цифровой среде ключевым фактором выступает социальное доказательство (social proof): если сообщение поддерживается большим числом пользователей - через лайки, репосты и комментарии - оно автоматически воспринимается как более достоверное. Таким образом, социальная валидация информации заменяет проверку источников, что усиливает её легитимность в глазах аудитории.

Нельзя игнорировать и культурно-социальный контекст: уровень медиаграмотности, критического мышления и доверия к институтам массовой информации определяет восприимчивость населения к дезинформации. В обществах с низким уровнем доверия к официальным источникам и государственным институтам создаётся благоприятная среда для распространения фейков как альтернативных «истин».

Следовательно, феномен доверия к фейковым новостям представляет собой результат

взаимодействия трёх уровней:

- Когнитивного - основанного на особенностях мышления и восприятия;
- Эмоционального - определяющего степень вовлечённости и внушаемости;
- Социального - связанного с нормами, идентичностью и групповыми установками.

Понимание этих механизмов имеет важное значение для разработки профилактических мер против дезинформации. В числе приоритетных направлений выделяются развитие медиаграмотности, обучение критическому анализу источников, формирование навыков проверки фактов и рациональной оценки достоверности сообщений. В образовательной среде особое внимание следует уделять развитию когнитивной гибкости и способности к рефлексии, что позволит противостоять манипуляциям и информационным искажениям.

Таким образом, доверие к фейковым новостям - это не просто следствие неосведомлённости или небрежности аудитории, а сложный социально-психологический феномен, формирующийся под влиянием когнитивных, эмоциональных и социокультурных факторов. Его исследование открывает перспективы для междисциплинарного анализа и разработки эффективных стратегий укрепления информационной устойчивости современного общества.

Использованная научная литература

1. Ali R., Mirhoseini M. The Impact of Affect on the Perception of Fake News on Social Media: A Systematic Review // Social Sciences. — 2023. — Т. 12, № 12. — С. 674.
2. Omar B., Apuke O. D., Nor Z. M. The intrinsic and extrinsic factors predicting fake news sharing among social media users: the moderating role of fake news awareness / B. Omar, O. D. Apuke, Z. M. Nor // Current Psychology. — 2024. — Vol. 43, № 2. — P. 1235–1247.
3. Михеев Е. А. Дезинформация в социальных сетях: состояние и психологические механизмы / Е. А. Михеев // Социальная психология и общество. — 2018. — № 2. — С. 85-100.

ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдусаттаров М.
Samarqand shahar 38-мактаб инглиз тили ўқитувчиси

Abstract: *The article discusses the role and place of pedagogical technologies in improving the effectiveness of teaching students in English classes in secondary special schools.*
Key words: *ICT, pedagogical skills, lexical minimum, corrective exercises, systematic approach, scientific and technical process.*

Бугунги кунда мустақил Ўзбекистонимиз истиқлол йўлидан истиқбол сари дадил одимланмоқда. Кун сайин жаҳонда унинг обрўйи ва ҳурмати эътибори ортиб бормоқда. Мустақил юртимиз жаҳон цивилизациясига кириб бориш учун ўсиб келаётган ёш авлод барча дунёвий билимларни чуқур эгаллашлари билан бир вақтда хорижий тилларни ҳам чуқур ўрганиш борасида кўпгина ишлар амалга оширилмоқда. Албатта таьлим соҳасида анчагина ижобий ишлар амалга оширилгани қувонарли ҳолдир. Амалга жорий этилаётган инновацион технологиялар мустақил юртимизнинг жаҳонга юз тутиши учун ёшларимиз имкониятларини янада кенгайтирмоқда ва мустақиллигимизни, эртанги кунга ишончимизни мустаҳкамлайди. Ҳозирги кунда ўқув– тарбия жараёнида педагогик технологияларнинг тўғри жорий этилиши ўқитувчининг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Бу эса, тил ўрганаётган ўрта махсус таьлим ўқувчиларидан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродавий сифатларни талаб этади. Узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш, унга илғор педагогик ва ахборот технологияларни жорий қилиш, миллий дастурда ўртага қўйилган улкан вазифаларни амалга оширишда ниҳоятда катта куч, катта маблағ ва имконият талаб қилмоқда.

Фанлараро алоқа чет тилини ёки бошқа бирон бир фанни ўқитишда катта аҳамиятга эга. Турли соҳаларда бўлаётган шиддатли ўзгаришлар, тобора қалинлашиб келаётган бир даврда халқаро сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар бизни хорижий тилларни ҳар томонлама чуқур, кенг ва мукаммал эгаллашимиз кераклигини билдиради. Шунингдек, таълим соҳасидаги ҳар бир ўқитувчи ўз шароитидан келиб чиққан ҳолдла, ўз билими ва педагогик маҳоратидан фойдаланиб уларни амалий тажрибаларда фойдалансагина биз таълим самарадорлигини оширамиз. Чет тил ўқув предметининг тил олий ўқув юртларда ўқитилиши, таббийки янгича ёндашишни тақоза этмоқда. Зеро, ушбу ўқув муассасасининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, улардаги шароитни ҳисобга олган ҳолда хорижий тил ўқитиш методикасини

яратиш шу куннинг кечиктириб бўлмас масалалари сирасига киради.

Ўрта махсус мактабларда чет тил инглиз тилини ўргатиш ва уни ўзлаштирилиш мукаммаллигини таъминлайдиган, тезлигини оширадиган турли машқлар яратилиши, семинар машғулотларини таъминлайдиган ҳар хил ўйинлар, савол жавоблар тузилиши, тил ўқитиш жараёнига таъсир этадиган бевосита **“Педагогик технология”** ни қўлланиши ўқувчиларда инглиз тилини ўрганишга бўлган қизиқишларини янада ортиши имконини беради. Бизнинг фикримизча, “Педагогик технология” тушунчаси барча бошқарилувчи ташкилий қисмлар ва уларнинг боғликлигини таҳлил қилиш, танлаш, лойҳалаш ва назорат қилиш йўли билан педагогик самарадорликни юқори даражага кўтариш ҳамда бу борада чет тил инглиз тилини ўргатиш ўрганишга тизимли ёндашувни жорий этишни ифодалайди. Педагогик технолиянинг таълимдаги амалийлик ҳамда ташкилий услубий имкониятларини амалга оширишга йўналтирилганлиги, унинг аниқ воситалар ёрдамида инглиз тили дарсларида тадбиқ этиш барча педагогларнинг эътиборини кучайтирмоқда. Бунда асосий эътибор ўқувчиларнинг инглиз тилини ўрганишда техник воситалар орқали билим олиш имкониятларини оширишга таълим сифатини яхшилашга асосий эътибор берилади.

Бугунги кунда чет тил ўқитишнинг фаол усулларини қўллаш педагогик технологиянинг асосини ташкил қилади. Зеро, педагогик технология ўз олдига таълим шаклларини муқобиллаштириш вазифасини қўйувчи, техник ҳамда шахс ресуслари ва уларнинг ўзаро фаолиятини ҳисобга олиб, таълим бериш ва таҳсил олиш жараёнини яратиш, қўллаш ва белгилашнинг тизимли методидир. Ўз -ўзидан кўриниб турибдики, бу вазифаларни илмий техник жараёнининг ўзгариши билан боғлиқ ҳолда таълим назариясини яратиш, яъни чет тил ўқитиш фанни тил ўрта умумтаълим мактабларининг чет тил ўқитиш шароитини ҳисобга олган ҳолда улар даражасида ўқув қўлланма дарсликлар, машқлар тизими, лексик минимумларини яратиш ва уни амалиётга тадбиқ этиб, уни қўллаш борасида олиб борилаётган ишлар бугунги кун замон талабига жавоб беришини, чет тил ўқитишнинг техник воситаларини қўллаш таълимининг бутун жараёнини аниқ режа асосида ташкил қилиш техник воситалар мажмуини қўллаш ҳамда ўқув жараёнини мувофиқ ташкил этиш ҳисобига уни индувидуаллаштиришни кўзда тутади.

Инглиз тили дарсларида турли хил педагогик технология усулларини қўллаб ўтиш,ўқувчиларда тилни ўрганишга бўлган қизиқишлари ва уларнинг фаоллигини оширади. Натижада ўзлаштириш даражаси ортади. Бунинг учун ўқитувчи моҳир бўлиши ва мавзуга ёки бобларга қараб дарсни қандай ташкиллаштиришни тўғри танлай билиши ва режалаштириши лозим. Масалан: фикрлашга мажбурлаш (ақлий ҳужум), гуруҳлар (жуфтларда ишлаш, баҳс, расмли кўргазмалар), ўйин воситасида таълим бериш, оғзаки ва ёзма машқлар бажариш, видеофилим намойишлар орқали, кассета- компакт дисклар тинглаш ва компютер дастурларидан фойдаланиб дарсларни

ташкил этиш жуда яхши самара беради ва бу ёндашув орқали ўқитувчи ўз олдига қўйган мақсадига эришади.

Демак, дарснинг ютуғи ҳам бутун машғулот давомида ўқувчиларнинг инглиз тили дарсларида тил ўрганишда фаол иштирок этиши, уларнинг фикрлаши, қизғин баҳслари, бир-бирларига қарама - қарши мулоҳаза ва саволларнинг кўплиги билан белгиланади. Ўрта умумтаълим мактабини, академик лицей ёки коллежларни битириб олий ўқув юртларида ўқишни давом эттираётган талабаларнинг чет тил инглиз тили кўникмаларини такомиллаштириш мақсадида тегишли корректив машқлар ўтказиш талаб этилади. Ўрта умумтаьлим мактаб ўқувчиларига инглиз тилини ўргатишда тил ҳодисаларини дастурий талаблар доирасида билишлари, алгоритмик қоидаларни ўзлаштириб олишлари ва пухта грамматик кўникмаларга эга бўлишлари ўларнинг ўрганилаётган хорижий тилда эркин нутқий фаолият юритишларини таъминлашга хизмат қилади.

Бу жараён албатта ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги фаолияти, қўйган мақсад, танланган мазмун, услуб, шакл, восита, яъни педагогик технология асосида амалга оширилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ёқубов И.Я. Амалий инглиз тили методикаси. – Т.,2009.
2. Азизходжаева А.К. Педагогическая технология. –Т.,2002. Часть 1, част 2. 2004.
3. Э. Эргашев Чет тилини ўқитиш жараёнида техника воситаларидан фойдаланиш. – Т., 1984.
4. У.Толипов, М.Усманбоева Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. –Т.,2006.

Ko‘p avlodli ishchi kuchida menejment uslublarining moslashuvi: Gen Z va Milleniallar taqqoslanishi

Muallif: Yusupova Arofatxon Abdumalik qizi
Ilmiy rahbar: Gavharoy Isroiljon qizi
51-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola ko‘p avlodli ishchi kuchida, xususan Gen Z va Milleniallar avlodlari orasidagi boshqaruv uslublarining moslashuvini tahlil qiladi. Avlodlar o‘rtasidagi mehnatga yondashuv va kommunikatsiya farqlari asosida samarali menejment strategiyalari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy korxonalarda ishchi kuchining ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar. Ko‘p avlodli ishchi kuchi, Gen Z, Milleniallar, menejment uslublari, moslashuv, kommunikatsiya, motivatsiya
Аннотация. В статье анализируется адаптация управленческих стилей в мультигенерационном коллективе, с особым акцентом на поколениях Gen Z и Millennials. На основе различий в подходах к работе и коммуникации разрабатываются эффективные стратегии управления. Результаты исследования демонстрируют пути совершенствования управления с учетом социальных и культурных особенностей рабочей силы современного предприятия.
Ключевые слова: Мультигенерационная рабочая сила, Gen Z, Миллениалы, управленческие стили, адаптация, коммуникация, мотивация
Abstract: This article analyzes the adaptation of management styles within a multi-generational workforce, focusing on Generation Z and Millennials. Based on differences in work attitudes and communication preferences, effective management strategies are developed. The research findings highlight ways to improve management by considering the social and cultural characteristics of the modern workforce in enterprises.
Keywords: Multi-generational workforce, Generation Z, Millennials, management styles, adaptation, communication, motivation

Dolzarbligi. Zamonaviy ishchi kuchi tobora ko‘p avloddan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘zining noyob qadriyatlari, mehnatga yondashuvi va kommunikatsiya uslublariga ega. Ayniqsa, Gen Z va Milleniallar avlodlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, bu farqlar menejment jarayonida yangi muammolar va imkoniyatlar tug‘diradi. Korxonalar va tashkilotlar samarali boshqaruvni ta’minlash uchun avlodlararo tafovutlarni hisobga olgan holda, moslashuvchan menejment uslublarini ishlab chiqishi zarur. Shuning uchun, ko‘p avlodli ishchi kuchida menejment uslublarining moslashuvi masalasi bugungi kunda ish

faoliyatining sifatini oshirish, xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini va samaradorligini yaxshilash uchun ayni muddao bo‘lib qolmoqda.

Metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar birgalikda qo‘llanildi. Avvalo, Gen Z va Milleniallar avlodlariga oid mehnatga yondashuv, qadriyatlar va kommunikatsiya uslublarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Shuningdek, tashkilotlardagi amaliy boshqaruv jarayonlari kuzatildi va tahlil qilindi.

Tahliliy usul orqali avlodlar o‘rtasidagi xulq-atvor farqlari va ularning menejment uslublariga ta’siri o‘rganildi. Taqqoslash usuli yordamida Gen Z va Milleniallarning ish joyidagi ehtiyojlari va motivatsiya omillari aniqlanib, ularning boshqaruvga bo‘lgan munosabati tahlil qilindi.

Natijalar asosida zamonaviy tashkilotlarda moslashuvchan menejment strategiyalarini ishlab chiqish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil vositalari ham qo‘llanilib, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi va ahamiyati ta’minlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bir qator ilmiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, Gen Z va Millenial avlodlariga oid xodimlarning mehnatga yondashuvi, motivatsiyasi va kommunikatsiya uslublarini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bu usul orqali avlodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘ziga xosliklar aniqlandi. Shuningdek, menejerlar va xodimlar bilan chuqur intervyular tashkil etilib, boshqaruv uslublari hamda ishchi kuchining xususiyatlari haqida kengroq ma’lumotlar olindi. Tadqiqot jarayonida tashkilotlardagi boshqaruv jarayonlari amaliy kuzatuv orqali o‘rganildi, bu esa nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga yordam berdi. Olingan ma’lumotlar taqqoslash va tahlil usuli yordamida Gen Z va Milleniallar ishga bo‘lgan yondashuvlari va boshqaruvga munosabati bo‘yicha solishtirildi. Shuningdek, so‘rovnoma va intervyu natijalari statistik tahlil vositalari yordamida tahlil qilinib, ularning ishonchliligi va ahamiyati baholandi.

1-jadval

Tadqiqot Usuli	**Tavsif**	**Ma'lumot Olish Usuli**	**Natijalar Tahlili**
So‘rovnoma	Gen Z va Millenial avlodlarining mehnatga yondashuvi, motivatsiyasi va kommunikatsiya uslublarini o‘rganish	Xodimlar va avlod vakillariga so‘rovnoma o‘tkazildi	Avlodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘ziga xosliklar aniqlandi
Intervyu	Menejerlar va xodimlar bilan boshqaruv uslublari va ishchi kuchi haqida chuqur ma'lumot olish	Shaxsiy intervyular tashkil etildi	Boshqaruv uslublari va ishchi kuchi xususiyatlari haqida keng ma'lumot olindi

Amaliy kuzatuv	Tashkilotlarda boshqaruv jarayonlarini real vaziyatda o‘rganish	Ish jarayonlarini bevosita kuzatish	Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati yaratildi
Taqqoslash va tahlil	Gen Z va Milleniallarning ishga yondashuvi va boshqaruvga munosabatlarini solishtirish	Olingan ma’lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish	Avlodlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi va ta’kidlandi
Statistik tahlil	So‘rovnoma va intervyu natijalarining ishonchliligi va ahamiyatini baholash	Statistik metodlardan foydalangan holda tahlil	Natijalar ishonchli ekanligi va tadqiqot maqsadiga muvofiqligi tasdiqlandi

Ushbu tadqiqotda bir nechta ilmiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, Gen Z va Millenial avlodlariga oid xodimlarning mehnatga yondashuvi, motivatsiyasi va kommunikatsiya uslublarini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnoma usuli keng auditoriyadan ma’lumot yig‘ish imkonini beradi va ko‘p sonli respondentlarni qamrab olishga yordam beradi, shuning uchun avlodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘ziga xosliklarni aniqlashda samarali bo‘ldi.

Shuningdek, menejerlar va xodimlar bilan chuqur intervyular tashkil etildi. Intervyu usuli sifat jihatdan boy va batafsil ma’lumot olish imkonini beradi, bu esa boshqaruv uslublari va ishchi kuchining xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Tadqiqot davomida tashkilotlardagi boshqaruv jarayonlarini real sharoitda o‘rganish uchun amaliy kuzatuvlar ham olib borildi. Amaliy kuzatuv usuli nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi va ish muhitidagi holatlarni aniqroq anglash imkonini beradi.

Olingan ma’lumotlar taqqoslash va tahlil usuli yordamida Gen Z va Milleniallar ishga bo‘lgan yondashuvlari va boshqaruvga munosabatlari bo‘yicha solishtirildi. Bu usul ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarishga va samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shuningdek, so‘rovnoma va intervyu natijalari statistik tahlil vositalari yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil natijalarning ishonchliligi va ahamiyatini baholash uchun zarur bo‘lib, tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlillar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, Gen Z va Millenial avlodlari o‘rtasida mehnatga yondashuv, motivatsiya va kommunikatsiya uslublari jihatidan sezilarli farqlar mavjud. Gen Z vakillari ko‘proq mustaqil ishlashni va texnologiyalarga asoslangan ish muhitini afzal ko‘rishsa, Milleniallar ko‘proq jamoaviy hamkorlik va an’anaviy boshqaruv shakllarini qadrlashadi. Bu farqlar menejment uslublarini moslashtirishda inobatga olinishi zarur. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, samarali boshqaruv uchun turli

avlodlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan va individual yondashuv zarur. Menejerlar har bir avlodga moslashish uchun kommunikatsiya usullarini, motivatsion mexanizmlarini va boshqaruv strategiyalarini moslashtirishi kerakligi ta’kidlandi. Shuningdek, o‘zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish orqali jamoada birlashish va ish samaradorligini oshirish mumkinligi ko‘rsatildi.

Muhokamasi. Bundan tashqari, tashkilotlarda ko‘p avlodli ishchi kuchining mavjudligi boshqaruvchilar uchun yangi chaqiriqlar yaratadi, chunki har bir avlod o‘zining ishga bo‘lgan qarashlari va qadriyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun, menejment uslublarini moslash va yangilash jarayoni doimiy bo‘lishi kerak, bu esa tashkilotlarni yanada raqobatbardosh qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Gen Z va Milleniallar o‘rtasida farqlarni hisobga olish boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga, xodimlarning ishga bo‘lgan qoniqishlarini oshirishga va natijada tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishga yordam beradi. Shu bois, tashkilotlar uchun avlodlararo farqlarni chuqur tushunish va ular asosida mos boshqaruv usullarini ishlab chiqish juda muhimdir.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari Gen Z va Millenial avlodlari o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘xshashliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Aniqlanishicha, har bir avlodning ishga bo‘lgan yondashuvi, motivatsiya omillari va kommunikatsiya uslublari turlicha bo‘lib, bu menejment uslublarining samarali moslashuvini talab qiladi. Tashkilotlarda boshqaruvchilar ushbu farqlarni inobatga olib, moslashuvchan, individual yondashuvni qo‘llashi zarur.

Moslashuvchan menejment uslublari ishchi kuchining samaradorligini oshirishga, xodimlarning ishga bo‘lgan qoniqishini mustahkamlashga va jamoaviy ruhni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko‘p avlodli ishchi kuchi mavjud tashkilotlarda o‘zaro tushunish va hurmatni rivojlantirish, kommunikatsiya va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish ayniqsa muhimdir.

Kelajakda ushbu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilib, avlodlararo boshqaruvni yanada samarali qilish uchun yangi metod va strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Bu esa tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish va xodimlarning shaxsiy va professional rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) Bakker, A. B., & Demerouti, E. (2007). The job demands-resources model: State of the art. Journal of managerial psychology, 22(3), 309-328.

2) Bantha, T., Nayak, U., & Mishra, S. K. (2023). Engaging the disengaged: the role of

workplace spirituality on millennials’ work engagement. International Journal of Organizational Analysis, 32(9), 1713-1738.
3) Chopra, A. and Bhilare, P. (2020). Future of work: an empirical study to understand expectations of the millennials from organizations. Business Perspectives and Research, 8(2), 272-288.
4) Desiatco, A. D., Tabulina, K. E., Cruz, K. D. S. D., & Manaois, J. O. (2024). The Mediating Role of Employee Engagement in the Relationship Between Work-life Balance and Job Burnout Among Millennials Working Remotely. International Journal of Research and Innovation in Social Science, 8(3), 1095-1104.
5) Elayan, M. B. (2022). The New World of Work and Digital Learning: Millennials and Generation Z. Webology, 19(2).
6) Fisher, D., Frey, N., & Williams, D. (2002). Seven literacy strategies that work. Educational leadership, 60(3).
7) Harris, M. D., Williams, L., & Duke, R. (2020). The millennial engagement, resiliency and retention study: what does your millennial advanced practice registered nurse workforce really want? Journal of the American Association of Nurse Practitioners, 33(11), 924-930.
8) https://www.bps.go.id/i, diakses 15, Mei 2025
9) Iddagoda, A., Hysa, E., Bulińska–Stangrecka, H., & Manta, O. (2021). Green work-life balance and greenwashing the construct of work-life balance: myth and reality. Energies, 14(15), 4556.

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li
Samarqand tumani 38-maktab o'qituvchisi

Abstract: *Nowadays the time itself requires the use of modern and innovative methods in teaching the English language. As a consequence, in language teaching it involves developing several competencies. Competency is a complex of knowledge, skills and abilities directed to activity in using the language. This article focuses on the importance of developing students' socio-cultural competence, targets and intended consequences.*
Key words: *competency, socio-cultural, skill, lingvodidactic, language, culture, communication, discursive, motivation, self-confidence, creativity*

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, genderlik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etish o‘quv samaradorligini 20–30% gacha oshiradi. Bundan tashqari, bu yondashuv talabalarda:

- ➢ *mustaqil fikrlash,*
- ➢ *liderlik ko‘nikmalari,*
- ➢ *ijodiy yondashuv va*
- ➢ *o‘zini anglashi kabi sifatlarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.*

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham gender tengligini ta’minlash va individual yondashuvga asoslangan o‘qitish tizimlari bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz kerakki, genderlik xususiyatlarini inobatga olgan holda intellektni shakllantirish — bu zamonaviy ta’limning muhim strategik yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv:

- ✓ *har bir talabaning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi,*
- ✓ *ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi,*
- ✓ *shaxsiy va kasbiy rivojlanishga zamin yaratadi.*

Pedagogik texnologiyalarni gender asosida moslashtirish, psixologik qulay muhit yaratish va motivatsiyani kuchaytirish orqali talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish mumkin. Bu esa ularning kelajakda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978.
2. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books, 1983.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlar
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. Routledge, 2001.
5. Psixologiya va pedagogika bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar to‘plami.
6. Gender psixologiyasi bo‘yicha xalqaro konferensiya materiallari, 2022.

BALXDA TUG‘ILGAN BUYUK MUTASAVVIFNING TA’SIRI.

ALLAYAROV DONIYOR ISLOM O‘G‘LI.
Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk tasavvuf vakili, mutafakkir va shoir Jaloliddin Rumiy hayoti, uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan shaxslar, yashagan muhit hamda u yaratgan bebaho asarlarning tasavvuf, axloqiy-tarbiyaviy va pedagogik jihatlari yoritiladi. Ayniqsa, Rumiy va Shams Tabriziy o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik hamda “Masnaviy” dostoni orqali uning so‘fiylik tafakkuri tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Rumiy, tasavvuf, tarbiya, Shams Tabriziy, Masnaviy, Balx, Konya, pedagogik qarashlar.

Jaloliddin Muhammad Rumiy Sharq mutafakkirligi tarixida o‘zining chuqur falsafiy qarashlari, tasavvufiy tafakkuri va axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalari bilan ajralib turadigan buyuk mutasavvif, shoir, alloma va pedagogik tafakkur egasi bo‘lgan. U 1207-yil 30-sentyabrda Balx shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Bahouddin Valad ham zamonasining yetuk olimlaridan bo‘lib, “Sulton ul-ulamo” (olimlar sultoni) laqabini olgan. Rumiy bolaligidan zamonasining yetuk olimlari qo‘lida tarbiya topgan. Otasining ilmiy davralari, safarlar davomida Yaqin Sharq, Arabiston va Kichik Osiyo madaniy makonlari bilan tanishishi uning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o‘ynagan. U Qohira, Makka, Damashq kabi ilm va ma’rifat markazlarida bo‘lgan. Nihoyat, ular Konya shahriga joylashadi. Shu yerda Rumiy butun umri davomida ilmiy, adabiy, tasavvufiy va pedagogik faoliyat olib borgan. Jaloliddin nafaqat diniy-huquqiy, balki, aniq fanlar sohasida ham yaxshi tahsil olgan, arab, yunon tillarini, “Qur’on”ni va uni tavsirini yaxshi bilgan.

XIII asrda Kunya shahrida Sulton Valad so‘filik Mavlono ordenini ta’sis etib, marosimlarda Rumiy asarlaridan foydalanilgan. Rumiy — Usmoniylar Turkiyasidagi eng obro‘li darveshlarning hamda bizning davrimizdagi mavjud tariqatning ma’naviy davomchisi. Uning otasi Muhammad Baxouddin Valad so‘fi va diniy-olim bo‘lgan. Shuning uchun ham u Xorazm shohi Muhammaddan saroyida xizmat qilish taklifini oladi. Ammo Valad o‘z e’tiqodida mustahkam, chuqur bilimga ega va juda haqqoniy bo‘lgan. Turli vajlarga ko‘ra, u shohning iltimosini rad etib, bolalarga dars berish uchun maktabda qoladi va ilmiy hamda ijodiy faoliyatini davom ettiradi. Shu sabab Xorazm shohi bilan o‘rtalarida kelishmovchilik yuzaga keladi. Haj safarini amalga oshirish maqsadida, u oilasi bilan Balxni tark etadi.

Makkaga safari chog‘i, Nishopurda u shayh Farididdun Muhammad Attor bilan suhbat qurish sharafiga muyassar bo‘ladi. Qiziquvchan shayh Rumiyga bog‘lanib qoladi va unga

o‘zining “Asrornoma” kitobini bag‘ishlab, Jaloliddin uni doim yonida olib yuradi. Rumiy she’riyat, falsafa va dinshunoslik bobida bu qadar cho‘qqilarga erishishiga o‘sha davrlarning ma’rifatparvarlari shayh Shams Tabriziy va Farididdun Attorlarning hissasi beqiyosdir. Shams Tabrizdan u falsafa, xususan, so‘fichilik bilan tanishadi.

1228 yil Valad Kunyadagi madrasasida muallimlik o‘rnini egallash taklifini oladi va o‘sha yerga ko‘chib o‘tib, tez orada, 1231 yil vafot etadi va uning madrasadagi o‘rnini Jaloliddin egallaydi. Bir yildan so‘ng Jaloliddin madrasada dars berish bilan birga, Valadning fikrdoshi Burxon id-Din Muhaqqiqning shogirdiga aylanadi. Bu ma’naviy tarbiya, deyarli o‘n yil davom etdi: u barchaning hurmatiga sazovor mudarris va masjid xotibi bo‘lib qolish barobarida, o‘z oilasi bilan bekamu-ko‘st va xotirjam hayot kechiradi.

Jaloliddinning so‘filik yo‘liga tushishi daydi so‘fi va’zxoni Shamsiddin Tabriziyning ismi bilan bog‘liq. Bu darveshning xutbalari va u bilan shaxsiy suhbati va keyinroq sirli g‘oyib bo‘lishi Jaloliddin qalbini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Uchrashuv quvonchi-yu, do‘stiga bo‘lgan kengqamroqli muhabbat va judolik fojiasini tuyib, u butun dunyoga taniqli daho shoirga aylandi.

Ammo Jaloliddin 1247 yili g‘oyib bo‘lgan, unga ma’naviy fazilatlarini yodga solib turuvchi o‘qituvchisi Shamsiddinsiz ortiq yashay olmay, ijodini ham davom ettirolmasdi. Yosh zargar Salohiddin Zarkub ham sevimli ustoziga aylanib qolgan edi, u 1258 yili vafot etganidan so‘ng, uning o‘rnini Husamiddin Hasan bosadi.

Aynan Husamiddin oldida Jaloliddin ko‘plab she’riy asarlari insoniyat uchun yozib, saqlanib qolinganligi uchun qarzdor, zero, shoir ularni odatda o‘qib berar yoki hirgoya qilib berardi. Uning taklifiga va yordamiga binoan, Jaloliddinning asosiy asari - olti bobli “Masnaviy” (“Yashirin ma’no haqida doston”) yaratilgan. O‘zining yashirin ma’nosida ushbu doston so‘fichilik ensiklopediyasi hisoblanadi, lekin unga bu jihatdan faqat so‘fichilik yo‘lidagilargina baho bera olib, unda G‘azaliy, Sanoiy, Attor va o‘z davrining boshqa bao‘bro‘ so‘fichilarining taraqqiy g‘oyalarini ko‘ra oladilar. Bolaligidayoq u Xurosonning asosiy shahri - ona yeri Balxni tark etishga majbur bo‘ladi.

Rumiy davrida islom dunyosida turli oqimlar, ilohiyot, fiqh, falsafa, sufiylik kabi sohalar taraqqiy etgan edi. Bu ilmiy-madaniy muhit, ayniqsa, tasavvuf maktablarining keng rivojlanishi, uning dunyoqarashi va pedagogik qarashlarining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

U zamonasida nafaqat diniy ulamo, balki ruhiy-ma’naviy yetakchi sifatida tanilgan. Uning shogirdlari orasida zamonasining yirik olimlari, adiblari, davlat arboblari va xalq vakillari bo‘lgan. Ayniqsa, Rumiy hayotida Shams Tabriziy bilan uchrashuv yangi bir bosqich bo‘lib, uning ichki ruhiy yuksalishida burilish yasagan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Jaloliddin Rumiy - nafaqat tarixiy shaxs, balki bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan ma’naviy meros egasi. Uning asarlaridagi muhabbat, poklik, ichki uyg‘onish, ruhiy kamolot va insonparvarlik g‘oyalari zamonaviy jamiyat tarbiyasi uchun ham muhim

ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rumiy, J.M. Masnaviy Ma’naviy. Tarjimalar to‘plami.
2. Shams Tabriziy. Maqolat. Toshkent, 2001.
3. Attor, F. Asrornoma. Eron nashri, 1998.
4. Nasr, S.H. Sufi Thought and Islamic Spirituality. 2000.
5. Bobomurodov, H. Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Komilov, N. Tasavvuf va ma’naviyat. Toshkent, 2008.
7. Internet havolalari.

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLOGINI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING RO'LI

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Moliyaviy boshqaruv va axborot texnologiyalari fakulteti Moliyaviy boshqaruv va axborot texnologiyalari Kafedrasi o'qituvchisi
Bozorboyev Mirjalol Gulmirza o'g'li
Email: bozorboyevmirjalol7@gmail.com
Tel: +998990160345

Anotatsiya: Ushbu tezis moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS yoki IFRS) ning rolini chuqur tahlil qiladi. MHXS global moliyaviy bozorlarda izchillik, taqqoslanuvchanlik va ochiqlikni ta'minlash orqali investorlar ishonchini oshirish, kapital oqimini rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tezisda MHXS ning printsipial asoslari, maxsus standartlar (IFRS 7, IFRS 13, IFRS 15) ning shaffoflikka batafsil ta'siri, global empirik dalillar, O'zbekiston kontekstida joriy etishning hozirgi holati (2025 yil holatiga ko'ra), qiyinchiliklar va istiqbollar, shuningdek, barqarorlik hisobotlari bilan integratsiya masalalari keng yoritiladi. Tadqiqot MHXS ni qo'llash moliyaviy hisobotlardagi ma'lumot assimetriyasini kamaytirib, korporativ boshqaruv sifatini oshirishini va O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Tezis ilmiy tadqiqotchilar, buxgalteriya va moliya mutaxassislari, iqtisodiy siyosat ishlab chiquvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot, Xalqaro standartlar, Shaffoflik, IFRS, Ochiqlik, Investorlar ishonchi, Taqqoslanuvchanlik, Empirik tadqiqotlar, O'zbekiston buxgalteriyasi, Korporativ boshqaruv, Barqarorlik hisobotlari, Global integratsiya.

Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi zamonaviy iqtisodiyotda asosiy omil bo'lib, u moliyaviy bozorlarning samaradorligini ta'minlaydi va investorlar, kreditorlar hamda regulyatorlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratadi. Globalizatsiya va iqtisodiy integratsiya sharoitida milliy buxgalteriya standartlari orasidagi farqlar transchegaraviy investitsiyalarni murakkablashtiradi, ma'lumot assimetriyasiga olib keladi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchsizlikni oshiradi. Bunday vaziyatda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS yoki IFRS) muhim rol o'ynaydi, chunki ular Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB) tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda 140 dan ortiq mamlakatda qo'llanilayotgan universal vosita hisoblanadi. MHXS ning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda izchillik, taqqoslanuvchanlik va ochiqlikni ta'minlash bo'lib, bu orqali foydalanuvchilar kompaniyaning haqiqiy moliyaviy holatini to'liq baholash

imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, MHXS moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish orqali global iqtisodiyotda shaffoflikni mustahkamlaydi, chunki u kompaniyalarni moliyaviy ma'lumotlarni yashirmasdan taqdim etishga majbur qiladi va bu orqali investorlarning qarorlarini yaxshilaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham yuqori, chunki respublikada MHXS ni joriy etish 2020-yilgi Prezident qarori (PQ-4611) asosida boshlangan va 2025 yilga kelib davlat korxonalari (SOE) to'liq IFRS ga o'tish jarayonida. Masalan, 2025 yil 15 sentabrda qabul qilingan Prezident rezolyutsiyasi (PP-282) buxgalteriya tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'radi, bu milliy buxgalteriya tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MHXS ni qo'llash moliyaviy hisobotlardagi shaffoflikni oshirib, korrupsiya va manipulyatsiya darajasini pasaytiradi, natijada iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Ushbu tezisning maqsadi MHXS ning moliyaviy hisobotlar shaffofligiga ta'sirini chuqur tahlil qilish, uning afzallik va qiyinchiliklarini ko'rib chiqish hamda O'zbekiston kontekstida, shu jumladan 2025 yilgi islohotlar asosida, tavsiyalar berishdir. Vazifalar quyidagilar: MHXS ning printsipial asoslarini batafsil ochib berish, maxsus standartlarning rolini tahlil qilish, empirik dalillarni kengroq keltirish, O'zbekistonda joriy etishdagi hozirgi muammolar va istiqbollarini muhokama qilish. MHXS ning shaffoflikni ta'minlashdagi roli uning printsipial yondashuviga asoslanadi, bu yerda standartlar nafaqat qoidalarga asoslangan, balki iqtisodiy voqelikni aks ettirishga qaratilgan. Bu yondashuv moliyaviy hisobotlarning sifatini oshiradi, chunki u kompaniyalarga o'z faoliyatining haqiqiy moliyaviy natijalarini aniq va tushunarli tarzda taqdim etishni talab qiladi. Masalan, IFRS 7 "Moliyaviy instrumentlar: Ochiqlik" standarti kompaniyalarni moliyaviy risklar – kredit riski, likvidlik riski, bozor riski va operatsion risk – haqida batafsil ma'lumot taqdim etishga majbur qiladi. Ushbu standart moliyaviy instrumentlarning ahamiyatini baholash va ular bilan bog'liq xavflarni ochib berishni talab qiladi, bu esa hisobot foydalanuvchilariga kompaniyaning moliyaviy holatini to'liq baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, IFRS 13 "Adolatli qiymatni o'lchash" standarti aktiv va majburiyatlarni baholashda shaffof metodologiyani ta'minlaydi, chunki u bozor ma'lumotlariga asoslangan baholashni rag'batlantirib, sub'ektiv baholarni minimallashtiradi va baholash texnikasini batafsil ochib berishni talab qiladi. Ushbu standartlarning qo'llanilishi moliyaviy hisobotlardagi ma'lumot sifatini oshiradi, chunki ular ochiqlik talablarini kuchaytirib, buxgalteriya siyosatini tanlashda shaffoflikni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, IFRS 15 "Daromadlar shartnomalari bo'yicha mijozlar bilan" standarti daromadlarni tan olishda besh bosqichli modelni (shartnoma aniqlash, majburiyatlarni ajratish, tranzaksiya narxini belgilash, narxni majburiyatlarga taqsimlash va daromadni tan olish) joriy etadi, bu model daromadlarning qachon va qanday miqdorda hisobotga kiritilishi haqida aniq ko'rsatmalar beradi. Ushbu model orqali kompaniyalar daromad oqimlari haqida batafsil ma'lumot taqdim etadi, bu esa investorlar va tahlilchilar uchun moliyaviy

prognozlarni aniqroq amalga oshirish imkonini yaratadi. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, IFRS 15 ni qo'llash daromadlar hisobotining shaffofligini sezilarli darajada oshiradi, chunki u daromadlarning kelib chiqish manbaini va ularning barqarorligini aniqroq aks ettiradi. Quyidagi jadvalda ushbu standartlarning shaffoflikka ta'siri taqqoslangan:

Standart	Asosiy komponentlar	Shaffoflikka ta'siri
IFRS 7	Moliyaviy instrumentlarning ahamiyati va risklarni ochib berish	Risklarni batafsil tahlil qilish orqali investorlar uchun moliyaviy xavflarni to'liq baholash imkonini beradi, ma'lumot assimetriyasini kamaytiradi.
IFRS 13	Adolatli qiymatni o'lchash metodlari va ochiqlik	Baholash jarayonini shaffoflashtirib, sub'ektiv baholarni minimallashtiradi va bozor ma'lumotlariga asoslangan hisobotlarni ta'minlaydi.
IFRS 15	Daromadlarni tan olishning besh bosqichli modeli	Daromad oqimlarini aniq va batafsil aks ettirib, investorlarning prognozlarini yaxshilaydi va manipulyatsiyalarni oldini oladi.

Empirik tadqiqotlar MHXS ni qo'llashning ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Masalan, rivojlanayotgan bozorlarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MHXS ni joriy etish moliyaviy hisobotlardagi ma'lumot assimetriyasini kamaytiradi va investorlarning ishonchini oshiradi, natijada kapital qiymati oshadi. Yevropa Ittifoqida MHXS ni majburiy qo'llash 2005 yildan beri moliyaviy bozorlarning integratsiyasini kuchaytirdi va korporativ boshqaruv sifatini yaxshiladi. O'zbekiston kontekstida esa, MHXS ni qabul qilish milliy buxgalteriya hisobini xalqaro darajaga ko'tarishga yordam beradi, chunki u investorlarni jalb qilish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratadi. Bundan tashqari, global tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MHXS ni qo'llash moliyaviy hisobotlardagi manipulyatsiyalar darajasini pasaytiradi va korporativ shaffoflikni oshiradi, masalan, Rossiyada IFRS ni qabul qilish buxgalteriya sifatini yaxshilaganini empirik dalillar tasdiqlaydi.

MHXS ning globalizatsiya sharoitidagi ahamiyati yanada yuqori, chunki milliy standartlar orasidagi farqlar transchegaraviy investitsiyalarni murakkablashtiradi. Standartlarning bir xilligi orqali kompaniyalar o'z hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirib, taqqoslanuvchanlikni ta'minlaydi, bu esa auditorlik va regulyatorlik nazoratni osonlashtiradi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, MHXS ni qabul qilgan mamlakatlarda moliyaviy hisobotlardagi manipulyatsiyalar darajasi pasayadi. O'zbekistonda MHXS ni joriy etishda qiyinchiliklar mavjud, jumladan, milliy qonunchilik bilan moslashtirish, malakali kadrlar etishmasligi va texnik infratuzilma muammolari. 2025 yil holatiga ko'ra, davlat korxonalari IFRS ga o'tish jarayonida, masalan, 2025 yil avgustda e'lon qilingan islohotlar davlat korxonalarining shaffofligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan. Biroq, bu

qiyinchiliklar standartlarning afzalliklarini inkor etmaydi, chunki ular moliyaviy bozorlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Masalan, "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" shaklini MHXS ga moslashtirish kompaniyaning likvidligini aniqroq aks ettiradi va investorlar uchun qo'shimcha shaffoflik yaratadi.

Quyidagi jadval O'zbekistonda MHXS ni joriy etish bosqichlarini ko'rsatadi (2025 yil holatiga ko'ra):

Bosqich	Vaqt oralig'i	Asosiy choralar
Tayyorgarlik	2020-2023	Prezident qarori PQ-4611 asosida milliy standartlarni moslashtirish va o'quv dasturlari joriy etish.
Pilot loyihalar	2023-2024	Katta korxonalar va banklarda test qo'llash, malakali kadrlar tayyorlash.
To'liq joriy etish	2025-2028	PP-282 rezolyutsiyasi asosida davlat korxonalari IFRS ga o'tishi, 2028 yildan majburiy qo'llash.

Shuningdek, MHXS ning doimiy rivojlanishi, masalan, barqarorlik haqidagi hisobotlarni (sustainability reporting) integratsiya qilish orqali, kelajakda shaffoflikni yanada kuchaytiradi. IASB tomonidan ishlab chiqilgan IFRS S1 va S2 standartlari kompaniyalarni iqlim o'zgarishi, ijtimoiy mas'uliyat va atrof-muhit ta'siri haqida ma'lumot ochib berishga majbur qiladi, bu moliyaviy hisobotlarni yanada kengroq va dolzarb qiladi. O'zbekiston uchun bu jarayon iqtisodiy islohotlarning bir qismi bo'lib, xorijiy tajribani (masalan, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Afrika tajribasini) hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Masalan, Janubiy Afrikada MHXS ni qo'llash investorlar ishonchini oshirgan va kapital bozorlarini rivojlantirgan.

Xulosa qilib aytganda, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashda global standart sifatida o'z o'rnini mustahkamlab, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka hissa qo'shadi. MHXS ning qo'llanilishi nafaqat ma'lumot sifatini oshiradi, balki investorlar ishonchini kuchaytirib, kapital bozorlarini rivojlantiradi va global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. O'zbekiston uchun MHXS ni to'liq joriy etish milliy buxgalteriya tizimini modernizatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning kaliti bo'ladi, ayniqsa 2025 yilgi islohotlar asosida. Biroq, muvaffaqiyat malakali kadrlar tayyorlash, qonunchilikni moslashtirish va texnologik yordamga bog'liq. Kelgusida MHXS ni barqarorlik standartlari bilan birlashtirish moliyaviy hisobotlarni yanada shaffof va dolzarb qiladi, bu esa global iqtisodiyotda O'zbekistonning rolini kuchaytiradi. Ushbu tadqiqot asosida tavsiya etiladiki, regulyatorlar MHXS ni qo'llash bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirsin, empirik monitoringni oshirsun va xalqaro hamkorlikni kuchaytirsin, masalan, IFRS S1/S2 ni 2028 yilgacha joriy etishni rejalashtirsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2024. https://gov.uz/imv/news/view/16015
2. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish. Uzbek Scholar Journal, 2023. https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/download/614/589/610
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni amaliyotda qo'llash zaruriyati. International Journal of Finance and Development, 2023. https://www.ijfd.uz/15.%20MOLIYAVIY%20HISOBOTNING%20XALQARO%20STANDARTLARI%20VA%20UNI%20AMALIYOTDA%20QO'LLASH%20ZARURIYATI.pdf
4. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi va ahamiyati. ResearchGate, 2023. https://www.researchgate.net/publication/372497685_RELEVANCE_AND_IMPORTANCE_OF_TRANSITION_TO_INTERNATIONAL_FINANCIAL_REPORTING_STANDARDS_IN_UZBEKISTAN
5. Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida uyg'unlashtirish. Tashkent Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers Institute, 2023. https://staff.tiiame.uz/storage/users/797/articles/fibZuqqdmpvlrlvarYI8215pQqoroEO4TxB1CFdX.pdf

ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ КАК ПРЕДИКТОР ТЯЖЕСТИ И ПРОГРЕССИРОВАНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК У ДЕТЕЙ

Гулямова Барно Муродхужа кизи
Науч руководитель: Ашурова Д.Т

Аннотация: Актуальность проблемы хронической болезни почек (ХБП) у детей обусловлена высокой чувствительностью их физического развития к метаболическим и воспалительным нарушениям. Дефицит роста и массы тела не только является маркером тяжести заболевания, но и ускоряет его прогрессирование, что подчеркивает необходимость изучения патогенетических взаимосвязей и факторов риска для улучшения клинико-прогностических подходов. Цель исследования заключалась в выявлении корреляций между антропометрическими показателями (рост, масса тела, индекс массы тела в Z-score по стандартам ВОЗ) и клинико-лабораторными параметрами (уровни С-реактивного белка (СРБ), альбумина, креатинина, соматомедина-С (IGF-1), скорость клубочковой фильтрации (СКФ)) у детей с ХБП, а также в определении факторов риска неблагоприятного течения. В исследование вошли 50 детей в возрасте 5–17 лет (28 мальчиков, 22 девочки) с ХБП I–IV стадий, где преобладали врождённые аномалии мочевой системы (52%), хронический гломерулонефрит (30%) и тубулоинтерстициальный нефрит (18%). Методы включали антропометрию, биохимический анализ крови, расчет СКФ, статистику (t-критерий Стьюдента, χ^2, корреляция Пирсона, относительный риск (RR), отношение шансов (OR) с 95% доверительным интервалом). Результаты показали нарушения физического развития у 66% пациентов, преимущественно при врождённых аномалиях. У детей с дефицитом роста СКФ была значительно ниже (56,4±9,8 мл/мин/1,73 м² vs. 87,5±14,2 мл/мин/1,73 м²; $p<0,001$), с сопутствующей гипоальбуминемией (35,2±3,4 г/л) и повышением СРБ (8,9±3,1 мг/л). Уровень IGF-1 снижен (127,6±22,3 нг/мл vs. 196,4±27,5 нг/мл; $p<0,001$). Корреляционный анализ выявил положительную связь роста с IGF-1 ($r=0,56$; $p<0,01$) и альбумином ($r=0,48$; $p<0,01$), отрицательную — с СРБ ($r=–0,42$; $p=0,02$). Многофакторный анализ определил независимые предикторы неблагоприятного течения: дефицит роста (OR=4,8; 95% ДИ 1,6–14,2), низкий IGF-1 (OR=3,9; 95% ДИ 1,3–11,6) и СРБ >6 мг/л (OR=4,1; 95% ДИ 1,5–12,2). Заключение: Физическое развитие служит индикатором выраженности воспалительных и метаболических нарушений, выступая ранним прогностическим критерием тяжести ХБП. Регулярный мониторинг роста, IGF-1 и СРБ позволяет идентифицировать группы высокого риска, оптимизировать терапию и предотвратить прогрессирование заболевания.

Ключевые слова: хроническая болезнь почек, дети, физическое развитие,

дефицит роста, IGF-1, С-реактивный белок, альбумин, скорость клубочковой фильтрации, корреляционный анализ, факторы риска, прогрессирование, врождённые аномалии мочевой системы.

Актуальность. Особенностью детского возраста является высокая чувствительность физического развития к метаболическим и воспалительным нарушениям. Дефицит роста и массы тела у детей с ХБП не только отражает тяжесть заболевания, но и способствует его прогрессированию. Определение патогенетических взаимосвязей и факторов риска неблагоприятного течения ХБП в зависимости от физического статуса имеет важное клинико-прогностическое значение.

Цель исследования. Выявить взаимосвязи между показателями физического развития и клинико-лабораторными параметрами у детей с ХБП и определить факторы риска неблагоприятного течения заболевания.

Материалы и методы. Обследовано 50 детей с ХБП I–IV стадий в возрасте 5–17 лет (28 мальчиков, 22 девочки). В структуре патологии преобладали врождённые аномалии мочевой системы (52%), хронический гломерулонефрит (30%) и тубулоинтерстициальный нефрит (18%). Оценивались показатели роста, массы тела, ИМТ (в Z-score по ВОЗ), уровень С-реактивного белка (СРБ), альбумина, креатинина, соматомедина-С (IGF-1), а также скорость клубочковой фильтрации (СКФ). Для оценки взаимосвязей применялись критерии Стьюдента, χ^2, корреляционный анализ (r Пирсона), относительный риск (RR) и отношение шансов (OR) с 95% доверительным интервалом.

Результаты. Нарушения физического развития выявлены у 66% детей с ХБП, преимущественно при врождённых аномалиях мочевой системы. У пациентов с дефицитом роста СКФ составила 56,4±9,8 мл/мин/1,73 м² против 87,5±14,2 у детей с нормальным ростом ($p < 0,001$), отмечены гипоальбуминемия (35,2±3,4 г/л) и повышение СРБ (8,9±3,1 мг/л). Уровень IGF-1 был достоверно снижен (127,6±22,3 против 196,4±27,5 нг/мл; $p < 0,001$). Корреляционный анализ показал прямую связь роста с IGF-1 ($r = 0,56$; $p < 0,01$) и альбумином ($r = 0,48$; $p < 0,01$), а также отрицательную связь с СРБ ($r = –0,42$; $p = 0,02$). Многофакторный анализ выявил независимые предикторы неблагоприятного течения ХБП: дефицит роста (OR = 4,8; 95% ДИ 1,6–14,2), низкий IGF-1 (OR = 3,9; 95% ДИ 1,3–11,6) и высокий СРБ (>6 мг/л; OR = 4,1; 95% ДИ 1,5–12,2).

Заключение. Физическое развитие у детей с ХБП отражает выраженность воспалительных и метаболических нарушений и может рассматриваться как ранний прогностический критерий тяжести заболевания. Мониторинг показателей роста, IGF-1 и СРБ позволяет выделять группы высокого риска прогрессирования ХБП и своевременно корректировать терапевтическую тактику.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Борханова М. А. Клинические особенности хронических заболеваний почек у детей в условиях метаболических нарушений // Педиатрия. Журнал им. Г. Н. Сперанского. - 2020. - Т. 99, № 6. - С. 45–52.
2. Ласкин М. А., Селезнёва Е. Ю., Акимова Т. Р. Роль соматотропной недостаточности в нарушении физического развития при хронических нефропатиях у детей // Вопросы современной педиатрии. - 2019. - Т. 18, № 4. - С. 22–28.
3. Ганиева Ф. Ш., Абдуллаева З. А. Факторы риска прогрессирования хронической болезни почек у детей // Педиатрия Узбекистана. - 2023. - № 2. - С. 19–25.
4. Хакимова Н. Р. Метаболические нарушения и рост у детей с хронической болезнью почек // Здоровье ребёнка. - 2021. - № 3 (78). - С. 15–20.
5. World Health Organization (WHO). Growth reference data for children and adolescents aged 5–19 years. - Geneva: WHO, 2019. - 64 p.
6. Kim S. H., Park J. Y., Lee H. J. Growth impairment and inflammatory markers in pediatric chronic kidney disease // Pediatric Nephrology. - 2022. - Vol. 37, No. 8. - P. 1891–1902.
7. Zhao Q., Lin Y., Zhang D. Role of chronic inflammation in growth failure and progression of chronic kidney disease in children // Journal of Pediatric Internal Medicine. - 2023. - Vol. 45, No. 2. - P. 155–162.

MAKTABGA BILIM KO‘NIKMA MUSTAQILLIGINI VA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Sobirova Durdona Abdusamat qizi
Farg‘ona shahar 4-maktab, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Ushbu maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilim ko‘nikmalari mustaqilligini va ta’limga tayyorgarligini rivojlantirish muhimligi tahlil qilinadi. Maktab ta’limida interaktiv metodlar, muammo yechish va ijodiy yondashuvlarning roli ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining samaradorligini ta’kidlaydi.
Kalit so‘zlar: bilim ko‘nikmalari, mustaqillik, tayyorgarlik, interaktiv metodlar, ta’lim
В статье анализируется важность развития самостоятельности учебных навыков и готовности к обучению у школьников. Рассматривается роль интерактивных методов, решения проблем и творческого подхода в школьном образовании. Результаты исследования подчеркивают эффективность сотрудничества родителей и учителей.
Ключевые слова: учебные навыки, самостоятельность, готовность, интерактивные методы, образование
The article analyzes the importance of developing students’ independence in learning skills and readiness for education. It highlights the role of interactive methods, problem-solving, and creative approaches in school education. The research results emphasize the effectiveness of cooperation between parents and teachers.
Keywords: learning skills, independence, readiness, interactive methods, education

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga tayyorlash har bir maktab ta’limining asosiy vazifalaridan biridir. Maktabga kirayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim ko‘nikmalari va o‘qishga tayyorligi ularning kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bois, bilim ko‘nikma mustaqilligi va tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala samarali o‘rganilishi va amaliyotda qo‘llanilishi ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bilim ko‘nikmalarining mustaqil shakllanishi va tayyorgarlik darajasining yuqoriligi o‘quvchilarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi, bilimni chuqur egallashi hamda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Bugungi pedagogik amaliyotda interaktiv usullar, muammo asosida o‘qitish va ijodiy yondashuvlar orqali o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish dolzarb vazifaga aylangan. Shu bois, maktabga bilim ko‘nikma mustaqilligini va tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining maktabga bilim ko‘nikma mustaqilligini va ta’limga tayyorgarligini rivojlantirish usullarini aniqlash va amaliyotga joriy etish.

Metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llandi: pedagogik adabiyotlar va davlat ta’lim standartlari tahlili, interaktiv dars metodlarini sinovdan o‘tkazish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini kuzatish va baholash, shuningdek, ota-ona va o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazildi. Empirik ma’lumotlarni yig‘ishda so‘rovnoma va kuzatuv usullari keng qo‘llanildi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari Ushbu tadqiqotda bir nechta metodlardan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid pedagogik adabiyotlar, davlat ta’lim standartlari va qonun hujjatlari tahlil qilindi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil faoliyati kuzatildi, ularning bilim ko‘nikmalari rivojlanishi maktab sharoitida o‘rganildi. O‘qituvchilar va ota-onalar orasida so‘rovnoma va suhbatlar tashkil etilib, o‘quvchilarning tayyorgarligi va mustaqilligiga oid fikrlar yig‘ildi. Tadqiqot doirasida interaktiv metodlar hamda muammo asosida o‘qitish usullari sinovdan o‘tkazildi, ularning samaradorligi baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil orqali qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim ko‘nikma mustaqilligini shakllantirish uchun interaktiv metodlar muhim ahamiyatga ega. Guruhda ishlash, muhokamalar, loyihalar tayyorlash kabi faoliyatlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Muammo yechish metodlari esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar yordamida o‘quvchilar mustaqil izlanishga jalb qilinadi va o‘z bilimlarini mustahkamlaydi. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik o‘quvchilarning uyda mustaqil ishlash odatini shakllantirishga yordam beradi. Maktabda tashkil etilgan maxsus dastur va metodikalar yordamida o‘quvchilarning tayyorgarligi va mustaqilligi doimiy nazorat qilinadi. O‘qituvchilar har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etadilar.

Natijalar tahlili. Eksperimental sinovlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv va muammo yechishga yo‘naltirilgan metodlar o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. So‘rovnomalar natijalari ota-ona va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik maktabdagi tayyorgarlik va mustaqillikni rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Maktabga bilim ko‘nikma mustaqilligini va tayyorgarligini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, u yosh avlodni muvaffaqiyatli ta’lim olishga va jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar, muammo yechish yondashuvi va ota-ona bilan yaqindan hamkorlikni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning mustaqilligi samarali oshirilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan kuzatuv va eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar va muammo yechish usullarini qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim ko‘nikma mustaqilligini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilar guruhlarda ishlash,

muhokama va ijodiy topshiriqlar orqali o‘z bilimlarini mustaqil ravishda egallashga intilishadi. So‘rovnoma natijalari esa ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi samarali hamkorlik ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalari rivojlanib, ular o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va xatolarini aniqlashga qodir bo‘ldilar. Bu esa ularning ta’lim jarayonida faolligini oshirdi va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirdi.

Xulosa. Maktabga bilim ko‘nikma mustaqilligini va tayyorgarligini rivojlantirish yosh avlodni muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar, muammo yechishga yo‘naltirilgan yondashuv va ota-ona bilan yaqindan hamkorlik ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliyotga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur. Shu bilan birga, ota-onalar bilan uzviy aloqani kuchaytirish ham o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim omildir.

Adabiyotlar

1. Axmedov, B. (2019). Boshlang‘ich ta’limda interaktiv metodlar samaradorligi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Islomova, S. (2020). O‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish metodikalari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Karimova, L. (2018). Ta’limda muammo asosida o‘qitish. Toshkent: Pedagogika.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Davlat ta’lim standartlari. Toshkent.
5. Tursunova, M. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayyorgarligini baholash. Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti.

РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ УЧЕБНЫХ НАВЫКОВ И ГОТОВНОСТИ К ШКОЛЕ

Собирова Дурдона Абдусамат кизы
Учитель начальных классов, школа №4, г. Фергана

Ushbu maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilim ko‘nikmalari mustaqilligini va ta’limga tayyorgarligini rivojlantirish muhimligi tahlil qilinadi. Maktab ta’limida interaktiv metodlar, muammo yechish va ijodiy yondashuvlarning roli ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining samaradorligini ta’kidlaydi.
Kalit so‘zlar: bilim ko‘nikmalari, mustaqillik, tayyorgarlik, interaktiv metodlar, ta’lim
В статье анализируется важность развития самостоятельности учебных навыков и готовности к обучению у школьников. Рассматривается роль интерактивных методов, решения проблем и творческого подхода в школьном образовании. Результаты исследования подчеркивают эффективность сотрудничества родителей и учителей.
Ключевые слова: учебные навыки, самостоятельность, готовность, интерактивные методы, образование
The article analyzes the importance of developing students’ independence in learning skills and readiness for education. It highlights the role of interactive methods, problem-solving, and creative approaches in school education. The research results emphasize the effectiveness of cooperation between parents and teachers.
Keywords: learning skills, independence, readiness, interactive methods, education

Современная система образования предъявляет высокие требования к качеству подготовки учащихся уже на начальном этапе обучения. Особенно важным становится формирование у младших школьников самостоятельных учебных навыков и готовности к восприятию нового материала. Эти качества напрямую влияют на успешность дальнейшего обучения, развитие критического мышления и способности к самообучению. В условиях быстро меняющегося общества и стремительного развития информационных технологий учащиеся должны не только усваивать знания, но и уметь самостоятельно их применять, анализировать информацию и принимать решения. Именно поэтому развитие учебной самостоятельности и формирование устойчивой учебной мотивации становятся приоритетными задачами начального образования.

Актуальность темы обусловлена необходимостью повышения эффективности образовательного процесса за счет внедрения современных педагогических подходов — интерактивных методов, технологии проблемного обучения, творческих заданий и тесного взаимодействия с родителями. Введение данных методов в учебный процесс

способствует формированию у учеников ответственности, инициативности и уверенности в своих силах.

Методология. В исследовании использовались следующие методы: анализ педагогической литературы и государственных образовательных стандартов, апробация интерактивных методов обучения, наблюдение и оценка самостоятельной деятельности учеников, а также беседы с родителями и учителями. Для сбора эмпирических данных широко применялись анкеты и наблюдения. Полученные результаты были проанализированы с помощью статистических методов.

Методы исследования. В рамках данного исследования были проанализированы педагогическая литература, государственные образовательные стандарты и нормативные документы. Также наблюдалась самостоятельная деятельность младших школьников, изучалось развитие их учебных навыков в школьных условиях. Проведены опросы и беседы с учителями и родителями по вопросам готовности и самостоятельности детей. В ходе исследования апробировались интерактивные методы и методы проблемно-ориентированного обучения, оценивалась их эффективность. Полученные данные были обработаны с помощью статистического анализа.

Интерактивные методы имеют важное значение для формирования самостоятельности учебных навыков у младших школьников. Работа в группах, обсуждения, подготовка проектов стимулируют учеников к самостоятельному мышлению. Методы решения проблем развивают их творческое и критическое мышление. Творческие задания вовлекают учеников в самостоятельный поиск и закрепление знаний, что повышает их интерес к обучению. Также тесное сотрудничество с родителями способствует формированию у детей привычки самостоятельной работы дома. Специальные программы и методики, применяемые в школе, позволяют постоянно контролировать уровень готовности и самостоятельности учащихся. Учителя организуют образовательный процесс с учётом индивидуальных возможностей каждого ребёнка.

Анализ результатов. Экспериментальные испытания и наблюдения показали, что интерактивные и проблемно-ориентированные методы значительно повышают самостоятельную деятельность учеников. Результаты анкетирования подтвердили, что сотрудничество между родителями и учителями является важным фактором развития готовности и самостоятельности в школе.

Развитие самостоятельности учебных навыков и готовности к обучению — одна из приоритетных задач современного образовательного процесса, которая готовит молодое поколение к успешному обучению и активному участию в жизни общества. Результаты исследования показывают, что через применение интерактивных методов, проблемно-ориентированного подхода и тесного взаимодействия с родителями можно эффективно повысить самостоятельность учащихся. Наблюдения и эксперименты

подтвердили, что использование интерактивных методов и методов решения проблем значительно развивает самостоятельность младших школьников. Работа в группах, обсуждения и творческие задания побуждают учеников к самостоятельному освоению знаний. Анкетирование показало, что эффективное сотрудничество родителей и учителей способствует улучшению качества образовательного процесса. Кроме того, развились навыки самооценки у учеников, что позволило им анализировать свою деятельность и выявлять ошибки. Это повысило активность учащихся в учебном процессе и стимулировало их к самостоятельному обучению.

Вывод. Развитие самостоятельности учебных навыков и готовности к школе играет важную роль в подготовке молодого поколения к успешному обучению. Результаты исследования показали, что интерактивные методы, проблемно-ориентированный подход и тесное сотрудничество с родителями существенно повышают качество образования. Для развития у учеников навыков самостоятельного мышления и саморегуляции необходимо внедрять новые педагогические технологии. При этом укрепление связи с родителями также является важным фактором повышения уровня готовности детей.

Литература

Ахмедов, Б. (2019). Эффективность интерактивных методов в начальном образовании. Ташкент: Издательство «Учитель».

Исламова, С. (2020). Методики развития самостоятельной деятельности учащихся. Самарканд: Издательство Самаркандского государственного университета.

Каримова, Л. (2018). Обучение на основе решения проблем. Ташкент: Педагогика.

Кабинет Министров Республики Узбекистан. (2021). Государственные образовательные стандарты. Ташкент.

Турсунова, М. (2022). Оценка готовности младших школьников. Фергана: Издательство Ферганского государственного университета.

Ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibdagi "E-ijtimoiy moslashtirish" dasturida belgilangan chora tadbirlarni yakunlash bo'yicha profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs 321-guruh kursanti
Alijonov Firdavs Xayrulla o'g'li

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yakka tartibda olib boriladigan **“E-ijtimoiy moslashtirish”** dasturi doirasida belgilangan chora-tadbirlarni yakunlash jarayonida profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o‘rtasida qo‘shma xulosa tuzish faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, ularni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish hamda jinoyatchilikning takror sodir etilishining oldini olish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, qo‘shma xulosa tuzish jarayonining samaradorligini oshirish, hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy elektron nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta’kidlanadi.
Kalit so‘zlar: ijtimoiy profilaktika, E-ijtimoiy moslashtirish, profilaktika inspektori, mahalla yettiligi, huquqbuzarlik, reabilitatsiya, jamiyatga moslashish, jinoyatchilikning oldini olish, elektron nazorat, ijtimoiy integratsiya.

Zamonaviy ijtimoiy muhitda jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish va ularning ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilinishini ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda “E-ijtimoiy moslashtirish” dasturi profilaktika inspektorlari hamda mahalla yettiligi faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi, tizimli yondashuvga asoslangan muhim mexanizmlardan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur dasturda belgilangan chora-tadbirlarni yakunlash jarayonida profilaktika inspektori bilan mahalla yettiligi o‘rtasida tuziladigan qo‘shma xulosa markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki aynan ushbu xulosa orqali shaxsning ijtimoiy hayotga qayta moslashuvi, reabilitatsiya jarayoni, qayta huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik ehtimoli va ijtimoiy faollik darajasi aniqlanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu jarayonni samarali tashkil etishda ayrim tizimli muammolar mavjud. Axborot almashish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, individual yondashuv tamoyilining to‘liq amalga oshmasligi va hamkorlikning faqat rasmiy tusda qolib ketishi bunday faoliyat samaradorligini pasaytiruvchi omillar hisoblanadi. Shu bois qo‘shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni birlashtirgan holda olib borilishi zarur. Har bir shaxsning yashash sharoiti, oilaviy muhitidagi holati, bandlik darajasi, ruhiy holati va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari

chuqur o‘rganilgandagina bu jarayon kutilgan natijani beradi. Profilaktika inspektorlari bu borada yetakchi o‘rin egallaydi. Ular nafaqat nazoratni amalga oshiradi, balki shaxsning jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlashga qaratilgan aniq choralarni belgilaydi. Mahalla yettiligi esa bu jarayonda jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi, shaxsni mahalla hayotiga jalb etadi, ijtimoiy faolligini oshiradi va qayta jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik shunchaki rasmiy hujjat tuzish bilan cheklanmasligi, balki real ijtimoiy moslashtirish mexanizmini shakllantirishi lozim.

Qo‘shma xulosa tuzish jarayoni keng qamrovli bo‘lishi, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning hayotiy sharoitini to‘liq tahlil qilishga asoslanishi katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish, reabilitatsiya bosqichlarini aniq kuzatib borish samaradorlikni oshiradi. Eng muhimi, shaxsga yondashuv umumiy emas, balki individual tarzda tashkil etilishi lozim. Har bir insonning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini inobatga olish, ularni mehnat bozoriga qaytarish, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy hayotga jalb etish jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Mahalla yettiligi va profilaktika inspektori o‘rtasida axborot almashish tizimining mustahkam bo‘lishi ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Shaxsning reabilitatsiya jarayonida erishilgan natijalarni muntazam tahlil qilib borish, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, mahalla jamoatchiligi, oila a’zolari, ta’lim muassasalari va nodavlat tashkilotlarning hamkorlikda harakat qilishi shaxsning jamiyatga qayta moslashuvini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Shuningdek, profilaktika inspektorining qo‘shma xulosa tuzishdagi faoliyati faqatgina rasmiy hujjatni shakllantirish emas, balki real natijaga erishish, shaxsning ijtimoiy muhitda barqaror hayot kechirishiga ko‘maklashishni ham o‘z ichiga oladi. Mahalla yettiligining bu jarayondagi roli ayniqsa katta bo‘lib, ular hududdagi fuqarolarning yashash sharoitini, oila a’zolarining ijtimoiy ahvolini va shaxsning jamiyatga qayta integratsiya darajasini yaxshi biladi.

Xulosa qilib aytganda, “E-ijtimoiy moslashtirish” dasturi doirasida profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligining qo‘shma xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish — jinoyatchilikning oldini olish, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta’minlash va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat huquqbuzarlikka moyil shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qiladi, balki mahalla hayotida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, profilaktik ishlarni tizimli ravishda tashkil etish imkonini ham beradi. Qo‘shma xulosa tayyorlash jarayonini yanada samarali yo‘lga qo‘yish orqali jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan aniq reja asosida ishlash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, bandligini ta’minlash, ijtimoiy yordam mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat bir shaxsga, balki butun mahalla hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu tizimda mahalla yettiligining faolligini oshirish, profilaktika inspektorlari bilan uzviy hamkorlikni

kuchaytirish, o‘zaro mas’uliyatni taqsimlash ham muhim o‘rin tutadi. Chunki jinoyatchilikni kamaytirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda faqat huquqni muhofaza qilish organlari emas, balki mahalla jamoatchiligining ham faol ishtiroki zarurdir

Bundan tashqari, ushbu tizimni takomillashtirishda elektron platformalardan samarali foydalanish, mavjud ma’lumotlarni yagona bazada yuritish, monitoring tizimini kuchaytirish va natijadorlikni baholash mexanizmlarini joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Bu orqali profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi faoliyati shaffof, aniq va tahliliy yondashuvga asoslangan tizimga aylanadi.

Odil Yoqubov hayoti va ijodini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati.

Muazzam Zokirjonova
Magistr

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda Odil Yoqubov hayoti va ijodini o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishi bilan birga, ularning tahlil qilish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Xususan, adiblar hayoti va ijodini o‘rganishda interfaol yondashuv o‘quvchilarning yozuvchi shaxsi bilan bog‘liq ma’lumotlarni yanada chuqur tushunishiga ko‘maklashadi.

Kalit so’zlar: Adabiy kechalar, integratsiya, loyihalashtirish, darslik, material, “Yaxshilik” asari, “Ulug‘bek xazinasi” romani, didaktik jihat.

ANNOTATION

This thesis discusses the use of interactive methods in teaching the life and works of Odil Yoqubov. Applying such methods not only enhances students’ comprehension but also develops their analytical and logical thinking skills. In particular, an interactive approach to studying writers’ lives and creativity helps students gain a deeper understanding of the author’s personality and literary contribution.

Keywords: Literary evenings, integration, project-based learning, textbook, material, “Yaxshilik” story, “Ulug‘bek’s Treasure” novel, didactic aspect.

Yangilangan pedogogik tafakkurning tamoyillaridan biri – o‘quvchi asar mazmuni va g‘oyasini, muallif shaxsini o‘z fikri va mulohazasi, mutolaa jarayonida ko‘nglidan o‘tgan tuyg‘ulari vositasida mustaqil anglab yetishidir. Aynan mana shu yo‘l bilangina san’at asariga, uning yaratuvchisiga nisbatan o‘quvchida chinakam simpatiya hosil bo‘ladi, muhabbat uyg‘onadi. “Chinakam insonlikning asosiy belgisi boshqa odamlarni tushunish, ularga tuyg‘udosh bo‘la bilishdan iboratdir. Shu ma’noda olamdagi biror san’at turi, biror o‘quv predmeti adabiyotning o‘rnini bosa olmaydi. Negaki badiiy adabiyot o‘quvchilarning hissiyotlarini shakllantirib, tuyg‘ularini noziklashtirib, kechinmalarini teranlashtirib, ularni boshqa odamlarning holatini his etadigan darajaga keltira oladi. Pedogogik yo‘riqnomalarda “chinakam insonlikning asosiy belgisi”,-deyiladi, “Shu ma’noda olamdagi biror san’at turi, biror o‘quv predmeti adabiyotning o‘rnini bosa olmaydi. Negaki badiiy adabiyot o‘quvchilarning hissiyotlarini shakllantirib, tuyg‘ularini noziklashtirib, kechinmalarini teranlashtirib, ularni boshqa odamlarning holatini his etadigan darajaga keltira oladi. O‘zganing holatini his etmaslik, uning tuyg‘ularini tushunmaslik har qanday jamiyat a’zolari

uchun tanazzullik belgisi”[1],-deb e’tirof etiladi.

Yozuvchi va shoirlarning, umuman, san’atkorning tarjimayi holini, biografiyasini, ayni chog‘da asarlarining tarjimayi holidan ayricha tasavvur etish mushkul,- deb ta’kidlaydi bu borada taniqli olim Bahodir Karimov. - Zotan, dunyo adabiyotshunosligida masalaning shu jihatini bo‘rttirib,uni muayyan tizim holatiga keltirgan biografik metod ham bor… Biroq voqea-hodisalarning badiiy talqinida ijodkorning ruhiy kechinmalari, hayotiy tajribalari in’ikos qiladi-ki, bu haqiqatni hech kim inkor eta bilmaydi. Yozuvchi biografiyasi esa qaysidir yo‘sinda uning asarlarida o‘z ifodasini topadi. Va qaysidir darajada san’at asarining originalligini ta’min etadi. Yozuvchi hayotidagi o‘zgarishlar, ruhiy kechinmalar, dunyoqarashidagi silkinishlar fonida badiiy asarni talqin qilish o‘zining ijobiy samarasini beradi, albatta[2].Boshqa jihatdan esa, asar mutolaasi jarayonida uning muallifiga real, oddiy shaxs, obyekt sifatida emas, balki ijod mahsulining yaratuvchisi deb qarash ham zamonaviy pedogogik faoliyat xususiyatidir. Bu jarayonda muallif qachon tug‘ilgan, qayerda o‘qigan, qachon vafot etgan kabi raqam va ma’lumotlardan iborat axboriy matnlar emas, uning hayot yo‘lida ijodiga ta’sir qilgan didaktik ahamiyat kasb etuvchi o‘rinlarga ahamiyat berish va bilib olish, muallif badiiyati namunalarini o‘qib, qalban o‘zlashtirish va uning estetik xususiyatlarini tahlil qilish orqali o‘quvchida badiiy didni shakllantirishga yordam beradi.

XX asrning zabardast adiblaridan biri bo‘lgan Odil Yoqubov ijodi va hayot yo‘lini o‘rganish uchun uzluksiz ta’lim dasturlarida alohida o‘rin ajratilgan va adib ijodi bilan tanishuvdan so‘ng muhim adabiy atama va nazariy bilimlar haqida ham ma’lumotlar o‘zlashtirilishi talab etiladi.

Didaktik jihatlariga e’tibor berish. Yozuvchi tarjimai holini o‘rganish jarayonida aynan undagi o‘quvchi uchun o‘rnak va tegishli ezgu xulosa ola biladigan o‘rinlarga urg‘u berish, masalan, Odil Yoqubov biografiyasini 6-sinf bilan o‘rganayotganda “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqida ma’lumot bering. Ma’lumot berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga, xususan, bolalik va o‘smirlik davri sinovlariga ahamiyat bering”,- deb o‘qituvchi uchun muhim ko‘rsatma berilgan.

Faol yoki interfaol metodlarni qo‘llash. Odil Yoqubov hayoti va ijodini o‘qitishda, ayniqsa, 6-sinfning yangilangan darsligida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishga urinish sezilgani tahsinga sazavor. Jumladan, “Yaxshilik” hikoyasidan so‘ng berilgan ”Juft bo‘lib ishlaymiz” topshirig‘i rolli o‘yin bo‘lib, uni bajargan juftliklar qahramon obraziga kirish, uning ko‘nglida kechgan tuyg‘ularni, qahramonlar bir-biriga aytolmagan kechinmalarini o‘zlari anglagan tarzda bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari loyihalash topshirig‘i ham berilgan bo‘lib, uni bajarish uchun o‘quvchidan qo‘shimcha mehnat, kengroq izlanish, muayyan tarixiy davr haqida tushunchaga ega bo‘lib taqdimot tayyorlash darajasidagi bilim talab qilinadi. Loyihalashga yana, tarixiy voqealar

[1]“Uzluksiz adabiy ta’lim yo‘rig‘i (konsepsiyasi)”. Qori Niyoziy nomidagi Pedogogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. – T.: 1995. 3-b
[2] Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография. –Т.: Академнашр, 2014.183-184-бетлар.

asosida kartalar tuzish va voqealarni badiiy lavhalar tarzida kartaga joylashtirish ham mansub bo‘lib, “Yaxshilik” hikoyasidagi peyzaj va portret tasvirlari buning uchun ayni muddao”

Shuningdek munozaraga undovchi debat shaklidagi muloqotlarni tashkil qilish mumkin. masalan, “Yaxshilik” hikoyasidagi “Mansur pochtachi kelishini aytib notog‘ri qildimi? Siz uning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollarning yoki “Ulug‘bek xazinasi” dagi ilm va e’tiqod o‘rtasidagi kurash yoki muayyan shaxs va jamiyat o‘rtasida ziddiyatli munosabatlar asoslari haqida mulohazalarni bildirishlari mumkin. bu o‘rind debat ko‘proq “Suqrot suhbatlari” metodiga yaqin bo‘ladi.

XULOSA

Bugungi kunda Odil Yoqubovning hayoti va ijodini o‘rganish maktab adabiyoti darslarida muhim o‘rin tutadi, ammo jarayon qiziqarliroq va yanada samarali qilish uchun innovatsion yondashuvlar talab qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar, ijodiy loyihalardan foydalanish o‘quvchilarni milliy adabiyotga yaqinlashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. ─Toshkent, “Ma’naviyat”, 2002, 65 b
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. ─Toshkent: 2016, 100 b
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006, 52 6-b.
4. Uzluksiz adabiy ta’lim yo‘rig‘i (konsepsiyasi). Qori Niyoziy nomidagi Pedogogika fanlari ilmiy tadqiqot institute. – Toshkent: 1995, 3-b.
5. Xidoyatova D. Interfaol ta’lim modeli vositasida ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar o‘zbek tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish. Diss. … ped.fan. fals. dok. – Toshkent: 2017, 120 b.
6. Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. (7-sinf darslik majmuasi uchun) - Toshkent: O‘qituvchi, 1997, 230 b

To’garak mashg’ulotlarida yozuvchi asarlarini tahlil qilish usullari

Muazzam Zokirjonova
Magistr

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda Odil Yoqubov ijodini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘rganish usullari yoritilgan. Darsdan tashqari faoliyat o‘quvchilarning yozuvchi asarlarini chuqurroq o‘rganishiga, badiiy tafakkurini rivojlantirishga va ijodkor shaxsini yaxshiroq tushunishiga xizmat qiladi. Adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar, teatrlashtirilgan sahnalashtirishlar, audio va video materiallardan foydalanish kabi metodlar taqdim etilgan.

Kalit so’zlar: Adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar, teatrlashtirilgan sahnalashtirishlar, audio va video materiallar.

ANNOTATION

This thesis explores methods for studying the works of Odil Yoqubov during extracurricular activities. Such activities help students gain a deeper understanding of the writer’s works, develop their artistic thinking, and better comprehend the author’s personality. The paper presents methods such as literary evenings, creative meetings, theatrical performances, and the use of audio and video materials.

Keywords: Literary evenings, creative meetings, theatrical performances, audio and video materials

Maktab adabiy ta’limida o‘quvchilarni mustaqil mutolaaga yo‘llash, erkin fikrlashga o‘rgatish, badiiy asar mutolaasini faqat dars jarayoni bilan cheklamay, hayotiy ehtiyoj va doimiy mashg‘ulotga aylantirish asosiy maqsadlardan ekanligi bot-bot takrorlanadi. Bu yo‘nalishda yaxshi natijalarga erishish uchun esa, ayniqsa, murakkab adabiy uslubdagi, muhim tarixiy davr yoritilgan yoki hajman yirik asarlar mutolaasi va tahlilini bir soatlik dars jarayoniga sig‘dirish mushkul vazifadir. Badiiy mutolaa va adabiy tahlil mukammal o‘zlashtirilishi uchun esa darsdan tashqari mashg‘ulotlar eng yaxshi to‘ldiruvchi vazifasini o‘taydi.

Badiiy to‘garaklar – o‘quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladigan guruhlar bo‘lib, ularning bo‘sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ma’naviy, g‘oyaviy estetik ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, yoshlarning o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratish, shuningdek tarbiya, targ‘ibot, tashviqot funksiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan, ixtiyoriy, baholanmaydigan mahsuldor (ijodiy) faoliyat shakli hisoblanadi . Odil Yoqubov hayoti va ijodini o‘rganish ham to‘garaklar kesimida olinsa, 6-sinfda yozuvchining dasturda mustaqil o‘qish uchun berilgan “Muzqaymoq” hikoyasini o‘qish, 9-sinfda “Ulug‘bek xazinasi” romanining to‘liq matni bilan

tanishish tarzida olib borilishi mumkin.

Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi 6-sinf darsligida mustaqil o‘qish uchun berilgan. Bu hikoya tahlilini to‘garak mashg‘ulotida o‘tkazish ayni muddao. Hikoya hayotiy bir voqeaga asoslangan bo‘lib, uning markazida oddiy, lekin juda ahamiyatli insoniy munosabatlar turadi. Hikoyada insonning ezgulikka, mehr-muruvvatga bo‘lgan ehtiyoji, bolaning orzulari va kattalar olamining ba’zan beparvo munosabati tasvirlanadi. Asarning asosiy g‘oyasi shundaki, hayotning eng oddiy lahzalari ham inson qalbida chuqur iz qoldirishi mumkin.

Mashg‘ulot boshida asarning syujeti va kompozitsiyasi haqida qisqacha tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiq:

Hikoya kichik bir voqea atrofida qurilgan. Unda bosh qahramon – bola tasvirlanadi. U muzqaymoq yemoqchi bo‘ladi, ammo hayotning achchiq haqiqatlari tufayli bu orzusini amalga oshira olmaydi. Hikoya davomida bolalarning orzulari, ular uchun oddiy ko‘ringan narsa kattalar olamida qanday katta ahamiyatga ega ekani ochib beriladi. Syujet keskin burilishlarga ega bo‘lmasa-da, undagi hissiy tasvirlar o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadi.

Qahramonlar xarakteri haqida har bir ishtirokchi turlicha fikr bildirishi mumkin:

Bosh qahramon (bola) – orzulari katta bo‘lgan, beg‘ubor, hayotga mehr bilan qaraydigan inson. Uning qiyinchiliklar qarshisidagi holati o‘quvchiga achinish va mehr uyg‘otadi. Kattalar – bolaga nisbatan befarq yoki hayotning shafqatsiz qoidalariga ko‘nikkan kishilar. Ular bolalik orzularini tushunmaydi yoki ularga beparvolik bilan qaraydi.

Asarning asosiy muammosi haqida **bahs-munozara** o‘tkazish mumkin. Hikoya jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolarni ko‘rsatadi. Kattalar va bolalar dunyosi o‘rtasidagi tafovut, mehr va e’tibor yetishmovchiligi hikoyaning asosiy muammolaridan biridir va bu muammolar barcha zamonlarda o‘zgarmas ahamiyat kasb etishiga ham urg‘u beriladi. Muzqaymoq – oddiygina sovuq shirinlik emas, balki bolaning beg‘ubor orzusi, hayotdan kichik baxt kutishi ramzi sifatida berilgan. To‘garak davomida hikoyadagi badiiy vositalar va tasvir usullariga e’tibor qaratish ham muhim.

Odil Yoqubov hikoyada tasviriy vositalardan mohirona foydalanadi. U bola ruhiyatini yorqin detallarda aks ettiradi. Quyidagi badiiy vositalar diqqatga sazovor:

Timsollar – muzqaymoq bolaning orzusini, uning hayotga bo‘lgan ishonchini anglatadi.

Hissiy tasvir – bolaga nisbatan achinish tuyg‘usi uyg‘otuvchi tasvirlar mavjud o‘rinlarni asar matnidan ajratib ko‘rsatish.

Muzqaymoq timsoli orqali hikoyada hayotning sovuqligi, insonlar orasidagi munosabatlarning ba’zan loqaydligi his etiladi.

Xulosa

"Muzqaymoq" hikoyasi insoniy mehr, bolalarga nisbatan e’tibor va orzularning beqiyos ahamiyatini yoritib beradi. Kattalar uchun oddiy ko‘ringan narsa bola uchun katta baxt bo‘lishi mumkin. Hikoya orqali muallif jamiyatdagi befarqlik, mehr-muhabbatning

qadrsizlanishi kabi muammolarga urg‘u beradi va o‘quvchini mulohazaga undaydi. Shu jihatdan mustaqil o‘qish uchun berilgan ushbu hikoyani sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda tahlil qilish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. ─Toshkent, “Ma’naviyat”, 2002, 65 b
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. ─Toshkent: 2016, 100 b
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006, 52 6-b.
4. Uzluksiz adabiy ta’lim yo‘rig‘i (konsepsiyasi). Qori Niyoziy nomidagi Pedogogika fanlari ilmiy tadqiqot institute. – Toshkent: 1995, 3-b.
5. Xioyatova D. Interfaol ta’lim modeli vositasida ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar o‘zbek tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish. Diss. … ped.fan. fals. dok. – Toshkent: 2017, 120 b.
6. Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. (7-sinf darslik majmuasi uchun) - Toshkent: O‘qituvchi, 1997, 230 b

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIK MUAMMOLARI.

Mahmudova Dilnozaxon Murodjon qizi
ADPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Huquq ta'limi)1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lgan gender tenglik masalasi, yurtimizdagi ayollar va erkaklar o'rtsidagi tenglik munosabatlari, olib borilayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarning huquqlari to'g'risida so'z yuritilgan.
Kalit so'zlar: Gender tengligi, qonun, zo'ravonlik, Qonunchilik palatasi, Konstitutsiya, tenglik.

Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o'rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli gender tenglik va gender adolat muammolariga e'tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta'minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o'z isbotini topgan. Bugungi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilayotgan mazkur konferensiya yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarning bir qismi bo'lib, unda gender tengligini ta'minlash sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularga yechim sifatida ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, aholi o'rtasida gender qadriyatlarini targ'ib qilish, mazkur masalalar bo'yicha tajriba almashish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquqlari hamda erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta`minlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda.

Gender tenglik (lotinchadan paritas – tenglik) — muvozanatli, ya'ni, hayotning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy) hokimiyat va qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollarning bir xil, teng ishtiroki, jinslar o'rtasidagi tengligi hisoblanadi.

Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim jarayonlardan biri bo'lib kelmoqda. Xotin-qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biri hisoblanadi.

Ayollar huquqlari – inson huquqlari bo'lganligi sababli, ayollar barcha inson huquqlariga ega va ulardan foydalanadi. Shu ma'noda, gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, jinsiy kamsitish deyarli barcha inson huquqlari to'g'risidagi shartnomalarida taqiqlangan. Zo'ravonliklarsiz yashash huquqi, jismoniy va

ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga erishish huquqi, ta’lim olish huquqi, mulk huquqi, teng ish haqi olish huquqi va boshqa barcha inson huquqlari jinsidan qat’i nazar ayollar uchun ta’minlanishi kerak. Biroq, butun dunyo bo‘ylab millionlab ayollar ushbu huquqlardan foydalanishda kamsitishlarga duch kelishda davom etmoqdalar. Gender tengsizligi ayollar va qizlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab muammolarning sababchisi hisoblanadi. Bular maishiy va jinsiy zo‘ravonlik, ish haqining pastligi yoki ishga joylashishdagi muammolar, ta’lim olish va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda gender tenglik masalasi barcha davlatlarda muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Zero, xotin-qizlarning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi faol ishtiroki mamlakat barqarorligi va farovonligining kafolati hisoblanadi.

Mamlakatimizda bu borada bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Konstitutsiyaning 58-moddasida “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlaydi”[1], deb belgilangan. Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 23-avgustda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi Qonun mamlakatimizda ushbu soha rivoji uchun ayni muddao bo’ldi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishini kafolatlaydi.

Ilm-fan yoki muhandislik sohasida ayollar ishtirokining ko’rsatkichlari past. Ish bilan ta’minlanish, karyera, oylik maosh miqdori, yuqori lavozimlarga tayinlanish masalalarida muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bo’ylab ko’pchilik ayollar oilaviy, maishiy va jinsiy zo’ravonliklarga qarshi huquqiy himoyaga muhtoj. Islomda ayol bilan erkakning tengligi haqida tushuncha mavjud bo’lsa-da, bunday yondashuvdagi o’ziga xoslik islomda erkak va ayol shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarga bir xilda egaligi e’tirof etiladi. Bir so’z bilan aytganda, Islom ta’limoti insoniyatga ayollarning jamiyatda tutgan o’rni, ularning ahamiyati, onalikni muhofaza qilish, asrash, erkaklarning ayollar oldidagi burchlarini belgilab, ayolning maqomini ko’rsatib berganligi bilan ahamiyatlidir.

Jahonda gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to’liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash, davlatlarning maqsadli dasturlarini va qarorlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilish, ilm-fan sohasida jinslar o’rtasidagi bilimlar bo’linishi bo’yicha gender tengsizligiga barham berish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo’nalishi sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

[1] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O’zbekiston” – Toshkent. 2023 yil 30-aprel 58-modda 24-bet.

Respublikamizda xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ta’minlash, ularni jamiyatning teng huquqli faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish, davlat hokimiyati organlarida xizmat mavqeini oshirishda ayollarga teng imkoniyatlar yaratish, ayollarga bo’lgan kamsitish va zo’ravonliklarni oldini olish bo’yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Og’ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga moddiy, psixologik, tibbiy yordam ko’rsatish, ularni uy-joy va ish bilan ta’minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilada ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash”[2] masalalari aholini ijtimoiy himoya qilish va sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun ustuvor vazifa etib belgilangan bo’lib, mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni dolzarb etib belgilamoqda.

Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘riladi.[3]

Fikrimiz yakunida shuni ma’lum qilamizki, mamlakatimizda o’tkazilayotgan islohotlar, olib borilayotgan keng davlat siyosati natijasida ayollarimizning haq-huquqlari yanada kafolatlanmoqda. Shuningdek, ularning erkaklar bilan teng huquqli ekanliklari e’tirof etilib, o’zlari istagan sohalarda bemalol faoliyat yuritishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2023 – 24 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni
3. Ismoilova H.M. Oila ma’naviyati va gender tengligi muammolari//Xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik muammolari. Uslubiy qo’llanma. – Andijon, 2017. – 30-33 b.

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF – 4947-son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risidagi Farmoni // O’bekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[3] “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi Qonun. 2019-yil 2-sentabr 6-modda

Development of Teachers' Pedagogical Competence in the Context of Integrating Artificial Intelligence into the Educational Process

Hamidova Kamola Bobir qizi
Master's degree holder at Namangan State University

Abstract: This article explores the development of teachers' pedagogical competence in the context of integrating artificial intelligence (AI) into the educational process. It examines the transformative role of AI in education, the challenges and opportunities for teacher professional development, and the ethical considerations of AI integration. Drawing on a comprehensive literature review and empirical studies, the paper proposes a framework for enhancing teachers' competencies through the lens of an AI-augmented Technological Pedagogical Content Knowledge (AI-TPACK) model. The findings highlight the need for targeted professional development programs that empower teachers to leverage AI effectively, ensuring alignment with pedagogical goals and ethical standards. Recommendations are provided for policymakers, educators, and institutions to foster sustainable AI integration in education.
Keywords: Artificial Intelligence, Pedagogical Competence, Teacher Professional Development, AI-TPACK, Educational Technology, Ethics in AI, Digital Literacy.

The rapid integration of artificial intelligence (AI) into education has reshaped teaching and learning paradigms, necessitating a reevaluation of teachers' pedagogical competencies. As AI technologies such as adaptive learning platforms, intelligent tutoring systems, and generative AI tools like ChatGPT become ubiquitous, they offer unprecedented opportunities to personalize learning, streamline administrative tasks, and enhance educational outcomes. However, this technological shift places new demands on teachers, requiring them to develop advanced skills that blend technological proficiency, pedagogical expertise, and ethical awareness. This article investigates how teachers' pedagogical competencies can be developed to effectively integrate AI into education, emphasizing the interplay between technological innovation and professional growth. AI's transformative potential in education lies in its ability to support differentiated instruction, automate routine tasks, and provide data-driven insights into student performance. For instance, studies indicate that AI tools can reduce teachers' administrative workload by 5–10 hours per week, allowing them to focus on instructional design and student engagement. Yet, the adoption of AI in education is not without challenges. A systematic review of literature from 2015 to 2024 reveals a significant gap in research: while 65% of studies focus on AI's application in teaching, only 35% address teacher professional development, underscoring a critical need for frameworks that support teachers in navigating AI-driven environments. This imbalance highlights the urgency of

equipping teachers with the skills to integrate AI meaningfully, ensuring that technological advancements translate into pedagogical benefits. Central to this discussion is the AI-augmented Technological Pedagogical Content Knowledge (AI-TPACK) framework, which extends the traditional TPACK model by incorporating AI-specific competencies. AI-TPACK emphasizes the integration of technological knowledge (understanding AI tools), pedagogical knowledge (effective teaching strategies), and content knowledge (subject-specific expertise), while also addressing ethical considerations such as data privacy and algorithmic bias. This framework enables teachers to select and apply AI tools in ways that align with educational objectives, fostering critical thinking and creativity among students. For example, AI-driven platforms can facilitate collaborative learning environments where students engage in problem-solving tasks, guided by teachers who use AI analytics to tailor instruction.

The benefits of AI integration are manifold. AI tools enhance teachers' efficiency by automating tasks such as lesson planning, grading, and feedback generation, thereby allowing more time for student interaction. Moreover, generative AI systems can support teacher training by providing personalized professional development resources, enabling educators to upskill at their own pace. However, challenges persist, including technological barriers, digital inequities, and the risk of over-reliance on AI, which may undermine students' critical thinking skills. Ethical concerns, such as ensuring equitable access to AI tools and mitigating algorithmic biases, further complicate integration efforts. For instance, studies highlight that biased AI algorithms can perpetuate inequalities in educational outcomes if not carefully monitored. Empirical evidence underscores the correlation between teachers' digital literacy and their ability to integrate AI effectively. A 2024 study found that teachers with high digital proficiency were 40% more likely to adopt AI tools in their classrooms compared to those with lower proficiency. To address this, professional development programs should adopt experiential learning models, such as Kolb's learning cycle, which encourage teachers to experiment with AI tools, reflect on their application, and refine their practices. Such programs can enhance teachers' "professional vision" the ability to analyze classroom dynamics and anticipate student needs through AI-driven simulations and real-time feedback. Context-specific studies, such as those conducted in Vietnam, demonstrate that targeted AI training improves teachers' lesson planning and assessment practices, but sustained professional development is essential to maintain these gains. To ensure long-term success, institutions must invest in continuous training that addresses both technical and ethical dimensions of AI use. For instance, workshops that combine hands-on AI tool exploration with discussions on ethical implications can empower teachers to make informed decisions about AI integration. Looking forward, the development of teachers' pedagogical competencies in the AI era requires a multifaceted approach. Policymakers should prioritize the creation of AI-focused curricula for teacher education programs, emphasizing

interdisciplinary skills that bridge technology, pedagogy, and ethics. Collaborative networks between educators, researchers, and AI developers can further support the design of contextually relevant training modules. Additionally, longitudinal studies are needed to evaluate the impact of AI-driven professional development on teaching practices and student outcomes, ensuring that AI integration aligns with broader educational goals.

In conclusion, the integration of AI into education offers a transformative opportunity to enhance teachers’ pedagogical competencies, but it demands a strategic approach to professional development. By adopting frameworks like AI-TPACK and addressing ethical and technological challenges, educators can harness AI’s potential to create inclusive, innovative, and effective learning environments. The future of education lies in empowering teachers to navigate this AI-driven landscape with confidence and competence, ensuring that technology serves as a catalyst for pedagogical excellence.

References:

1. Nguyen, T. H. (2025). Development of artificial intelligence competences for teachers in the context of Vietnam. ResearchGate.
2. Alexandrowicz, V. (2024). Artificial Intelligence Integration in Teacher Education. Journal of Education and Learning, 13(6).
3. Al Darayseh, A. (2025). Examining Teaching Competencies and Challenges While Integrating Artificial Intelligence in Higher Education. TechTrends.
4. Riel, J., et al. (2023). Integrating AI tools in teacher professional learning: A conceptual model and illustrative case. PMC.
5. Celik, I. (2024). Artificial intelligence in teaching and teacher professional development: A systematic review. Computers and Education: Artificial Intelligence.
6. Ng, D. T. K., et al. (2024). Exploring the relationship between teachers’ competencies in AI-TPACK and digital proficiency. Education and Information Technologies.

Ko‘p avlodli ishchi kuchida menejment uslublarining moslashuvi: Gen Z va Milleniallar taqqoslanishi

Qosimova Zilola Orifdjon qizi.
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Yetakchi muhandis

Annotatsiya. Ushbu maqola ko‘p avlodli ishchi kuchida, xususan Gen Z va Milleniallar avlodlari orasidagi boshqaruv uslublarining moslashuvini tahlil qiladi. Avlodlar o‘rtasidagi mehnatga yondashuv va kommunikatsiya farqlari asosida samarali menejment strategiyalari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy korxonalarda ishchi kuchining ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar. Ko‘p avlodli ishchi kuchi, Gen Z, Milleniallar, menejment uslublari, moslashuv, kommunikatsiya, motivatsiya
Аннотация. В статье анализируется адаптация управленческих стилей в мультигенерационном коллективе, с особым акцентом на поколениях Gen Z и Millennials. На основе различий в подходах к работе и коммуникации разрабатываются эффективные стратегии управления. Результаты исследования демонстрируют пути совершенствования управления с учетом социальных и культурных особенностей рабочей силы современного предприятия.
Ключевые слова: Мультигенерационная рабочая сила, Gen Z, Миллениалы, управленческие стили, адаптация, коммуникация, мотивация
Abstract: This article analyzes the adaptation of management styles within a multi-generational workforce, focusing on Generation Z and Millennials. Based on differences in work attitudes and communication preferences, effective management strategies are developed. The research findings highlight ways to improve management by considering the social and cultural characteristics of the modern workforce in enterprises.
Keywords: Multi-generational workforce, Generation Z, Millennials, management styles, adaptation, communication, motivation

Dolzarbligi. Zamonaviy ishchi kuchi tobora ko‘p avloddan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘zining noyob qadriyatlari, mehnatga yondashuvi va kommunikatsiya uslublariga ega. Ayniqsa, Gen Z va Milleniallar avlodlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, bu farqlar menejment jarayonida yangi muammolar va imkoniyatlar tug‘diradi. Korxonalar va tashkilotlar samarali boshqaruvni ta’minlash uchun avlodlararo tafovutlarni hisobga olgan holda, moslashuvchan menejment uslublarini ishlab chiqishi zarur. Shuning uchun, ko‘p avlodli ishchi kuchida menejment uslublarining moslashuvi masalasi bugungi kunda ish faoliyatining sifatini oshirish, xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini va samaradorligini

yaxshilash uchun ayni muddao bo‘lib qolmoqda.

Metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar birgalikda qo‘llanildi. Avvalo, Gen Z va Milleniallar avlodlariga oid mehnatga yondashuv, qadriyatlar va kommunikatsiya uslublarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Shuningdek, tashkilotlardagi amaliy boshqaruv jarayonlari kuzatildi va tahlil qilindi.

Tahliliy usul orqali avlodlar o‘rtasidagi xulq-atvor farqlari va ularning menejment uslublariga ta’siri o‘rganildi. Taqqoslash usuli yordamida Gen Z va Milleniallarning ish joyidagi ehtiyojlari va motivatsiya omillari aniqlanib, ularning boshqaruvga bo‘lgan munosabati tahlil qilindi.

Natijalar asosida zamonaviy tashkilotlarda moslashuvchan menejment strategiyalarini ishlab chiqish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil vositalari ham qo‘llanilib, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi va ahamiyati ta’minlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bir qator ilmiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, Gen Z va Millenial avlodlariga oid xodimlarning mehnatga yondashuvi, motivatsiyasi va kommunikatsiya uslublarini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bu usul orqali avlodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘ziga xosliklar aniqlandi. Shuningdek, menejerlar va xodimlar bilan chuqur intervyular tashkil etilib, boshqaruv uslublari hamda ishchi kuchining xususiyatlari haqida kengroq ma’lumotlar olindi. Tadqiqot jarayonida tashkilotlardagi boshqaruv jarayonlari amaliy kuzatuv orqali o‘rganildi, bu esa nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga yordam berdi. Olingan ma’lumotlar taqqoslash va tahlil usuli yordamida Gen Z va Milleniallar ishga bo‘lgan yondashuvlari va boshqaruvga munosabati bo‘yicha solishtirildi. Shuningdek, so‘rovnoma va intervyu natijalari statistik tahlil vositalari yordamida tahlil qilinib, ularning ishonchliligi va ahamiyati baholandi.

1-jadval

Tadqiqot Usuli	**Tavsif**	**Ma'lumot Olish Usuli**	**Natijalar Tahlili**
So‘rovnoma	Gen Z va Millenial avlodlarining mehnatga yondashuvi, motivatsiyasi va kommunikatsiya uslublarini o‘rganish	Xodimlar va avlod vakillariga so‘rovnoma o‘tkazildi	Avlodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘ziga xosliklar aniqlandi
Intervyu	Menejerlar va xodimlar bilan boshqaruv uslublari va ishchi kuchi haqida chuqur ma'lumot olish	Shaxsiy intervyular tashkil etildi	Boshqaruv uslublari va ishchi kuchi xususiyatlari haqida keng ma'lumot olindi

Amaliy kuzatuv	Tashkilotlarda boshqaruv jarayonlarini real vaziyatda o‘rganish	Ish jarayonlarini bevosita kuzatish	Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati yaratildi
Taqqoslash va tahlil	Gen Z va Milleniallarning ishga yondashuvi va boshqaruvga munosabatlarini solishtirish	Olingan ma’lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish	Avlodlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi va ta’kidlandi
Statistik tahlil	So‘rovnoma va intervyu natijalarining ishonchliligi va ahamiyatini baholash	Statistik metodlardan foydalangan holda tahlil	Natijalar ishonchli ekanligi va tadqiqot maqsadiga muvofiqligi tasdiqlandi

Ushbu tadqiqotda bir nechta ilmiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, Gen Z va Millenial avlodlariga oid xodimlarning mehnatga yondashuvi, motivatsiyasi va kommunikatsiya uslublarini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnoma usuli keng auditoriyadan ma’lumot yig‘ish imkonini beradi va ko‘p sonli respondentlarni qamrab olishga yordam beradi, shuning uchun avlodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘ziga xosliklarni aniqlashda samarali bo‘ldi.

Shuningdek, menejerlar va xodimlar bilan chuqur intervyular tashkil etildi. Intervyu usuli sifat jihatdan boy va batafsil ma’lumot olish imkonini beradi, bu esa boshqaruv uslublari va ishchi kuchining xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Tadqiqot davomida tashkilotlardagi boshqaruv jarayonlarini real sharoitda o‘rganish uchun amaliy kuzatuvlar ham olib borildi. Amaliy kuzatuv usuli nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi va ish muhitidagi holatlarni aniqroq anglash imkonini beradi.

Olingan ma’lumotlar taqqoslash va tahlil usuli yordamida Gen Z va Milleniallar ishga bo‘lgan yondashuvlari va boshqaruvga munosabatlari bo‘yicha solishtirildi. Bu usul ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarishga va samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shuningdek, so‘rovnoma va intervyu natijalari statistik tahlil vositalari yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil natijalarning ishonchliligi va ahamiyatini baholash uchun zarur bo‘lib, tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlillar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, Gen Z va Millenial avlodlari o‘rtasida mehnatga yondashuv, motivatsiya va kommunikatsiya uslublari jihatidan sezilarli farqlar mavjud. Gen Z vakillari ko‘proq mustaqil ishlashni va texnologiyalarga asoslangan ish muhitini afzal ko‘rishsa, Milleniallar ko‘proq jamoaviy hamkorlik va an’anaviy boshqaruv shakllarini qadrlashadi. Bu farqlar menejment uslublarini moslashtirishda inobatga olinishi zarur. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, samarali boshqaruv uchun turli

avlodlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan va individual yondashuv zarur. Menejerlar har bir avlodga moslashish uchun kommunikatsiya usullarini, motivatsion mexanizmlarini va boshqaruv strategiyalarini moslashtirishi kerakligi ta’kidlandi. Shuningdek, o‘zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish orqali jamoada birlashish va ish samaradorligini oshirish mumkinligi ko‘rsatildi.

Muhokamasi. Bundan tashqari, tashkilotlarda ko‘p avlodli ishchi kuchining mavjudligi boshqaruvchilar uchun yangi chaqiriqlar yaratadi, chunki har bir avlod o‘zining ishga bo‘lgan qarashlari va qadriyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun, menejment uslublarini moslash va yangilash jarayoni doimiy bo‘lishi kerak, bu esa tashkilotlarni yanada raqobatbardosh qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Gen Z va Milleniallar o‘rtasida farqlarni hisobga olish boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga, xodimlarning ishga bo‘lgan qoniqishlarini oshirishga va natijada tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishga yordam beradi. Shu bois, tashkilotlar uchun avlodlararo farqlarni chuqur tushunish va ular asosida mos boshqaruv usullarini ishlab chiqish juda muhimdir.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari Gen Z va Millenial avlodlari o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘xshashliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Aniqlanishicha, har bir avlodning ishga bo‘lgan yondashuvi, motivatsiya omillari va kommunikatsiya uslublari turlicha bo‘lib, bu menejment uslublarining samarali moslashuvini talab qiladi. Tashkilotlarda boshqaruvchilar ushbu farqlarni inobatga olib, moslashuvchan, individual yondashuvni qo‘llashi zarur.

Moslashuvchan menejment uslublari ishchi kuchining samaradorligini oshirishga, xodimlarning ishga bo‘lgan qoniqishini mustahkamlashga va jamoaviy ruhni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko‘p avlodli ishchi kuchi mavjud tashkilotlarda o‘zaro tushunish va hurmatni rivojlantirish, kommunikatsiya va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish ayniqsa muhimdir.

Kelajakda ushbu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilib, avlodlararo boshqaruvni yanada samarali qilish uchun yangi metod va strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Bu esa tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish va xodimlarning shaxsiy va professional rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) Bakker, A. B., & Demerouti, E. (2007). The job demands-resources model: State of the art. Journal of managerial psychology, 22(3), 309-328.

2) Bantha, T., Nayak, U., & Mishra, S. K. (2023). Engaging the disengaged: the role of

workplace spirituality on millennials’ work engagement. International Journal of Organizational Analysis, 32(9), 1713-1738.
3) Chopra, A. and Bhilare, P. (2020). Future of work: an empirical study to understand expectations of the millennials from organizations. Business Perspectives and Research, 8(2), 272-288.
4) Desiatco, A. D., Tabulina, K. E., Cruz, K. D. S. D., & Manaois, J. O. (2024). The Mediating Role of Employee Engagement in the Relationship Between Work-life Balance and Job Burnout Among Millennials Working Remotely. International Journal of Research and Innovation in Social Science, 8(3), 1095-1104.
5) Elayan, M. B. (2022). The New World of Work and Digital Learning: Millennials and Generation Z. Webology, 19(2).
6) Fisher, D., Frey, N., & Williams, D. (2002). Seven literacy strategies that work. Educational leadership, 60(3).
7) Harris, M. D., Williams, L., & Duke, R. (2020). The millennial engagement, resiliency and retention study: what does your millennial advanced practice registered nurse workforce really want? Journal of the American Association of Nurse Practitioners, 33(11), 924-930.
8) https://www.bps.go.id/i, diakses 15, Mei 2025
9) Iddagoda, A., Hysa, E., Bulińska–Stangrecka, H., & Manta, O. (2021). Green work-life balance and greenwashing the construct of work-life balance: myth and reality. Energies, 14(15), 4556.

MAKTABDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING INTEGRATSIYASI: NAZARIYA VA METODIKA

Shodiyeva Nasiba Rustamovna
Mustaqil tadqiqotchi (PhD), “MEGA SCHOOL” o‘quv markazi ingliz tili o‘qituvchisi
E-mail: Nshodiyeva714@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning samaradorligi, shuningdek, tarbiyaviy jarayonda integratsiya qilishning metodik usullari va texnologiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaviy jarayondagi o‘rni, o‘quvchilarning ahloqiy va ma’naviy rivojlanishi uchun muhim omil sifatida taqdim etiladi. O‘quvchilarning zamonaviy ijtimoiy hayotga moslashuvini ta’minlashda pedagogik yondashuvlar va metodlarning integratsiyalashgan yondoshuvi katta ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, tarbiyaviy ishlar, pedagogik metodlar, ma’naviyat, integratsiya.
Abstract. This thesis explores the integration of national and universal human values in organizing educational activities at school. The study analyzes the effectiveness of pedagogical approaches to shaping national and universal values in students, as well as the methodological methods and technologies for integrating these values into the educational process. The research emphasizes the importance of national and universal values in the educational system as a key factor in the moral and spiritual development of students. It also discusses the significant role of pedagogical approaches and methods for adapting students to modern social life, integrating these values to ensure their successful personal and social development.
Keywords: national values, universal human values, educational activities, pedagogical methods, spirituality, integration.
Аннотация. Данная диссертация исследует интеграцию национальных и универсальных человеческих ценностей в организации воспитательной работы в школе. В исследовании анализируется эффективность педагогических подходов к формированию национальных и универсальных ценностей у учащихся, а также методические методы и технологии интеграции этих ценностей в образовательный процесс. Исследование подчеркивает важность национальных и универсальных ценностей в образовательной системе как ключевого фактора в моральном и духовном развитии учащихся. Также рассматривается значительная роль педагогических

подходов и методов для адаптации учащихся к современному социальному жизненному контексту, интеграции этих ценностей для обеспечения успешного личностного и социального развития.

Ключевые слова: национальные ценности, универсальные человеческие ценности, воспитательная работа, педагогические методы, духовность, интеграция.

Kirish (Introduction)

Ma’naviy va axloqiy tarbiya — ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta’limda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi integratsiya muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy, madaniy, an’anaviy va ma’naviy merosidan kelib chiqadigan qadriyatlar bo‘lib, ular o‘ziga xosligini va xalqning yuksak axloqiy fazilatlarini saqlashga xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar esa barcha xalqlarni birlashtiruvchi, ularning rivojlanishiga xizmat qiluvchi axloqiy asoslarni anglatadi.

Zamonaviy ta’limda bu ikkita qadriyatni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda nafaqat o‘z xalqining tarixini va madaniyatini hurmat qilish, balki boshqa xalqlar bilan o‘zaro hurmat va tinchlikni mustahkamlashni o‘rgatadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyaviy ishlar jarayoniga samarali integratsiya qilish, o‘quvchilarning o‘zaro aloqalari, jamoaviy ishlar va hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy jarayondagi o‘rni, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarning tarbiya tizimiga integratsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy ishlar bilan integratsiyalashgan holda, o‘quvchilarni nafaqat axloqiy rivojlantirish, balki ijtimoiy muhitda to‘g‘ri moslashishga o‘rgatish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot sifatli va miqdoriy metodlarning integratsiyasiga asoslangan bo‘lib, ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilishning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda eksperimental metod, so‘rovnoma va intervyu kabi metodlar qo‘llanildi. Metodologiya quyidagi bosqichlarga asoslanadi:

Eksperimentlar: Tadqiqotda sinf ichidagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning turli usullarini sinovdan o‘tkazish uchun eksperimentlar o‘tkazildi. Sinfda bir guruh o‘quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalashgan pedagogik metodlar asosida dars berildi, ikkinchi guruh esa an’anaviy metodlar bilan ta’lim oldi. Eksperimentning maqsadi — o‘quvchilarda qadriyatlar shakllanishining samaradorligini o‘rganish edi.

So‘*rovnomalar*: O‘quvchilarning tarbiyaviy jarayon va qadriyatlar bo‘yicha fikrlarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar ishlab chiqildi. So‘rovnoma yordamida o‘quvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tushunchalari, ularning tarbiyaviy ishlar davomida bu qadriyatlarni qabul qilish darajasi o‘rganildi.

Intervyu: O‘qituvchilar va tarbiya ishlari bo‘yicha mas’ullar bilan intervyular o‘tkazildi. Intervyu jarayonida ular milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta’lim jarayonida qanday integratsiya qilish mumkinligi, shu bilan birga, bu qadriyatlarning o‘quvchilarga ta’siri haqida o‘z fikrlarini bildirishdi.

Amaliy kuzatish: O‘quvchilarning darslarda qatnashishi, o‘zaro muloqotlari va tarbiyaviy faoliyatda o‘z fikrlarini ifodalashlariga diqqat qaratildi. Kuzatishlar jarayonida o‘quvchilarning milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi bilimlari, ular tomonidan bu qadriyatlarning qabul qilinishi va kundalik hayotda qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Statistik tahlil: Tadqiqotda olingan natijalar statistika yordamida tahlil qilindi. O‘quvchilarning qadriyatlarni qabul qilish darajasi, darsdagi faollik va ma’naviy-axloqiy rivojlanish ko‘rsatkichlari baholandi. Eksperimentdan olingan natijalar orqali, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash mumkin bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi orqali ma’naviy-axloqiy rivojlanishni ta’minlashda samarali pedagogik yondoshuvlarni aniqlashga yordam berdi. Bu metodologiya, o‘quvchilarga zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashishda yordam beradigan, o‘zaro hurmat va mustahkam ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradigan yondoshuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda tarbiyaviy ishlarning samaradorligi o‘rganildi. Eksperimentlar natijalari, so‘rovnomalar va intervyulardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Natijalar quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

✓ **Milliy qadriyatlarni shakllantirishning samaradorligi**. Eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga integratsiya qilishda an’anaviy metodlar bilan ishlovchi guruhga qaraganda, integratsiyalashgan yondoshuvlar yordamida o‘quvchilarning axloqiy va ma’naviy rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshdi. Milliy qadriyatlar (odatlar, urf-odatlar, tarixiy meros) o‘quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilindi va ular bu qadriyatlarni kundalik hayotda qo‘llashda faol ishtirok etdilar.

✓ **Umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi muvaffaqiyat**. Umuminsoniy qadriyatlar, masalan, inson huquqlari, adolat, tenglik, o‘zaro hurmat va tinchlikni ta’lim jarayonida targ‘ib qilish o‘quvchilar tomonidan yuqori baholandi. Integratsiyalashgan pedagogik metodlar orqali o‘quvchilarning bu qadriyatlarni qabul qilish darajasi 35% ga oshdi. O‘quvchilarning 80% i, ayniqsa, boshqa xalqlar bilan o‘zaro munosabatlarda bu qadriyatlarni amalda qo‘llashni o‘rganganliklarini ta’kidladilar.

✓ **Darslarda faollik va ijtimoiy muhitga moslashish.** Integratsiyalashgan yondoshuvlar orqali o‘quvchilarda faollik va o‘zaro muloqot ko‘nikmalari rivojlandi. O‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy aloqalar va guruh ishlarida ishtirok etish ko‘rsatkichi 40% ga oshdi. O‘quvchilar

ijtimoiy muammolarni hal qilishda nafaqat milliy qadriyatlarni, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham hisobga olishni o‘rgandilar.

✓ **Pedagogik metodlarning samaradorligi.** Interfaol metodlar, masalan, rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari va loyiha asosidagi ta’lim metodlari o‘quvchilarning fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘z fikrlarini asoslash qobiliyatlarini oshirdi. Tadqiqot davomida, o‘quvchilarning 90% i interfaol metodlarni samarali deb hisobladilar. Shu bilan birga, an’anaviy metodlar bilan o‘qitilgan guruhda o‘quvchilarning faolligi 60% gacha oshgan bo‘lsa, integratsiyalashgan metodlar yordamida bu ko‘rsatkich 95% ni tashkil etdi.

Jadval 1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaviy jarayondagi samaradorligi

Guruh	Tarbiyaviy metodlar	Milliy qadriyatlar darajasi (%)	Umuminsoniy qadriyatlar darajasi (%)	Faollik darajasi (%)
1-guruh (Integratsiya)	Interfaol metodlar, loyiha asosida ta’lim	80%	85%	95%
2-guruh (Integratsiya)	Muammo asosli ta’lim	75%	78%	92%
3-guruh (An’anaviy)	Ma’ruza, tushuntirish	60%	65%	60%

Jadvalda ko‘rsatilganidek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarda shakllantirishda integratsiyalashgan metodlar yordamida o‘quvchilarning faolligi va qadriyatlarni qabul qilish darajasi ancha yuqori bo‘lgan. Interfaol metodlar va loyiha asosidagi ta’lim metodlari o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu metodlarning samaradorligi o‘quvchilarning 92% tomonidan ijobiy baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalashgan ta’lim jarayoniga kiritish o‘quvchilarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu metodlarning samaradorligi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ular o‘rtasida o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalashgan tarbiyaviy metodlar o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlar, o‘z navbatida, o‘quvchilarga o‘z xalqining tarixini, madaniyatini va an’analarini qadrlashni o‘rgatadi, umuminsoniy qadriyatlar esa ular o‘rtasida o‘zaro hurmat va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu ikki qadriyatning integratsiyasi o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, ahloqiy mas’uliyat va bir-birini tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O‘quvchilar tomonidan milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonida yuqori baholangan metodlar — interfaol metodlar va loyiha asosidagi ta’lim usullari, ayniqsa, o‘quvchilarning fikrini erkin ifodalash, guruhlarda ishlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lgan. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarning 90% i interfaol metodlarning yuqori samaradorligini ta’kidladilar, bu esa o‘quvchilarni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishda bunday metodlarning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘quvchilarning faolligi va qadriyatlarni qabul qilish darajasi integratsiyalashgan metodlar yordamida yuqori bo‘ldi. O‘quvchilarning an’anaviy metodlar bilan ta’lim olgan guruhiga qaraganda, integratsiyalashgan metodlar yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichi ancha yaxshilandi. Bu natijalar, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasining o‘quvchilarda ma’naviy rivojlanishga va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga ta’sirini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarni integratsiya qilishda pedagogik metodlarning samaradorligi nafaqat o‘quvchilarning axloqiy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lishlariga ham yordam beradi. O‘quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z xalqining tarixini, an’analarini hurmat qilishni o‘rgatgan holda, global qadriyatlarni ham ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga asos qilib olishga yordam berishi lozim.

Xulosa

Tadqiqotda maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasining samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan pedagogik yondoshuvlar o‘quvchilarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga integratsiya qilish, ularni o‘z xalqining tarixini, madaniyatini hurmat qilishga va o‘zaro hurmat, tenglik va tinchlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, muammo asosli ta’lim va loyiha asosidagi ta’lim metodlari o‘quvchilarning faolligini, ijodiy fikrlashini va ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarning 90% i integratsiyalashgan metodlar yordamida ma’naviy va axloqiy rivojlanish darajalarining sezilarli oshganligini ta’kidladi. Kelayotgan tadqiqotlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yanada chuqurroq integratsiya qilishning pedagogik samaradorligini, metodlarning innovatsion jihatlarini va ularning ta’lim tizimidagi o‘quvchilar uchun imkoniyatlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Kelajakda o‘quvchilarni milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni davom ettirish, bu jarayonni yanada takomillashtirish va o‘quvchilarni yanada faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova, «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent: «Tib kitob» nashriyoti, 2010. 216 b
2. Siddiqova M. R. MAKTABDAN TASHQARI ISTEDODLI BOLALARNI ANIQLASH VA ULARNI TARBIYALASH //IMRAS. – 2024. – T. 7. – №. 6. – C. 592-599.
3. Yakubovich Y. O. Oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o ‘rgatish va ularni takomillashtirish tendentsiyalari //O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 2025. – C. 6-9.
4. Хаккулов Н. К. Самарканд земля просветителей джадидов //Conferencea. – 2022. – C. 48-52.
5. Karimova N. M. et al. Pedagogical Conditions for Students to use Critical Thinking in the Development of Interethnic Communication //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 2S. – C. 4211-4219.
6. Babadjanova N., Eshonkulova S., Shodiyeva N. Using grammar as a factor to enhance practical parts of linguistics //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 11. – C. 185-189.
7. Babadjanova N., Eshonkulova S., Shodiyeva N. Using grammar as a factor to enhance practical parts of linguistics //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 11. – C. 185-189.
8. Shodiyeva N. STUDYING TRANSITION OF A SENTENCE SYNTACTIC FORMS IN TRADITIONAL LINGUISTICS //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 931-935.
9. Abduxoliq M., Aziza A. Ta'lim to ‘g ‘risidagi qonun va uning isloh qilinishi //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – T. 44. – №. 8. – C. 150-155.

TA’LIMDA INNOVATSION ISLOHOTLAR VA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI

Xalilov Lenar Shevketovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, San’atshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: lenarkhalilov34@gmail.com
Telefon: +998 951243550

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlarning ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar orqali ijodkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ijodiy tafakkurni shakllantirishda psixologik, pedagogik va estetik omillarning o‘zaro ta’siri ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar:Innovatsion islohotlar, ijodiy faoliyat, pedagogik innovatsiya, ta’lim tizimi, raqamli ta’lim, metodologiya, kreativ tafakkur, nazariya va amaliyot, san’at ta’limi, integratsiya

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jadal sur’atda rivojlanmoqda. Dewey (1938) tajriba orqali o‘qitish g‘oyasini ilgari surib, o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘radi. Vygotsky (2004) ijodkorlikni shaxs psixologik rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida talqin qiladi. Naughton, Biesta va Cole (2017) san’at va pedagogika o‘rtasidagi fanlararo bog‘liqlikni tahlil qilib, estetik tarbiya orqali tafakkurni boyitish zarurligini ta’kidlaydilar. Mahalliy olim Karimov (2022) innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi asosiy vosita sifatida ko‘rsatgan. Samieva (2022) esa bo‘lajak mutaxassislarda ijodkorlik va loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishni zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishi deb belgilaydi.

Mazkur tadqiqotda nazariy-tahliliy yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu metod ta’limdagi innovatsion islohotlar va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish hamda mavjud konsepsiyalarni tahlil qilishga qaratilgan. Nazariy-tahliliy yondashuv orqali o‘zbek va xorijiy pedagogika fanida yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, innovatsion ta’lim nazariyalari, kreativ pedagogika konsepsiyalari hamda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi. Bu jarayonda Dewey (1938), Vygotsky (2004), Gardner (2011) kabi olimlarning asarlari asosiy metodologik tayanch sifatida o‘rganildi.

Nazariy-tahliliy yondashuv tadqiqotning mantiqiy asosini tashkil etib, avvalo ta’limda amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlarning mohiyatini, ularning maqsad va

vazifalarini, shuningdek, bunday yangilanishlarning ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi rolini aniqlash imkonini berdi. Shu maqsadda, mavjud ilmiy manbalar, pedagogik tajribalar va hukumat qarorlari tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida fanlararo yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va raqamli pedagogika konsepsiyalari asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy model ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, nazariy-tahliliy metod ta’lim jarayonidagi an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning afzallik va cheklovlarini taqqoslashga, ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir yangi g‘oyalarni ilmiy asoslashga yordam berdi. Ushbu metod natijasida olingan ilmiy xulosalar amaliyotda sinovdan o‘tgan ilg‘or tajribalar bilan solishtirilib, innovatsion islohotlarning samaradorligi hamda ularning ijodiy salohiyatni oshirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu tariqa, nazariy-tahliliy yondashuv tadqiqotning ilmiy mantiqiy asosini shakllantirdi va uning metodologik ishonchliligini ta’minladi.

Tadqiqot natijalari ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlarning ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur yoritib berdi. Olingan tahliliy ma’lumotlar asosida aniqlanishicha, bugungi kunda ta’lim jarayonini faqat nazariy bilim berish bilan cheklash o‘quvchi va talabalarning ijodiy salohiyatini to‘liq ochib berolmaydi. Shu sababli innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati, avvalo, o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va yangicha tafakkurga o‘rgatish zarurati bilan izohlanadi.

Nazariy-tahliliy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayoniga ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilimni faqat eslab qolish emas, balki uni qayta ishlash, yangi g‘oyalarga asos yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Dewey (1938) tomonidan ilgari surilgan “tajriba orqali o‘rganish” tamoyili bugungi innovatsion ta’lim jarayonida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi, ularni muammoni hal qilishga yo‘naltiruvchi metodlar ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Vygotsky (2004) ta’kidlaganidek, ijodkorlik inson tafakkurining tabiiy shakli bo‘lib, uni rivojlantirish uchun sharoit yaratish pedagogik faoliyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Empirik kuzatishlar asosida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyat tahlili, interaktiv mashg‘ulotlar va raqamli vositalar (prezentatsiyalar, vizual platformalar, grafik dasturlar)dan foydalanish ijodiy jarayonni sezilarli darajada jonlantiradi. Talabalar o‘z g‘oyalarini erkin ifodalash, yangi kompozitsiyalar yaratish va badiiy tafakkurini rivojlantirishga intiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari ham o‘zgaradi — ular dars jarayonida nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi, hamkorlikni tashkil etuvchi rolni bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion metodlar qo‘llanilgan guruhda talabalarning dars jarayonidagi faollik darajasi 35–40 foizga yuqori bo‘lgan. Raqamli ta’lim muhitida ishlash ijodiy fikrni faollashtirgan, o‘quvchilarni mustaqil qaror qabul qilish va o‘z g‘oyalarini vizual

ifodalashga o‘rgatgan. Shu bilan birga, an’anaviy o‘qitish usullari bilan shug‘ullangan talabalarda ijodiy tafakkur va tashabbuskorlik nisbatan past darajada kuzatilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion islohotlar ijodiy faoliyatni rivojlantirishda kompleks yondashuvni talab etadi. Birgina metod yoki texnologiya emas, balki pedagogik, psixologik va estetik omillar uyg‘unligigina yuqori samaraga olib keladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik muhiti va erkin ijod qilish imkoniyati ijodiy tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, tahlil jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida doimiy o‘z ustida ishlash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va refleksiv tahlilni yo‘lga qo‘yish zarurligi aniqlandi. Bu jarayon pedagogni o‘z faoliyatiga yangicha qarashga, ijodiy yangilanishga undaydi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik yondashuvlar ta’lim jarayonida nafaqat bilim, balki ijodiy salohiyatni ham rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun innovatsion islohotlarni chuqur nazariy asoslash va ularni amaliyotga samarali joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ta’lim tizimidagi innovatsion islohotlarning ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati, ularning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijodkorlik inson tafakkurining tabiiy shakli bo‘lib, uni rivojlantirish uchun erkin, motivatsion va interfaol ta’lim muhiti zarur. Innovatsion yondashuvlar aynan shu imkoniyatni yaratadi: o‘quvchi va talabaning mustaqil fikrlashi, yangi g‘oyalar ishlab chiqishi va ularni amaliyotga tadbiq etish salohiyatini kuchaytiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijodiy faoliyatni rivojlantirish samaradorligi o‘qituvchi metodikasiga, o‘quv jarayonining psixologik muhitiga va raqamli texnologiyalarning qo‘llanishiga bevosita bog‘liq. Innovatsion metodlar, xususan loyiha asosida o‘qitish, muammoli tahlil, raqamli vositalar va interaktiv mashg‘ulotlar ta’limni faollashtiradi, talabalarni o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatadi. Bu esa nafaqat badiiy tafakkurni, balki tanqidiy va analitik fikrlashni ham shakllantiradi. Shuningdek, ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlardan voz kechish va o‘qituvchini ijodiy rahbar sifatida ko‘rish g‘oyasi o‘z samarasini berdi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ijodiy jarayonni boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi, shaxsiy salohiyatni ochuvchi figuraga aylanadi.

Takliflar:

1.Oliy ta’lim muassasalarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan fanlararo modullarni joriy etish.

2.San’at va pedagogika yo‘nalishlari uchun “Innovatsion o‘qitish metodlari” maxsus kursini tashkil etish.

3.Raqamli ta’lim resurslari asosida ijodiy topshiriqlar va virtual laboratoriyalar tizimini yaratish.

4.O‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarga bag‘ishlangan seminar va treninglarni ko‘paytirish.

Umuman olganda, innovatsion islohotlar ta’limning sifatini oshiradi, o‘quvchi shaxsini ijodkor va mustaqil fikrlovchi inson sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
2. Kasmurzaeva, G.A. (2024). Инновационные педагогические технологии — залог качественного образования. *Молодой учёный*, № 4.1(503.1). Retrieved from moluch.ru
3. Karimov, B. (2022). *Pedagogik innovatsiyalar va kreativ ta’lim tizimi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Naughton, C., Biesta, G., & Cole, D.R. (2017). *Art, Artists and Pedagogy: Philosophy and the Arts in Education*. London: Routledge.
5. Samieva, Sh. X. (2022). Инновацион таълим муҳитида бўлажак мутахассисларда ижодкорлик ва лойиҳалаш кўникмаларини шакллантириш. *Interscience.uz*. Retrieved from interscience.uz
6. Vygotsky, L.S. (2004). *Imagination and Creativity in Childhood*. Cambridge: MIT Press

O‘ZBEK ADABIY TILI DARAJALANISHINING LEKSIK ASOSINI YARATISH ZARURATI

Satlikova Muhayyo Baxtiyorovna
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida til darajalarining o‘rganilishi, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida darajalanishning leksik asosini yaratish zarurati xususida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: til darajalari, axborot texnologiyalari, elektron lug‘atlar, CEFR, Milliy sertifikat.

Til ma’naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma’naviyatni saqlab qolish demakdir. Zero, asl ma`naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo‘ladi. Mamlakatimizda tilga e`tibor ma’naviyatga e`tiborning ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu bois, ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma’naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo‘llaridandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funktsional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasi, tahriri, tahlili, elektron lug‘atlar va tezaurus(til xazinasi)lar fikrimiz tasdig‘idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda har bir sohada axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanishga, dasturiy ta’minot asosida tuziladigan loyihalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bir qancha qarorlari va farmonlari, farmoyishlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 1-fevraldagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730 sonli qarori va shu kabilar misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o‘zbek tili birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarining leksik, morfologik va sintaktik asosini

yaratishdir. Jahon tajribasiga tayanib, o‘zbek tilining tabiatini hisobga olgan holda o‘zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish lozim. Tilning lingvistik sathlararo darajalanishida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Tilning leksik sathining ko`lamini o`rganish, ya’ni o`zbek tili izohli lug`atlari bilan tanishib chiqish;
- Leksik darajalanishda chastotali lug`atlardan unumli foydalanish ko`nikmasini shakllantirish;
- Tilni o`qitish va uni baholash metodlari bilan tanishib chiqish;
- Birinchi daraja uchun muhim bo‘lgan leksik qamrovni aniqlashda o‘quvchilar, talabalar va til o‘rganuvchilar uchun maxsus eksperiment metodlarini ishlab chiqish;
- Tillarni o‘qitish va baholashda Yevropa standarti va DTS talablarini solishtirish hamda o‘zaro moslashtirish;
- Leksik sathni darajalash va bu orqali o‘zbek tili profillarini yaratishga tavsiya berish va b.q.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligining nazariyasi, grammatik qonuniyatlari XX asrdan tilning sistem tabiatiga ko‘ra tizimlashtirila boshlandi. Tilshunoslikda ushbu nazariyalarga asoslangan tizimli amaliyotga yondashish vaqti kelgan bir paytda o‘zbek adabiy tilining darajalanishi ayni muddao. Bunda jahon tilshunosligi nazariyasi va amaliyotiga tayanib, CEFRL va IELTS qonun-qoida va ko‘nikmalariga asoslangan holda ona tilimizning yangi darajalanish qolipi yaratiladi. Tilni darajalash xalqaro maqomdagi tillar va jahon tillari miqyosida amalga oshirilgan bo‘lib, o‘zbek adabiy tili uchun nazariy va amaliy yangilik hisoblanadi.

O‘zbekistonning davlat tili - o‘zbek tili ham tarixiy taraqqiyot natijasida adabiy til sifatida shakllanib, hozirda butun dunyo bo‘yicha ellik milliondan ortiq iste’molchilariga egadir. O‘zbek tilidan foydalanuvchilar ko‘lamining oshishida o‘zbek tilining mukammal grammatikasini ishlab chiqish va o‘rgatishning oson va aniq me`yorlarini belgilash nafaqat xorijliklarning til o‘rganishi, balki o‘zbek xalqi savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tillarning o‘ziga xosligi ularning grammatikasi ma’lum me’yorlar, qonun-qoidalar asosida barcha uchun umumiy o‘rgatish va o‘rganish qolipi - darajalanganligi bilan bog‘liqdir. Jahonning barcha tillarida tipologik universal hodisalar ularni o‘rganish metodlari uchun ham amal qiladi, ya’ni tillar nazariyasi va amaliy metologiyasi bir-biri bilan o‘zaro oziqlanadi. Shundan kelib chiqib, o‘zbek adabiy tilini darajalash tilshunoslikda zamonaviylik va aniqlikka asoslangan hodisa sifatida tub burilish yasaydi. Buning uchun, avvalo, lingvistik darajalangan tillar, ularning qonuniyatlari, darajalanish tamoyillari bilan tanishish va darajalangan tillarning umumiy hamda differensial jihatlarini aniqlash lozim. Bu borada biz o‘z-o‘zidan mamlakatimizda eng keng tarqalgan va boshqa tillarga nisbatan qiziquvchilar soni ko‘pligi jihatidan ingliz tilining darajalanishiga asoslanamiz.

Bugungi kunda dunyoda yetti mingdan ortiq tillar ichida ikki yuzga yaqini rasmiy davlat tili

sifatida iste’moldadir. Biroq, tilning “tirikligi” milliy tilga rasmiy til maqomini berish bilan o`lchanmaydi. Dunyoda har bir tilning nufuzi va mavqeyini oshirish ushbu tilda gaplashuvchilar sonining oshib borishi hamda iste’mol ko`lamining kengayishi bilan bog`liq. Bu esa tilning ijtimoiy yashovchanligini belgilovchi omillardan biridir. Tilning “tirikligi” o`z navbatida o`sha xalqning etnik barqarorligini ta’minlaydi. Shunday ekan, o‘zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish bugungi tilshunosligimiz oldidagi eng ustuvor vazifalardan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr. Yohann Shustereder. Beshinchi o`quv moduli: Chet tilini o`qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017.
2. Tillar leksikasini Yevropa standati (CEFR) bo`yicha baholanish tamoyillari; -Yevropa kengashi, 1996.
3. Franchoise Kusseling. Fransus tilini o`qitish va o`rganishda so`z boyligining Yevopa standarti (CEFR) bo`yicha baholanishi//Dsc. –Fransiya, 2012.

O‘ZBEK ADABIY TILI DARAJALANISHINING LEKSIK ASOSINI YARATISH ZARURATI

Satlikova Muhayyo Baxtiyorovna
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
2-sonli Toshkent akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida til darajalarining o‘rganilishi, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida darajalanishning leksik asosini yaratish zarurati xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: til darajalari, axborot texnologiyalari, elektron lug‘atlar, CEFR, Milliy sertifikat.

Til ma’naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma’naviyatni saqlab qolish demakdir. Zero, asl ma`naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo‘ladi. Mamlakatimizda tilga e`tibor ma’naviyatga e`tiborning ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu bois, ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma’naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo‘llaridandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funktsional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasi, tahriri, tahlili, elektron lug‘atlar va tezaurus(til xazinasi)lar fikrimiz tasdig‘idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron

lug‘atlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda har bir sohada axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanishga, dasturiy ta’minot asosida tuziladigan loyihalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bir qancha qarorlari va farmonlari, farmoyishlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 1-fevraldagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730 sonli qarori va shu kabilar misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o‘zbek tili birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarining leksik, morfologik va sintaktik asosini yaratishdir. Jahon tajribasiga tayanib, o‘zbek tilining tabiatini hisobga olgan holda o‘zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish lozim. Tilning lingvistik sathlararo darajalanishida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Tilning leksik sathining ko`lamini o`rganish, ya’ni o`zbek tili izohli lug`atlari bilan tanishib chiqish;
- Leksik darajalanishda chastotali lug`atlardan unumli foydalanish ko`nikmasini shakllantirish;
- Tilni o`qitish va uni baholash metodlari bilan tanishib chiqish;
- Birinchi daraja uchun muhim bo‘lgan leksik qamrovni aniqlashda o‘quvchilar, talabalar va til o‘rganuvchilar uchun maxsus eksperiment metodlarini ishlab chiqish;
- Tillarni o‘qitish va baholashda Yevropa standarti va DTS talablarini solishtirish hamda o‘zaro moslashtirish;
- Leksik sathni darajalash va bu orqali o‘zbek tili profillarini yaratishga tavsiya berish va b.q.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligining nazariyasi, grammatik qonuniyatlari XX asrdan tilning sistem tabiatiga ko‘ra tizimlashtirila boshlandi. Tilshunoslikda ushbu nazariyalarga asoslangan tizimli amaliyotga yondashish vaqti kelgan bir paytda o‘zbek adabiy tilining darajalanishi ayni muddao. Bunda jahon tilshunosligi nazariyasi va amaliyotiga tayanib, CEFRL va IELTS qonun-qoida va ko‘nikmalariga asoslangan holda ona tilimizning yangi darajalanish qolipi yaratiladi. Tilni darajalash xalqaro maqomdagi tillar va jahon tillari miqyosida amalga oshirilgan bo‘lib, o‘zbek adabiy tili uchun nazariy va amaliy yangilik hisoblanadi.

O‘zbekistonning davlat tili - o‘zbek tili ham tarixiy taraqqiyot natijasida adabiy til sifatida shakllanib, hozirda butun dunyo bo‘yicha ellik milliondan ortiq iste’molchilariga egadir.

O‘zbek tilidan foydalanuvchilar ko‘lamining oshishida o‘zbek tilining mukammal grammatikasini ishlab chiqish va o‘rgatishning oson va aniq me`yorlarini belgilash nafaqat xorijliklarning til o‘rganishi, balki o‘zbek xalqi savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tillarning o‘ziga xosligi ularning grammatikasi ma’lum me’yorlar, qonun-qoidalar asosida barcha uchun umumiy o‘rgatish va o‘rganish qolipi - darajalanganligi bilan bog‘liqdir. Jahonning barcha tillarida tipologik universal hodisalar ularni o‘rganish metodlari uchun ham amal qiladi, ya’ni tillar nazariyasi va amaliy metologiyasi bir-biri bilan o‘zaro oziqlanadi. Shundan kelib chiqib, o‘zbek adabiy tilini darajalash tilshunoslikda zamonaviylik va aniqlikka asoslangan hodisa sifatida tub burilish yasaydi. Buning uchun, avvalo, lingvistik darajalangan tillar, ularning qonuniyatlari, darajalanish tamoyillari bilan tanishish va darajalangan tillarning umumiy hamda differensial jihatlarini aniqlash lozim. Bu borada biz o‘z-o‘zidan mamlakatimizda eng keng tarqalgan va boshqa tillarga nisbatan qiziquvchilar soni ko‘pligi jihatidan ingliz tilining darajalanishiga asoslanamiz.

Bugungi kunda dunyoda yetti mingdan ortiq tillar ichida ikki yuzga yaqini rasmiy davlat tili sifatida iste’moldadir. Biroq, tilning “tirikligi” milliy tilga rasmiy til maqomini berish bilan o`lchanmaydi. Dunyoda har bir tilning nufuzi va mavqeyini oshirish ushbu tilda gaplashuvchilar sonining oshib borishi hamda iste’mol ko`lamining kengayishi bilan bog`liq. Bu esa tilning ijtimoiy yashovchanligini belgilovchi omillardan biridir. Tilning “tirikligi” o`z navbatida o`sha xalqning etnik barqarorligini ta’minlaydi. Shunday ekan, o‘zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish bugungi tilshunosligimiz oldidagi eng ustuvor vazifalardan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Dr. Yohann Shustereder. Beshinchi o`quv moduli: Chet tilini o`qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017.
5. Tillar leksikasini Yevropa standati (CEFR) bo`yicha baholanish tamoyillari; -Yevropa kengashi, 1996.
6. Franchoise Kusseling. Fransus tilini o`qitish va o`rganishda so`z boyligining Yevopa standarti (CEFR) bo`yicha baholanishi//Dsc. –Fransiya, 2012.

GIMNASTIKA MASHQLARI – SOG‘LOM AVLOD TARBIYASINING MUHIM OMILI

Yangiboyeva Muqaddam Asatulla qizi
Toshkent shahar, Sergeli tumani, 353-sonli maktabning Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
Email: muqaddamxon093@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gimnastika mashqlarining bolalar va o‘smirlar organizmi rivojlanishidagi o‘rni, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati hamda ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonida gimnastikaning qo‘llanish samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sog‘lom avlodni tarbiyalashda jismoniy faoliyatning ijtimoiy va psixologik jihatlari ham yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль гимнастических упражнений в развитии организма детей и подростков, их значение в формировании здорового образа жизни, а также эффективность применения гимнастики в процессе физического воспитания в образовательных учреждениях. Также освещаются социальные и психологические аспекты физической активности в воспитании здорового поколения.

Abstract: This article analyzes the role of gymnastic exercises in the physical development of children and adolescents, their importance in cultivating a healthy lifestyle, and the effectiveness of incorporating gymnastics into physical education programs in educational institutions. Additionally, the social and psychological aspects of physical activity in raising a healthy generation are explored.

Kalit so‘zlar: gimnastika, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom avlod, harakat faoliyati, sport madaniyati.

Ключевые слова: гимнастика, физическая культура, здоровый образ жизни, здоровое поколение, двигательная активность, спортивная культура.

Keywords: gymnastics, physical education, healthy lifestyle, healthy generation, physical activity, sports culture.

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish yoshlarning sog‘lom, bardam va ma’naviy yetuk bo‘lib voyaga yetishida muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan, gimnastika mashqlari inson tanasini chiniqtirish, mushak tizimini mustahkamlash hamda muvozanat, moslashuvchanlik va harakat koordinatsiyasini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biridir. Gimnastika mashqlari inson organizmini kompleks tarzda rivojlantiradi, mushak tizimini mustahkamlaydi va psixologik barqarorlikni ta’minlaydi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sport turlarini ommalashtirish, ayniqsa

gimnastika mashqlarini ta’lim tizimida keng joriy etish – barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biridir.

Asosiy qism.

Gimnastika — bu inson tanasining harakat imkoniyatlarini kengaytiruvchi, mushak tizimini mustahkamlovchi, nafas olish, qon aylanish va asab tizimlarini faoliyatini yaxshilovchi mashqlar majmuasidir. U nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy sog‘lomlikni ham ta’minlaydi. Shu sababli gimnastika mashqlari sog‘lom avlod tarbiyasining muhim pedagogik va fiziologik omili sifatida e’tirof etiladi.

Gimnastika mashqlari inson tanasining barcha mushak guruhlarini bir maromda rivojlantiradi, nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarini mustahkamlaydi, shuningdek, diqqat, muvozanat va irodani shakllantiradi. U nafaqat jismoniy, balki ma’naviy sog‘lomlikni ham ta’minlaydi. Maktab va oila sharoitida gimnastika mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning samarali usulidir.

1. Gimnastika mashqlarining fiziologik ahamiyati.

Gimnastika mashqlari inson organizmining barcha tizimlariga — yurak-qon tomir, nafas olish, asab va mushak tizimlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar va o‘smirlar uchun bu mashqlar:

- mushaklarning to‘g‘ri shakllanishiga,
- gavda tuzilishining to‘g‘ri rivojlanishiga,
- qon aylanishi va nafas olish jarayonining yaxshilanishiga,
- umumiy jismoniy chidamlilikning ortishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, muntazam bajariladigan gimnastika mashqlari o‘quvchilarda tetiklik, diqqatni jamlash, intizom va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, gimnastika mashqlari yoshlarning hayotga ijobiy qarashini, o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyatli munosabatini shakllantiradi.

2. Gimnastikaning pedagogik va psixologik ta’siri.

Gimnastika nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy va ruhiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Mashqlar davomida o‘quvchilar:

- ✓ jamoada ishlashni,
- ✓ o‘z harakatlarini nazorat qilishni,
- ✓ intizom va mas’uliyatni o‘rganadilar.

Bu jarayon sog‘lom fikrlovchi, qat’iyatli va maqsadga yo‘naltirilgan shaxsni shakllantiradi. Shu bilan birga, gimnastika mashg‘ulotlari stressni kamaytiradi, kayfiyatni ko‘taradi va o‘ziga ishonchni oshiradi. Ruhiy tomondan esa gimnastika mashqlari insonni tetik, faol va ijobiy kayfiyatda saqlaydi. Mashqlar paytida tanada endorfin — “baxt gormoni” ajraladi, bu esa ruhiy holatni yaxshilaydi, stressni kamaytiradi.

3. Ta’lim muassasalarida gimnastikaning o‘rni

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashqlarini tizimli ravishda o‘tkazish:

- darslarning samaradorligini oshiradi,
- o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi,
- sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim muassasalarida ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya darslari va sport to‘garaklarida gimnastika elementlarini qo‘llash sog‘lom avlodni tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Ertalabki badantarbiya, darsdan oldingi qisqa gimnastik mashqlar, sport to‘garaklarida gimnastika elementlaridan foydalanish — bularning barchasi o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Gimnastika mashqlari bilan muntazam shug‘ullangan o‘quvchilarning mushak kuchi o‘rtacha 20–25% ga oshadi.

O‘qituvchilar va murabbiylar uchun eng muhim vazifa — gimnastika mashqlarini yosh xususiyatlariga mos, ilmiy asoslangan metodika asosida tashkil etishdir.

Xulosa.

Gimnastika mashqlari sog‘lom avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Ular yosh avlodning jismoniy rivojlanishiga, ruhiy barqarorligiga va ijtimoiy faol bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, gimnastika mashqlarini ta’lim muassasalari, sport markazlari va oilaviy hayotda keng tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Sog‘lom, baquvvat va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash — mamlakat kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratish demakdir.

Demak, gimnastika mashqlari — sog‘lom avlod tarbiyasining eng muhim omillaridan biridir. Uni nafaqat sport darslarida, balki hayot tarzimizda ham muntazam qo‘llashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom avlod uchun” dasturi.
2. Abduqodirov A. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Karimova N., Xudoyqulova M. “Bolalar jismoniy rivojlanishida gimnastika mashqlarining ahamiyati.” – Ilmiy axborotlar jurnali, 2022.
4. Akbarov R. “Sport pedagogikasi va yoshlar salomatligi”. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023.
5. World Health Organization. “Physical activity guidelines for children and adolescents”. – Geneva, 2020.

ESHITISH (LISTENING) KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Mahmudjanova Dilshoda Adhamjon qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Anotatsiya: Ushbu tezis eshitish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy asoslangan metodlarini chuqur o'rganadi. Til o'rganish va kognitiv rivojlanishning markaziy elementi sifatida eshitish ko'nikmasining o'qish tushunishi, nutqiy qobiliyat, umumiy til samaradorligi va hatto ijtimoiy o'zaro ta'sirga ta'sirini batafsil tahlil qiladi. Pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga yondashuvlarga asoslangan blended o'qitish modellari, podkastlar orqali takrorlash texnikasi, auditory training, yordamchi texnologiyalar, lug'at boyitish va strategik interventsiyalar kabi usullar ilmiy tadqiqotlar asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu metodlar eshitish ko'nikmasini 20-40% ga yaxshilash imkoniyatini beradi, ayniqsa, chet til o'rganuvchilar va eshitish buzilishlari bo'lgan bolalarda. O'zbek va xorijiy adabiyotlar, jumladan, Abdullaeva (2022), Hogan va boshq. (2014) va yangi tadqiqotlar (masalan, Chattaraj, 2024) asosida individual yondashuv zarurligi ta'kidlanadi, bu nafaqat til o'rganish, balki kognitiv salohiyat va madaniy tushunishni kuchaytiradi.
Kalit so'zlar: eshitish ko'nikmasi, til o'rganish, kognitiv yuk nazariyasi, blended o'qitish, auditory training, podkastlar, APD, lug'at boyitish, top-down yondashuv, bottom-up yondashuv, takrorlash texnikasi, eshitish buzilishlari, nutqiy kompetensiya.

Kirish

Eshitish ko'nikmasi til o'rganish jarayonining asosiy elementi bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat nutqiy qobiliyatni, balki kognitiv, ijtimoiy va hatto hissiy ko'nikmalarni ham kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, eshitish tushunishi o'qish tushunishining markaziy komponenti hisoblanadi. Masalan, Hogan, Adlof va Alonzo (2014) tadqiqotida ta'kidlanganidek, bola maktab yoshida rivojlangan sari eshitish ko'nikmasining o'qishga ta'siri kuchayadi: ikkinchi sinfda bu ko'rsatkich o'qishning 9% ini, to'rtinchi sinfda 21% ini va sakkizinchi sinfda 36% ini tashkil etadi. Bu holat "oddiy o'qish nazariyasi" (Gough & Tunmer, 1986) bilan izohlanadi, unda o'qish tushunishi so'z tanishi va eshitish tushunishining mahsuli sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligi va pedagogikasida ham bu mavzu keng o'rganilgan; masalan, Abdullaeva (2022) tomonidan eshitish ko'nikmasini o'qitish usullari va mashqlar tizimi rivojlantirilgan, bu chet til o'rganuvchilar uchun samarali yondashuvlarni taklif etadi, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ingliz tilida eshitishni rivojlantirishda (Salieva, 2024). Eshitish ko'nikmasining rivojlanishi pastdan yuqoriga (bottom-up) va yuqoridan pastga (top-down) yondashuvlarga asoslangan bo'lib, birinchisi fonetik va temporal ishlov berishni (tovushlarni ajratish, ritmik tuzilishni tushunish) yaxshilashga qaratilgan, ikkinchisi esa kontekstni taxmin qilish, oldindan bilimga asoslanish va semantik bog'lanishlarni

faollashtirishni o'z ichiga oladi. Kognitiv yuk nazariyasi (Sweller, 1988) asosida bu ikki yondashuvning integratsiyasi ichki yuk (individual farqlar) va tashqi yuk (mashq murakkabligi) ni boshqarish orqali germane yukni (o'rganishga yo'naltirilgan yuk) oshiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida eshitish ko'nikmasini rivojlantirish muammosi, ayniqsa, nofilologik yo'nalishlarda dolzarb bo'lib, bu yerda ingliz tilida eshitish ko'nikmasini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari o'rganilgan (Asilova, 2023), shuningdek, bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari (Mamarajabova va Abdullayeva, 2024) kabi mavzular ko'rib chiqilgan. Ushbu tezis eshitish ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy usullarini tahlil qiladi, ilmiy dalillar va amaliy tajribalarga asoslanib, individual va guruhli yondashuvlarni taklif etadi, jumladan, 13 ta samarali strategiya va vazifalarni (Chattaraj, 2024).

Ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, eshitish ko'nikmasini rivojlantirishda blended o'qitish modeli yuqori natijalar beradi. Masalan, 60 nafar talaba ishtirok etgan tajribada LMS (Learning Management System) orqali sinxron va asinxron mashg'ulotlar o'tkazilganda, eshitish qiyinchiliklari bo'yicha "qattiq rozi" javoblari o'rtacha 17,08 dan 5,84 ga tushgan (SD=4,9), bu oldindan taxmin qilish va kontekst tushunish ko'nikmalarini yaxshilashni tasdiqlaydi. Bu modelda pre-listening bosqichida hamkorlikdagi munozaralar va aksent/intonatsiya videolari (masalan, "invideos.ai" orqali yaratilgan) schema faollashtirishga yordam beradi, while-listeningda o'z-o'zini nazorat qiluvchi audio mashqlar shaxsiy refleksiyani rag'batlantiradi (45 daqiqa), post-listeningda esa muhokamalar orqali xatolar tahlil qilinadi (15 daqiqa), natijada kognitiv yuklar muvozanatlashtiriladi va eshitish samaradorligi 20-30% ga oshadi. O'zbek adabiyotlarida shunga o'xshash yondashuvlar, masalan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasida (To'xtayev va boshq., 2022) eshitish ko'nikmasini shakllantirish uchun mashqlar tizimi taklif etilgan, bu nofilologik talabalar uchun moslashtirilgan, shuningdek, nutq rivojlantirishning samarali metodlari (Karimova, 2020) da ona tili o'qitishda eshitishni kuchaytirish usullari tahlil qilingan.

Podkastlar orqali eshitishni rivojlantirishda Ebbinghausning takrorlash egri chizig'i (1913) muhim rol o'ynaydi; 41 nafar talaba bilan o'tkazilgan pre-eksperimental tadqiqotda Spotify podkast epizodlari 18 daqiqa, bir kun va yetti kun oralig'ida to'rt marta tinglatilganda, post-test natijalari o'rtacha 61,05 dan 86,63 ga ko'tarilgan (SD=4,414), bu asosiy fikr va tafsilotlarni tushunishni 25% ga yaxshilaganini ko'rsatadi, shuningdek, talabalar qoniqishini 4,50 ballga yetkazgan (E1/E2=88.51/86.59). Ayniqsa, CEFR A2-B1 darajasidagi o'quvchilar uchun raqamli muhitda o'z-o'zini o'rganishni rag'batlantirish orqali aksent va tez nutq qiyinchiliklarini bartaraf etadi. O'zbek pedagogikasida podkastlar va audio materiallar o'zbek tilini o'qitish metodikasida (B.To'xtayev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova) nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun tavsiya etilgan, shuningdek, bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari (Mamarajabova, 2024) da ovoz va eshitishni birgalikda rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan. Markaziy eshitish ishlov berish

buzilishlari (APD) bo'lgan bolalarda auditory training (AT) interventsiyalari samarali bo'lib, 42 ta tadqiqotni o'z ichiga olgan skoping sharhda dichotik tinglash, fazoviy ishlov berish va shovqindagi nutq (SIN) mashqlari DDT, LiSN-S va HINT testlarida 15-25% yaxshilanishlarni beradi, shuningdek, neyrofiziologik o'zgarishlar (P1/N2 latentsiyasini 10-15 ms ga kamaytirish) kuzatiladi. Masalan, LiSN & Learn dasturi binaural ishlov berishni kuchaytiradi va ota-onalar, o'qituvchilar tomonidan bildirilganidek, kundalik tinglashni 3 oylik uzoq muddatli ta'sir bilan yaxshilaydi. Yordamchi texnologiyalar, jumladan, chastota modulyatsiyali (FM) tizimlar va binaural eshitish apparatlari, sinfda SIN va ishchi xotirani oshiradi; Umat va boshqalar (2011) tadqiqotida binaural FM tizimlari RAVLT va SSN testlarida 18-22% yaxshilanishlarni ko'rsatgan. O'zbekiston ta'limida APD bilan bog'liq masalalar, masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikalari (Asadullayeva, 2025) da musiqiy va nutqiy mashqlar orqali rivojlantirish taklif etilgan, shuningdek, eshitish idrokini rivojlantirish (Mamarajabova va Abdullayeva, 2024) da bolalar nutqidagi kamchiliklarni tahlil qilish usullari keltirilgan. Top-down yondashuvlar SIN treningi bilan birlashtirilganda auditory stream segregation va non-word repetitionni yaxshilaydi, bu APD da kognitiv va eshitish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi. Lug'at boyitish va inferensiya ko'nikmalari muhim; Elleman va boshqalar (2009) meta-tahlilida 37 ta tadqiqot lug'at interventsiyalari eshitish va o'qish tushunishini 0.5-0.7 effekt o'lchamida yaxshilashini ko'rsatgan. "Poor comprehenders" bolalarda eshitish tushunishi 15 oylikdan aniqlanadi va fonologik xabardorlik, temporal ishlov berish mashqlari orqali bartaraf etiladi; musiqiy va fonemik treninglar temporal ishlov berishni va nutqni yaxshilaydi, akademik natijalarga ijobiy ta'sir qiladi. Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun beshta asosiy eshitish ko'nikmasi: kontentni oldindan taxmin qilish (masalan, ob-havo xaritasidan "sunny" ni kutish), gistni tinglash (umumiy rasmni tushunish, masalan, "food, friends, park" dan piknikni taxmin qilish), signpostlarni aniqlash ("first of all" ni tan olish), tafsilotlarni tinglash (raqam yoki ismni izlash) va ma'noni infer qilish (kontekstdan chiqarish); bu ko'nikmalarni yaxshilash uchun YouTube kliplari, subtitrlar va mind maplar tavsiya etiladi. Akademik tinglashda top-down strategiyalari dars oldidan mavzuni bashorat qilish va darsdan keyin yozuvlarni to'ldirishni o'z ichiga oladi, bottom-up strategiyalari esa stresslangan so'zlarga (nouns, verbs) e'tibor berishni talab qiladi, bu ikkalasini qo'llash orqali tushunish 15-20% ga oshadi; yetti bosqichli ketma-ketlik (SLA tadqiqotlari asosida) esa autentik nutqqa asoslangan mashqlarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida eshitish ko'nikmasini shakllantirishning nazariy asoslari (Abdullaeva, 2022) da nofilologik talabalar uchun aralash ta'lim texnologiyalari taklif etilgan. Ingliz tilini o'qitish jarayonida eshitishni rivojlantirish strategiyalari to'rt bosqichli: rejalashtirish (PBL va kolaborativ o'rganish), ijro (task-based learning), baholash (formative testlar) va fikr-mulohaza (sinf muhokamalari); 59 nafar talaba bilan o'tkazilgan tadqiqotda bu strategiya eshitish darajasini yuqoriroqqa ko'targan. Zamonaviy metodlar fonemik (tovush ajratish), fonetik (talaffuz) va intonatsiya (ritm, stress)

komponentlariga e'tibor beradi; audio va video segmentlaridan foydalanish, oldindan tayyorgarlik va oltita bosqichli jarayon (tekst tanlash, sharoit belgilash, til bilimini faollashtirish, tinglash sonini aniqlash, tushunishni tekshirish) orqali samaradorlikni oshiradi, masalan, podkastlar va dokumental filmlar orqali tabiiy nutqqa ko'nikish. Eshitish eng qiyin ko'nikma bo'lib, haqiqiy til nutqiga tizimli ta'sir talab qiladi; bottom-up va top-down modelining kolaborativ qo'llanilishi SLA tadqiqotlari asosida yetti bosqichli ketma-ketlik orqali tushunishni yaxshilaydi. Chet til o'rganuvchilar uchun 13 ta samarali strategiya mavjud, jumladan, oldindan schema faollashtirish, takroriy tinglash, guruh muhokamalari va texnologik yordam (masalan, subtitrlar), bu usullar yuqori baholangan (Chattaraj, 2024). O'zbek adabiyotlarida nutq madaniyati va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish (Karimova, 2020) da ona tili o'qitishda eshitish ko'nikmasini kuchaytirish usullari tahlil qilingan, shuningdek, nutq o'stirish nazariyasi (Nizomova, n.d.) da ilmiy tadqiqotlar asosida bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Xulosa qilib aytilganda ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, eshitish ko'nikmasini rivojlantirish individual farqlarni (masalan, ADHD yoki APD) hisobga olgan holda, uzoq muddatli monitoring bilan o'tkazilishi kerak. Blended modellar, podkastlar, auditory training, yordamchi qurilmalar va strategik interventsiyalar eshitish tushunishini va bog'liq kognitiv jarayonlarni 20-40% ga yaxshilaydi, til o'rganish va o'qish samaradorligini oshiradi, shuningdek, ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy tushunishni kuchaytiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu usullarni joriy etish, masalan, o'zbek tilini o'qitish metodikasida (Asilova, 2023) ta'kidlanganidek, nofilologik va filologik yo'nalishlarda ta'lim sifatini oshiradi. Kelgusida texnologik integratsiya va o'zbek adabiyotlariga asoslangan tadqiqotlar bu sohani yanada rivojlantirishi mumkin, chunki eshitish ko'nikmasi nafaqat til, balki umumiy kognitiv salohiyatning asosidir, va yangi tadqiqotlar (masalan, podcasts va repetition, 2023) shuni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva, A. E. (2022). The methods of teaching listening skills and development of system of exercises. ResearchGate.
2. Asilova, G. (2023). O'zbek tilini o'qitish metodikasi. ResearchGate.
3. To'xtayev, B., Shamsiyeva, M., Ziyodova, T. (n.d.). O'zbek tili o'qitish metodikasi. Ziyouz.com.
4. Karimova, M. (2020). Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
5. Asadullayeva, M. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida musiqaning o'rni. ResearchGate.
6. Izbullayeva, G. (2022). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Buxoro: Durdona nashriyoti.
7. Nizomova, Sh. Sh. (n.d.). Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish. BuxDU.

8. Salieva, Z. (2024). Boshlang'ich sinflarda ingliz tilida eshitish ko'nikmasini rivojlantirish usullari. Google Scholar.
9. Mamarajabova, Z.N., Abdullayeva, M.M. (2024). Daktil va imo-ishora nutqiga o'rgatish. UzEdu.
10. Mamarajabova va boshq. (n.d.). Bolaning eshituv qobiliyatini hamda ovozini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. CyberLeninka.

Profilaktika inspektorining qizil toifadagi hududlarda jinoyatlarni barvaqt oldini olish borasida hamkorlik chora-tadbirlari

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs kursanti
Baxtiyorov Islom Azizbek o'g'li
Ilmiy rahbar:dotsent. **O.X.Narzullayev**

O‘zbekistonning YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktyabrda YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O‘zbekiston ushbu tashkilotga a’zo etib qabul qilindi. O‘sha kuni Ulug‘bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktyabr oyida Parijda Ulug‘bek haftaligi tantanali tarzda o‘tkazildi. Xiva va Buxoro shaharlari YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. 1994-yil dekabr oyida “YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi” tashkil etildi. U idoralararo muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritadi va tarkibiga ta’lim, fan, madaniyat hamda axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 nafar a’zo kiritilgan. YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o‘rganish, tiklash va ommalashtirishga alohida ahamiyat beradi. “Ipak yo‘li — muloqot yo‘li” nomli yirik xalqaro tadqiqot loyihasida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor o‘rin ajratilgan. 1995-yil iyul oyida YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayor tashabbusi bilan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi.

1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. Shu munosabat bilan Parijda va Shahrisabzda xalqaro anjumanlar o‘tkazildi hamda Shahrisabz shahri YUNESKOning madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi. 1997-yilda jahon madaniyatining durdonalari sanalgan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik yubileylari Parijda keng nishonlandi. Bu tadbirlar O‘zbekiston bilan YUNESKO o‘rtasidagi hamkorlikning yorqin ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasalar — Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, YUNISEF, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon meteorologiya tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan ham faol hamkorlik qilmoqda. YUNESKOning asosiy maqsadi insoniyatning aql-zakovati va axloqiy birligiga asoslangan barqaror tinchlikni ta’minlashdan iborat. Tashkilot dunyo madaniyatini rivojlantirish, barqaror taraqqiyot uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzish, milliy madaniyatlarni asrash va targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston YUNESKO doirasidagi xalqaro hujjatlarga qo‘shilish orqali o‘zining boy madaniy merosini xalqaro huquqiy himoya ostiga olgan, ilmiy va ma’naviy salohiyatini keng namoyon etgan. Bu hamkorlik milliy qonunchilikni takomillashtirishga, ta’lim, fan, madaniyat, informatika va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojiga xizmat qilmoqda. YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi 1994-yil 29-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining №629-son qarori asosida tashkil etilgan. Komissiya YUNESKO dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtiradi hamda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Komissiya ta’lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya yo‘nalishlarida “Ta’lim barchaga”,

“Inson va biosfera”, “MOST”, “Jahon xotirasi” kabi xalqaro dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyat bilan faol integratsiyalashuv yo‘lini tanladi. YUNESKO doirasidagi dastlabki loyihalar esa nafaqat mamlakatning madaniy merosini asrashga, balki xalqaro ilmiy va ta’limiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qildi.

ADABIYOTLAR:

1. Международное право в документах: Учеб. пособие / Сост. Н.Т. Влапова, Г.М. Мелков. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Инфра, 1997. — С. 103.
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. *O‘zbekiston tarixi* (Darslik). — T.: Iqtisod-moliya, 2006. — 460 b.
3. Ibrohimova O. *4-noyabr — YUNESKO tashkil topgan kun.* // Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 4-noyabr.
4. *Birlashgan Millatlar Tashkiloti.* — Toshkent, 2011. — 176–177-bet.
5. *O‘zbekistonning yangi tarixi.* Uchinchi kitob. *Mustaqil O‘zbekiston tarixi.* — T.: Sharq, 2000.

YOZUVNING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqa’la fakultetida Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3 bosqich talabasi
Abdullayeva Hilola Xikmatjan qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvning jamiyatdagi o‘rni, uning madaniy va ijtimoiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi. Yozuv inson tafakkurining ifodasi sifatida bilim, madaniyat va tarixiy merosni avloddan-avlodga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda yozuvning rivojlanish bosqichlari, uning axborot almashinuvidagi o‘rni va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: yozuv, jamiyat, madaniyat, axborot, ta’lim, texnologiya, kommunikatsiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль письма в обществе и его влияние на культурную и социальную жизнь. Письменность, как выражение человеческой мысли, служит средством передачи знаний, культуры и исторического наследия из поколения в поколение. В исследовании рассматриваются этапы развития письменности, ее роль в обмене информацией и ее интеграция с современными технологиями.

Ключевые слова: письмо, общество, культура, информация, образование, технологии, коммуникация.

ANNOTATION

This article analyzes the role of writing in society, its impact on cultural and social life. Writing, as an expression of human thought, serves as a means of transmitting knowledge, culture and historical heritage from generation to generation. The study examines the stages of development of writing, its role in information exchange and its integration with modern technologies.

Keywords: writing, society, culture, information, education, technology, communication.

KIRISH

Yozuv inson tafakkurining eng yuksak ixtirolaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Tarixan yozuv insoniyatning bilimlarni saqlash, uzatish va kelajak avlodga yetkazishdagi asosiy vositasi bo‘lib kelgan. Ilm-fan, san’at, falsafa va huquq kabi sohalarning rivojlanishida yozuvning roli beqiyosdir[1].

[1] Saidov U. Yozuv va jamiyat taraqqiyoti. - T.: O‘zbekiston, 2010. - 210-b.

Bugungi kunda yozuv nafaqat an’anaviy qog‘oz shaklida, balki raqamli vositalar yordamida ham keng qo‘llanilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi yozuvning jamiyatdagi o‘rnini yanada kengaytirib, uni tezkor va global axborot almashinuvining ajralmas qismiga aylantirdi. Ushbu maqolada yozuvning jamiyatda tutgan o‘rni, uning madaniy va ijtimoiy hayotga ta’siri, shuningdek, texnologik rivojlanish sharoitida uning istiqbollari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yozuv tarixini o‘rganish uchun turli davr va mintaqalarga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-taqqoslash usuli – yozuv tizimlarining rivojlanishini davrlar kesimida o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Tahlil va sintez usuli – yozuvning madaniyat, ta’lim va kommunikatsiya jarayonlaridagi o‘rnini aniqlash uchun ishlatildi.

Statistik tahlil usuli – zamonaviy yozuv texnologiyalarining ta’sirini baholash uchun statistik ma’lumotlar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1. Yozuvning ijtimoiy va madaniy ahamiyati

Yozuv insonlarning o‘zaro muloqot qilishini osonlashtiradi va axborotni uzoq vaqt saqlash imkonini beradi. Madaniy merosni saqlash va avlodlarga yetkazishda yozuvning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, kitob va qo‘lyozmalar insoniyatning tarixiy rivojlanishida muhim vosita bo‘lgan.

2. Yozuv va ta’lim

Zamonaviy ta’lim tizimi yozuvga asoslangan bo‘lib, maktab, universitet va ilmiy tadqiqotlar yozuv orqali amalga oshiriladi[2]. Elektron o‘quv materiallari va onlayn kurslar esa yozuvning yangi shakllari hisoblanadi. Quyidagi jadvalda an’anaviy va zamonaviy ta’limdagi yozuv shakllari solishtirilgan:

Yozuv shakli	An’anaviy ta’limda	Zamonaviy ta’limda
Darslik va qo‘llanmalar	Qog‘oz shaklida	Elektron kitoblar
Ma’ruza matnlari	Daftar va yozuvlar	PowerPoint taqdimotlari
Test va imtihonlar	Qog‘oz shaklida	Onlayn test tizimlari

3. Yozuv va texnologik taraqqiyot

Zamonaviy jamiyatda yozuvning elektron shakllari tobora rivojlanib bormoqda. Internet, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli nashrlar yozuvning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Quyidagi jadvalda yozuvning zamonaviy shakllari va ularning jamiyatga ta’siri keltirilgan:

[2] Shermuhamedov I. Axborot texnologiyalari va ta’lim. - T.: Fan, 2020. - 160-b.

Yozuv shakli	Jamiyatga ta’siri
Bloglar	Fikr almashish va ta’lim olish imkoniyati
Ijtimoiy tarmoqlar	Tezkor axborot tarqatish
Elektron kitoblar	Qog‘ozdan foydalanishni kamaytirish

XULOSA

Yozuv insoniyat madaniyati va ilm-fan taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, uning jamiyatdagi o‘rni nihoyatda muhimdir. Tarixan yozuv orqali bilim va madaniyat avloddan-avlodga yetkazib kelingan. Hozirgi kunda esa texnologiyalar rivoji yozuvning yangi shakllarini yaratib, uning jamiyatga ta’sir doirasini kengaytirmoqda.

Yozuv ta’lim tizimida asosiy o‘rin tutadi. An’anaviy qog‘ozdagi darsliklardan boshlab, zamonaviy elektron o‘quv materiallarigacha bo‘lgan yo‘l katta o‘zgarishlarni namoyon qiladi. Bundan tashqari, yozuv ijtimoiy tarmoqlar va internet bloglari orqali tezkor muloqot vositasiga aylangan. Shu sababli, zamonaviy jamiyatda yozuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Kelajakda yozuvning yangi shakllari, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan yozuv texnologiyalari yanada rivojlanib, uning ta’sir doirasini kengaytirishi kutilmoqda. Shu boisdan, yozuvni o‘rganish va uni kelajak avlodga yetkazish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidov U. Yozuv va jamiyat taraqqiyoti. - T.: O‘zbekiston, 2010. - 210-b.
2. Shermuhamedov I. Axborot texnologiyalari va ta’lim. - T.: Fan, 2020. - 160-b.
3. Ziyodov H. Madaniyat va kommunikatsiya. - T.: Universitet, 2019. - 198-b.
4. Oxford University Press. "Writing and Society." - 2017.
5. Cambridge Studies in Literacy. "The Impact of Writing in the Digital Age." - 2019. ...

Sug‘urta Kompaniyalarida Xususiy Kapital Hisobini Takomillashtirish

Najimova N.
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot sug‘urta kompaniyalarida xususiy kapital buxgalteriya hisobining amaldagi amaliyotidagi asosiy kamchiliklarni aniqlash va aniqlik, shaffoflik hamda normativ talablar bilan muvofiqligini oshiruvchi takomillashtirilgan tizimlarni taklif etishga qaratilgan. Shuningdek, bu tizimlar strategik investitsiya qarorlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: xususiy kapital, sug‘urta hisobi, adolatli qiymat o‘lchovi, risk boshqaruvi, IFRS 17, normativ muvofiqlik.

Kirish

Sug‘urta sohasi so‘nggi yillarda muqobil investitsiyalarga katta e’tibor qaratmoqda, bunda xususiy kapital investitsiyalari sug‘urta kompaniyalari portfellari tarkibida tobora muhim o‘rin egallamoqda. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, 2010-yilda sug‘urta kompaniyalaridagi xususiy kapital ulushi 3 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 12 foizdan oshgan. Bu holat uzoq muddatli past foiz stavkalari sharoitida yuqori daromad manbalarini izlash va investitsiya risklarini diversifikatsiya qilish zaruratidan kelib chiqadi.

Bu jarayon buxgalteriya hisobi mutaxassislari va tartibga soluvchi organlar uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. An’anaviy buxgalteriya tizimlari asosan likvid qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, xususiy kapital kabi murakkab, likvidligi past va uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga olishda cheklovlarga ega. Shu sababli, mavjud buxgalteriya me’yoriy asoslari bu investitsiyalarni to‘liq aks ettirishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Xususiy kapital investitsiyalarining buxgalteriya hisobi ko‘p hollarda bir-biriga zid bo‘lgan bir nechta me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) doirasida IFRS 9 (Moliyaviy asboblar) va IFRS 17 (Sug‘urta shartnomalari) umumiy ko‘rsatmalar beradi, biroq ularning amaliy qo‘llanilishi ko‘p hollarda subyektiv baholashni talab qiladi va turli tashkilotlarda bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlarga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili

Xususiy kapitalni sug‘urta investitsiya strategiyalariga integratsiya qilish masalasi so‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Anderson va Martinez (2022) o‘z tadqiqotida xususiy kapital investitsiyalarining sug‘urta kompaniyalari uchun strategik afzalliklarini, ayniqsa daromadlilik va portfel diversifikatsiyasi nuqtayi nazaridan, tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida 2015–2020-yillar oralig‘ida xususiy kapital ulushi yuqori bo‘lgan kompaniyalar

riskka nisbatan tuzatilgan daromadlilik bo‘yicha yaxshiroq natijalar ko‘rsatgan.
Thompson va boshqalar (2023) xususiy kapital investitsiyalarining ko‘payishiga olib kelgan tartibga solish omillarini tahlil qilib, Evropadagi Solvency II tizimi va unga o‘xshash xalqaro me’yoriy tuzilmalar kapital samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan xususiy kapitalni jozibador qilganini ko‘rsatgan. Biroq ular riskni baholash va kapitalni taqsimlash metodologiyalaridagi muammolarni ham qayd etgan.
Chen va Rodriguez (2021) IFRS 9 standartini xususiy kapital investitsiyalariga qo‘llashdagi murakkabliklarni ko‘rsatgan. Bu standartda kutilayotgan kredit yo‘qotishlari modelini talab etuvchi yondashuv xususiy kapitalda amalda murakkab bo‘lib, odatiy risk modellari bu yerda mos emas. Natijada bir xil turdagi investitsiyalar turli kompaniyalarda turlicha hisobga olinadi.
Davies va Kim (2023) tomonidan olib borilgan dastlabki tadqiqotda IFRS 17 standarti sug‘urta shartnomalari majburiyatlariga e’tibor qaratgani sababli, xususiy kapital aktivlarini majburiyatlar bilan moslashtirishda qo‘shimcha murakkabliklar yuzaga kelishi aniqlangan.
Xususiy kapitalni adolatli qiymatda baholash masalasi eng muhim va bahsli yo‘nalishlardan biridir. Williams va Johnson (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda yirik sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida baholash uslublari va natijalari orasida katta tafovutlar mavjudligi qayd etilgan.

Metodologiya

Tadqiqotda aralash usul qo‘llanildi – miqdoriy tahlil bilan bir qatorda sifatli baholash amalga oshirildi. Asosiy ma’lumotlar 25 ta yirik sug‘urta kompaniyalarida faoliyat yurituvchi 45 nafar yuqori lavozimli moliyaviy mutaxassislar bilan o‘tkazilgan intervyular asosida yig‘ildi. Ular orasida bosh moliyaviy direktorlar, bosh investitsiya direktorlar va buxgalteriya bo‘limi rahbarlari bor edi. Qo‘shimcha ma’lumot sifatida 2019–2024-yillar oralig‘idagi 100 ta sug‘urta kompaniyalarining ochiq moliyaviy hisobotlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Tahlil natijalariga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalarida xususiy kapitalni hisobga olishda katta tafovutlar mavjud. 68% kompaniyalar NAV (sof aktiv qiymati) ma’lumotlariga tayanadi, faqat 32% mustaqil baholovchi orqali qo‘shimcha baholash o‘tkazadi, va atigi 15% kompaniyalar kross-valitatsiya uchun bir nechta baholash metodologiyalaridan foydalanadi.
Baholash chastotasi bo‘yicha ham bir xillik yo‘q: 12% kompaniyalar oylik, 23% yillik, 65% esa choraklik baholashni amalga oshiradi. Bu esa moliyaviy hisobotlar va risk boshqaruvida noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Xulosa

Sug‘urta kompaniyalari portfellarida xususiy kapital investitsiyalarining ahamiyati oshib borayotgani ularning buxgalteriya tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Amaldagi tizimlarda baholashning aniqligi, risklarni to‘liq hisobga olish va manfaatdor tomonlar bilan shaffof aloqa yetarli emas. Taklif etilgan takomillashtirilgan tizim baholashning

integratsiyalashgan usullarini, ilg‘or risk o‘lchovlarini va kompleks hisobot tuzilmasini o‘z ichiga oladi.

Bunday tizimni joriy etish uchun tashkilotlarda texnologik va tashkiliy o‘zgarishlar zarur bo‘ladi, biroq u natijada aniqlik, muvofiqlik va manfaatdor tomonlar uchun qiymatni sezilarli oshiradi. Kelgusida bu yo‘nalishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ESG omillarini hisobga olish va xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Simulation and Modeling of Nonlinear Electromagnetic Effects in Elastic Thin Plates with Complex Shapes

Bahramov Muhammadali Eraliyevich
Asistent,Alfraganus University
m.bahramov@afu.uz

Abstraction - The paper presents a mathematical model derived from the Hamilton–Ostrogradsky variational principle. By applying the Kirchhoff–Love hypothesis, the original three-dimensional formulation is reduced to a two-dimensional model. A computational algorithm was developed to solve the governing equations, supported by custom software implementation. Numerical experiments were carried out, and the obtained results were analyzed to validate the proposed approach.
Keywords: Mathematical modeling, Hamilton-Ostrogradsky principle, Maxwell's electromagnetic tensor, magneto elastic thin plate of complex configuration.

Introduction

The rapid advancement and widespread use of thin plates and shells with complex geometries, which exhibit nonlinear behavior, emphasize the importance of investigating their deformation under electromagnetic influences. A key research focus is the development of mathematical models, next-generation computational algorithms, and specialized software based on the R-function method to address boundary value problems in magnetoelastic plates and shells of intricate shapes.

Extensive studies on electromagnetic field interaction and conductivity have been carried out by numerous researchers worldwide, including S.A. Ambartsumyan, G.E. Bagdasaryan, M.V. Belubekyan, V.L. Rvachev, L.V. Kurpa, L.V. Molchenko, I.T. Selezov, and M.R. Korotkina. Notable contributions have also been made by academicians V.Q. Qobulov and X.A. Rakhmatulin, as well as professors Sh.A. Nazirov, T. Yuldashev, R. Indiaminov, and F.M. Nuraliev.

Development of a mathematical model of the task.

A mathematical model of the process of nonlinear deformation of a magnetoelastic plate is built on the principle of Hamilton-Ostrogradsky variation. It uses the Kirchhoff-Law hypothesis, the Cauchy relationship, the Lorentz force of Hooke's law, and Maxwell's view of the electromagnetic tensor [1-2]. According to the Kirchhoff-Law hypothesis, there is no deformation of a thin plate along the *Z* coordinate axis, and the displacement projections of the middle plane of the plate are expressed as follows:

$$u_1 = u(x,y,t) - z\frac{\partial w}{\partial x},\ u_2 = v(x,y,t) - z\frac{\partial w}{\partial y},\ u_3 = w(x,y,t), \qquad (2)$$

where: $u,v,w-$the displacement of the middle plane of the thin plate along the coordinate *(x, y, z)* axes.

Now, the work variations performed by kinetic energy, potential energy, and external forces are reduced to the Hamilton-Ostrogradsky variation principle, resulting in a special derivative equilibrium equation with initial and limit conditions.

$$\begin{cases} -\rho h\dfrac{\partial^2 u}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}+N_x+R_x+q_x+T_{zx}=0 \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 v}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}+N_y+R_y+q_y+T_{zy}=0 \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 w}{\partial t^2}+\dfrac{\partial^2 M_{xx}}{\partial x^2}+2\dfrac{\partial^2 M_{xy}}{\partial x\partial y}+\dfrac{\partial^2 M_{yy}}{\partial y^2}+N_{xx}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x^2}+N_{yy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial y^2}+N_{xy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x\partial y}+ \\ +\left(\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}\right)\dfrac{\partial w}{\partial x}+\left(\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}\right)\dfrac{\partial w}{\partial y}+N_z+R_z+q_z+T_{zz}=0, \end{cases} \quad (3)$$

Initial and boundary conditions:

$$\begin{cases} \rho h\dfrac{\partial u}{\partial t}\delta u\Big|_t=0,\ \rho h\dfrac{\partial v}{\partial t}\delta v\Big|_t=0,\ \rho h\dfrac{\partial w}{\partial t}\delta w\Big|_t=0,\left(N_{xx}+N_{Px}+N_{Tx}\right)\delta u\Big|_x=0,\ \left(N_{xy}+N_{Py}+N_{Txy}\right)\delta v\Big|_x=0, \\ M_{xx}\delta\dfrac{\partial w}{\partial x}\Big|_x=0,\ M_{xy}\delta\dfrac{\partial w}{\partial y}\Big|_x=0,\ \left(N_{yy}+N_{Fy}+N_{Tyy}\right)\delta v\Big|_y=0,\ \left(N_{xy}+N_{Fx}+N_{Tyx}\right)\delta u\Big|_y=0, \\ M_{yy}\delta\dfrac{\partial w}{\partial y}\Big|_y=0,\ M_{xy}\delta\dfrac{\partial w}{\partial x}\Big|_y=0,\left[N_{xx}\dfrac{\partial w}{\partial x}+N_{xy}\dfrac{\partial w}{\partial y}-\dfrac{\partial M_{xx}}{\partial x}-\dfrac{\partial M_{xy}}{\partial y}+N_{Pz}+N_{Txz}\right]\delta w\Big|_x=0, \\ \left[N_{yy}\dfrac{\partial w}{\partial y}+N_{xy}\dfrac{\partial w}{\partial x}-\dfrac{\partial M_{yy}}{\partial y}-\dfrac{\partial M_{xy}}{\partial x}+N_{Fz}+N_{Tyz}\right]\delta w\Big|_y=0. \end{cases}$$

Computational algorithm for numerical solution of the task.

Algorithm for calculating the geometric nonlinear deformation processes of electromagnetic thin plates [4]:

1. Construction of solution structures corresponding to limit conditions
2. Construction of discrete equations with respect to spatial variables
3. Solving discrete equations and finding unknown components of solution structures.
4. Determining the normal displacements of the middle surface of the plate

To calculate the unknowns in the equation of motion using the given algorithm, the unknown displacement coefficients are determined using a combination of the Bubnov-Galerkin method of variation, the Gaussian square method, the Gaussian method Nyumark and the iteration method.

The limit equation of a magnetoelastic plate of complex configuration is constructed by the R-function [3].



Figure 1. Magnetic plate with complex configuration.

$$f_1 = \frac{(a^2 - x^2)}{2a} \geq 0,\ f_2 = \frac{(b^2 - y^2)}{2b} \geq 0,\ f_3 = \frac{(x^2 + y^2 - r^2)}{2r} \geq 0,\ \omega = (f_1 \wedge f_2) \wedge f_3.$$

where $f_1, f_2, f_3 -$ the functions representing the field. $\omega -$ a normalized function representing the field.

The iteration method is used to find the displacements $u_i(x,y,t), v_i(x,y,t), w_i(x,y,t)$ of the middle surface of the plate Y from the system of equations formed, and a numerical solution is obtained [5].



Figure 2. Bending of a magnetoelastic thin plate with an asymmetrical complex configuration.

Conclusion

The study addressed the geometric nonlinear deformation of thin plates with complex configurations under electromagnetic field influences. A novel mathematical model was formulated, and corresponding computational algorithms, together with a software tool, were developed to enable numerical simulations. Symmetric and asymmetric configurations were examined, with results presented in both tabular and graphical forms for comprehensive analysis. The findings provide a methodological basis for further investigations and the solution of related applied problems.

References

1. V.K. Kabulov Algorithmization in the theory of elasticity and deforma- tion theory of plasticity. Tashkent: FAN, 1966.392 p
2. Ambartsumyan S.A., Bagdasaryan G.E., Belubekyan M.V. Magnetoelasticity of Thin Shells and Plates. Moscow: Nauka, 1977, 272p.
3. Kurpa L.V. R-function method for solving linear problems of bending and vibrations of shallow shells. Kharkiv NTU KhPI 2009. 391 p.
4. F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, ”A computational algorithm for calculating the effect of the electromagnetic fields to thin complex configured plates,” 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2020, pp. 1-4, DOI: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351447.
6. F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, "Solving the problem of geometrical nonlinear deformation of electro-magnetic thin plate with complex configuration and analysis of results," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 01-05, DOI: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670282.

РАЗРАБОТКА И РЕАЛИЗАЦИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ

Бахрамов Мухаммадали Ералиевич
асистент, Alfraganus University
m.bahramov@afu.uz

Аннотация

В данной работе рассматривается разработка интеллектуальной нечеткой системы управления теплоэнергетическими объектами. Современные энергетические системы сталкиваются с задачами повышения энергоэффективности, снижения негативного воздействия на окружающую среду и функционирования в условиях неопределенности данных. В этих условиях методы нечеткой логики представляют собой эффективный инструмент для построения адаптивных систем управления.

Представлены основные принципы применения нечеткой логики в управлении теплоэнергетическими установками, включая моделирование объекта, выбор ключевых параметров, формирование нечетких правил и базы знаний.

Особое внимание уделено интеграции нечеткой логики с интеллектуальными технологиями — машинным обучением и искусственными нейронными сетями. Такой подход обеспечивает адаптацию системы к изменяющимся условиям и позволяет принимать решения в реальном времени на основе анализа больших данных.

Практическая апробация на реальном теплоэнергетическом объекте показала повышение стабильности, надежности и энергоэффективности управления, что подтверждает перспективность применения гибридных интеллектуальных систем в энергетике.

Ключевые слова: *parametric identification, sine wave generator, optimization, hybrid network, controller, intelligent systems.*

Введение

Современные теплоэнергетические объекты — котельные установки, теплоэлектростанции и системы централизованного отопления — требуют высокой надежности, адаптивности и энергоэффективности. Для решения этих задач все большее значение приобретают интеллектуальные технологии, основанные на нечеткой логике и машинном обучении.

Нечеткие системы управления обеспечивают устойчивое функционирование при наличии неопределенностей, шумов и неполных данных. Они позволяют использовать

экспертные знания в виде правил «если–то», что упрощает интерпретацию и повышает качество принятия решений.

Процесс синтеза нечеткой системы включает моделирование объекта, выбор входных и выходных переменных (например, температура, давление, расход топлива), формирование базы знаний и разработку управляющих правил с использованием методов Мамдани и Сугено.

Интеграция нечеткой логики с искусственными нейронными сетями и алгоритмами машинного обучения позволяет системе адаптироваться к изменениям внешних условий и работать в режиме реального времени. Практическая реализация на примере барабанного котла ТЭС показала, что такая гибридная система повышает стабильность, снижает энергетические потери и обеспечивает оптимальный температурный режим даже при изменении нагрузок.

Таким образом, применение адаптивных интеллектуальных систем управления является перспективным направлением для повышения эффективности и устойчивости теплоэнергетических процессов.

Метод решения

Структура гибридной адаптивной системы регулирования представлена на рис. 1. Принята обозначения: K – коэффициент передачи объекта, T – постоянная времени объекта, τ – запаздывание, n – порядок объекта, y – выходной параметр.



Рис. 1. Структура адаптивной нечеткой АСР

Структура передаточной функции объекта состоит из нескольких инерционных звеньев с запаздыванием вида: $W(s)=\frac{K}{(T(s)+1)^n}e^{\tau(s)}$ $W(s)=\frac{K}{(T(s)+1)^n}e^{\tau(s)}$ со значениями, изменяющимися на протяжении времени в определенном диапазоне в зависимости от вида нагрузки или режима работы парового котла. Идентификатор определяет значения параметров объекта и его порядок. В дальнейшем данные значения

используются оптимизатором в виде нейронечеткой сети, действующей по алгоритму Сугено [2-3] для поиска оптимальных значений настроек регулятора управления (K_p, $T_и$). Обучение гибридной сети должно производится с учетом мнения экспертов-наладчиков АСУ ТП.

Разработка нечеткой системы

Нейронечеткая сеть (ННС) или гибридная сеть (ГС) является многослойной нейронной сетью без обратных связей [3]. В такой сети входы (K, T, τ)представлены в виде лингвистических переменных (малое значение, среднее, большое). В программе Matlab (ANFIS) был проведен процесс построения адаптивной системы нейронечеткого вывода (рис. 2) для аппроксимации зависимости представляющий причинно-следственную связь между K, T, τ и K_p, $T_и$. Исходя из рекомендации [5, 6] и компьютерных экспериментов в среде Matlab (Fuzzy Logic Toolbox), был выбран и тип функций принадлежности (трапецеидальный и треугольный) [4], описывающий входные значения. В процессе обучения было использовано количество циклов, равное 40, и выбран метод обучения – обратного распространения ошибки [7].

Изменение параметров функционального преобразователя позволяет корректировать как динамические, так и статические характеристики системы управления. Такая структура регулятора в сочетании с оптимальным выбором параметров нечеткого регулятора, позволяет при минимуме настроек реализовывать адаптивные системы управления неопределенными и нестационарными механизмами вне зависимости от их структуры.

Для придания адаптивных свойств нечеткому регулятору, с целью обеспечения устойчивости динамической системы к возмущениям (изменениям параметров объекта управления и внешних воздействий), осуществлена оценка скорости изменения ошибки регулирования $\Delta\varepsilon$.

Для обучения нечеткого регулятора с функциональным преобразователем предлагается алгоритм, основанный на теории интерактивной адаптации.

Сущность данного алгоритма заключается в том, что ошибка, которая требуется для обучения, вычисляется неявным образом.

При использовании алгоритма интерактивной адаптации система разбивается на N-подсистем, каждый из которых имеет интегрируемый выходной сигнал y_n и интегрируемый входной сигнал x_n, отношение между ними представляется в виде функциональной зависимости

$$F_n : X_n \to Y_n, n = 1,2,\ldots, N$$

Отношение i – го элемента системы имеет вид:

$$y_i(t) = F_i[x_n(t)], i = 1,2,\ldots, N$$

Пусть взаимодействие между элементами и внешним сигналом $u_i(t)$ линейно и описывается уравнением:

$$x_i(t) = u_i(t) + \sum_{K \in J_i} \alpha_K \bullet y_i(t), i \in N, \quad (1)$$

где $J_i = \{K : y_K = i\}$ – множества связных входов i – го элемента; α_K - веса связей, то отношение входа и выхода i-го элемента описывается следующим уравнением:

$$y_i(t) = F_i[u_i(t) + \sum_{K \in J_i} \alpha_K \cdot y_i(t)], i \in N$$

Целью алгоритма обучения является настройка весов связей α_c таким образом, что бы минимизировать функцию потерь $E(y_1,...,y_n, u_1,...,u_n)$, которая представляет собой функцию ошибки системы.

Обучение нейронных сетей заключается в минимизации ошибки системы управления. Это осуществляется за счет настройки весов связей α_K нейронной сети.

Если система описывается уравнением (1), то веса связей α_K настраивается по следующему правилу:

$$\dot{\alpha}_K = F'_{вхK}[x_{вхK}] \cdot \left(\frac{y_{выхK}}{y_{вхK}}\right) \sum_{S \in Q_{вхП}} \alpha_S \cdot \dot{\alpha}_S - \gamma \cdot F'_{вхK}[x_{вхK}] \cdot y_{выхK} \cdot \frac{\delta E}{\delta y_{вхK}}, \quad (2)$$

где $\gamma > 0$ - коэффициент, определяющий скорость обучения; $F'_{вхK}[x_{вхK}]$ - производная Фреше; E – функция потерь (ошибка) $k \in K$.

При условии, что уравнение (2) имеет единственное решение для α_K, где функция потерь $E(y_1,..., y_k, u_1,..., u_n)$, будет монотонно убывать во времени и будет удовлетворяться следующее равенство:

$$\dot{\alpha}_K = -\gamma \frac{\delta E}{\delta \alpha_K}, k \in K$$

При таком подходе нейросеть может быть разложена на составные элементы, представляемые как элементарная нейросеть.

Математический нейросетевой алгоритм обучения представим в виде:

$$Pn = \sum_{s \in Dn} \omega_s \cdot r_{pres}$$

$$r_n = \sigma(pn),$$

где: n – индекс нейрона; s – индекса синапса; D_n – набор входных синапсов нейрона n –; $pres$ и $post$ – пресинаптический и постсинаптический нейрон, соответствующий синапсу s –; ω_s - вес синапса s –; P_n – мембранный потенциал нейрона n; r_n – частота возбуждения нейрона n; σ - функция активации типа сигмоид, которая представляется виде:

$$\sigma(x)=\frac{1}{1+e^{-x}}$$

При этом вес синапсов определяется по формуле:

$$\dot{\omega}_s = r_{pres}\left(\varphi_{posts}\,\sigma(-P_{posts})+\gamma\cdot f_{posts}\right),$$

где $\varphi_n = \sum_{S\in A_n}\omega_s\cdot\dot{\omega}_s$,

где γ – коэффициент непосредственной обратной связи для всех нейронов, φ_n – сигнал непосредственной обратной ошибки.

Следует отметить, что данный алгоритм обучения эквивалентен алгоритму обратного распространения ошибки, но для передачи ошибки от выхода сети к ее входу не требуется применения нейросети с обратным распространением. Рассмотрим возможности данного алгоритма для конструкции адаптивного нейроконтроллера. Пусть нейроконтроллер имеет два входа e_1 – сигнал ошибки, e_2 – задержанный сигнал e_1. Ведение сигнала e_2 заключается в том, что нейроконтроллер есть устройство без памяти. Выходной сигнал объекта управления зависит как от текущего сигнала управления, так и от предыдущих сигналов управления.

При таком представлении нейросети математические соотношения контроллера имеют следующий вид:

$$r_1 = x_1, \quad r_2 = x_2;$$

$$P_3 = \omega_1\cdot r_1 + \omega_2 r_2; \quad P_4 = \omega_3\cdot r_1 + \omega_4 r_2$$

$$r_3 = \delta(P_3), \quad r_4 = \delta(P_3)$$

$$P_5 = \omega_5\cdot r_3 + \omega_6 r_4$$

Тогда функция потерь (сигнал ошибки) пишется в следующем виде:

$$E = x_1^2 = (r-y)^2$$

Тогда $\frac{dE}{\delta y} = -2r+2y = -2(r-y) = -2x_1$

В этом случае настройка весов нейросети осуществляется следующим образом:

$$\dot{\omega}_1 = x_1\cdot\varphi_3\delta(-p_1)$$

$$\dot{\omega}_2 = x_2\cdot\varphi_3\delta(-p_1)$$

$$\dot{\omega}_3 = x_1\cdot\varphi_4\delta(-p_2)$$

$$\dot{\omega}_4 = x_2\cdot\varphi_4\delta(-p_2),$$

где $\varphi_3 = \omega_5\dot{\omega}_5$, $\varphi_4 = \omega_6\dot{\omega}_6$

Функция φ_n определяется из выходных синапсов нейрона n следующим образом:

$$\varphi_n = \frac{1}{2}\frac{d}{dt}\cdot\sum_{S\in An}\omega_S^2 = \sum_{S\in An}\omega_S\cdot\dot{\omega}_S,$$

где A_n^- набор выходных сигналов нейрона n. Для вычисления $\dot{\omega}_5$ и $\dot{\omega}_6$ используя производную Фреше, получим:

$$\dot{\omega}_5 = -\gamma\cdot F'_{posle}[u]\cdot r_3\cdot(-2x_1),$$

где γ - скорость обучения; $F'_{posle}[u]$ - производная Фреше; u – внешний сигнал.

При условии, что если производная Фреше будет аппроксимирована константой, то включая ее в скорость обучения γ, получим:

$$\dot{\omega}_5 = \gamma \quad r_3 \quad x_1$$

$$\dot{\omega}_6 = \gamma \quad r_4 \quad x_2$$

Для уменьшения времени регулирования и перерегулирования системы необходимо изменить начальные веса системы, приняв их значения равными установившимся.

В алгоритме нечеткого логического регулятора [1] используются следующие четыре переменные, описывающие управляемый процесс: P_E - отклонение давления в паровом котле, определенное как разность между текущим значением и выбранным заранее значением, соответствующим норме; S_E - скорость изменения P_E; C_{PE} - изменение отклонения давления, определяемое как разность между текущим давлением P_E и значением давления, полученным в предыдущем измерении; C_{EE} - изменение скорости отклонения C_{PE}.

Регулирование осуществляется по двум алгоритмам: по одному корректируется степень подогрева пара, т.е. регулируется давление (H_C - изменение подогрева), по другому изменяется положение дросселя (T_C - изменение положение дросселя). В каждом алгоритме учитываются все приведенные выше переменные.

Заключение

Результаты экспериментов показали, что предложенная адаптивная нечеткая система автоматического регулирования температуры перегретого пара превосходит традиционные методы адаптации по частотным характеристикам и автоколебаниям. Она обеспечивает более быстрое определение оптимальных настроек регулятора, снижает время переходного процесса и амплитуду отклонений.

Система демонстрирует устойчивую работу во всех режимах барабанного котла и может быть эффективно применена в различных автоматизированных системах управления технологическими процессами теплоэнергетики.

Литература

1. Siddikov Isamidin Xakimovich, Bakhrieva Xurshida Askarxodjaevna Designs Neuro-Fuzzy Models in Control Problems of a Steam Heater // Universal Journal of Electrical and Electronic Engineering 6(5), 2019.-P. 359-365. (№29; Scopus; IF:0.283).
2. Siddikov Isamiddin Xakimovich, Umurzakova Dilnoza Maxamadjonovna and Bakhrieva Hurshida Askarxodjaevna Adaptive system offuzzy-logical regulation by temperature mode of a drum boiler // IIUM Engineering Journal, Vol.21, №.l, 2020.-P. 182-192. (№6; Scopus; IF:0.281).
3. И.Х. Сидиков, Х.А.Бахриева Нечетко-логические управления технологическими процессами в теплоэнергетических объектах// Монография – ТГТУ, «Fan Ziyosi»нашриёти, 89 б. Тошкент 2022 й. ISBN 978-9943-7478-2-1
4. Плетнев Г. П. Автоматизированное управление объектами тепловых электростанций / Г. П. Плетнев. – М.: Автоматика и информационно-измерительная техника Наукові праці ВНТУ, 2012, № 1 9 Энергоиздат, 1986. – 368 с.
5. Клюев А. С. Наладка систем автоматического регулирования котлоагрегатов / А. С. Клюев, А. Г. Товарнов. – М.: Энергия, 1970 – 280 с.
6. Леоненков А. Ю. Нечеткое моделирование в среде Matlab и fuzzyTech / А. Ю. Леоненков. – С. – Птб.: БХВ, 2003. – 720 с.
7. Круглов В. В. Искусственные нейронные сети. Теория и практика / В. В. Круглов, Н. Н. Борисов. – М.: Горячая линия – Телеком, 2001. – 382 с.

OILADAGI AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY – FALSAFIY JIHATLARI

Mamarayemova Guljahon Farhodovna
“Oila va gender” ilmiy – tadqiqot instituti doktaranti

Abstract: This article studies intergenerational relations in the family from a socio-philosophical perspective. It considers historical experience, the evolution of social institutions, the transformation of people, and the specific characteristics of generations in the modern world.

Keywords: family, intergenerational relations, social philosophy, ontology, epistemology, historicism, axiology, cultural heritage.

Аннотация: В статье рассматриваются межпоколенные отношения в семье с социально-философской точки зрения. В нем рассматривается исторический опыт, эволюция социальных институтов, трансформация людей и уникальные характеристики поколений в современном мире.

Ключевые слова: семья, межпоколенческие отношения, социальная философия, онтология, эпистемология, историзм, аксиология, культурное наследие.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi avlodlararo munosabatlar ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Unda tarixiy tajriba, jtimoiy institutlarning evolyutsiyasi, insonlarning transformatsiyasi hamda zamonaviy dunyoda avlodlarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: oila, avlodlararo munosabatlar, ijtimoiy falsafa, ontologiya, gnoseologiya, tarixiylik, akseologiya, madaniy meros.

Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutidir. Har bir insonning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy, estetik va madaniy qarashlari eng avvalo oilada vujudga keladi. Shu bois oiladagi avlodlararo munosabatlarni tahlil qilish orqali butun jamiyatdagi axloqiy-ijtimoiy muhitni anglash mumkin. Falsafa esa bu munosabatlarni tahlil qilishda chuqur, tizimli va universal yondashuvni taklif qiladi. Avlodlararo munosabatlar – bu o‘zaro madaniy, axloqiy, hissiy, tajriba va qadriyatlar almashinuvi jarayonidir. Ota-onalar va farzandlar, bobo-buvi va nabiralar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat oilaviy barqarorlik, balki jamiyatning ma’naviy salomatligining ham ko‘rsatkichi hisoblanadi. Falsafa bu munosabatlarni zamon va makon doirasida o‘zgaruvchan, dinamik tizim sifatida ko‘radi. Immanuil Kant fikricha, insonni axloqiylikka o‘rgatish mumkin bo‘lgan eng samarali joy – bu oiladir. Hegel esa oilani “axloq va ruhning ilk shakli” deb ta’riflaydi, bu esa oilaning jamiyatdagi o‘rnini falsafiy jihatdan chuqurroq o‘rganishni ko‘rsatadi. Har bir jamiyat o‘z madaniy qadriyatlarini avloddan avlodga o‘tkazish orqali o‘zligining davomiyligini ta’minlaydi. O‘zbek jamiyatida “Kattalarga hurmat”, “kichikka izzat ko‘rsat” kabi qadriyatlar

avlodlararo muloqotning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq falsafasida oila – bu nafaqat qon-qarindoshlik, balki ma’naviy jipslik timsolidir. Forobiy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlar oilaviy tarbiyani inson kamolotining asosi deb hisoblagan. Ayniqsa, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida bu jihat yaqqol ko‘rinadi. Forobiy qarashlariga ko‘ra, har bir inson axloqiy fazilatlarni oilada shakllantiradi va ushbu fazilatlar keyinchalik fozil jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun oila iqtisodiy, biologic birlik bo‘lishi bilan birga axloqiy – tarbiyaviy maktab hisoblanadi. Bugungi global dunyoda yoshlar g‘arbona hayot tarzi, texnologiyalar va yangicha qadriyatlar ta’siriga tushmoqda. Bu esa oila ichidagi an’anaviy munosabatlarga to‘qnash kelib, ziddiyatlar kelib chiqishiga olib kelyapti, ya’ni zamonaviy yoshlarning g‘arbona ta’sir ostiga tushib qolishi, ular bilan oilaviy qadryatlari o‘rtasida fikrlar to‘qnashuvini yuzaga keltiradi, bu ko‘plab oilalarda nizo va kelishmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Keksalar internet va smartfonlardan foydalanishda qiynalyotgan bo‘lsa, yoshlar asosiy muloqot vositasi sifatida raqamli platformalarni tanlaydi.

O‘zbek xalqining mentaliteti – oilaning muqaddasligini, bobo-buvilar hurmatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bayramlarda avlodlar yig‘ilishi, katta yoshdagilarning duosini olish - bu qadriyatlar oiladagi rishtalarni mustahkamlaydi. Shuningdek, Islom dini avlodlararo hurmat va mehr-oqibatli bo‘lishni ta’kidlaydi.

Avlodlararo munosabatlar har qanday jamiyatning ichki barqarorligini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy-madaniy mexanizmlardan biridir. Ular insonning shaxs sifatida shakllanishida, qadriyatlar tizimini egallashida, tajriba almashinuvida va madaniy merosni davom ettirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Falsafa bu munosabatlarni umumiy nazariy mezonlar asosida ko‘rib chiqadi, ular inson tabiatining mohiyati, qadriyatlar uzluksizligi, axloqiy pozitsiyalar va tarixiy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq.

Falsafaning ontologik kategoriyalari mavjudlik va vaqt tushunchasi orqali avlodlararo bog‘liqlikni anglashga ko‘maklashadi. M. Haydeggerning “Dasein” (insoniy mavjudlik) tushunchasi bu yerda muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, inson mavjudligi tarixiy va vaqtli bo‘lib, u o‘zidan oldingi va keyingi avlodlar bilan “mavjudlik doirasi”da bog‘lanadi. Aksiologiyada qadriyatlar shaxsiy va jamiyat uchun eng muhim me’yorlardir. Avlodlararo munosabat qadriyatlarning uzluksizligini ta’minlovchi mexanizmdir. Konfutsiy falsafasida bu holat “x孝” (xiao) tushunchasi orqali izohlanadi, ya’ni “ota-onaga sadoqat” – jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. Konfutsiyning fikriga ko‘ra, keksa avlod tajribasi va qadriyatlari yosh avlodning axloqiy komillikka yetishida tayanchdir. Nietzsche esa bu holatga qarama-qarshi nuqtai nazardan qaraydi. U “eski qadriyatlar inqirozi” haqida yozadi va yangi avlod qadimiy me’yorlarni rad etib, o‘z yo‘lini topishi kerak, deya ta’kidlaydi. Shunday bo‘lsa-da, bu yondashuv ijtimoiy ziddiyatlar manbai bo‘lishi mumkin.

Falsafada gnoseologiya - bu bilish nazariyasi. Avlodlararo munosabatlar esa bilim va tajribaning nasldan-naslga o‘tishini anglatadi. Ibn Sino o‘zining “Kitob ash-shifo” asarida

bilish jarayonining bosqichlarini tahlil qiladi va bu bilimlar jamiyat orqali, ayniqsa, oila doirasida uzatilishini ta’kidlaydi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yoshlar va keksalar o‘rtasidagi “bilish tafovutini” kuchaytirayotgan bo‘lsa-da, bu tafovut muloqot va o‘zaro o‘rganish orqali bartaraf etilishi mumkin. Etika, ya’ni axloq falsafasi, avlodlararo munosabatlarda eng muhim nazariy zamin hisoblanadi. I. Kantning - “insonni hech qachon vosita sifatida emas, maqsad sifatida ko‘r” – tamoyiliga asoslanib, keksa avlodga nisbatan hurmat, g‘amxo‘rlik va mas’uliyat yoshlar zimmasida axloqiy burch sifatida belgilanadi. Sharq tafakkurida, xususan, Baxouddin Naqshband tariqatida “yoshlar keksalarga xizmat qilishi kerak” degan ruhiy-axloqiy tamoyil mavjud bo‘lib, bu oila va jamiyatdagi uyg‘unlik garovidir.

Falsafiy nuqtai nazardan, tarixiylik insoniyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Avlodlararo munosabatlar orqali jamiyat o‘z tarixiy identitetini saqlab qoladi. A. Toynbeening sivilizatsiyalar nazariyasiga ko‘ra, har bir jamiyat avlodlar almashuvi orqali madaniy merosni yangi kontekstga olib o‘tadi. Agar bu uzviylik uzilsa, sivilizatsiya inqirozga yuz tutadi. Avlodlararo munosabatlar shunchaki ijtimoiy muomala emas, balki ularning falsafiy ildizlari chuqur va murakkab. Ontologiya orqali mavjudlik uzviyligi, aksiologiya orqali qadriyatlar almashuvi, gnoseologiya orqali bilim uzatish, etika orqali mas’uliyat va hurmat, tarixiylik orqali madaniy xotira barpo bo‘ladi. Har bir jamiyat bu elementlarni uyg‘unlashtirgan taqdirdagina barqaror rivojlanishga erishadi. Bugungi kunda zamonaviylik bilan an’anaviylikni uyg‘unlashtirish, texnologiyalar ta’sirida yuzaga kelayotgan avlodlararo tafovutlarni ijobiy yo‘nalishga burish, falsafiy yondashuvlar asosida tizimli qarashlarni talab etadi.

Avlodlararo munosabatlar milliy madaniyatni rivojlantirishda muhim tamoyil bo‘lib, u o‘zaro hurmat, bilim almashinuvi va madaniy merosni saqlash orqali amalga oshiriladi. Avlodlararo munosabatlar va ularning milliy madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni haqida yanada chuqurroq ko‘rib chiqamiz. Avlodlar o‘rtasida tajriba almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Katta avlodlar o‘z hayotiy tajribalari, muvaffaqiyatlari va xatolaridan saboq olish imkonini berishadi. Yosh avlodlar esa yangi g‘oyalar, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan katta avlodlarni tanishtiradilar. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, har bir avlod o‘zaro o‘rganadi va rivojlanadi. An’anaviy san’at va madaniyat avlodlararo munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi. Katta avlodlar o‘z madaniyatini, san’atini va urf-odatlarini yosh avlodlarga o‘rgatish orqali ularni saqlab qolishadi. Bu jarayonda folklor, musiqa, raqs va boshqa san’at turlari ham muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodlar esa bu an’analarni yangilab, o‘z ijodiy yondashuvlarini qo‘shib, yangi shakllarini yaratishlari mumkin. Avlodlararo munosabatlar milliy identitetni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Katta avlodlar o‘z tarixiy va madaniy meroslarini yosh avlodlarga yetkazish orqali ularning milliy ongini rivojlantiradilar. Bu jarayon, o‘z navbatida, milliy birlikni mustahkamlashga yordam beradi va avlodlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Zamonaviy texnologiyalar avlodlararo muloqotni

osonlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali yoshlar katta avlodlar bilan bog‘lanib, o‘z fikrlarini, g‘oyalarini va tajribalarini baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu, o‘z navbatida, avlodlar o‘rtasida muloqotni kuchaytiradi va madaniy almashinuvni rag‘batlantiradi. Yosh avlodlar ijtimoiy faollik ko‘rsatish orqali avlodlararo munosabatlarni rivojlantirishi muhim. Ular ijtimoiy muammolarni hal qilishda, jamiyat rivojida ishtirok etishda katta avlodlarga yordam berishlari mumkin. Bu jarayon ijtimoiy birlashuvni kuchaytiradi va avlodlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi. Avlodlararo munosabatlar madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Katta avlodlar o‘z madaniyatlarini, urf-odatlarini va tarixini yosh avlodlarga yetkazish orqali ularni saqlab qolishadi. Yosh avlodlar esa bu merosni yangilab, o‘z ijodiy yondashuvlari bilan rivojlantirishlari mumkin. Avlodlararo munosabatlar o‘zaro hurmat va tushunish asosida qurilishi kerak. Katta avlodlar yoshlarning fikrlarini va g‘oyalarini e‘tiborga olishlari, yoshlar esa katta avlodlarning tajribasini hurmat qilishlari zarur.

Foydalanilgan dabiyotlar ro‘yhati

1. Jo‘rayev, N. “G‘oyaiy immunitet yoki ma’naviy xaloskorlik tuyg‘usi”. –Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2001 – b 64.
2. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. – London.: Cambridge university press, -1998. -p120.
3. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. – Boston.: Beacon Press, 1984. – p 562.
4. Hegel F. Philosophy of Right(translated by S.W. Dyde)- Canada.: Kitchener, -2001. – p 281.
5. Heidegger. M. “Sein und Zeit”. -Niemeyer Verlag, -1967. –p 450.
6. Pew Research Center. “Generation Gap in Values” (2021)
7. UNESCO. Family Communication and Intergenerational Socialization (2020)
8. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar.(darslik) –T.: “Akademiya”, -2005

The Evolution of the Campus Novel: From Tradition to Postmodernism

Mahliyo ORTIQOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail:ortiqovamaxliyo2@gmail.com
Tel:(99) 8798690

Abstract. **The campus novel, as a genre of academic fiction, represents an evolving reflection of intellectual culture and academic life. It portrays universities as microcosms of broader society, exposing tensions between knowledge, power, and morality. This paper explores the development of the campus novel from its traditional British origins in the mid-twentieth century to its postmodern reinterpretations. By examining the works of Kingsley Amis, C. P. Snow, David Lodge, and Malcolm Bradbury, the study reveals how the genre transitioned from realist satire to metafictional and poststructuralist explorations of academic discourse. The analysis also considers how contemporary writers continue to redefine the genre in an age of globalization and digital transformation.**

Key words:campus novel, academic fiction, postmodernism, tradition, intertextuality, satire, university culture, literary evolution, David Lodge, Malcolm Bradbury.

The campus novel is one of the most distinctive forms of modern fiction, focusing on academic settings and intellectual life. It explores the interplay between personal ambition, institutional politics, and moral values within universities. Since its emergence in postwar Britain, the genre has mirrored the transformation of education and culture. Initially realist and satirical, the campus novel has evolved into a complex postmodern narrative form characterized by irony, intertextuality, and self-reflexivity. This evolution reflects broader philosophical shifts from modernist ideals of truth and progress to postmodern skepticism about knowledge and meaning.

The traditional campus novel emerged in the 1950s, depicting university life through humor and moral realism. Kingsley Amis's 'Lucky Jim' (1954) and C. P. Snow's 'The Masters' (1951) established the conventions of the genre. In 'Lucky Jim', Amis presents the protagonist Jim Dixon, a disillusioned lecturer confronting the pretentiousness of academic culture. Through satire, Amis exposes the gap between intellectual ideals and social realities in postwar Britain. Similarly, Snow's 'The Masters' portrays an election for a college position as a moral test, emphasizing personal integrity within institutional power struggles. These novels reflect a realist tradition grounded in character development, ethical dilemmas, and the belief in moral clarity.

Traditional campus novels share several key features: a closed academic setting, a focus on

hierarchy and class, and a tone of moral irony. They portray the university as a microcosm of social order and often highlight the conflict between individual authenticity and bureaucratic conformity. In this phase, the campus novel functioned as social commentary, offering both critique and comedy in depicting the world of scholars.

During the 1960s and 1970s, higher education expanded dramatically in the United Kingdom and the United States. Universities became sites of cultural and ideological change, reflecting the rise of feminism, Marxism, and new academic disciplines. Writers such as Mary McCarthy ('The Groves of Academe', 1952) and Randall Jarrell ('Pictures from an Institution', 1954) introduced American variations of the genre. McCarthy's novel exposes the hypocrisy and political maneuvering within liberal academic environments, while Jarrell employs a more psychological tone to depict academic vanity. Both authors broadened the scope of the campus novel, integrating gender, class, and ideology into its narrative framework.

This period also saw the inclusion of women and marginalized academics as central characters, shifting the genre's focus from satire of elitism to critique of institutional inequality. The postwar expansion thus laid the groundwork for the postmodern campus novel, in which the university became both subject and metaphor for a fragmented and self-conscious society.

By the late twentieth century, the campus novel entered a distinctly postmodern phase. Influenced by poststructuralist thinkers such as Michel Foucault, Jean-François Lyotard, and Jacques Derrida, the genre turned inward to examine the instability of meaning and the politics of knowledge. The postmodern campus novel no longer sought moral resolution but embraced irony, parody, and intertextuality as its defining features.

David Lodge's trilogy—'Changing Places' (1975), 'Small World' (1984), and 'Nice Work' (1988)—represents the peak of the postmodern campus novel. These works combine comedy with academic theory, transforming the university into a global stage for cultural exchange and competition. In 'Small World', Lodge parodies literary theory by comparing academics to knights on a quest for intellectual glory. Similarly, Malcolm Bradbury's 'The History Man' (1975) portrays the morally ambiguous sociologist Howard Kirk, whose manipulative behavior mirrors the fashionable radicalism of his era.

In these novels, the line between reality and fiction blurs. The reader is made aware of narrative construction itself, reflecting the postmodern belief that truth is mediated through language. Satire remains central, but it now targets not only academic institutions but also the intellectual trends—structuralism, feminism, and semiotics—that dominate them.

Postmodern campus novels introduced new thematic and stylistic dimensions to the genre. One major theme is the 'crisis of knowledge'. In a world where truth is seen as relative, the university becomes a site of linguistic play rather than moral instruction. Characters navigate discourses instead of moral conflicts, symbolizing the shift from ethics to epistemology. Intertextuality and self-reflexivity also define the style, as writers weave references to

classical literature, critical theory, and even their own previous works.

Another key theme is globalization. Academic life is no longer confined to the British or American campus but extends across international conferences, exchanges, and digital networks. The metaphor of the 'global campus' in Lodge's works anticipates the interconnected academic culture of the twenty-first century. Gender and identity politics also play a crucial role, as authors such as A. S. Byatt ('Possession', 1990) and Zadie Smith ('On Beauty', 2005) explore how gender, race, and class shape academic identity and authority.

In recent decades, the campus novel has continued to evolve, reflecting the transformation of higher education under neoliberal and technological pressures. Universities are increasingly portrayed as corporations, where intellectual labor is commodified and emotional exhaustion replaces idealism. Julie Schumacher's 'Dear Committee Members' (2014) exemplifies this shift through its epistolary form, depicting the frustrations of an overworked professor writing recommendation letters. Similarly, Zadie Smith's 'On Beauty' (2005) reimagines E. M. Forster's moral realism within a multicultural, postcolonial context, contrasting liberal ideals with racial and cultural divisions.

Sally Rooney's 'Normal People' (2018), though not strictly a campus novel, extends the genre's concerns into the emotional and digital realms of modern students. Her work reflects how academia intersects with class and intimacy in a globalized, online world. These contemporary narratives maintain the satirical spirit of the traditional campus novel while addressing the emotional and technological dimensions of modern academic life.

In conclusion, the evolution of the campus novel from traditional realism to postmodern experimentation encapsulates the shifting role of academia in culture and literature. From Amis's moral satire to Lodge's metafictional humor, the genre has continuously reinvented itself in response to changing social and intellectual climates. While traditional campus novels reflected hierarchical institutions and moral clarity, postmodern and contemporary versions reveal fragmented identities, global connections, and digital anxieties. Ultimately, the campus novel remains a mirror of intellectual life, capturing the contradictions, aspirations, and absurdities of those who live and work within the world of ideas.

References

- Amis, K. (1954). Lucky Jim. London: Gollancz.
- Bradbury, M. (1975). The History Man. London: Secker & Warburg.
- Lodge, D. (1975). Changing Places. London: Secker & Warburg.
- Lodge, D. (1984). Small World: An Academic Romance. London: Secker & Warburg.
- Lodge, D. (1988). Nice Work. London: Secker & Warburg.
- McCarthy, M. (1952). The Groves of Academe. New York: Harcourt Brace.
- Snow, C. P. (1951). The Masters. London: Macmillan.
- Smith, Z. (2005). On Beauty. London: Penguin.
- Schumacher, J. (2014). Dear Committee Members. New York: Doubleday.
- Rooney, S. (2018). Normal People. London: Faber & Faber.

Kompensatsiya instituti va uning intellektual mulk huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni

Mamadiyev Abror Abduraxmon o‘g‘li,
abrormamadiyev94@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada intellektual mulk huquqining buzilishidan himoyalanishning kompensatsiyaviy usullari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif intellektual mulk obyektlariga yetkazilgan moddiy hamda nomoddiy zararlarni qoplashning huquqiy asoslarini, reparatsiya (restorativ adolat) tamoyilining mazmunini ochib beradi. Shuningdek, kompensatsiya institutining zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida tutgan o‘rni, statutory damages (qonuniy kompensatsiya) tizimining joriy etilishi zarurati hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari intellektual mulk sohasida adolatni tiklash, huquqni hurmat qilish madaniyatini shakllantirish va huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Intellektual mulk, huquqni himoya qilish, kompensatsiya, tovon, reparatsiya, restorativ adolat, statutory damages, raqamli iqtisodiyot, huquqiy javobgarlik, adolatni tiklash, mualliflik huquqi, innovatsion faoliyat.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты компенсационных способов защиты прав интеллектуальной собственности. Автор раскрывает правовые основы возмещения материального и нематериального ущерба, причиненного объектам интеллектуальной собственности, а также содержание принципа репарации (реститутивного правосудия). Особое внимание уделено роли института компенсации в условиях современной цифровой экономики, необходимости внедрения системы statutory damages (законной компенсации) и направлениям совершенствования национального законодательства. Результаты исследования обосновывают необходимость укрепления правовых механизмов для восстановления справедливости, формирования культуры уважения права и эффективной борьбы с нарушениями в сфере интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, защита права, компенсация, возмещение ущерба, репарация, реститутивное правосудие, statutory damages, цифровая экономика, юридическая ответственность, восстановление справедливости, авторское право, инновационная деятельность.

Abstract
This article analyzes the theoretical and practical aspects of compensatory mechanisms for the protection of intellectual property rights. The author explores the legal foundations for compensating material and moral damages caused to intellectual property objects, as well as the essence of the principle of reparation (restorative justice). Special attention is given to the role of compensation mechanisms in the context of the modern digital economy, the necessity of introducing the statutory damages system, and the directions for improving national legislation. The findings emphasize the need to strengthen legal instruments aimed at restoring justice, promoting respect for intellectual property rights, and ensuring effective enforcement against infringements.
Keywords: intellectual property, legal protection, compensation, damages, reparation, restorative justice, statutory damages, digital economy, legal liability, restoration of justice, copyright, innovation activity.

Intellektual mulk – zamonaviy globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida har qanday davlat iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy drayveri hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlariga (ixtirolar, mualliflik huquqi, tovar belgilari va boshqalar) bo‘lgan mutlaq huquqlarning buzilishi esa huquq egasiga nafaqat moddiy, balki ma’naviy zarar yetkazadi. Shu sababli, intellektual mulk huquqini himoya qilishning kompensatsiyaviy usullari huquqiy tartibga solishning markaziy elementlaridan biri bo‘lib, ularning samaradorligi butun tizimning barqarorligini belgilaydi.

Ushbu maqolada intellektual mulk huquqini buzganlik uchun qo‘llaniladigan kompensatsiyaviy choralar, xususan, zarar va tovon (kompensatsiya) undirish mexanizmlarining nazariy asoslari, huquqiy tahlili va amaliy ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Innovatsion g‘oyalar, ilmiy kashfiyotlar, dasturiy ta’minot, badiiy asarlar va tijorat belgilarining qiymati tobora ortib borayotgan bugungi kunda ularni huquqiy himoya qilish masalasi davlatlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Intellektual mulk huquqlarining buzilishi nafaqat muallif yoki ixtirochining manfaatlariga zarar yetkazadi, balki jamiyatdagi ijodkorlik va raqobatbardoshlik muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi uchun zarur shart hisoblanadi.

Intellektual mulk huquqlarini buzilishidan himoyalanish faqatgina mualliflik yoki patent huquqini tiklash emas, balki huquqbuzarlik oqibatida buzilgan adolatni tiklash, zararlarni qoplash va huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan murakkab huquqiy jarayondir.

Intellektual mulk huquqining buzilishidan himoyalanishda kompensatsiyaviy usullar

reparatsiya nazariyasi[1] (yoki restorativ adolat) tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyilga ko‘ra, huquqbuzarlik natijasida jabrlanuvchining huquqiy holati buzilishdan oldingi holatga qaytarilishi yoki yetkazilgan zararning qoplanishi lozim.

Zararni qoplash intellektual mulk huquqini himoya qilishning klassik usuli bo‘lib, u buzilish natijasida huquq egasiga yetkazilgan haqiqiy zarar va boy berilgan foydani undirishni nazarda tutadi[2]. Biroq, mazkur zararni qoplash tizimi bugungi kun uchun mualliflik huquqlarini yetarlicha himoya qila olmayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki, raqamli muhitda yetkazilgan nomoddiy zararni aniq hisoblash deyarli imkonsizdir, shuningdek, huquqbuzar o‘z noqonuniy foydasini yashirishga moyil bo‘ladi, bu esa ko‘pincha arzon va keng tarqalgan buzilishlarga qarshi samarali kurashishga to‘sqinlik qiladi va mualliflar yuridik xarajatlardan qochib, o‘z huquqlarini himoya qilishdan voz kechishiga sabab bo‘ladi, natijada qonun tomonidan belgilangan kompensatsiya (tovon) usullari zararni isbotlash qiyinchiligini chetlab o‘tish va huquq buzuvchilar uchun yetarli to‘xtatuvchi ta’sirni ta’minlash maqsadida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompensatsiyaning huquqiy tabiatini aniqlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Ba’zi huquqshunoslar[3] uni ma’naviy zararni qoplash shakli sifatida ko‘rsa, boshqalar[4] uni alohida, mustaqil majburiyat turi sifatida e’tirof etadi. Masalan, ma’naviy zarar uchun to‘lanadigan kompensatsiya haqiqiy iqtisodiy zarar bilan bevosita bog‘liq emas, balki shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va boshqa nomoddiy boyliklari buzilganligi uchun beriladi. Shu sababli uni klassik “zararni qoplash” institutiga kiritish to‘liq to‘g‘ri bo‘lmaydi[5].

Bundan tashqari, kompensatsiyaviy usullar huquqni himoya qilish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va soddalashtiradi. Qonun tomonidan oldindan belgilangan kompensatsiya miqdori huquq egasini zararni aniq hisoblash va isbotlash yukidan xalos. Bu, ayniqsa, kontrafakt (soxta) mahsulotlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday usullar huquqni himoya qilish samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, kompensatsiyaning yetarlicha yuqori miqdori belgilanishi potentsial huquq buzuvchilar uchun kuchli to‘xtatuvchi (deterrent) ta’sir yaratadi. Bu, buzilish natijasida erishilishi mumkin bo‘lgan noqonuniy foydani foydasiz qilish orqali, ularni noqonuniy faoliyatdan qaytaradi. Shuningdek, kompensatsiya usullari huquq buzuvchi tomonidan olingan asossiz boylikni undirishga ham xizmat qiladi, bu esa adolatni ta’minlashda muhim

[1] Buti, A. (2008). The notion of reparations as a restorative justice measure. In One Country, Two Systems, Three Legal Orders: Perspectives of Evolution (pp. 191-206). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-540-68572-2_10

[2] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasi. https://lex.uz/docs/-111189

[3] Afanasyev I.V., Morozov N.A. Compensation for Moral Damage: Theory, Problems of Law Enforcement Practice and Ways of Overcoming them // Economic Problems and Legal Practice. - 2023. - Vol. 19. - N. 3. - P. 75-81.

[4] Шмаков А. В., Булгакова Е. А. Использование механизма компенсации в гражданском праве: экономический подход // Пространство экономики. 2011. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-mehanizma-kompensatsii-v-grazhdanskom-prave-ekonomicheskiy-podhod (дата обращения: 02.10.2025). **Kozhevnikov, V. V.** (2022). The concept, features and forms of civil legal liability. *Baltic Journal of Legal and Social Sciences*, 1(13), 88–93. Retrieved from https://biarjournal.com/index.php/polit/article/download/950/913

[5] Мамадиев, А. (2025). Проблемы определения правовой природы понятия компенсации в гражданском праве. Общество и инновации, 6(9/S), 179–185. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss9/S-pp179-185

o‘rin tutadi.

Ko‘plab huquqshunoslar, jumladan, rus olimi V.A. Dozortsev o‘z ishlarida intellektual mulkning nomoddiy xususiyati tufayli unga yetkazilgan zararning aniq miqdorini hisoblab chiqish va sudga isbotlash juda murakkab ekanligini ta’kidlaydi[6]. Huquq egasi kontrafakt mahsulotlar savdosi natijasida o‘zi yo‘qotgan sotuv hajmini va boy berilgan foydani dalillar bilan asoslashda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa amaliyotda talabni rad etish yoki undirilgan summaning yetkazilgan zararga nomutanosib bo‘lishiga olib keladi.

Shu sababli, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda, kompensatsiya – bu yetkazilgan zararning aniq miqdorini isbotlash talab etilmagan holda, qonunda belgilangan minimal va maksimal chegaralar doirasida pul summasini undirish mexanizmi sanaladi. Bu mexanizm G‘arb mamlakatlarida (statutory damages – qonuniy zarar) samaradorligi isbotlangan.

Statutory damages – mualliflik huquqi buzilganda sudga haqiqiy zarar yoki muallifning yo‘qotgan foydasini aniq isbotlash oson bo‘lmagan hollarda qonun tomonidan oldindan belgilangan (yoki belgilanishi mumkin bo‘lgan) miqdorda tovon undirish imkonini beruvchi institutdir. Bu institutning maqsadi: jabrlanuvchiga ramziy emas, haqiqiy kompensatsiya berish, zararni hisoblash mushkul bo‘lgan holatlarda huquq egasiga adolatni ta’minlash, huquqbuzarlarga qarshi kuchli ogohlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish[7].

Intellektual mulk huquqini buzilishidan himoya qilishning samaradorligi ko‘p jihatdan kompensatsiyaviy mexanizmlarning mukammalligi va ularning amaliy qo‘llanish darajasiga bog‘liqdir. Amaldagi qonunchilikda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lsa-da, raqamli iqtisodiyot sharoitida bu mexanizmlarni yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish zarur. Ayniqsa, nomoddiy zararlarni aniqlash va isbotlashdagi murakkabliklar, hamda sud amaliyotining bir xilligi yetarli emasligi muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, kompensatsiyani hisoblashning aniq metodikasini ishlab chiqish. Intellektual mulk obyektlariga yetkazilgan moddiy va nomoddiy zararlarni baholash uchun yagona huquqiy va iqtisodiy mezonlar tizimi joriy etilishi lozim. Bu, ayniqsa, mualliflik huquqining raqamli platformalarda buzilishi holatlarida zararni isbotlashni yengillashtiradi.

Ikkinchidan, Statutory damages (qonuniy kompensatsiya) tizimini milliy qonunchilikka kiritish. Bu mexanizm O‘zbekiston sharoitida ham samarali bo‘lishi mumkin, chunki u huquq egasiga haqiqiy zarar miqdorini isbotlamasdan, qonun tomonidan belgilangan diapazonda tovon undirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, huquqbuzarlarga nisbatan kuchli ogohlantiruvchi (deterrent) ta’sirni kuchaytiradi.

Uchinchidan, sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish. Intellektual mulk sohasidagi nizolar bo‘yicha qarorlar izchilligini ta’minlash, sudlarning huquqiy pozitsiyasini

[6] Dozortsev V. A. Intellektual huquq. Moskva: Statut, 2003

[7] U.S. Copyright Office. (1961). *Study 22: The damage provisions of the copyright law*. Washington, D.C.: U.S. Government Printing Office. https://www.copyright.gov/history/studies/study22.pdf,

umumlashtirish va amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur.

To‘rtinchidan, huquqni buzgan shaxslarning iqtisodiy javobgarligini kuchaytirish. Noqonuniy daromad olishni foydasiz qiladigan tizim joriy etilishi, ya’ni huquqbuzar nafaqat zarar miqdorini, balki o‘z noqonuniy foydasini ham qaytarishga majbur etilishi kerak.

Beshinchidan, raqamli muhitda intellektual mulkni himoya qilishning texnologik vositalarini kengaytirish. Masalan, sun’iy intellekt yordamida plagiatni aniqlovchi va ruxsatsiz tarqatish holatlarini avtomatik kuzatuvchi tizimlarni joriy etish.

Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimi xalqaro standartlarga yaqinlashadi va ijodkorlar, tadbirkorlar hamda innovatorlar uchun yanada ishonchli huquqiy kafolat yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, intellektual mulk huquqining buzilishidan himoyalanish faqat huquqiy majburlov choralari bilan emas, balki adolatni tiklash, iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlash va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Reparatsiya (restorativ adolat) tamoyili asosidagi kompensatsiyaviy mexanizmlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi: ular huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etibgina qolmay, huquqni hurmat qilish madaniyatini shakllantiradi. Shu bois, kompensatsiya institutining yanada takomillashuvi intellektual mulkni samarali himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. https://lex.uz/docs/-111189
2. O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son
3. Buti, A. (2008). The notion of reparations as a restorative justice measure. In One Country, Two Systems, Three Legal Orders: Perspectives of Evolution (pp. 191-206). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-540-68572-2_10
4. Afanasyev I.V., Morozov N.A. Compensation for Moral Damage: Theory, Problems of Law Enforcement Practice and Ways of Overcoming them // Economic Problems and Legal Practice. - 2023. - Vol. 19. - N. 3. - P. 75-81.
5. Шмаков А. В., Булгакова Е. А. Использование механизма компенсации в гражданском праве: экономический подход // Пространство экономики. 2011. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-mehanizma-kompensatsii-v-grazhdanskom-prave-ekonomicheskiy-podhod (дата обращения: 02.10.2025).
6. Kozhevnikov, V. V. (2022). The concept, features and forms of civil legal liability. Baltic Journal of Legal and Social Sciences, 1(13), 88–93. Retrieved from https://biarjournal.com/index.php/polit/article/download/950/913
7. Мамадиев, А. (2025). Проблемы определения правовой природы понятия компенсации в гражданском праве. Общество и инновации, 6(9/S), 179–185.

https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss9/S-pp179-185
8. Dozortsev V. A. Intellektual huquq. Moskva: Statut, 2003
9. U.S. Copyright Office. (1961). Study 22: The damage provisions of the copyright law. Washington, D.C.: U.S. Government Printing Office. https://www.copyright.gov/history/studies/study22.pdf,

“JOME’UL XUTUT” ASARINING ZAMONAVIY NASHRINI TAYYORLASHDA MATNSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Azizova Feruza Ravhsan qizi
O‘zbekiston Musulmonlari idorasi tasarrufidagi “Xadichai Kubro” ayol-qizlar o‘rta maxsus islom ta'lim muassasasi “Xadichai kubro” ayol qizlar madrasasi o‘qituvchisi
pochta: azizovaf@gmail.com
Tel.: 97 462-99-11

Annotatsiya: Ushbu maqolada Is’hoqxon To‘ra Ibratning “Jome’ ul-xutut” asarining zamonaviy nashrlarini ilmiy-tanqidiy matnshunoslik nuqtayi nazaridan taqqoslash natijalari yoritiladi. Asarning ikki nashri (1999 va 2005 yillar) qiyosiy tahlil qilinib, ular orasida mazmuniy farqlar, tushirib qoldirilgan sahifalar, matnni muallif tilidan berish tamoyillaridagi tafovutlar aniqlanadi. Tadqiqotda matnshunoslikning asosiy vazifalari — qo‘lyozma tarixini o‘rganish, matnning ilmiy asoslangan variantini tiklash va transliteratsiya hamda tabdil jarayonlari o‘rtasidagi farqlar izohlanadi. Maqolada matnni nashrga tayyorlashda yuzaga keladigan muammolar — matnning buzilishi, ayrim sahifalarning tushib qolishi, muallifga xos til xususiyatlarining o‘zgartirilishi kabi holatlar misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Is’hoqxon Ibratning tilshunoslik merosini tadqiq etish nafaqat matnshunoslik, balki tarix, tilshunoslik, madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon To‘ra Ibrat, Jome’ ul-xutut, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy nashr, transliteratsiya, tabdil, qo‘lyozma, qiyosiy tahlil.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va rejali targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniyatimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish, qo‘lyozmalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lgan yosh mutaxassislarni asosida maqsadli tayyorlash uchun katta imkoniyat eshiklarini ochdi.

Matn tadqiqi masalasida ustoz Shuhrat Sirojiddinov shunday deydi: Matn talqini tadqiqi qo‘lyozma asarning adabiy manba sifatidagi qimmatini baholash, badiiy asar matni haqida to‘liq tasavvur paydo bo‘lishida ob’ektiv asos bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘lyozma, agar u she’rlar to‘plami bo‘ladigan bo‘lsa, matnshunos oldida ikki vazifa ko‘ndalang turadi. Birinchisi, qo‘lyozmaning tarixi va taqdirini o‘rganish, ikkinchisi esa undagi asarning matnini tahlil qilish. Birinchi holatda matnshunos manbashunoslar kabi qo‘lyozmaning tavsifiy belgilari, tuzilishi, tadqiq ob’ektiga aylanguncha bo‘lgan davrdagi taqdiri, umumiy tekstologik belgilarini o‘rganadi. Ikkinchi vazifa matnshunosning bosh vazifasi bo‘lib, matn

tahlilini amalga oshiradi. Bu holatda uning oldida asarning badiiy qimmatini belgilash uchun chuqur poetik tahlilni amalga oshirish, muallif g‘oyaviy dunyoqarashini ochib berish va uning badiiy mahorati darajasini belgilash vazifasi turadi. Tadqiqotchi o‘z maqsadiga erishish yo‘lida muallifning diniy, falsafiy, badiiy tafakkur olamiga kirishga majbur.[1] Bundan ko‘rinadiki, matn talqin qilinayotganda uning barcha aspektlari keng ko‘lamli o‘rganiladi. Matn mukammal holatga keltiriladi. Biz o‘rganyotgan va tadqiq qilayotgan “Jome’ ul xutut” asari quyidagi nashrlarda aks etgan:

1) Is’hoqxon To‘ra Ibrat “Tanlangan asarlar” “Ma’naviyat” nashriyoti tomonidan 2005 yili chiqarilgan Nurboy Jabborov va Ulug‘bek Dolimovlar tomonidan nashrga tayyorlangan varianti. Asar nashrning 13 - 20 betlarida beriladi. Asar Ibratning tilidan emas, balki ustozlar tilidan bayon etiladi. Finikiy, sanskrit, yahudiy, slavyan va kufiy yozuvlardan namunalar keltirilib, izohi berilmaydi. Is’hoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo‘ldi. Asarda piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma’lumot beriladi[2].

2) Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So‘fizoda “Tanlangan asarlar” “Ma’naviyat” nashri tomonidan 1999-yili chop etilgan. Nashrga tayyorlovchilar Begali Qosimov, Sunnat Ahmedov va Ulug‘bek Dolimovlar tomonidan tayyorlangan varianti. Asar 95-98 sahifalarni egallaydi. Asar Ibrat tilidan, ya’ni “Jome’ ul xutut”dan olingan.

Biz taqqoslaydigan asosiy variant bu aynan shu ikkinchi variantdir. Shartli ravishda “IV” tarzida belgalab olamiz. “IV” nashri 13-14 yoshimda maktabi adabda memorisi ishtiyoqinda edim, deb boshlanadi. Aslini olganda asar an’anaviy “basmala”, hamd va na’at bilan boshlanadi. Banda tufuliyyat darajasindan mathi marohaqa qadami nihod o‘lmoqda maktabi adabda mamorasa ishtig‘olinda edum[3]. Bundan ko‘rinadiki, asarda 13-14 yoshimda degan birikma yo‘q. Kitobim safhasidagi husni xat va husni naqsh fikrlari kuhniyat va ta’limlari ishtiyoqi qalbimda mushtag‘il o‘lib har xututlar ko‘rsam vaz’ va ta’limlarini bilmaguncha ko‘nglum sokit o‘lmadi. Hatto moni’i chinlar rasmu xututi ajnabiyalar mohirona iqtidorlarin andishadan chiqarub bo‘ldi. Umrumni necha muddat bul xututlarga zoe etub olami islom xututlarin bildim. Ibroniy va suryoniy va yunoniy va anglizi xatlarin haramayn tariqida Hindiston mulki Bumbayda o‘rgandim. Har bir zavoru va ahli fazl kishini ko‘rsam kayfiyat va ta’limoti maollarin andan so‘rdum. Alalxusus Hijoz taraflarinda haramayn tariqinda Hinduston mulki bo‘lgan Bambay shahrida necha muddat sukunat qilib Hinduston muravvaji arba’a lison ya’ni arabiy, forsiy, angliziy, hindiy xatlarin o‘rgandim. 1303-hijriyda bularni mashoqlik tariqinda safha-safha kog‘azg‘a yoki qat’iyan sanglarga va sathi devor va madrasa – masjidlar qubbalarig‘a yozganim mururi zamon ila buzulub manga afsusi beandoza bo‘ldi.

[1] Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.: Navoiy universiteti, 2019. B-20.
[2] Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 2005. B-14.
[3] Ibrat I. “Jome' ul xutut”. Namangan. Matbaai Is’hoqiya, 1912. B-4.

Bu tariqa yozmoqdin ko‘nglum so‘ldi va bu sabab bul xatlarni boqi va toriq qarori muddao bo‘lub va ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda ham olama bir osor qoldirmoq niyat etub bu masra’e mujibi:

Asardurki olamg‘a o‘lg‘aynishon,

Kishi beasardur ketar benishon, - mazmunicha botadvin aylab (tahrirlash orqali) roya soqib (teshuvchi fikr) arbobi xasm va arbobi fazl kamollarga manzur qilib millatga nishon qoldirub ham millatimiz nishoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiya xalqini naf’e olmoqi muddao bo‘lub adabi milliyona qilmay ravshan turkiy qilindi. Millatimizni forsiylariga ikkinchi taba’ada forsiy qilinur vajami’ xatlarga jome’ uchun “Jome’ ul xutut” tasmiya aydub(edub) o‘z xatimiz va o‘z tilimiz va o‘z matba’mizda taba’ qilmoq maqsad bo‘lub, tabi’ sharif ahli raso va qalbi latif ahli zakolarga peshkash qildim. **Amid afu xatosig‘a rahmat ko‘rguchi atosig‘a amid duo noziridin ijobat mujibul-da’vatdindur.** (“IV” da bu joy berilmagan).

“IV” nashrida 8-14 betlar mavjud emas. 14-15 betlar mavjud. “bir nima niyat (“IV” nashrida madaniyat) xotiraga o‘xshagan yangi taomil, yangi so‘z, yangi xat joriy bo‘lib,eski nimarsa diniy ishlar bo‘laklari hammasi, balki qolib, yangi yurub ketar ekanlar. Kulli jadidlardinmu, chunonchi, zikri bo‘lgan xutut qadimiyalar hammasi yangilar eskidan joriy bo‘lib qolur ekan. Chunoncha, o‘zingizda hozir turubdur ayon, hojat emas bayon, chunoncha, chirog‘ qoldi lamfa, chaqmoq qoldi gugurd, suyuq osh qoldi choy, choychush qoldi choynek, qumg‘on qoldi samavar, hokazo yangi nimarsalar ko‘b joriy bo‘lib qolgan nimarsalardek bu asl xatlar ham qolib, yangisi joriy bo‘lgan ekan.”

“IV” nashrida 16-bet berilmagan. So‘ngra 17-betdan berilgan. Andin kuttob Odamki, mandaoni xatidur (“IV” nashrida bu joy yo‘q). Andin (“IV” da xatti davrondin) suryoniy chiqarib, suryoniydin kufiy chiqarub, kufiydin sulsni, sulsdin ta’liqni, suls ila ta’liqdin nasta’liqni kitobi xatimizdurki, 900 hijriyda Eron shahrini Tabriz degan baldada Xo‘ja Mir Ali Tabriziy chiqarganlar. Nasx ila ta’liqdin murakkab uchun nasta’liq ismi qo‘yganlar. Bul xat arabistonda joriyemas. Hindiston, Buxoro, Turkiston, Farg‘ona, Qoshg‘ar ahli Islom diyorlarida joriydur. Bunga sabab bu mulklarga Eron podshohlarini ixtiloti bo‘lib, Buxoro yu bo‘laklarni olub, ul vaqtlarda joriy qilgan ekan. Eroniylarni turoniylarni olgani tarix kitoblarida mazkur va mashhurdur. Xo‘ja Mir Ali vaz’ xat kitobi husni xatdagi mahorati va martabasi ayon va bayondur.

Shundan so‘ng 31-betga o‘tiladi. bizlarda mobodo, biror shul xat yerlardin chiqib qolsa, olim yo‘q, mutolaag‘a ehtiyoj bo‘lganda mu’til qolur erdiki, qodir mutolaa kishi yo‘q. Madaniyati mukammal emas asrimiz, madaniyatimiz bor erdi badaviyat ermas erduk, chunonchi, otash aroba, telegrom, telefun, elektr fanarlar, necha xil hatto uchadurgon ayruflon, gramafun, fotograf, litograf, tifugraf, anvo’i mashinalar, abtomobil, valisifid, tilsiztelegromlar necha-necha ashyoi jadidalar, anvo’iadidalar – hammasi mavjud edi. Bizni asrimiz 1285-1350 yillar hijriylarida edi. Ko‘bda mutavahhush va mutadanni bo‘limi mundin ellik yil muqaddam o‘tkanlaridek bir majlisda yuz kishii bo‘lsa, o‘n adadda o‘qigan kishi chiqmas ekan. Chiqsa

ham ilmlari savoddin iboratdir. Bul xilda mutavahhush emas eduk. Bovujud bu xati qadimalarga olim yo‘q edi. Bu zamonimiz alhamdullilah taraqqiyda bo‘lib, mufassirin, muhaddisin zamonlaridagi tariqidek bo‘lib, aksar kishilar ahli savod bo‘lib asbobi kitob ko‘b matba’ intishorda maktablar ochilib davlati Rusiyada har kishi hoxlagan ilmni o‘qumoqni xohlasa maktab tayyor aksar tujjorlar ikki xil xatga olim bo‘ldilar. Shul maosirlardin bir miyona musannif edimki, ilmlarim ko‘rasiz, bilimingiz maosirlarimdin so‘rasiz, hammasi ayondir “Jome’ ul xutut”da bayondur. Bu asrlarda Turkiston Islomlari ham ancha-muncha madaniyat topib havodis va jaroidlar vositasi ko‘b ko‘b ilmlarga mohir bo‘ldilar.

“IV” nashrining so‘ngida slavyan xati haqidagi qism taqdim etiladi va asar tugaydi. Shu o‘rida atoqli adabiyotshunos olim D.Quronovning quyidagi fikrlariga to‘xtalib o‘tsak:

Matnshunoslikning vazifasi – adabiy matnlarni o‘rganish va nashrga tayyorlashdir. Matnshunoslikning vazifasi qisqa ifodalangan bo‘lsa-da, uning amalga oshirilishi juda katta mehnatni, chuqur bilim va tajribani talab qiladi. Adabiy matnni o‘rganayotgan matnshunos oldida turli-tuman ilmiy muammolar ko‘ndalang bo‘ladi. Deylik, matnshunos muallifi noma’lum asar(matn)ga duch keldi. Bu holda u asar muallifini, matnning yoshi(yozilgan, ko‘chirilgan vaqti)ni aniqlashi zarur. Buning uchun esa u adabiyot tarixi, til tarixi, manbashunoslik, uslubshunoslik kabi sohalardan yaxshi xabardor bo‘lishi va ularga tayangan holda matnni tadqiq etishi lozim bo‘ladi. Yoki Matnshunoslikning boshqa bir vazifasi – asarning ilmiy-tanqidiy nashrini tayyorlash ham juda mashaqqatli ish[4]. Bizning qo‘limizda asarning yozilgan vaqti, muallifi, nashriyoti mavjud. Ammo ba’zi nashrlarda - keyingi yillardagi farqli jihatlar mavjud bo‘lsa, ilmiy-tanqidiy matnini vaommaviy matnini tayyorlash masalasi kun tartibidagi matnshunoslikdagi dolzarb masalasidir.

Matnning eski tildagi shaklining hozirgi tilga o‘girilishi tabdil, qadimgi va oldingi yozuvdan joriy yozuvga almashtirilishi esa transliteratsiya deyiladi. Hozirda shu ikki atama adabiyotshunoslar orasida ham deyarli bir xil mazmunda foydalaniladi. Buni juda ham xato deyish noo‘rin. Ya’ni, transliteratsiya tabdil vazifasini qila olmasligi mumkin. Ammo tabdil jarayonida transliteratsiya yaqqol namoyon bo‘ladi. Holbuki, tabdilning izohli lug‘atlardagi ta’rifi ham bunga javob beradi: (o‘zgarish, almashinish). XIX–XX asrlar adabiyotini joriy yozuvga o‘girish, tabdil qilish ishlarida ayni atamalarning mazmunan qorishishi jarayonini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Habibullaev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. - Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2000. - 172b.

2. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. - Toshkent: Fan, 2007. - 295 b.

3. Is’hoqov Y. Klassik adabiyot poetikasidan ma’lumotlar. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970.

[4] Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronovning umumiy tahriri osida.- T.: Akademnashr, 2010. B-400.

4. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
5. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
6. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965.
7. Nosirov O., Jamolov S., Ziyovuddinov M. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
8. Qur’onov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
9. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati . – Toshkent, 1979.

ARAB YOZUVINING MANBALARI: HIMYARIY, NABATIY VA BOSHQA YOZUVLARNING TA’SIRI

Azizov Mirzabobur Obbos o‘g‘li
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, “Aqoid va fiqhiy fanlar” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
pochta: azizovmbobur@gmail.com
Tel.: 97 462-99-11

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab yozuvining kelib chiqishi va shakllanish jarayoni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Arab yozuvining manbasi borasida ilgari surilgan uch asosiy yondashuv — yozuvning bir kishi tomonidan yaratilganligi, bir guruh tomonidan ixtiro qilinganligi yoki boshqa yozuvlardan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. Hijoz, Yaman, Shom va Iroq o‘lkalaridagi madaniy-tijoriy aloqalar natijasida Himyariy (Musnad), Hiyra/Anbar va Nabatiy yozuvlarining arab yozuviga bo‘lgan ta’siri tarixiy dalillar orqali yoritiladi. Tadqiqotda Nabatiy yozuvining arab yozuviga aylanishi jarayonining bosqichlari, qo‘lyozmalarda uchraydigan o‘xshashliklar va lingvistik belgilarning uzviyligi ilmiy dalillar bilan asoslanadi. Shuningdek, arab yozuvining imlo tizimi shakllanishida ilohiy manba sifatida qaralishi yoki bashariy jarayon natijasi sifatida talqin qilinishi o‘rtasidagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, arab yozuvi uzoq tarixiy evolyutsiya jarayonida turli yozuv tizimlari bilan o‘zaro ta’sirlashgan holda shakllangan bo‘lib, uning imlo tizimidagi ayrim o‘ziga xosliklar turli yozuv madaniyatlarining davomiyligini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Arab yozuvi, Himyariy yozuvi, Nabatiy yozuvi, Anbar/Hiyra yozuvi, yozuv tarixi, imlo taraqqiyoti, lingvistika tarixi, yozuvning kelib chiqishi.

Arab yozuvining manbalari va paydo bo‘lishi: Mus’hafga aloqador yondashuvlarni, xususan mus’haf imlosining ilohiy tarafdan bo‘lganini ifoda qilishdan avval tilning manbasi qayerda ekani haqidagi savolga javob topish muhim deb hisoblaymiz. Hijriy ikkinchi asrdan keyin rivojlana boshlagan tilshunoslikka oid faoliyatlarning natijasida qiyosiy imloning yuzaga chiqishi, turdosh asosga ega bo‘lmagan mus’haf imlosiga taalluqli tortishmalarni ham yuzaga keltirgan. Zero, bunday qarashlardan biri bu – Rasmul Mus’hafda ko‘rilgan imlo shaklining uning o‘ziga xos xususiyat bo‘lmasdan, balki o‘sha davr arab yozuvidagi yoki undan ham avvalgi davrlarning yozuvlarida paydo bo‘lgan xususiyat ekanidir.

Arab yozuvining kelib chiqish borasida uch xil bir-biridan farqli qarashni aytadilar. Bu qarashlar quyidagicha: yozuvning bir kishi tarafidan ijod qilinganligi, arab yozuvining ko‘pchilik tarafidan ijod qilinganligi[1] va uning boshqa yozuvlardan kelib chiqqanligi

[1] An-Nadim, Abul Faraj Muhammad ibn Abu Ya’qub Is’hoq. *Kitāb al-Fihrist.* – Bayrut: Dorul Ma’rifat nashriyoti, 1997. – B. 6–8.

haqidagi qarashlardir. Yozuvning bir kishi yoki kichik guruhlar tarafidan ijod qilingani haqidagi qarashlarga unchalik e’tibor qaratilmagan.[2] Zero, yozuv kabi madaniy ko‘rinish turining qisqa muddatda yuzaga kelib rivojlanishi va munosabatlarga kirishishi aslo mumkin emasligi, buning ma’lum bir muddatni egallashi ayon bo‘lgan narsadir. Shu sababli, yozuvni ilk ijod qilgan kishining kimligi topilishi amri mahol bo‘lganidek, bunday xabarlarning ham afsona turlaridan ekani ifoda qilingandir.[3] Boshqa bir qarashga ko‘ra esa, arab yozuvining boshqa yozuv turlaridan vujudga kelgani haqida bo‘lib, bunday fikrga ko‘ra arab yozuvi himyar, hiyra, anbar va nabatiy yozuvlarining joriy silsilasidir[4].

Arab yozuvining manbasi Himyar zamini ekanini da’vo qiluvchilar o‘zlarining bu da’volariga Qur’onda kelgan quraysh qabilasining qish faslidagi safarining[5] Yamanga bo‘lganini aytib dalil keltiradilar[6]. Xususan, Hijoz-Yaman o‘lkalari o‘rtasidagi qadimdan beri mavjud bo‘lgan tijoriy aloqalar madaniy ta’sirlarni ham o‘zlari bilan birga olib kelgan. Hatto Yamanning ba’zi bir shimoliy arab qabilalarini o‘z hukmi ostiga olgani[7] ham bu aloqalarni yanada kuchaytirgan va madaniy hokimiyat ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, Yamanda qurilgan va zamonasining eng kuchli madaniyatlaridan hisoblangan va hatto Yaman o‘lkasining butun yerlariga hokim bo‘lgan himyariylar[8] mana shu tijorat guzargohining markazida joylashgani sababli arab madaniyatini ham o‘z ta’siri ostiga olgandir. Shu sababli, himyariylar tarafidan qo‘llangan va «Musnad»[9] deb nomlangan bu yozuv turining arab yozuviga manba bo‘lib xizmat qilgani qAbu qilingan[10]. Faqat bu ikki yozuv turining o‘rtasida ma’lum bir farqlarning mavjud ekani jihatidan bu fikr tanqidlarga ham duch kelgan[11].

Arab yozuvining manbasi Hiyra/Anbar yozuvi ekanini da’vo qilgan olimlardan biri Shahobiddin ibn Ahmad ibn Abdulvahhob An-Nuvayriy esa (vafoti 733/1333) bu da’voni ibn Abbosdan kelgan bir rivoyat bilan isbotlaydi. Bu rivoyatga ko‘ra, Anbardagi Tayy qabilasining Bavlon ulusidan bo‘lgan uch kishi bir yerga jamlanib bir yozuvni ijod qilganlar. Shundan keyin ulardan anbarlilar, anbarlilardan esa hiyraliklar bu yozuvni o‘rganadilar va alal-oqibat Dumatul Jandalning amiri Bishr ibn Abdulmalik ham buni eshitib Hiyra shahriga keladi va u yerda bir muddat qolib ushbu yozuvni o‘rganadi[12]. Faqat bunday yondashuv ham bir qancha tadqiqotchilar tarafidan tanqid qilingan va e’tibor qaratilmagan[13].

[2] Juma I. *Qissatul-kitaabatil-‘arabiyya*. – Misr: Dorul Maorif nashriyoti, s.a. – B. 13.
[3] Mashali. *Qur’onning matn tuzilishi*. – T.: Sharq nashriyoti, 1999. – B. 28-36.
[4] Ibnun Nadim. *Al-Fihrist*. – Bayrut: Dorul Ma’rifat nashriyoti, 1997. – B. 8–9.
[5] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tafsiri Hilol*. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2013. – 30-juz, Quraysh surasi, 2-oyat. – B. 612.
[6] Serin M., Zunnun Y. “Ko‘fiy”. *Diyonat ishlari ensiklopediyasi*. – Istanbul: Diyanet Vakfı, 2002. – J. 26. – B. 342.
[7] O‘rtoqchi X. *Himyariylar*. – Islom tarixi tadqiqotlari jurnali, 2017. – B. 92–93.
[8] Chig‘atoy N. *Islomdan oldingi arab tarixi va johiliyat davri*. – Anqara: Anqara universiteti ilohiyot fakulteti nashri, 1957. – B. 7–8.
[9] Chetin N. M. *Arab*. – Istanbul: Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 1991. – J. 3. – B. 276.
[10] Kalkashandiy. *Subhul-asha fiy sinaatil-insha*. – J. 3. – B. 13.
[11] Mashali. *Qur’onning matn tuzilishi*. – T.– B. 28-30.
[12] Balozuriy, Abul Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir. *Futuhul-buldon*. – Bayrut: Muassasatul Maorif, 1987. – B. 659–660.
[13] Serin M., Zunnun Y. *Ko‘fiy*. – Istanbul: Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 2002. – J. 26. – B. 343.

Arab yozuvining manbasi Nabatiy yozuvi ekani da’vosini[14] asosiy deya qAbu qilinganini aytish mumkin. Avvalo shuni alohida qayd qilib o‘tish joizki, tarix bo‘yicha bir qancha ko‘chmanchi jamoalar o‘zlari joylashgan yerlarning madaniyatlaridan ta’sirlanganlar va hatto o‘sha madaniyatlarni o‘zlashtirib olganlari haqiqatdir. Bu borada shimoldagi bir qancha arab qabilalari bir zamonlar Shom va Iroq zaminlariga ko‘chib kelganlar va bu yerlarda kerak bo‘lsa, ziroat sohasida, kerak bo‘lsa tijorat sohasida bo‘lsin, faoliyatlar olib borganlar va o‘sha yerliklarning madaniyatlaridan ta’sirlanganlar. Masalan, Shom diyori sarhadlarining ichkarisiga ko‘chib kelgan «Nabat» deb ataladigan bir qabila zamonlar o‘tgani sari sharq va g‘arbdagi bir qancha tijoriy guzargohlarning markazidan joy egallagan va iqtisodiy jihatdan juda ham farovon darajalarga erishgan. Ular tijoriy faoliyatlarini yuritish davomida yozuvga ehtiyoj sezganlar va o‘zlaridan oldin bu zaminlarda yashab o‘tgan oromiylarning yozuvini bir muddat qo‘llaganlaridan so‘ng, o‘zlarining o‘sha nabatiy yozuvlarini rivojlantirib, undan foydalanganlar[15]. Xullas, arab yozuvining nabatiy yozuvidan tarqalganini aytuvchilar asos o‘laroq mana shu dalilni keltiradilar.

Nabatiy yozuvi bilan arab yozuvining o‘rtasidagi bir qancha o‘xshashlik jihatlarning mavjud ekanidan arab yozuvining paydo bo‘lishida bu yozuv turining ta’siri katta bo‘lganini aytgan olimlar ham bor. Salohiddin Munajjid (vafoti 1431/2010) bu mavzuni ifodalab, nabatiy yozuvining Madina shahriga olib keltirilganidan so‘ng, uning arab yozuviga aylantirilganini aytadi. U mazkur yozuvning xususiyatlarining ham mus’hafning imlo shakliga, hamda keyingi kitobat va yozishmalarda inobatga olinganini ifodalab, o‘zining bu da’vosini asoslashga urinadi.

Arab yozuvining manbasi va uning tabiatiga doir ilgari surilgan qarashlar xulosa qilinadigan bo‘lsa, bu borada turli yondashuvlarning yuzaga kelganini aytib o‘tish mumkin. Avvalo, arab tilining manbasining ilohiy yoki bashariy bir ko‘rinish ekani shaklidagi yondashuvlarning arab yozuvining manbalariga ko‘ra ham jarayon etganini ifodalash mumkin. Ba’zi islom olimlari yozuvning ilohiy tarafdan tushirilgan manba ekanini aytsalarda, ba’zilar uni bashariy ekani fikrini ilgari suradilar. Mana shunday qarashlarga ko‘ra, himyariy va nabatiy yozuvlari o‘zaro tijoriy munosabatlar orqali Hijoz o‘lkasiga yoyilgan, keyinchalik esa nabatiy yozuvining ta’sirida arab yozuvi vujudga kelgan[16]. Faqat qo‘lga kiritilgan natijalarga ko‘ra, arab yozuvining asl manbasining nima ekani haqida aniq bir dalilning mavjud emasligini ham aytib o‘tishimiz kerak. Shu bilan birga, Alloh taoloning ushbu «Tillaringizning va ranglaringizning turlicha bo‘lishi Allohning oyatlaridandir» va «Tanishasizlar deya sizlarni qavm va qabilalarga ayirdik» ma’nolarida ifodalangan dalillar har bir o‘tgan qabilaning o‘ziga xos farqli tili bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, butun tillar Odam (a.s)dan boshlanib, shakllanib to bugungi kunimizgacha yetib kelgandir.

[14] **Mazlum Chetin N.** *Arab.* – Istanbul: Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 1991. – 3-jild. – B. 276.
[15] Munajjid S. *Dirosatun fiy tarixil-xattil-arabiy munzu bidaayatiha ila nihaayatil-ashril-umaviy.* 3-nashr. – Bayrut: Dorul-kitaabil-jadid, 1972. – B. 13–19.
[16] Mazlum Chetin N. *Arab.* – Istanbul: Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 1991. – 3-jild. – B. 276.

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni ifodalash mumkinki, arab yozuvi turli yozuvlarning davomli silsilasi bo‘lgani sifati ila o‘sha yozuvlardagi ba’zi bir xususiyatlarni ham o‘zida mujassam qilgan. Shu sababli, yozuvda bir butunlik saqlanib qolmagan. Ayni vaqtda rivojlanish bosqichida yangi-yangi imlo xususiyatlarini o‘z ichiga olishi nuqtai nazaridan ham, uning bir jinsda bo‘lmagan uslubga kirib qolgani uning butun emaslik sabablaridan yana biri hisoblanadi. Aynan mana shu jihatdan ba’zi bir olimlar mus’haf imlosidagi farqlar ning arab yozuvining mana shu holatidan yuzaga kelganini va mus’haf imlosining bashariy bir ko‘rinish ekanini aytganlar.

Arab yozuvining shakllanishi va qo‘llanishi: Arab yozuvining manbalari haqida ilgari surilgan ba’zi bir da’volarni keltirib o‘tganimizdan so‘ng, endi arab yozuvining qo‘llanishi va uning yoyilishlik darajasi mavzusini yoritib, uning mus’haf imlosi bilan bo‘lgan bog‘liqligini bayon qilishga urinib ko‘ramiz. Avvalo, ushbu xususni keltirib o‘tish lozimki, nabatiy yozuvining arab yozuviga aylanishi bosqichining oltinchi asrdan oldingi davrlarda bo‘lgani aytiladi. Arab yozuvining o‘zaro munosabatlarda qo‘llanilib rivojlanishini ko‘rsatuvchi eng qadimgi qo‘lyozmalarning miloddan keyingi 512-yilda[17] yozilgani bu da’voni tasdiqlaydi. Mana shu naqllarga asosan, arab yozuvining beshinchi asrlarda shakllanib oltinchi asrdan e’tiboran muomalaga kirganligini aytish mumkin[18].

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir Balozuriy. Futuhul-buldon. – Bayrut: Muassasatul Maorif, 1987. – B. 258.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Is’hoq ibn Yasor ibn Xiyar Al-Muttalibiy Al-Qurashiy Al-Madaniy. Kitaabus-siyar val-mag‘oziy. – 1-nashr. Dorul Fikr, 1978. – B. 523.
3. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as ibn Is’hoq Sijistoniy Azdiy. Kitaabu-l-Masohif. – Qohira, 2002. – B. 452.
4. Abu Faraj Muhammad ibn Abu Ya’qub Is’hoq An-Nadim. Kitabu-l-Fihrist. – Bayrut: Dorul Ma’rifat, 1997. – B. 6-8.
5. Abu Husayn Ahmad ibn Foris ibn Zakariyo Ar-Roziy. As-Sohibi fiy fiqhil-lug‘atil-arabiyyati va sunanil-arabi fiy kalaamiha. Tahqiq: Dr. Umar Foruq Daabba. – 1-nashr. Bayrut: Maktabatul Maorif, 1993. – B. 587.

[17] Munajjid S. *Dirosatun fiy tarixil-xattil-arabiy munzu bidaayatiha ila nihaayatil-ashril-umaviy.* – Bayrut: Dorul-kitaabil-jadid, 1972. – B. 21.
[18] Serin M., Zunnun Yu. *Ko‘fiy.* – Istanbul: Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 2002. – 26-jild. – B. 343.

Корпоратив бошқарув тизими самарадорлигини оширищда ва халқаро молия бозорларида иштирок этишда ички аудитнинг ахамияти

Райимжонова Гулноза Абураимовна
Тошкент ахборот технологиялари университети «АКТ сохасида иқтисодиёт» кафедраси ўқитувчиси

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотлар аввало аҳоли турмуш фаровонлигини таъминлаш, ишсизлик даражасини камайтириш ва албатта халқаро иқтисодиётда нуфузга эга булиш ва ривожланган давлатлар қаторига қўшилиш ва бу орқали барқарор иқтисодиётга эришишни назарда тутади. Дунёнинг ривожланаган давлатлари тажрибаси улар яим нинг катта қисми халқаро корпорациялар хиссасига тўгри келаётганлигини кўрсатмоқда. Бу эса бизда хам айнан ушбу амалиётни қўллаш ва жорий этиш иқтисодиётимизни мустаҳкамлашда энг муҳим қадам бўлишининг кафолатидир. Бу борада мамлакатимизда кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Иқтисодий ислохотларнинг устувор йўналишларидан бири этиб давлат тасаруфида ёки давлат улуши юқори бўлган йирик корхоналарни акциядорлик жамиятларига (корпорацияларга) айлантириш белгиланган. Шу орқали уларга инвестиция ва янги замонавий инновацион технологияларни жалб этиб улар фаолиятининг юқори самарадорлигига эришиш кўзда тутилган.

Шунингдек, мамлакатимизни ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида – “… капитални жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлар ва аҳолининг эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манба сифатида фонд бозорини ривожлантириш; халқаро иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш, шу жумладан етакчи халқаро ва хорижий молиявий институтлар билан алоқаларни кенгайтириш йўли билан, пухта ўйланган ташқи қарзлар сиёсатини амалга оширишини давом этиш, жалб қилинган хорижий инвестициялар ва кредитлардан самарали фойдаланиш” [2] – каби масалалар алоҳида қайд этилган. Корпоратив бошкарувнинг асосий кўриниши булган акциядорлик жамиятлари фаолиятини самарали йўлга қўйиш орқали мамалакатимиз иқтисодиёти пировардида:

- акцияларини жойлаштириш орқали капитал жалб қилишнинг қарз капитали жалб килишга нисбатан арзон алтернативига эга бўлади;
Psixologik mexanizm sifatida RDO Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”ni raqamli scaffold orqali kengaytiradi: o‘yin ichidagi adaptiv maslahatlar (adaptive hints) o‘quvchining joriy darajasiga moslashib, kognitiv yukni optimallashtiradi (Sweller, 2011). Neyrokognitiv jihatdan, o‘yin vaqtidagi gamma-to‘lqin sinkronizatsiyasi (30–100 Hz) prefrontal va parietal korteks o‘rtasidagi funksional bog‘lanishni kuchaytirib, ishchi xotira va ijro etuvchi funksiyalarni rivojlantiradi (Engel et al., 2001). O‘zbekiston kontekstida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot (Qodirova, 2023) shuni aniqladiki, “Bilimdon” mobil ilovasi asosidagi RDO 3-sinf o‘quvchilarida muammoli fikrlashning reja tuzish bosqichini 41% ga yaxshilagan, bu mahalliy kontentni (o‘zbek xalq ertaklari asosidagi muammolar) integratsiya qilishning samaradorligini tasdiqlaydi. Amaliy qo‘llashda RDO dizayni quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanishi lozim: birinchidan, muammoning ochiqligi (open-ended problems) – o‘yin bir nechta to‘g‘ri yechimni qabul qilishi kerak; ikkinchidan, feedbackning tezkorligi va aniqligi – kechikkan feedback ishchi xotirani ortiqcha yuklaydi; uchinchidan, kollaborativ elementlar – ko‘p o‘yinchi rejimlari (multiplayer) ijtimoiy konstruktivizm orqali perspektiva olishni rag‘batlantiradi. Shafferning (2006) “epistemic games” modeli asosida RDO kasbiy muammolarni simulyatsiya qilishi mumkin, masalan, virtual shaharni rejalashtirish orqali urbanistik muammolarni hal qilish.

Cheklovlar ham mavjud: birinchidan, raqamli tafovut (digital divide) – qishloq maktablarida internet va qurilmalar cheklanganligi inklyuzivlikni buzadi; ikkinchidan, o‘yin odatlanishi (gaming addiction) – DSM-5 mezonlariga ko‘ra, kuniga 2 soatdan ortiq o‘yin xavf omili hisoblanadi; uchinchidan, transfer muammosi – o‘yin ichidagi muvaffaqiyat real hayotiy vaziyatlarga o‘tmasligi mumkin (near vs. Far transfer). Bularni bartaraf etish uchun blended learning yondashuvi (raqamli + jismoniy o‘yinlar) va ota-onalar nazorati zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli didaktik o‘yinlar boshlang‘ich ta’limda muammoli fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asoslangan, yuqori samarali vositasi bo‘lib, kognitiv, neyral va ijtimoiy mexanizmlarni birlashtiradi. O‘zbek ta’lim tizimida mahalliy RDO platformalarini ishlab chiqish va ularning uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish bo‘yicha longitudinal tadqiqotlar talab etiladi. Shunday qilib, RDO nafaqat texnologik innovatsiya, balki bolalarning kognitiv kapitalini strategik oshirish vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Engel, A. K., Fries, P., & Singer, W. (2001). Dynamic predictions: Oscillations and synchrony in top-down processing. Nature Reviews Neuroscience, 2(10), 704–716.

2. Jonassen, D. H. (1997). Instructional design models for well-structured and ill-structured problem-solving learning outcomes. Educational Technology Research and Development, 45(1), 65–94.
3. Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. Cambridge University Press.
4. Newell, A., & Simon, H. A. (1972). Human problem solving. Prentice-Hall.
5. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas. Basic Books.
6. Polya, G. (1945). How to solve it. Princeton University Press.
7. Qodirova, Sh. T. (2023). Raqamli didaktik o‘yinlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muammoli fikrlashni rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya jurnali, 5(1), 89–104.
8. Shaffer, D. W. (2006). How computer games help children learn. Palgrave Macmillan.
9. Sweller, J. (2011). Cognitive load theory. In J. P. Mestre & B. H. Ross (Eds.), The psychology of learning and motivation: Cognition in education (Vol. 55, pp. 37–76). Academic Press.
10. Vogel, J. J., Vogel, D. S., Cannon-Bowers, J., Bowers, C. A., Muse, K., & Wright, M. (2006). Computer gaming and interactive simulations for learning: A meta-analysis. Journal of Educational Computing Research, 34(3), 229–243.
11. Wouters, P., van Nimwegen, C., van Oostendorp, H., & van der Spek, E. D. (2013). A meta-analysis of the cognitive and motivational effects of serious games. Journal of Educational Psychology, 105(2), 249–265.

O‘ZBEKISTONDA JINOYAT SUDLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

O‘RİNBOYEV KOMİLJON UMİDJON O‘G‘Lİ

ANNOTATSİYA

Mazkur ilmiy tezisda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat sudlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning huquqiy asoslari, amaliyotdagi yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Sud-huquq tizimini modernizatsiya qilishda “E-SUD” tizimi, masofaviy videokonferensiyalar, elektron arizalar va sun’iy intellekt elementlarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, sud jarayonlarida shaffoflikni oshirish, inson omilini kamaytirish va fuqarolarga qulaylik yaratish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat sudi, raqamli texnologiyalar, E-SUD tizimi, sun’iy intellekt, shaffoflik, elektron hujjat, masofaviy sud majlisi..

KİRİSH

Hozirgi davrda raqamli transformatsiya barcha sohalarda chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sud-huquq tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish O‘zbekiston Respublikasida sud mustaqilligi, oshkoralik va adolat prinsiplarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi sud jarayonlarining tezkorligi, shaffofligi va inson omiliga bog‘liq xatoliklarning kamayishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 3-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan videoselektorda ta’kidlaganidek:

“Sudlar faoliyatini raqamlashtirish orqali fuqarolar uchun qulay, shaffof va adolatli sud tizimini yaratish — davlat siyosatining muhim yo‘nalishidir.”

ASOSİY QİSM

1. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asosi

Raqamli texnologiyalarni sud tizimiga tatbiq etish O‘zbekiston Respublikasining quyidagi hujjatlari bilan mustahkamlangan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-iyuldagi PQ–4422-son qarori “Sudlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish to‘g‘risida”;
- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2020-yil 5-oktabr);
- “E-SUD” elektron tizimini joriy etish to‘g‘risidagi Adliya vazirligi va Oliy sudning qo‘shma qarorlari.

2. Jinoyat sudlarida raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi
Bugungi kunda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda quyidagi raqamli yechimlar faol ishlatilmoqda:
1. “E-SUD” yagona axborot tizimi — jinoyat ishlari, apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlarini onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish, sud majlislari jadvalini kuzatish va sud qarorlarini olish imkonini beradi.
2. Masofaviy videokonferensiya tizimi — hibsda saqlanayotgan shaxslarning sud jarayonida onlayn ishtirok etishini ta’minlaydi. 2023-yilda O‘zbekiston bo‘yicha 42 mingdan ortiq sud majlisi masofadan o‘tkazilgan.
3. Elektron ariza va shikoyatlar portali (e-appeal) — fuqarolar sudga ariza topshirish, ish holatini kuzatish va qarorlarni olish imkoniga ega.
4. Audio va video qayd tizimi — har bir sud majlisi yozib olinadi, bu esa sud jarayonining shaffofligi va adolatni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

3. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil imkoniyatlari
Dunyo tajribasida (AQSh, Xitoy, Estoniya) sun’iy intellekt sud qarorlarini tahlil qilish, avvalgi ishlar bilan solishtirish va ehtimoliy xatoliklarni aniqlashda samarali natijalar bermoqda. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Axborot markazida AI asosida hujjatlarni tasniflovchi dasturiy modul ishlab chiqilmoqda.
4. Muammolar va istiqbollar
Raqamli texnologiyalarni jinoyat sudlariga joriy etishda quyidagi muammolar mavjud:
- ayrim hududlarda internet infratuzilmasining zaifligi;
- sud xodimlari va advokatlarning raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi;
- axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tizimining sustligi.
Kelgusida bu muammolarni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:
- sud xodimlari uchun raqamli kompetensiya bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini tashkil etish;
- AI va “Big Data” texnologiyalarini normativ asosda tartibga solish;
- sud axborot tizimlarida blokcheyn texnologiyasini sinov tariqasida joriy etish orqali ma’lumotlarning soxtalashtirilishini oldini olish.

XULOSA

O‘zbekiston jinoyat sudlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish sud tizimining sifat va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. “E-SUD” tizimi, masofaviy videokonferensiyalar, elektron arizalar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar — bularning barchasi adolatli, oshkora va fuqarolarga qulay sud tizimini shakllantirishga xizmat

qilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonini izchil davom ettirish, axborot xavfsizligi va huquqiy tartibot mexanizmlarini takomillashtirish esa sud adolatining yangi bosqichini ta’minlaydi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4422-son qarori, 30.07.2019 y.
2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2020-yil 5-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy ma’lumotlari, 2023-yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari. – Toshkent, 2021.
5. Tursunov A., “Sudlarda axborot texnologiyalarini joriy etish tajribasi va istiqbollari”, Huquq va demokratiya jurnali, 2023-yil, №4.

TEACHER – STUDENT INTERACTION AND MOTIVATION IN LANGUAGE LEARNING

Aziza Safaralieva
Master's degree from Uzbek State World Languages University

Annotation. This paper explores the crucial role of teacher–student interaction in motivating learners in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. It argues that the quality of communication, empathy, and feedback between teachers and students significantly influences learners' engagement and performance. The study emphasizes that motivation is not only a psychological factor but also a product of effective pedagogical relationships.
Keywords: teacher–student interaction, motivation, EFL, communication, engagement, learning outcomes.

Introduction. Motivation plays a central role in second language acquisition and academic achievement. It determines learners' persistence, participation, and success in mastering a foreign language. According to Dörnyei (2001), motivation is one of the key components of effective language learning, as it influences both the amount of effort learners invest and the strategies they use.

However, motivation does not exist in isolation. It is strongly influenced by contextual and social factors, among which the relationship between teachers and students is particularly significant. The teacher is not merely a source of linguistic knowledge but also a guide, mentor, and motivator. The quality of teacher–student interaction can therefore determine the level of enthusiasm and confidence with which learners approach English language learning. In the EFL context, where students often lack natural exposure to the language, the classroom becomes the primary environment for interaction. Consequently, teachers play an essential role in creating a supportive atmosphere that fosters both linguistic competence and emotional well-being.

Teacher–student interaction can be defined as the reciprocal communication and emotional connection established between teachers and learners. It encompasses both verbal and non-verbal behaviors such as eye contact, tone of voice, gestures, and feedback. Positive interaction contributes to building trust and reducing learners' anxiety. When teachers create an inclusive and respectful classroom climate, students feel safe to take risks, make mistakes, and express themselves freely in English. In contrast, when communication is limited or overly authoritative, learners tend to become passive, anxious, and disengaged.

Numerous studies (Harmer, 2007; Brown, 2000) have demonstrated that effective teacher–student communication enhances motivation, particularly intrinsic motivation — the inner drive to learn for enjoyment and self-improvement. Teachers who show empathy, listen

actively, and provide personalized feedback foster students' sense of belonging and achievement.

Additionally, interaction helps develop the affective domain of learning — feelings, attitudes, and values — which plays a vital role in language development. Teachers who integrate humor, storytelling, and supportive dialogue stimulate learners' curiosity and make language learning more meaningful. There are various strategies to enhance interaction and motivation:

1. Creating a Positive Classroom Atmosphere: Motivation thrives in a comfortable and emotionally secure learning environment. Teachers should establish mutual respect and show genuine interest in students' progress. Encouragement and appreciation help students feel valued and confident.

2. Using Interactive Techniques: Techniques such as pair work, group discussions, debates, and role-plays provide opportunities for active participation. These activities promote communication, collaboration, and critical thinking while reducing fear of making mistakes.

3. Providing Constructive Feedback: Feedback should be specific, supportive, and timely. Rather than focusing solely on errors, teachers should highlight progress and offer suggestions for improvement. Positive reinforcement increases learners' self-efficacy and persistence.

4. Incorporating Technology for Interaction: Digital platforms such as online forums, video conferencing, and learning apps can strengthen teacher–student communication beyond the classroom. Technology can also provide immediate feedback and personalized learning experiences, further motivating students.

5. Cultural and Emotional Awareness: Teachers should recognize cultural and emotional differences among learners. Understanding students' backgrounds, interests, and learning styles enhances the quality of interaction and fosters a sense of inclusion.

Motivation in language learning is closely linked to emotional engagement. Students' attitudes toward their teachers significantly influence their attitudes toward learning itself. A teacher who models enthusiasm and commitment inspires students to mirror these qualities. Vygotsky's sociocultural theory highlights that learning occurs through social interaction. The teacher's role as a mediator enables learners to move from dependence to autonomy. This process requires sensitivity, patience, and open communication.

In multilingual contexts like Uzbekistan, where English is taught as a foreign language, teacher–student interaction becomes even more critical. Since students rarely use English outside the classroom, teachers must provide authentic communicative opportunities within lessons. Encouraging dialogue, problem-solving tasks, and cooperative learning builds both linguistic and interpersonal competence.

However, challenges remain. Large class sizes, time constraints, and traditional teaching methods can limit meaningful interaction. Therefore, professional development programs should focus on enhancing teachers' communicative and emotional intelligence skills.

Training in classroom management, feedback delivery, and interactive pedagogy can significantly improve student motivation.

Conclusion. Teacher–student interaction is a cornerstone of successful English language education. Motivation does not emerge spontaneously — it grows through trust, empathy, and communication between teachers and learners. By adopting interactive teaching strategies, providing constructive feedback, and promoting an emotionally supportive classroom environment, teachers can transform students’ attitudes toward English learning. Future research should explore how online and blended learning environments can sustain motivation through digital teacher–student interaction. Strengthening these relationships in both physical and virtual classrooms is essential for achieving long-term success in language education.

REFERENCES

1. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
3. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. Longman.
4. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). Teaching and Researching Motivation. Pearson Education.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

LINGUACULTURAL CODES

Usmonova Durdona Fazliddin qizi,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Teacher, Department of Practical English and Literature.
E-mail: dudish-0101@mail.ru

Abstract: This thesis conceptualizes linguacultural codes as semiotic systems integrating linguistic forms with cultural schemas to construct and negotiate meaning in intercultural communication. Drawing on Lotman's semiosphere, Wierzbicka's metalanguage, Lakoff and Johnson's conceptual metaphor theory, and Brown and Levinson's politeness framework, it examines indexicality, metaphorical mapping, and pragmatic implicature across English, Russian, and Uzbek. Corpus-based contrastive analysis (Uzbek National Corpus, parallel EN-RU-UZ corpora, Telegram multimodal data) reveals statistically significant divergences in mortality metaphors, temporal spatialization, and emoji interpretation. Neurocognitive evidenceand experimental priming confirm the embodied and adaptive nature of code-switching. Pedagogical interventions in Uzbekistan's trilingual education yield 34% gains in pragmatic appropriateness. The study advocates code-awareness curricula, positioning linguacultural codes as dynamic bridges between linguistic structure and sociocultural worldview.
Keywords: linguacultural codes, semiosphere, conceptual metaphor, indexicality, intercultural pragmatics, code-switching, cultural schemas, emoji semiotics, neurocognitive embodiment, Uzbek-English-Russian contrastive analysis.

Linguacultural codes represent the intricate semiotic systems wherein linguistic structures intersect with cultural schemas to encode, transmit, and decode meanings that transcend mere lexical denotation. Grounded in Lotman's semiosphere theory and Wierzbicka's natural semantic metalanguage, these codes function as dynamic interfaces between language as a formal system and culture as a lived praxis, shaping not only what is said but how it is interpretively reconstructed across sociocultural boundaries. This article advances an integrative model of linguacultural codes by synthesizing insights from cognitive linguistics (Lakoff & Johnson, 1980), cultural anthropology (Geertz, 1973), and pragmatics (Verschueren, 1999), while empirically grounding the analysis in contrastive data from English, Russian, and Uzbek corpora to illuminate mechanisms of code-switching, metaphorical mapping, and pragmatic implicature in intercultural contexts.

At the core of linguacultural codes lies the principle of indexicality (Silverstein, 2003), whereby linguistic forms index cultural presuppositions that are not universally shared. Consider the English idiom "to kick the bucket," which denotes death but presupposes a

cultural schema of rural farm life and euthanasia practices absent in many non-Western contexts. In Uzbek, the equivalent "jonini topshirmoq" (literally "to surrender one's soul") activates a religious-Islamic frame of submission to divine will, rendering direct translation not merely inaccurate but semantically opaque. Corpus analysis of the Uzbek National Corpus (UNC, 2022) reveals that mortality expressions cluster around spiritual metaphors (e.g., "ruhini uchirish" – "to release the soul"), with a statistically significant preference over mechanistic metaphors dominant in English. This divergence exemplifies how linguacultural codes embed worldview-specific ontologies materialist versus spiritualist into grammaticalized patterns of metaphor. Cognitive linguistics further elucidates code structure through conceptual metaphor theory. Lakoff and Johnson's (1980) invariance hypothesis posits that metaphorical mappings preserve image-schematic structure, yet intercultural data challenge its universality. In Russian, time is predominantly spatialized along a horizontal axis ("вперёд" – forward for future), aligning with a linear-progressive cultural temporality. In contrast, Uzbek employs vertical metaphors ("yuqoriga chiqmoq" – to rise for success/future), indexing a hierarchical cosmology influenced by Turkic-Islamic traditions. A bidirectional parallel corpus study demonstrates that 72% of temporal expressions in Uzbek resist horizontal mapping, triggering systematic mistranslation in machine systems. These findings support Kövecses' (2005) cultural variation hypothesis, wherein universal experiential bases are differentially elaborated by culture-specific values. Pragmatic dimensions of linguacultural codes manifest in politeness strategies and implicature. Brown and Levinson's (1987) face-threatening act (FTA) model, while influential, exhibits Eurocentric bias in weighting negative over positive politeness. In high-context Uzbek communication, positive politeness dominates through elaborate address forms ("aka," "opa") and indirect refusals ("inshalloh," "ko'ramiz"), encoding collectivist harmony (Hofstede, 2001). Experimental priming studies reveal that Uzbek-English bilinguals suppress direct FTAs in English when culturally primed with Uzbek scenarios, producing 40% more hedged refusals ("I'm not sure if…") than monolingual controls). This code-switching behavior illustrates dynamic adaptation of linguacultural schemas, challenging static models of competence.

Lotman's (1990) semiosphere concept provides a macro-framework for understanding code boundaries and translation zones. Within a semiosphere, core codes (e.g., kinship terminology) exhibit high stability, while peripheral codes (e.g., digital slang) permit greater translatability. In intercultural digital discourse, emoji function as transcultural pictographs, yet their interpretation remains code-dependent: the 👌 gesture indexes "OK" in American English but obscenity in Turkish-influenced Uzbek communities. Multimodal corpus analysis of Telegram chats shows that Uzbek users accompany 👌 with negative sentiment tokens 68% of the time, versus 3% in U.S. data—a statistically robust cultural inversion. Such micro-level divergences accumulate to produce macro-level miscommunication in globalized digital

spaces.

Neurocognitive evidence increasingly validates the embodied nature of linguacultural codes. fMRI studies (Pulvermüller, 2018) demonstrate that processing culture-specific metaphors activates distinct neural networks: English "grasp an idea" engages sensorimotor hand regions, while Uzbek "tushunib yetmoq" (to reach understanding) recruits leg/foot areas consistent with journey metaphors. Bilingual participants exhibit code-specific activation patterns that predict comprehension accuracy, suggesting that linguacultural competence is neurologically instantiated rather than purely symbolic. Pedagogical implications demand a paradigm shift from grammar-translation to code-awareness curricula. Intercultural competence models (Byram, 1997) must integrate code-decoding tasks: contrastive metaphor mapping, implicature role-plays, and digital semiosphere navigation. In Uzbekistan's trilingual education system, pilot interventions incorporating linguacultural code analysis into EFL instruction improved pragmatic appropriateness scores by 34%, outperforming traditional methods.

In conclusion, linguacultural codes constitute dynamic, multilayered systems wherein linguistic form, cultural schema, and pragmatic function converge to generate meaning. Their analysis reveals not merely translational challenges but fundamental differences in world-construction. Future research must employ longitudinal designs to track code evolution in digital contact zones and develop AI systems capable of culture-sensitive natural language understanding. Ultimately, mastering linguacultural codes transforms intercultural communication from a site of potential misunderstanding into a space of enriched semiotic possibility.

REFERENCES

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
2. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.
3. Geertz, C. (1973). The interpretation of cultures. Basic Books.
4. Hofstede, G. (2001). Culture's consequences (2nd ed.). Sage.
5. Kövecses, Z. (2005). Metaphor in culture: Universality and variation. Cambridge University Press.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.
7. Lotman, Y. M. (1990). Universe of the mind: A semiotic theory of culture. Indiana University Press.
8. Pulvermüller, F. (2018). Neural reuse of action perception circuits for language. Current Opinion in Neurobiology, 53, 61–68.
9. Silverstein, M. (2003). Indexical order and the dialectics of sociolinguistic life. Language & Communication, 23(3–4), 193–229.

10. Uzbek National Corpus (UNC). (2022). Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Tashkent.
11. Verschueren, J. (1999). Understanding pragmatics. Arnold.
12. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words. Oxford University Press.

MAVZU:O‘QUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA SO‘G‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH — IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Navoiy Davlat Universiteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Maxmudova Gulchiroy G’anisherovna

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchi yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, asosiy omillari va muammolari tahlil etiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish orqali yoshlarning jismoniy, ma’naviy va ruhiy salomatligini mustahkamlashning samarali yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning o‘zaro hamkorligi bu jarayonda hal qiluvchi omil sifatida yoritiladi.

Аннотация

В статье анализируются социально-педагогическое значение, основные факторы и проблемы формирования здорового образа жизни учащейся молодёжи. Показаны эффективные пути укрепления физического, духовного и психического здоровья молодёжи посредством развития культуры здорового образа жизни в современном образовательном процессе. При этом взаимодействие семьи, образовательного учреждения и общества выделяется как решающий фактор этого процесса.

Abstract

The article analyzes the socio-pedagogical significance, main factors and problems of forming a healthy lifestyle among young students. Effective ways of strengthening the physical, spiritual and mental health of young people through the development of a healthy lifestyle culture in the modern educational process are shown. At the same time, the interaction of the family, educational institution and society is highlighted as a decisive factor in this process.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy pedagogika, salomatlik madaniyati, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya.

KİRİSH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari davrida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Yoshlarning turmush tarzi, odatlari, ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy muvozanat va ijtimoiy muloqot madaniyati ularning umumiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarorlarida ham bu yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor

vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu bois, o‘quvchi yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish ta’lim tizimining ijtimoiy-pedagogik missiyasiga aylanmoqda.

Sog‘lom turmush tarzi — bu insonning jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy holatini muvozanatda ushlab turuvchi, salomatlikni mustahkamlovchi xulq-atvor tizimidir.

Pedagogika nuqtai nazaridan sog‘lom turmush tarzi quyidagilarga tayanadi:

- Jismoniy sog‘lomlik — to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena;
- Ruhiy muvozanat — stressni boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish;
- Ma’naviy barkamollik — ijobiy qadriyatlar, odob-axloq va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash;
- Ijtimoiy faollik — jamiyat hayotida ishtirok etish, sog‘lom muloqot madaniyatini egallash.

Demak, sog‘lom turmush tarzi faqat tibbiy muammo emas, balki shaxsni har tomonlama kamolga yetkazuvchi ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

O‘quvchi yosh — bu inson hayotining faol o‘sish, o‘zini anglash va ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirish davridir. Shu bosqichda sog‘lom hayot tamoyillarini shakllantirish:

- yoshlarni salbiy odatlardan (chekish, internetga qaramlik, dangasalik) himoya qiladi;
- jismoniy madaniyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi;
- ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantiradi;
- milliy qadriyatlar asosida sog‘lom yashash madaniyatini mustahkamlaydi.

Agar bu jarayon erta yoshdan boshlansa, sog‘lom turmush tarzining me’yorlari hayotiy zarurat sifatida qaror topadi.

O’quvchi yoshlar o’rtasida sog‘lom hayot madaniyatini shakllantirishda quyidagi uch muhit hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

- Oila — sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va axloqiy qadriyatlarning birlamchi manbai;
- Maktab — sog‘lom turmushga o‘rgatuvchi tizimli ta’lim va tarbiya muhiti;
- Jamiyat — yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiruvchi, salbiy ta’sirlarga qarshi immunitet beruvchi muhit.

Ijtimoiy pedagog bu uch muhit o‘rtasida vositachi sifatida chiqadi. U o‘quvchi va ota-onalar bilan suhbatlar, sog‘lom hayot festivallari, sport tadbirlari, ekologik aksiyalar orqali sog‘lom muhitni shakllantiradi.

Xulosa

O’quvchi yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish — bu uzluksiz, ko‘p tomonlama ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, yoshlarning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamolotiga bevosita ta’sir qiladi.

Maktab, oila va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati natijasidagina o‘quvchi yoshlar orasida

sog‘lom hayot madaniyati mustahkam qaror topadi. Shuning uchun ta’lim tizimida sog‘lom turmush tamoyillarini nafaqat dars jarayonida, balki ijtimoiy faoliyat, sport va madaniyat tadbirlari orqali ham singdirish zarur. Kelajak avlodning sog‘lom, faol va ma’naviy barkamol bo‘lishi — bu har bir pedagog va jamiyatning umumiy mas’uliyatidir.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR (NAMUNA)

1. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik.T.2009
2. Mavlonova R.A., Voxidova N.X., Ijtimoiy pedagogika.O’quv qo’llanma.T.: Istiqlol 2009.
3. Salieva Z. Ijtimoiy pedagogika. O’quv qo’llanma. T.: Adabiyot uchqunlari. 2019
4. Галагузова М.А. История социалной педагогики. Учебное пособие.М. Владос. 2000.
5. В.Утёмов, М.Зиновкина, П.Горев. Креативная педагогика. – М., “Юрайт”. 2019
6. Karimova, D. “Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishning pedagogik asoslari.” *Pedagogika va ijtimoiy fanlar jurnali*, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-6158-son qarori, 2021-yil.
8. Hasanov, A. “Sog‘lom turmush madaniyati: ta’limdagi ijtimoiy yondashuvlar.” *O‘zbekiston ta’limi*, 2022.
9. Vygotskiy, L.S. *Shaxs va jamiyat rivojlanishi nazariyasi.* Moskva, 1984.
Ziyonet.uz – Elektron ilmiy-ma’lumotlar portali.

СРАВНЕНИЕ Т-ОБРАЗНОГО И V- ОБРАЗНЫХ РАЗРЕЗОВ ПРИ ФРЕНУЛОЭКТОМИИ КОРОТКИХ УЗДЕЧЕК ВЕРХНЕЙ ГУБЫ У ДЕТЕЙ

Зокирова Ш.Ё.
Магистр Ташкентского Государственного Стоматологического Института.

Анотация. В данной статье рассмотрено сравнение Т-образного и V- образных разрезов при френулоэктомии коротких уздечек верхней губы у детей.
Актуальность исследования. Эластичные поперечно-полосатые мышечные волокна прикрепленные между губами и деснами а также десной и языком называются уздечками полости рта. Уздечки расположены в верхней, нижней, боковых сторонах рта и под языком. Основной задачей уздечек является обеспечение правильного функционирования движений составляющих элементов полости рта, а также, участие в правильном и четком произношение речи.
Цели и задачи исследования. На сегодняшний день аномальные уздечки губ возникают в результате нарушения процесса эмбрионального формирования и развития ДНК структур мягких тканей плода. Вероятно, дефект развития может быть связан с наследственностью (наличие короткой уздечки у одного из родителей), нарушениями эмбрионального развития в следствие хронического стресса. А также вирусных заболеваний, приема некоторых лекарственных препаратов, негативного воздействия профессиональных факторов, и не исключен факт сильного токсикоза во время беременности. Стоит отметить, что уздечка верхней губ более выражена по величине, плотности, форме и протяжности чем уздечка нижней губы. Укороченная верхняя и нижняя связка губ может приводить к образованию диастем, повышенной кровоточивости десны из-за частого травмирования, пародонтит, нарушению дикции и к психологическому дискомфорту из-за неэстетической улыбки.
Ключевые слова: уздечки губ, эмбриональные нарушения, диастема, преддверие полости рта.
Материалы и методы. Аномальные уздечки верхней губы систематизируются с рядом авторов как А. Н. Ненашев, С. С. Куликов которые рассматривали морфологические состояния уздечек с учетом их прикрепления; по данным Ф.Я.Хорошилкиной частота аномалий верхней губы составляет 15.5% - 20.9% , при этом низко прикрепленная сочетанная уздечка верхней губы с диастемой у 49% детей; Г. Ю. Пакалнс выделял различия в прикреплении уздечек, разделяя их на «сильные», «средние», «слабые»; М. Ю. Образцов и С. Н. Ларионов отмечали три признака плотности уздечек.
Результаты исследования. Клинические исследования и большое количество систематизаций уздечек верхней губы показывают высокую значимость проблемы в

детской хирургической стоматологии. Таким образом, выработка алгоритма а также усовершенствование существующих методов опираясь на современной тенденции хирургического лечения является актуальной темой сегодняшнего дня. Следовательно устранение или предупреждение перечисленных функциональных нарушений является важным показанием к медицинской реабилитации больных с аномалиями и деформациями зубочелюстной системы. Данные собранные в результате проведенных исследований показали, применение двух методов френулоэктомии губы имеют положительную результативность исходя от вида и прикрепления уздечки губы. Оба метода широко применяются в амбулаторных условиях и являются одним из стандартных разновидностей лечения диастем у детей.

Выводы. Таким образом хирургические методы направленные на устранение факторов способствующих и усугубляющих зубочелюстные деформации являются первоочередными задачами как врача ортодонта так и хирурга стоматолога. Техника оперативных вмешательств при перечисленной патологии не сложна проводится обычно врачом на амбулаторном хирургическом приеме. Однако разнообразие методик оперативных вмешательств затрудняет их выбор при той или иной патологии уздечек или преддверия полости рта. Чаще всего хирург стоматолог не определяя степень патологии применяет стандартные виды оперативных вмешательств без выбора показаний. Например по Хорошилкиной при аномалии уздечек показано рассечение уздечки или иссечение ее у места прикрепления и ушивание раны.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Варганова Н. В., Семенихина А. И., Протопопова С. Н. и др. Опыт хирургического лечения коротких уздечек губ и языка. / Актуальные проблемы современной стоматологии. — Материалы научн.-практ. конф., посвящ. 25-летию стомат. ф-та Ижевской медакадемии. — Ижевск, 2005. — С. 105-107.
2.Персин Л.С., Елизарова В.М., Дьякова С.В. Стоматология детского возраста. - М.: Медицина, 2003. – 639 с.
3.Телебаева Г.Т. Профилактика и лечение сагиттальных аномалий прикуса у детей // Автореф… канд. мед. наук (140021-стоматология). -
Алма-Ата: 1976. - 23 с.
4. Хорошилкина Ф.Я. Этиология, клиника и лечение диастемы // Стоматология.- 1972. - №2. - С.77-81.
5. Хорошилкина Ф.Я. Руководство по ортодонтии. - М.: Медицина, 1999. -798с.
6. Ненашев А.П., Куликов С.С. Классификация аномалий уздечек верхней губы и их лечение// Стоматология. - 1968. - №1.- С.77-81.

FRONTIT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA KLINIK AHAMIYATI

Xoshimov Ilxomjon Xasan o‘g‘li
Matxoshimov Nodirjon Soibjonovich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Jo‘rayev G‘anijon G‘ulomovich
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Frontal sinusning yallig‘lanishi — frontit — LOR kasalliklari orasida keng tarqalgan patologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada frontitning sabablari, rivojlanish mexanizmi, klinik belgilar va diagnostik usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy davolash yondashuvlari — antibiotikoterapiya, fizioterapiya va endoskopik jarrohlik —ning samaradorligi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bemorlarni erta tashxislash va kompleks davolash orqali surunkali shaklga o‘tish xavfini kamaytirishga yordam beradi.
Kalit so‘zlar: frontit, frontal sinus, LOR kasalligi, sinusit, endoskopik jarrohlik, antibiotikoterapiya

Аннотация: Воспаление лобной пазухи — фронтит — является одной из широко распространённых патологий в практике ЛОР. В статье рассматриваются причины фронтита, механизм его развития, клинические проявления и методы диагностики. Также обсуждается эффективность современных методов лечения, включая антибиотикотерапию, физиотерапию и эндоскопическую хирургию. Результаты исследования позволяют своевременно диагностировать пациентов и снижать риск перехода болезни в хроническую форму.
Ключевые слова: фронтит, лобная пазуха, ЛОР-заболевания, синусит, эндоскопическая хирургия, антибиотикотерапия
Abstract: Inflammation of the frontal sinus — frontitis — is a common pathology in ENT practice. This article analyzes the causes of frontitis, its pathogenesis, clinical manifestations, and diagnostic methods. The effectiveness of modern treatment approaches, including antibiotic therapy, physiotherapy, and endoscopic surgery, is also reviewed. The study results help in early diagnosis and reduce the risk of progression to chronic form.
Keywords: frontitis, frontal sinus, ENT diseases, sinusitis, endoscopic surgery, antibiotic therapy

Frontal sinus yallig‘lanishi — frontit — ilk bor XIX asr oxirlarida LOR (otorinolaringologiya) sohasida tasniflangan. Dastlab, kasallik klinik belgilarga asoslanib, peshona og‘rig‘i, burundan yiringli ajralma va isitma orqali aniqlangan. XIX va XX asr boshlarida frontit ko‘pincha surunkali shaklda kechib, murakkab asoratlar — masalan, orbital

yoki miyaga tarqalish — bilan bog‘liq bo‘lgan. Shifokorlar asosan konservativ usullarga, ya’ni davolashda tomchilar va dorivor preparatlarga tayanishgan.

Hozirgi kunda frontitning tashxisi va davolash yondashuvlari sezilarli darajada rivojlangan. Diagnostika asosan quyidagi usullarga tayanadi: klinik ko‘rik, rinoskopiya, rentgen tekshiruvi, kompyuter tomografiya (KT) va endoskopik tekshiruvlar. Shuningdek, burun ajralmasining bakteriologik tahlili orqali infektsiyani aniqlash mumkin. Zamonaviy davolash yondashuvlari kompleks bo‘lib, antibiotikoterapiya, fizioterapiya va endoskopik jarrohlikni o‘z ichiga oladi. Bu usullar surunkali frontit rivojlanishini kamaytiradi, bemorlarning sog‘ayish darajasini oshiradi va asoratlarni oldini oladi. Shu bilan birga, profilaktik choralar — burun gigiyenasi, allergik kasalliklarni nazorat qilish va vaqtida LOR shifokoriga murojaat qilish — kasallikni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Frontit bugungi kunda LOR kasalliklari orasida eng ko‘p uchraydigan sinusit turlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tkir rinosinusit bilan kasallangan bemorlarning 10–15 foizida frontal sinuslar yallig‘lanishi kuzatiladi. Ayniqsa, sovuq iqlim sharoitida yashovchi aholida, allergik rinit yoki immunitet pasayishi fonida kasallikning tarqalish ko‘rsatkichi yuqori.

Zamonaviy tibbiyotda frontitni erta diagnostika qilish uchun kompyuter tomografiya (KT), endoskopik tekshiruv, mikrobiologik tahlil kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Davolashda esa antibiotikoterapiya, burun bo‘shlig‘ini drenajlash, va endoskopik sinus jarrohligi samarali natijalar bermoqda. Shu nuqtai nazardan, frontit kasalligini chuqur o‘rganish, uning etiologiyasi, patogenezi, klinik kechishini tahlil qilish hamda diagnostika va davolashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish tibbiyot amaliyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda frontit LOR kasalliklari orasida keng tarqalgan va har yosh guruhida uchraydigan patologiya hisoblanadi. O‘tkir frontit ko‘pincha yuqori nafas yo‘llari infektsiyalari, allergik kasalliklar yoki burun anatomik o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy diagnostika va davolash yondashuvlari orqali surunkali shaklga o‘tish xavfi sezilarli darajada kamaytiriladi. Bolalarda frontit odatda o‘tkir shaklda kechadi; sabablar asosan respirator infektsiyalar va yetarli darajada rivojlanmagan immunitet bilan bog‘liq. Klinik belgilar peshona og‘rig‘i, isitma, burundan yiringli ajralma va umumiy holsizlikni o‘z ichiga oladi.

O‘smir va kattalar orasida frontit ko‘proq surunkali shaklga o‘tish xavfi bilan tavsiflanadi. Bu yosh guruhda kasallikning asosiy sabablari burun to‘sig‘i deformatsiyalari, polipoz, allergik rinit va surunkali sinus infektsiyalari hisoblanadi. Klinik belgilar uzoq davom etadigan burun yiringlanishi, bosh og‘rig‘i, ko‘z atrofi shishi va tez charchash kabi holatlarni o‘z ichiga oladi. Yoshga qarab davolash yondashuvlari ham farqlanadi: bolalarda asosan konservativ usullar — antibiotikoterapiya va fizioterapiya, kattalarda esa endoskopik jarrohlik va kompleks davolash ko‘proq qo‘llanadi.

Frontal sinus yallig‘lanishi — frontit — LOR amaliyotida keng tarqalgan kasallik bo‘lib, bemorlar orasida sezilarli morbiditetga sabab bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eng ko‘p uchraydigan klinik belgilar peshona sohasida og‘riq, burundan yiringli ajralma, isitma va umumiy holsizlikdir. Surunkali frontit rivojlanishiga burun to‘sig‘i deformatsiyalari, polipoz va yuqori nafas yo‘llari infeksiyalari asosiy omil sifatida ta’sir qiladi. Erta tashxis va kompleks davolash yondashuvlari — antibiotikoterapiya, fizioterapiya va endoskopik jarrohlik — bemorlarning sog‘ayish darajasini sezilarli darajada oshiradi va surunkali shaklga o‘tish xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, frontitning oldini olish uchun burun gigiyenasi, allergik kasalliklarni nazorat qilish va vaqtida LOR shifokoriga murojaat qilish kabi profilaktik chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Natijada, frontitni o‘z vaqtida aniqlash va samarali davolash bemorlarning sifatli hayot kechirishiga yordam beradi hamda LOR amaliyotida klinik ko‘rsatmalarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хошимов И.Х., Матхошимов Н.С. Frontit va uning klinik jihatlari. Tibbiyot ilmiy jurnal, 2022; 4(3): 45-52.
2. Usmonova N. Sinusit va frontit: diagnostika va davolash. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 2020; 5(1): 12-19.
3. Нуров У.И., Шодиева М.Б. МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА СУРУНКАЛИ РИНОСИНУСИТ ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ — (2024). Бухоро давлат тиббиёт институти.
4. Nurova, G. U. "The state of indicators of functional activity of neutrophils, peripheral blood monocytes and cytokine status of the body in twin children with chronic purulent rhinosinusitis." Journal of healthcare and life-science research 2.4 (2023): 53-54.
5. Nurova, G. U. "Possibilities of modern light diagnostics in acute and chronic diseases of the nasal adjuncts." JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH 2.4 (2023): 55-58.
6. Mahdavinia, M., Grammer, L. C., & Schleimer, R. P. (2018). Chronic rhinosinusitis and immunodeficiency: evaluation and treatment. Clinical Reviews in Allergy & Immunology, 54(3), 356-369. doi:10.1007/s12016-018-8665-4.

FRONTIT KASALLIGINI ZAMONAVIY TASHXISLASH VA DAVOLASH

Xoshimov Ilxomjon Xasan o‘g‘li
Matxoshimov Nodirjon Soibjonovich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Jo‘rayev G‘anijon G‘ulomovich
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Frontal sinusning yallig‘lanishi — frontit — LOR amaliyotida keng tarqalgan patologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada frontitning sabablari, rivojlanish mexanizmi, klinik belgilar va diagnostik usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy davolash yondashuvlari, jumladan antibiotikoterapiya, fizioterapiya va endoskopik jarrohlikning samaradorligi ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bemorlarni erta tashxislash va kompleks davolash orqali surunkali shaklga o‘tish xavfini kamaytirish imkonini beradi.
Kalit so‘zlar: frontit, frontal sinus, LOR kasalligi, sinusit, endoskopik jarrohlik, antibiotikoterapiya
Аннотация. Воспаление лобной пазухи — фронтит — является одной из широко распространённых патологий в практике ЛОР. В данной статье анализируются причины фронтита, механизм его развития, клинические признаки и методы диагностики. Также рассматривается эффективность современных методов лечения, включая антибиотикотерапию, физиотерапию и эндоскопическую хирургию. Результаты исследования позволяют своевременно диагностировать пациентов и с помощью комплексного лечения снизить риск перехода болезни в хроническую форму.
Ключевые слова: фронтит, лобная пазуха, ЛОР-заболевания, синусит, эндоскопическая хирургия, антибиотикотерапия
Abstract. Inflammation of the frontal sinus — frontal sinusitis (frontitis) — is one of the common pathologies in ENT practice. This article analyzes the causes of frontitis, its pathogenesis, clinical manifestations, and diagnostic methods. The effectiveness of modern treatment approaches, including antibiotic therapy, physiotherapy, and endoscopic surgery, is also reviewed. The study results allow early diagnosis and comprehensive treatment of patients, reducing the risk of progression to chronic form.
Keywords: frontitis, frontal sinus, ENT diseases, sinusitis, endoscopic surgery, antibiotic therapy

Frontit bugungi kunda LOR kasalliklari orasida eng ko‘p uchraydigan sinusit turlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tkir rinosinusit bilan kasallangan bemorlarning

10–15 foizida frontal sinuslar yallig‘lanishi kuzatiladi. Ayniqsa, sovuq iqlim sharoitida yashovchi aholida, allergik rinit yoki immunitet pasayishi fonida kasallikning tarqalish ko‘rsatkichi yuqori.

Zamonaviy tibbiyotda frontitni erta diagnostika qilish uchun **kompyuter tomografiya (KT)**, **endoskopik tekshiruv**, **mikrobiologik tahlil** kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Davolashda esa **antibiotikoterapiya**, **burun bo‘shlig‘ini drenajlash**, va **endoskopik sinus jarrohligi** samarali natijalar bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, frontit kasalligini chuqur o‘rganish, uning etiologiyasi, patogenezi, klinik kechishini tahlil qilish hamda diagnostika va davolashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish tibbiyot amaliyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — frontit kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinik kechishi, diagnostika usullari va zamonaviy davolash yondashuvlarini tahlil qilish hamda ushbu kasallikka qarshi samarali profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eng ko‘p uchraydigan klinik belgilar peshona sohasida kuchli og‘riq (92%), burundan yiringli ajralma (84%), isitma va umumiy holsizlik (78%), shuningdek ko‘z atrofi shishi (36%) hisoblanadi. Ushbu belgilar frontit bilan kasallangan bemorlarni tashxislash va davolash jarayonida asosiy klinik ko‘rsatkich sifatida e’tiborga olinadi. Surunkali frontit bilan og‘rigan bemorlarning ko‘pchiligida (70%) burun to‘sig‘ining egriligi yoki burun poliplari mavjudligi aniqlangan, bu esa kasallikning qaytalanuvchi kechishiga sabab bo‘lgan. Davolashda antibiotikoterapiya (amoksiklav, tseftriakson, azitromitsin), yallig‘lanishga qarshi vositalar va fizioterapevtik muolajalar yaxshi natija bergan. Shuningdek, davo samara bermagan 9 nafar bemorda endoskopik frontotomiya o‘tkazilib, sinus drenaj tizimi tiklangan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompleks yondashuv (antibiotik, fizioterapiya, endoskopik jarrohlik) frontitni davolashda samaradorlikni 87% gacha oshirgan. Erta diagnostika va individual davolash rejasi kasallikning surunkali shaklga o‘tishini oldini olishda muhim omil bo‘lgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bemorlarning aksariyatida frontit o‘tkir shaklda kechgan va peshona sohasida og‘riq eng ko‘p uchraydigan simptom hisoblanadi. Kompleks yondashuv (antibiotikoterapiya, fizioterapiya, endoskopik muolaja) natijasida 87% bemorlarda to‘liq sog‘ayish kuzatilgan. Frontit — bu frontal sinusning yallig‘lanishi bo‘lib, LOR kasalliklari orasida keng tarqaladi va bemorlar orasida sezilarli morbiditetga sabab bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat bemorlarda kasallik o‘tkir shaklda kechadi va eng ko‘p uchraydigan klinik belgilar peshona sohasida og‘riq, burundan yiringli ajralma va isitma hisoblanadi.

Xulosalar. Frontit LOR amaliyotida keng tarqalgan kasallik bo‘lib, uning erta aniqlanishi va samarali davolash yondashuvi bemorlarning sog‘ayish ko‘rsatkichini oshiradi. Tadqiqot

frontit bilan bog‘liq klinik belgilarni aniqlash, profilaktik choralarni belgilash va surunkali shaklga o‘tishini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu maqola LOR amaliyotida klinik ko‘rsatmalar sifatida ishlatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Хошимов И.Х., Матхошимов Н.С. Frontit va uning klinik jihatlari. Tibbiyot ilmiy jurnal, 2022; 4(3): 45-52.
2. Karimov A., Tursunov S. LOR kasalliklarida frontal sinus yallig‘lanishi. Tibbiyot sharhlari, 2021; 6(2): 33-40.
3. Usmonova N. Sinusit va frontit: diagnostika va davolash. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 2020; 5(1): 12-19.
4. Нуров У.И., Шодиева М.Б. МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА СУРУНКАЛИ РИНОСИНУСИТ ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ — (2024). Бухоро давлат тиббиёт институти.
5. Nurova, G. U. "The state of indicators of functional activity of neutrophils, peripheral blood monocytes and cytokine status of the body in twin children with chronic purulent rhinosinusitis." Journal of healthcare and life-science research 2.4 (2023): 53-54.
6. Nurova, G. U. "Possibilities of modern light diagnostics in acute and chronic diseases of the nasal adjuncts." JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH 2.4 (2023): 55-58.
7. Mahdavinia, M., Grammer, L. C., & Schleimer, R. P. (2018). Chronic rhinosinusitis and immunodeficiency: evaluation and treatment. Clinical Reviews in Allergy & Immunology, 54(3), 356-369. doi:10.1007/s12016-018-8665-4.

ЎЗБЕКИСТОН ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ЖАРАЁНЛАРИ ВА ИННОВАЦИОН БОШҚАРУВ ИМКОНИЯТЛАРИ

Мирзаолимова Дилрабохон Олимжон қизи
dilrabomirzaalimova@gmail.com

Кириш. Бугунги кунда дунё миқёсида рақамли трансформация жараёнлари барча иқтисодий соҳаларга, жумладан, хизмат кўрсатиш тармоқларига ҳам кенг кириб келмоқда. Хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётнинг энг фаол сегменти бўлиб, унда рақамли технологияларни жорий этиш хизмат кўрсатиш тезлиги, сифат ва шаффофлик даражасини оширишга хизмат қилади.

Ўзбекистонда ҳам “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастури доирасида хизмат кўрсатиш соҳасини рақамлаштириш бўйича қатор вазифалар белгиланган. Бу жараён нафақат давлат хизматлари, балки хусусий сектордаги банк, савдо, логистика, таълим ва туризм хизматларини ҳам қамраб олмоқда[1].

Мазкур тадқиқотнинг мақсади — хизмат кўрсатиш соҳасида рақамли технологияларнинг самарадорлигини таҳлил қилиш ва такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

Асосий қисм. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда рақамли технологияларни жорий этиш хизмат кўрсатиш соҳасида турли йўналишларда амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси «Инновацион фаолият тўғрисида»ги Қонунига асосан, онлайн хизматлар платформаларини ривожлантириш орқали транспорт, банк, таълим ва меҳмонхона каби соҳаларда электрон буюртма ҳамда тўлов тизимлари кенг татбиқ этилиши белгилаб қўйилган[2].

Айниқса, Тошкент шаҳрида жамоат транспортида тўлов тизими тўлиғича рақамлаштирилиб, йўловчиларга АТТО транспорт карталари ёки банк тўлов карталари орқали ҳақ тўлаш имкони яратилган. Бу янгилик, энг аввало, барча тўловларнинг электрон тарзда ҳисобга олиниши даромадларни аниқ ҳисоблаш имконини яратади, транспорт корхоналари эса реал вақт режимида тушумларни кузатиб бориши мумкин. Натижада, транспорт воситаларида тўхташ вақтини қисқартириш, хизмат кўрсатиш тезлигини ошириш ва ахборот бошқарувини такомиллаштириш имкони пайдо бўлади. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, 2024 йилнинг биринчи чорагида АТТО транспорт картаси (шу жумладан виртуал карталар) орқали жамоат транспортида амалга оширилган саёҳатлар сони 22,2 миллионни ташкил этган, шундан 14,8 миллионтаси

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти «*Рақамли Ўзбекистон – 2030*» *стратегияси тўғрисида*» ги қарор. 2020 йил 5 октябрь, ПҚ–6079.

[2] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси «*Инновацион фаолият тўғрисида*»*ги Қонун*, 2020 йил 24 июль, ЎРҚ–576.

автобусларда, 7,4 миллионтаси эса метро тизимида амалга оширилган[3]. Бу рақамлар тизимнинг аҳоли томонидан фаол қўлланилаётганини ва рақамли тўловларнинг оммалашиб бораётганини кўрсатади. Шунингдек, мазкур тизим Сингапур, Лондон, Сеул ва Истанбул каби йирик шаҳарлар тажрибасига мос келиб, Ўзбекистон транспорт тизимининг рақамлашуви ҳамда “смарт-сити” концепциясига интеграциясини таъминлайди. Ушбу жараён шунчаки тўлов усули эмас, балки рақамли бошқарувнинг муҳим элементи сифатида хизмат қилади ва натижада хизмат кўрсатиш тизими шаффоф, самарали ҳамда фойдаланувчилар учун янада қулай бўлади.

Шунингдек, мижозлар билан муносабатлар рақамлаштирилиб, корхоналар мобил иловалар ва CRM тизимлар орқали хизматларни индивидуаллаштирмоқда. Бошқарув жараёнлари автоматлаштирилиб, электрон ҳисоботлар ва маълумотлар таҳлили асосида қарор қабул қилиш самарадорлиги ошмоқда. Шу билан бирга, инсон ресурслари онлайн ўқув платформалари ва ички маълумот тизимлари орқали рақамли бошқарилмоқда.

Инновацион бошқарув нуқтаи назаридан, рақамли технологияларнинг жорий этилиши нафақат техник янгиланиш, балки менежментдаги фалсафий ўзгаришни ҳам англатади. Ташкилот фаолиятида маълумотларга асосланган қарорлар қабул қилиш, мижоз марказли ёндашувни қўллаш ва жамоавий инновацион муҳит яратиш асосий вазифага айланмоқда.

Хорижий тажрибада, масалан, Amazon ёки Uber каби хизмат платформалари рақамли экотизимлар асосида ташкил этилган бўлиб, уларда инновацион бошқарув тизими мижоз эҳтиёжларини тезкор қондириш ва хизмат сифатини барқарор оширишни таъминлайди.

Ўзбекистон амалиётида ҳам хизмат кўрсатиш соҳасини рақамлаштириш бўйича муайян ютуқлар мавжуд. Масалан, электрон тўлов тизимлари (Payme, Click, Uzumbank), онлайн буюртма хизматлари (Yandex, Express24, MyTaxi) ва давлат хизматлари ягона портали (MyGov) орқали кўплаб жараёнлар рақамлаштирилган. Бироқ қатор муаммолар ҳануз долзарблигича қолмоқда:

- айрим хизмат кўрсатиш корхоналарида рақамли бошқарув тизимлари етарлича жорий этилмаган;
- кадрлар рақамли компетенциялар бўйича етарли тайёргарликка эга эмас;
- маълумот хавфсизлиги ва рақамли маданиятни шакллантириш бўйича тизимли чоралар етишмайди.

Масалан, Масалан, биргина Тошкент шаҳрида жамоат транспортларига рақамлаштирилган тўлов тизими фаол жорий этилган бўлса-да, вилоятларда бу тизим ҳануз тўлиқ ишламаяпти. Аксарият ҳолларда йўловчилар нақд пул орқали тўлов

[3] Some 22.2 million trips were made in public transport, using ATTO cards in 1Q, https://www.uzdaily.uz/en/some-222-million-trips-were-made-in-public-transport-using-atto-cards-in-1q/

қилишга мажбур бўлмоқда. Бу эса ҳисоб-китоб жараёнларининг шаффоф эмаслигига, тушумларни назорат қилишда қийинчиликлар юзага келишига ва хизмат кўрсатишда инсон омилининг ортишига сабаб бўлмоқда. Мавжуд инфратузилма ва кадрлар салоҳиятидаги тафовутлар бу соҳада рақамли технологияларнинг барқарор татбиқ этилишига тўсиқ бўлмоқда.

Шу боис, юқоридаги муаммоларни чуқур ўрганиш, уларни бартараф этиш бўйича тадқиқотлар ўтказиш ва амалий таклифлар ишлаб чиқиш долзарб аҳамият касб этади. Юқоридаги муаммоларни кўриб чиқиб, бу борада тадқиқот ўтказиш ва амалий таклифлар ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади.

Хулоса. Хизмат кўрсатиш соҳасида рақамли технологияларни жорий этиш иқтисодий самарадорликни ошириш, хизмат сифатини яхшилаш ва рақобатбардош муҳитни шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Бу борада қуйидаги йўналишларга эътибор қаратиш зарур:

- рақамли бошқарув тизимларини жорий этиш ва уларни миллий инфратузилма билан интеграция қилиш;
- кадрлар малакасини оширишда рақамли саводхонликни кучайтириш;
- инновацион ғояларни қўллаб-қувватлаш ва стартап экотизимини ривожлантириш;
- давлат ва хусусий сектор ўртасида рақамли ҳамкорлик платформаларини кенгайтириш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти «*Рақамли Ўзбекистон – 2030*» *стратегияси тўғрисида*» ги қарор. 2020 йил 5 октябрь, ПҚ–6079.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси «*Инновацион фаолият тўғрисида*»ги *Қонун*, 2020 йил 24 июль, ЎРҚ–576.
3. Some 22.2 million trips were made in public transport, using ATTO cards in 1Q, https://www.uzdaily.uz/en/some-222-million-trips-were-made-in-public-transport-using-atto-cards-in-1q/

ЎЗБЕКИСТОН ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Мирзаолимова Дилрабохон Олимжон қизи
dilrabomirzaalimova@gmail.com

Ҳозирги кунда хизмат кўрсатиш соҳаси мамлакат иқтисодиётининг энг тез ривожланаётган йўналишларидан бири ҳисобланади. У иш ўринларини яратиш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва ялпи ички маҳсулот ҳажмини оширишда муҳим ўрин тутади. Шу сабабли, ушбу соҳада самарали бошқарув тизимини яратиш, айниқса инсон ресурсларини замонавий талаблар асосида бошқариш масаласи долзарб аҳамият касб этмоқда.

Инсон ресурси — хизмат кўрсатиш соҳасининг асосий қимматли капитали бўлиб, хизмат кўрсатиш сифатини белгилайдиган асосий омил ҳисобланади. Шу боис, соҳадаги инновацион бошқарув нафақат технологик янгиланишни, балки кадрлар салоҳиятини оширишни ҳам назарда тутади.

Инновацион бошқарув инсон ресурсларига нисбатан қуйидаги йўналишларда намоён бўлмоқда:

- ходимларнинг касбий малакасини узлуксиз ошириш;
- хизмат кўрсатиш жараёнларида рақамли кўникмаларни ривожлантириш;
- ижодий ва ташаббускор фаолиятни рағбатлантириш тизимини йўлга қўйиш;
- хизмат маданиятини такомиллаштириш ҳамда мижозлар билан самарали мулоқотни ташкил этиш.

Бугунги кунда дунёда инсон капиталини ривожлантиришга йўналтирилган инновацион ёндашувлар хизмат соҳасининг асосий устувор йўналишига айланган. Масалан, П. Друкер таъкидлаганидек[1], Инновация фақат техник ёки иқтисодий ҳаракат эмас, балки ижтимоий жараёндир. Шу нуқтаи назардан қаралганда, хизмат кўрсатиш соҳасидаги ҳар бир ходим янгилик яратиш жараёнининг фаол иштирокчиси бўлиши зарур.

Хорижий амалиётда Hilton, Starbucks, Amazon каби компаниялар ўз ходимларини инновацион фикрлашга ўргатиш, мижозлар эҳтиёжини таҳлил қилиш ва хизмат сифатини доимий яхшилаш орқали юқори натижаларга эришган. Улар инсон ресурсларини бошқаришда рақамли таҳлил тизимларидан (HR-analytics) фойдаланадилар, ходимлар фаолиятини KPI ва мотивация тизимлари орқали баҳолайдилар.

HR analytics — бу инсон ресурслари билан боғлиқ маълумотларни таҳлил қилиб, қарорларни аниқ далилларга асосланиб қабул қилиш орқали ходимлар айланишини

[1] Питер Друкер, “Innovation and Entrepreneurship”, New York: Harper & Row, 1985, 40 б.

(turnover) камайтиришга, тўғри одамни тўғри лавозимга жойлаштиришга, компания самарадорлигини оширишга хизмат қиладиган жараёндир. Бу фақат “одамлар билан ишлаш” эмас, балки одамлар ҳақидаги рақамли маълумотлар орқали стратегия ва қарорлар чиқариш деганидир.

KPI (Key Performance Indicator) тизими— бу асосий самарадорлик кўрсаткичи бўлиб, ходим ёки бўлим ўз ишини қанчалик яхши бажараётганини ўлчаб бериш учун қўлланадиган аниқ кўрсаткичдир. Бу орқали эса ҳар бир ходим нима учун ишлаётганини аниқ билади, иш самарадорлигини адолатли баҳолаш мумкин бўлади, рағбат ва бонус тизимини тўғри ташкил қилишга ёрдам беради, компания стратегиясини амалга оширишни осонлаштиради.

Бу борада икки олим — Дейв Улрих ва Гари Беккерларни тилга олмасдан бўлмайди. Д. Улрих ўзининг “Human Resource Champions” асарида инсон ресурслари бўлими фақат маъмурий функцияни бажарибгина қолмасдан, балки ташкилот стратегиясининг ажралмас қисмига айланиши зарурлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, инсон ресурсларини бошқариш тизими бизнес натижасига таъсир кўрсатиши керак. Шу маънода HR analytics ва KPI тизимлари — ходим фаолиятини стратегик мезонлар асосида баҳолаш воситасидир[2].

Шунингдек, Г. Беккер ўзининг асарида инсонни иқтисодий ресурс сифатида кўриб чиқиб, таълим, малака ва тажриба орқали унга қилинган сармоянинг самарасини асослаб берган. Унинг таълимотига кўра, инсон капиталига қилинган инвестиция компания самарадорлигини белгилайди[3].

Ўзбекистонда ҳам хизмат кўрсатиш соҳасида кадрлар сиёсатида ислоҳотлар амалга оширилмоқда. «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясида хизмат кўрсатиш соҳасида рақамли технологияларни кенг жорий этиш, замонавий кадрлар тайёрлаш ва хизмат маданиятини юксалтириш устувор вазифалардан бири сифатида белгиланган[4]. Шу билан бирга, давлат ва хусусий секторда инсон ресурсларини бошқаришнинг инновацион механизмларини амалиётга татбиқ этиш долзарбдир.

Хусусан, Тадқиқотга кўра, Ўзбекистонда хусусий сектор корхоналари орасида *HR analytics* (одатда электрон HR бошқарув тизимлари – “e-HRM”) 53 % атрофида қўлланила бошлаган[5]”. Лекин айнан қайси компаниялар бундай тизим жорий этганлиги тўғрисида аниқ ва очиқ маълумотлар мавжуд эмас.

Ҳозирда Ўзбекистондаги корхона ва ташкилотларда айрим муаммолар ҳам мавжуд:

- ходимларнинг рақамли кўникмалари етарли эмас;
- инновацион ғояларни амалга оширишда ташаббускорлик ва рағбатлантириш тизими

[2] Д. Улрих “Human Resource Champions” – Boston: Harvard Business School Press, 1997, 17–25 б.
[3] Г. Беккер “Human Capital”, 2-edition – Chicago: University of Chicago Press, 1964. – p. 15–20 б.
[4] Ўзбекистон Республикаси Президенти «*Рақамли Ўзбекистон – 2030*» *стратегияси тўғрисида*» ги қарор. 2020 йил 5 октябрь, ПҚ–6079.
[5] Ситора Иноятова, Олеся Смагина, “Human resource management policies and practices in Uzbekistan: Cranet Uzbekistan study report” 2023, 14 б.

етарли даражада шаклланмаган.

Бу муаммоларни бартараф этиш мақсадида қуйидаги амалий таклифларни илгари суриш мумкин:

1. Хизмат кўрсатиш соҳаси ходимлари учун инновацион менежмент ва рақамли кўникмалар бўйича мунтазам ўқув дастурларини жорий этиш.
2. Ходимларни рағбатлантириш тизимини инновацион ғоялар ва самарали таклифларга боғлаш.
3. Иш жараёнларида замонавий HR-технологиялар (масалан, автоматлаштирилган ходим баҳолаш тизимлари) дан фойдаланиш.
4. Корхоналарда корпоратив инновацион муҳитни яратиш ва ходимлар ўртасида янгича фикрлаш маданиятини ривожлантириш.

Хулоса қилиб айтганда, инсон ресурсларини инновацион бошқариш хизмат кўрсатиш соҳасида самарадорликни ошириш, рақобатбардошликни таъминлаш ва мижозлар қониқишини кучайтиришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу йўналишда кадрлар салоҳиятини кучайтириш ва бошқарув тизимларини модернизация қилиш Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарор ўсишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти «*Рақамли Ўзбекистон – 2030*» *стратегияси тўғрисида*» ги қарор. 2020 йил 5 октябрь, ПҚ–6079.
2. Ситора Иноятова, Олеся Смагина, “Human resource management policies and practices in Uzbekistan: Cranet Uzbekistan study report” 2023, 14 б.
3. Питер Друкер, “Innovation and Entrepreneurship”, New York: Harper & Row, 1985, 40 б.
4. Д. Улрих “Human Resource Champions” – Boston: Harvard Business School Press, 1997, 17–25 б.
5. Г. Беккер “Human Capital”, 2-edition – Chicago: University of Chicago Press, 1964. – p. 15–20 б.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Zamonaliyeva Laziza
+998935372124
@zamonaliyevalaziza@icloud.com
Turan International University

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida sifatni boshqarishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga jadal kirib kelayotgani natijasida sifatni ta'minlash, baholash va rivojlantirish tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Maqolada raqamli boshqaruvning mohiyati, uning ta'lim sifati bilan bog'liqligi hamda samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishning afzalliklari, amaliy muammolar va ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, innovatsion yondashuv, axborot texnologiyalari, raqamli ta'lim, tahliliy boshqaruvi.

Kirish: Bugungi kunda raqamli transformatsiya butun dunyo ta'lim tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli tahlil va masofaviy ta'lim platformalarining kirib kelishi natijasida sifatni boshqarish masalasi yangi mazmun kasb etmoqda. Avval ta'lim sifati asosan o'quv natijalari orqali baholangan bo'lsa, hozirda u jarayon sifatida qaralmoqda. Ya'ni, sifat nafaqat natijaviy mezon, balki ta'lim tizimining ichki tuzilmasi, jarayonlar o'zaro uyg'unligi va yangilanish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bois, raqamli boshqaruv tizimlari ta'lim sifatini ta'minlashda asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli transformatsiya davrida ta'lim sifatini boshqarish deganda, zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, monitoring va tahlil mexanizmlarini avtomatlashtirish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqani raqamli platformalar orqali takomillashtirish tushuniladi.

Adabiy taxlil: Ta'lim sifatini boshqarish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. I.G. Leonov va O.V. Aristovlar o'z tadqiqotlarida
sifatni boshqarish jarayonini tizimli yondashuv asosida tahlil qilgan. Ularning fikricha, sifatni boshqarish bu — mahsulot yoki xizmatning yaratilishidan tortib uning iste'molchiga yetkazilishigacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzluksiz jarayondir. O.P. Gludkin va N.M. Gorbunovlar "Umumiy sifat menejmenti" (Total Quality Management) konsepsiyasini rivojlantirib, sifatni tashkilot faoliyatining asosiy strategik yo'nalishiga

aylantirgan. Ularning fikricha, sifat — bu faqat yakuniy natija emas, balki tashkilotning ichki imkoniyatlarini to‘g‘ri boshqarish san’atidir. Mahalliy mualliflar orasida E.A. Yurtayev, V.P. Panov va I.M. Anikinlarning ishlarida ishlab chiqarish va ta’lim jarayonlari sifatining o‘zaro bog‘liqligi keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida sifat jarayon sifatida qaraladi, ya’ni har bir bosqichdagi aniqlik, me’yor va texnologik tartib sifati belgilovchi asosiy omillar sifatida talqin etiladi. Shuningdek, zamonaviy olimlar — A.A. Kasimov, S.F. Bakhriddinova va S.A. Abdulazizov raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari, masofaviy o‘qitish modellarining sifatga ta’sirini o‘rganganlar.

Tadqiqot usullari: Ushbu maqolada ta’lim sifatini boshqarish masalasini o‘rganishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- **Tizimli tahlil metodi** – raqamli boshqaruv tizimining tuzilishi va ishlash mexanizmlarini tahlil qilish uchun;
- **Taqqoslash metodi** – an’anaviy va raqamli boshqaruv usullarining samaradorligini solishtirish uchun;
- **Empirik tahlil** – O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi raqamli boshqaruv tajribalarini o‘rganish uchun;
- **Nazariy umumlashtirish** – mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilib, umumiy xulosalar chiqarish uchun.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi, uning raqamli infratuzilmasi va boshqaruv mexanizmlari olingan.

Tahlil va natijalar: Raqamli transformatsiya ta’lim tizimida sifatni boshqarishning yangi yo‘nalishlarini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda deyarli barcha oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayoni raqamli tizimlar orqali boshqariladi:

- Elektron jurnal va reyting tizimlari;
- Masofaviy ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom, EduPage);
- Raqamli test va baholash tizimlari;
- Onlayn tahliliy hisobotlar va reyting monitoringi.

Bu vositalar nafaqat ta’lim jarayonining shaffofligini ta’minlaydi, balki o‘qituvchi va talabaning faoliyatini obyektiv baholash imkonini ham beradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli boshqaruvning samarali joriy etilishi ta’lim sifatining quyidagi jihatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

1. **Tashkiliy samaradorlik** – jarayonlar avtomatlashtiriladi, hujjatlar aylanishi soddalashadi;
2. **Axborot ochiqligi** – baholash va nazorat natijalari shaffoflashadi;
3. **Shaxsiylashtirilgan ta’lim** – har bir talabaga individual yondashuvni ta’minlash osonlashadi;
4. **Uzluksiz tahlil** – tizimda to‘plangan ma’lumotlar asosida sifat monitoringi olib boriladi.

Biroq, ba’zi hollarda raqamli tizimlarning haddan tashqari texniklashuvi inson omilining kamayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, raqamli boshqaruv inson kapitalini to‘liq almashtirmasdan, uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llanishi kerak.

Muhokama: Raqamli boshqaruv tizimlarini ta’lim sohasiga joriy etish o‘zining ijobiy natijalari bilan birga, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Masalan, ayrim ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, internet tarmog‘ining past sifati, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining sustligi natijalarni cheklab qo‘ymoqda. Shuningdek, raqamli boshqaruvga o‘tish jarayonida axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Biroq, bu muammolar raqamli ta’lim tizimining afzalliklarini so‘ndira olmaydi. Raqamli boshqaruv tizimlari ta’lim sifatini oshirishda, nazorat va tahlilni takomillashtirishda, o‘quv jarayonini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Cheklovlar: Ushbu tadqiqotda asosan O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining mavjud amaliy tajribasi o‘rganildi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayoni hali to‘liq yakunlanmaganligi sababli, tahlil qilingan ma’lumotlar ma’lum vaqt davriga xosdir. Keyingi tadqiqotlarda xalqaro tajriba, sun’iy intellekt tizimlarining roli va talaba psixologiyasiga ta’siri yanada chuqur o‘rganilishi zarur.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Uning ta’siri faqat texnologik emas, balki boshqaruv, metodika va mazmun darajasida ham sezilmoqda. Ta’lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, ayniqsa raqamli texnologiyalarga asoslangan tahliliy boshqaruv tizimlari, sifatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonda sifat endi faqat natija emas, balki doimiy o‘zgarish va takomillashuv jarayonidir. Demak, raqamli boshqaruv tizimlari ta’limning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan strategik omil sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Leonov I.G., Aristov O.V. *Product Quality Management*, Moskva, 1986.
2. Gludkin O.P., Gorbunov N.M. *General Quality Management*, Moskva, 1999.
3. Yurtayev E.A. *Development of a System of Collective Contracts in Enterprises*, Moskva, 1990.
4. Panov V.P., Anikin I.M. *Forms of Process Quality in Education*, Moskva, 1988.
5. Kasimov A.A., Bakhriddinova S.F.K., Abdulazizov S.A.O. *Innovative Approaches in Education, American Journal of Education and Technology*, 2020.
6. To‘xtayev B. *Raqamli ta’lim tizimini joriy etishning nazariy asoslari*, Toshkent, 2022.
7. Karimova N. *Oliy ta’limda sifat menejmenti tizimi va raqamli boshqaruv*, Toshkent, 2023.
8. UNESCO Report, *Digital Transformation of Education Systems*, Paris, 2021

LINGVOKULTUROLOGIYA MAKTABLARI

Umurzaqova Muxayyoxon Raxmatullo qizi
Farg‘ona soliq texnikumi ingliz tili fani o‘qituvchisi
muhayyo10@bk.ru

Annotatsiya: ushbu maqola lingvokulturologiya sohasi va uni rivojlantirish yo‘lida tashkil etilgan maktablar hamda maktablar tahkilotchilari haqida keng mushohada qiladi va batafsil ma’lumot beradi.
Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya maktablari, til birligi, milliy-mdaniy tahlil, diaxron tahlil, konsepsiya.
Abstract: this article provides a broad overview and detailed information about the field of linguoculturology and the schools established to develop it, as well as the organizers of the schools.
Keywords: linguoculturology schools, language unity, national-cultural analysis, diachronic analysis, concept.

XX arsning so’nggi yillariga kelib Moskvada to’rtta lingvokulturologiya maktablari tashkil etildi.

1. Yu.Yu.Stepanov maktabi.
2. N.D.Arutyunova maktabi.
3. V.N.Teliya maktabi.
4. V.V.Vorobyev, V.M.Shaklein maktabi.

Yu.Yu.Stepanoov maktabi madaniyat davomiyligini diaxron taradfan tadqqiq etardi. Ushbu yo’nalish turli davrlarda yozilgan matnlardan foydalangn holda ish ko’rardi ya’ni tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi sifatida faoliyat olib borardi. Bu maktab metodologik jihatdan Fransuz tilshunosi E.Benvenist konsepsiyasiga juda yaqin. Lingvokulturologiyaning rivojlanishida Yu.Yu.Stepanovning ko’p marotaba chop etilgan “Konstanti: slovar russkoy kulturi” (1997) nomli kitobi muhim ahamiyatga ega. Bu lug’atning asosiy g’oyasi rus lingvokulturologiyasinimg asosiy tayanch so’zlari, jamoat arboblari, yozuvchilar asarlari va boshqa lu’gatlarda uchraydigan iboralar va tushunchalarning etimologik tahlilidan iborat. Ushbu lug’at tarkibi azaldan shakllanib kelgan bo’lib, rus madsaniyatining haqiqiy mulki hisoblanadi.

N.D.Arutyunova boshchiligidagi maktab esa turli davrlar va turli xalqlarga taaluqli bo’lgan umummadaniy atamalarni o’rganadi. Mazkur atamalar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etiladi. Bu faoliyat Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik insituti qoshidagi N.D.Arutyunova rahbarlik qilaytgan “Tilning mantiqiy tahlili” maummolar guruhi chop ettirayotgan nashrlarda o’z isbotini

topmoqda. “Kulturniye konsepti” (1991) kitobi bunga yorqin mispl bo’la oladi. Ushbu kiotbning so’z boshida N.D.Arutyunova shunday yozgan: “Odam madaniyat kontekstida yashaydi. Uning uchun bu kontekst “ikkinchi voqelik” sanaladi. V.N.Teliya maktabi frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish bo’yicha Rossiya va xorijda Moskva nomi bilan tanilgan. V.N.Teliya hamda uning shogirdlari frazeologizmlarni jonli til egasining refleksi deb hisoblab tadqiq etishadi. Ushbu konsepsiya A.Vejbitskayaning so’zlovchining nutqiy mental holati imitatsiya haqidagi pozitsiyasiga yaqin. V.N. Teliya ilgari surgan til birliklarining milliy-madaniy tahlil usuli - tilni “ichidan” tekshirishni taklif qiladi.

V.V.Vorobyev va V.M.Shakleinlarning maktabi Rossiya Xalqlar do‘stligi universitetida taashkillangan bo’lib, maktab asoschilari Ye.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarning ta’limotini davom ettirib rivojlantirishadi. Ushbu yo‘nalish ekvivalenti bo’lmagan til birliklari – ma’lum bir madaniyatgagina xos, spetsifik, kumulyativ funksiyali, so'zlovchining ongida bor so‘zlarni o'rganadi. Tillar o’rtasidagi farq madaniayatlar o’rtasidagi farqqa bog’liq, ular leksik birliklar va frazeologizmlarda yaqqol namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamaatov A. Zamonaaviy lingvistika. Darslik. Toshkent.Taafakkur avlodi 2020 . 11 b
2. Usmanova Sh., Lingvokulturogiya. Darslik.-T.2019.- 90 b
3. Vocabulary.com

LINGVOKULTUREMA TUSHUNCHASI

Umurzaqova Muxayyoxon Raxmatullo qizi
Farg‘ona soliq texnikumi ingliz tili fani o‘qituvchisi
muhayyo10@bk.ru

Annotatsiya: ushbu maqola lingvokulturema atamasi, uning tuzilishi haqida keng ma’limot beradi. shuningdek ushbu maqolada tadqiqotchi V.V.Vorobyev, lingvokulturemaning tuzilishi va tarkibini o‘rganganligi haqida ham keng mushohada yuritiladi.
Kalit so‘zlar: lingvokulturema, lingvistik, realema, realiya, sintagma.
Abstract: this article provides extensive information about the term lingvokulturema, its structure. This article also provides extensive information about the research of the researcher V.V. Vorobyev, who studied the structure and content of lingvokulturema.
Keywords: lingvokulturema, linguistic, realema, reality, syntagma.

Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturema til sathi birligi deb qaraladi va unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo‘lib, bu yaxlitlik o ‘z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmunni qamrab oladi. Dialektik aloqa obyektni anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid sathdan tashqari komponentlarini, ularning notengligini, farqini, ikkinchi tomondan ularning mosligini, aynan o'xshashligini taqozo etadi.

Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning “yuzaki”, ya’ni tilga oid o ‘z ma’nosi haqida, balki uning tugal” mazmuni (ma’nosi) madaniyatning asosi (elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi.

Tadqiqotchi V.V.Vorobyev, lingvokulturemaning tuzilishi va tarkibini o‘rganib, o‘z e’tiborini til birliklarini “madaniylashtirish” jarayonida til o‘rganuvchilami ma’nodan, “aniqlashdan” bilim tomon olib borishga va belgi-predmetni u yoki bu millatga xos bo‘lgan madaniy assotsiatsiyalar tarmogMga kiritishga qaratadi. Uning fikricha, “tarkibida yashirin mavjud bo‘lgan “teran mazmun” lingvokulturemaning madaniy-tushunchaga oid ma’noviy jihati ochiladi” (Vorobyev, 1997). Har qanday kommunikatsiyaning oxirgi natijasi xususan tilni tushunish emas, balki tildan tashqaridagi ma’lumotni (shu jumladan, uning doirasida munosabat amalga oshiriladigan madaniyatni) o’zlashtirishdir.

Lingvokulturemalar o‘z ifodasida rang-barangdir - ular so‘z bilan, so‘z birikmasi bilan, matn abzatsi bilan, she’r bilan va hatto bir necha uzunlikdagi matn bilan berilishi mumkin. Bu birlik o ‘z mazmuniga ko‘ra so‘zga qaraganda ancha “terandir” So‘z referent bilan o ‘zaro bog‘lanishda bo’ladi, unga “havola qilinadi”, lingvokulturema uning mazmunini tushuncha (predmetlar sinfi) sifatida ochib beradi.

Birinchisi realemalar bilan cheklanadi, ikkinchisi - biror belgi bilan o‘zaro bog’lanishda

bo’lgan predmetlar sinfi ichidagi realiyalarning o’ziga xos xususiyatini va sistematizatsiyasini (tartibga solinishishni) aks etiradi. “Lingvokulturema ham o‘z til tasavvurini (“fikr shaklini”), ham u bilan uzviy bog’langan “tildan tashqari, madaniy muhitni” (vaziyatni, realiyani) hamda chegaralari beqaror va barqaror assotsiatsiyalar tarmog’ni o ‘z ichiga oladi, o ‘zida to‘playdi. Shu tufayli ham so‘z-belgi alohida madaniy kommunikatsiyaning tilini biladigan odamda ma’noni nafaqat ishora tarzida (A.A.Potebnya), balki “madaniy oreolning” butun majmuini uyg‘otadi.

Til birligining “madaniy oreolini” bilish so‘zlovchining lingvomadaniy kompetensiyasini tashkil qiladi, uni bilmaslik esa tinglovchi (retsipiyent)ni hali madaniy jarayonni to’liq o'zlashtirmagan shaxs sifatida faqat tilning o ‘zini egallagan kishi darajasida qoldiradi. So‘zni tushunish darajasining lingvomadaniy kompetensiyaga bog’liqligini aniq misollar asosida tushuntirib, V.V. Vorobyev ta’kidlaydiki, til birligining madaniy sohaga yo‘naltirish jarayonida bir qator paradigmalar: giponimik munosabatlar, predmet va tushunchaga oid qatorlar, sintagmalar ochiladi. Adabiy manbalami bilish esa lingvokulturemalarning estetik qoMlanish usullarini aniqlashga kocmaklashadi (Vorobyev, 1997) V.V. Vorobyev lingvokulturema tushunchasini tadqiq qilib, uning iyerarxik tizimi birliklari, ya’ni lingvokulturemalarni tashkil etuvchi lingvomadaniy maydonni tavsif obyektining asosiy birligi sifatida oladi. Bunday maydonlar olamning etnik manzarasini barpo etadi, ularni qiyoslash esa tillardagi va madaniyatlardagi o‘xshashlik va farq qiluvchi jihatlarni aniqlaydi. (Vorobyev, 1997)

Shunday qilib, lingvokulturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so‘zning tildan tashqari mazmuni va keyingi (tushunchaga oid-predmetga oid) ma’nosi sifatida albatta ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mamaatov A. Zamonaaviy lingvistika. Darslik. Toshkent.Taafakkur avlodi 2020 . 11 b
2. Maslova V.A. “Conceptual Basics of Modern Linguistics” (Moscow: Flinta Publ., 2019.)
3. Maslova V.A. “Conceptual Basics of Modern Linguistics” (Moscow: Flinta Publ., 2019.)
4. Usmanova Sh., Lingvokulturogiya. Darslik.-T.2019.- 90 b

РЕЗУЛЬТАТЫ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ СТОПЫ

Мирзаев К.К., Шерматов А.А., Жураев Г.Г.
Андижанский государственный медицинский институт. Андижан, Узбекистан

Аннотация: В статье представлены результаты комплексного лечения пациентов с синдромом «диабетической стопы», осложнённого гнойно-некротическими процессами. Проведено исследование 94 больных сахарным диабетом II типа. Основная группа (62 пациента) получала комплексное консервативное лечение с применением CO_2-хирургического лазера для некрэктомии и последующим аутодермальным закрытием ран. Контрольная группа (32 пациента) получала аналогичную терапию без пластического закрытия. Результаты показали, что использование лазерной обработки ран ускоряет очищение от гнойно-некротических тканей (7 ± 1,24 сут.) и появление здоровых грануляций (9 ± 1,12 сут.) по сравнению с контрольной группой (10 ± 1,16 сут. и 13 ± 1,34 сут. соответственно). Таким образом, ранние пластические операции после «малых» вмешательств позволяют сократить сроки эпителизации, ускорить реабилитацию и уменьшить длительность лечения пациентов с диабетической стопой.
Ключевые слова:сахарный диабет II типа, синдром диабетической стопы, комплексное лечение, лазерная терапия, аутодермопластика.
Annotatsiya: Ushbu maqolada yiringli-nekrotik asoratlar bilan kechuvchi “diabetik oyoq” sindromiga ega bemorlarni kompleks davolash natijalari keltirilgan. Tadqiqot 2-tur qandli diabet bilan og‘rigan 94 bemor o‘rtasida o‘tkazildi. Asosiy guruh (62 bemor) kompleks konservativ davolash bilan bir qatorda CO_2-xirurgik lazer yordamida nekroektomiya va yarani autoderma bilan yopish amaliyotini oldi. Nazorat guruhi (32 bemor) o‘xshash davolashni o‘tkazdi, biroq yara plastik yopilishi amalga oshirilmadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, lazer bilan yarani davolash yiringli-nekrotik to‘qimalardan tozalanish muddatini (7 ± 1,24 kun) va sog‘lom granulyatsiyalar paydo bo‘lishini (9 ± 1,12 kun) tezlashtirdi, bu nazorat guruhi bilan solishtirganda (10 ± 1,16 kun va 13 ± 1,34 kun) ancha samaralidir. Xulosa qilib aytganda, 2-tur diabet bilan og‘rigan bemorlarda “kichik” oyoq operatsiyalaridan so‘ng erta plastik jarrohlik amaliyotlari yarani epitelizatsiyasini tezlashtiradi, bemorni erta harakatga keltiradi va davolash muddatini qisqartiradi.
Kalit so‘zlar: 2-tur qandli diabet, diabetik oyoq sindromi, kompleks davolash, lazer terapiyasi, autoderma plastikasi.
Abstract: This study presents the results of complex treatment of patients with diabetic foot syndrome complicated by purulent-necrotic processes. The research involved 94 patients with type 2 diabetes mellitus. The main group (62 patients) received complex conservative therapy combined with CO_2 surgical laser necroectomy and subsequent autodermal wound closure. The control group (32 patients) received similar conservative therapy without skin grafting. The results showed that laser wound treatment accelerated the cleansing of necrotic tissues (7 ± 1.24 days) and the appearance of healthy granulation tissue (9 ± 1.12 days) compared to the control group (10 ± 1.16 days and 13 ± 1.34 days, respectively). Thus, early plastic surgery after “minor” foot operations in patients with type 2 diabetes shortens epithelialization time,

enables earlier mobilization, and reduces overall treatment duration.

Keywords: type 2 diabetes mellitus, diabetic foot syndrome, complex treatment, laser therapy, autodermoplasty.

Актуальность. Лечение гнойно-некротических процессов невозможно без учета тяжести сахарного диабета, вида инфекции, фазы и локализации воспалительного процесса, особенностей общих и местных проявлений, обусловленных свойствами возбудителей и реактивности организма больного. Цель исследования: улучшить результаты комплексного лечения у больных сахарным диабетом (II) типа осложнённого синдромом «диабетической стопы».

Сахарный диабет (СД) является одним из наиболее актуальных медико-социальных заболеваний современности. Это хроническое эндокринное заболевание приводит к системным нарушениям обмена веществ во всём организме. Одним из самых тяжёлых и опасных осложнений сахарного диабета является синдром диабетической стопы (СДС). Синдром диабетической стопы — это сложный патологический процесс, возникающий в результате нейропатических, ишемических и инфекционных изменений нижних конечностей. Данное состояние значительно ухудшает качество жизни пациентов, повышает риск инвалидизации и ампутации. По статистике, каждый четвёртый пациент с диабетической стопой в течение жизни подвергается ампутации нижней конечности.

Гнойно-некротические формы СДС требуют своевременного и правильно организованного комплексного лечения, включающего как консервативные, так и хирургические методы. В последние годы применение современных технологий, в частности CO_2-лазерной некрэктомии и аутодермопластики, позволяет ускорить процессы очищения ран, стимулировать регенерацию и сократить сроки реабилитации.

Цель исследования. Повышение эффективности комплексного лечения пациентов с сахарным диабетом II типа, осложнённого синдромом диабетической стопы, и определение клинических преимуществ применения лазерных технологий в лечении гнойно-некротических поражений стопы.

Задачи исследования. Изучить клиническое течение гнойно-некротических процессов у больных с синдромом диабетической стопы.

Материалы и методы исследовании. Проведен анализ лечения 94 больных с гнойной некротическими осложнениями сахарного диабета. 62 пациентам наряду с комплексной консервативной терапией, выполнялись «мглые» операции на стопе с некроэктамией раны С02 - хирургической лазером и последующим аутодермальным закрытием ран (основная группа) и 32 пациента, которым проводились аналогичная комплексная консервативная терапия, аутодермальное закрытые послеоперационных ран не выполнялось, составили контрольную групп. В основной группе сроки очищения ран от гнойно-некротических тканей составили 7 ± 1,24 суток, появление здоровых грануляций наблюдалось на 9 ± 1,12 сутки.

В контрольной группе эти показатели были соответственно 10 ± 1,16 и 13 ± 1,34 суток. Таким образом, у пациентов основной группы процессы очищения и заживления ран протекали в 1,4 раза быстрее, чем в контрольной. Кроме того, у этих пациентов отмечено более быстрое уменьшение интоксикации, отёка и болевого синдрома,

стабилизация уровня глюкозы и улучшение общего состояния.
Сроки эпителизации ран после аутодермопластики составили в среднем 14–16 суток, тогда как в контрольной группе — 22–25 суток. Продолжительность госпитализации сократилась в среднем на 8–10 дней, что значительно повысило эффективность лечения и ускорило процесс реабилитации.
Полученные результаты подтверждают, что применение CO_2-лазера при лечении гнойно-некротических поражений стопы способствует более быстрому и безопасному удалению некротических тканей с минимальной кровопотерей. Лазер обладает выраженным антимикробным, гемостатическим и биостимулирующим эффектом, улучшает микроциркуляцию и ускоряет регенерацию тканей.
Использование аутодермопластики после лазерной обработки обеспечивает быстрое закрытие дефектов, предотвращает вторичное инфицирование, уменьшает риск формирования хронических ран и способствует ранней активизации пациентов. Всё это делает лазерные технологии важным элементом комплексного лечения синдрома диабетической стопы.
Средний Возраст в годах в основной группе составил 66,2±1,42, в контрольной группе 65,4±1,46. В основной группе мужчин было 18 (29,1%), женщин 44 (70,9%), в контрольной группе 9 (28,2%) и 23 (71,8%); Больные в обеих группах страдали диабетом более 10 лет. Количество больных с тяжелой формой течения сахарного диабета в основной группе составило 54 (87%) патента, в контрольной - 26 (81,2%) соответсгаено. Как в основной, так и в контрольной группе основными опера1ивными пособиями являлись некрэктомия и резекция передних отделов стопы. Наряду с хирургическим лечением больных как в основной, так и контрольной группах проводились комплексная консервативная терапия, включающая в себя разгрузку пораженной конечности, коррекцию углеводного обмена путем дробного введения простого инсулина по данным суточной гликемии, антибактериальная терапия которая была основана на данных микробиологических исследований. Лечение диабетической нейропатии и расстройств микроциркуляторного звена кровообращения проводилось препаратами а липоевой кислоты и низкомслекуляриыми гепаринами. Местное лечения включало ежедневные перевязки с использованием раствора йодопирона, 0,5% хлоргексидина и др. Результаты исследования. На фоне проводимых лечебных мероприятий, включающих лекарственную тера Пию, обработку раны С02 - лазером в основной группе позволило сократит сроки очищения раны от гнойнонекротических тканей до 7±1,24 суток, появления «здоровых» грануляции Происходило на 9±1,12 сутки, пэ сравнению с контрольной группой, где сроки очищения рань составили 10±1,16 дней, а формирование сочных грануляцией наступило к 13± -,34 суткам. Вышеуказанное свидетельствует об ускорении сроков очищения раны у больных основной группы в 1, 4 раза по сравнению с контрольной. Заключение. Выполнение ранних пластических операций на стопе у больных сахарным диабетом II типа после «малых» операций на стопе имеет важное значения, так как, позволяет сократить сроки эпителизации ран, обеспечить раннюю активизацию и сократить сроки лечения.

Заключение

1. Применение CO_2-лазера при хирургической обработке ран у больных с синдромом диабетической стопы способствует более быстрому очищению ран от гнойно-некротических масс.
2. Совместное использование лазерной некрэктомии и аутодермопластики сокращает сроки эпителизации и заживления ран в 1,4 раза по сравнению с традиционным лечением.
3. Комплексное лечение способствует улучшению общего состояния пациентов, сокращает сроки госпитализации и снижает риск ампутации.
4. Лазерные технологии являются эффективным и безопасным дополнением к традиционным методам лечения диабетической стопы и рекомендованы к широкому клиническому применению.

REFERENCES

1. Амирасланов Ю.А., Турова Т.Г., Борисов И.В. Острая хирургическая инфекция у больных сахарным диабетом // Материалы международного научно-практического конгресса, посвященного 40-летию отдела ран и раневых инфекций Института хирургии им. А.В. Вишневского «Сахарный диабет и хирургические инфекции». — М., 2013. — С. 7.
2. Балаболкин М.И., Клебанова Е.М., Креминская В.М. Лечение сахарного диабета и его осложнений: руководство для врачей. — М.: Медицина, 2005.
3. Блатун Л.А. Банеоцин (порошок, мазь) — перспективы использования в комплексном лечении гнойно-некротических поражений нижних конечностей у больных с синдромом диабетической стопы // Раны и раневые инфекции. — 2015. — Т. 2, № 3. — С. 36–44.
4. Магомедов М.М., Гамзатов Г.М., Магомедов А.А., Нурмагомедова П.М. Лечение обширных гнойных ран у больных сахарным диабетом // Материалы 2-го международного конгресса «Раны и раневые инфекции» с конференцией «Проблемы анестезии и интенсивной терапии раневых инфекций». — М., 2014. — С. 233–235.
5. Нузов Б.Г., Стадников А.А., Нузова О.Б. Оптимизация репаративной регенерации тканей. — М.: Медицина, 2012.
6. Shah B.R., Hux J.E. Quantifying the risk of infectious diseases for people with diabetes // Diabetes Care. — 2003. — Vol. 26. — P. 510–515.
7. Witte M.B., Kiyama T., Barbul A. Nitric oxide enhances experimental wound healing in diabetes // Br. J. Surg. — 2002. — Vol. 89, No. 12. — P. 1594–1601.

DAS DENGLISCH IM LEHRWERK „NETZWERK"

Axadjonova Sadoqat Shukurjon qizi
DaF-Lehrerin

Annotatsion. Heutzutage hat Englisch einen enormen Einfluss in allen Bereichen. Englische Woerter treten relevant wie auf alle Sprachen, auch auf Deutsch ein. Man wuerde sagen, dass eine neue Sprache „Denglisch" entstand. In diesem Artikel wird die denglischen Woerter im Lehrwerk „Netzwerk" untersucht.
Schluesswoerter. *Denglisch, Lehrwerk, Netzwerk, Anglizismen, Verlag, Tabelle, Lektionen, Sprache, Deutsch, Englisch*

Das Lehrwerk „Netzwerk" hat 6 Lektionen. Es ist das Lehrwerk für Jugendlichen. Es führt zu den Niveaus B.1.2 des Gemeinsamen Europäischen Referenzrahmen und enthält eine integrierte DVD-ROM mit interaktiven Übungen zum selbständigen Weiterlernen. Das Lehrwerk umfasst die Themen, wie, „Beziehungskisten", „Von Kopf bis Fuß", „Kunststücke", „Miteinander", „Vom Leben in Städten" und „Geld regiert die Welt". Im Lehrwerk gibt es Landeskunde, Fertigkeiten, Strategietraining, Grammatik, Redemittel und andere.

Hier sind Themen der DaF - Lehrwerken, in den die englischen Wörter höflich vorkommen. Erstes Lehrwerk ist „Netzwerk".

Im Thema „Beziehungskiste" kommen folgende Anglizismen und Denglischen vor: Cartoon, Start, Okay, Job, die Goldwage, E-mail; davon sind folgende Wörter denglisch: *Patchworkfamilie, shoppen*. Das Thema "Von Kopf bis Fuß" hat die englische Wörter, wie: das Küchenteam, die Chipkarte, joggen, CD, die Mindmap, Feedback, das Team, E-Mail, Multitasking, Rock, Trip-Hop, Jazz, Job, Team; die Zahl des Denglischen: *das Küchenteam, die Chipkarte, joggen*. In manchen Themen, wie, zum Beispiel: „Kunststücke" (E-Mail) und „Miteinander" (Jobcenter; *Jobcenter* ist denglisch.) kann man nur ein Wort treffen. In „Vom Leben in Städten": Shopping, Handy, Cola, Chips, Sandwich. In "Geld regiert die Welt": Okay, Start, Stopp, Goodwill, Mister, land, homeland, poem, happy.

Die Anglizismen lassen sich den unterschiedlichsten Verwendungsbereichen zuordnen. Die folgende Aufstellung erhebt keinerlei Anspruch auf Vollständigkeit; manche Wörter ließen sich sicher mehreren Kategorien zuordnen:

Einkaufen: *shoppen, Shopping;*
Familie: *Patchwork-Familie;*
Bildung und Beruf: *die Mindmap, Feedback, Multitasking, Job, Jobcenter;*
Essen und Trinken: *Küchenteam, Cola, Chips, Sandwich;*
Sport und Freizeit: *joggen, das Team, Cartoon, poem,* Rock, *Trip-Hop, Jazz;*
Computer: *E-Mail;*

Electronik: *die Chipkarte, CD; Handy*;
Veranstalltungen und Unterhaltungen: *die Goldwage, Goodwill, Mister, happy, Start, Okay, Start, Stopp;*
Landeskunde: *land, homeland;*

Literatur:

1. Giorgiakaki M, Schümann A. Beste Freunde. München: Hueber Verlag. 2016.
2. Dengler S, Rusch P. Netzwerk. München: Hueber Verlag, 2014.
3. Carstensen B. Anglizismen-Wörterbuch. Berlin, New York: Walter de Gruyter, 1993.
4. Carstensen B. Englische Einflüsse auf die deutsche Sprache. Heidelberg: Rowohlt Taschenbuch Verlag, 1965.
5. Gester S. Anglizismen im Deutschen. Frank-furt am Main: Peterlang GMBH, 2001.

DENGLISCH IM DAF-UNTERRICHT

Axadjonova Sadoqat Shukurjon qizi
DaF-Lehrerin

Annotation. In diesem Artikel wird das Thema „Denglisch" diskutiert. Viele verschiedene Teile des Alltags aus Englischen beeinflusst. Beliebte Bereiche für neue Wörter sind der Sport, die Mode, das Fernsehen, die Werbung und die Wirtschaft. Neue englischstämmige Wörter kommen nicht nur in diesen Bereichen, sondern auch in Fachbereichen auch vor. So können wir ihnen in Deutsch als Fremdsprache.[1]

Schluesswoerter: *Denglisch, Deutsch, Anglizismen, DaF-Unterricht, Sprache, Englisch, Methoden, Zeitschrift, Lernziele*

Einerseits, wenn das den Deutschlernenden die reine Sprache zu lernen stört, andererseits sie sollen über Denglisch informieren, und wissen, welche Wörter eigentlich denglisch sind.

Die Bedeutung des Denglischen im DaF – Unterricht:

- Die Studenten müssen in ihrer Umwelt nach denglischen und englischen Wörtern Ausschau halten können, zum Beispiel in Zeitschriften, im Fernsehen, oder bei der Kommunikation mit Mitschülern.
- Nach der didaktischen Sicht ist Sprachbewusstsein/Sprachgefühl im Hinblick auf englischsprachige Wörter in der deutschen Sprache wichtig für die Deutschlernenden.
- Für die Ausbildung: Bezüge zum Englischunterricht (homophone Wörter wie house-Haus
- Für das Leben der Lerner: Sprachbewusstsein/-reflexion kann hilfreich beim Erlernen anderer Fremdsprachen in die Schule und darüber hinaus sein.

Lernziele des Denglischen im DaF – Unterricht:

- Lerner sollen wissen, dass viele deutsche Wörter vom Englischen beeinflusst sind.
- Lerner sollen ein Gefühl dafür entwickeln, was aus dem Deutschen und was aus dem Englischen stammt.
- Umgang mit verschiedenen Medien.
- Aufmerksamkeit für die Sprache vertiefen

Man kann mit verschiedenen Methoden im DaF – Unterricht das Denglisch lehren. Zum Beispiel mit verschiedenen Texten, oder Lieder, in denen denglische Wörter vorkommen. Oder, die Studenten, die Grundkenntnisse des Denglischen haben, könnten ein Bild mit denglischen Wörtern beschreiben. Wie zum Beispiel, der Lehrer gibt den Text des Lieds „Denglisch" von Wise Guys[2], das mit denglischen Wörtern gespickt ist. Dann die Studenten

[1] Borgwardt U. Kompendium Fremdsprachenunterricht. Ismaning: Max Hueber Verlag, 1993. S.56.
[2] Borgwardt U. Kompendium Fremdsprachenunterricht. Ismaning: Max Hueber Verlag, 1993. S.67.

hören es mit geschlossenen Augen zu. Sie müssen die denglischen Wörter unterstreichen und ihre deutschen Äquivalente finden.

Literatur:

1. Giorgiakaki M, Schümann A. Beste Freunde. München: Hueber Verlag. 2016.
2. Dengler S, Rusch P. Netzwerk. München: Hueber Verlag, 2014.
3. Carstensen B. Anglizismen-Wörterbuch. Berlin, New York: Walter de Gruyter, 1993.
4. Carstensen B. Englische Einflüsse auf die deutsche Sprache. Heidelberg: Rowohlt Taschenbuch Verlag, 1965.
5. Gester S. Anglizismen im Deutschen. Frank-furt am Main: Peterlang GMBH, 2001.

THE PLACE AND DEVELOPMENT TRENDS OF PHRASEOLOGY IN MODERN LINGUISTIC THEORIES

Zokirova Sevara

Abstract: The thesis provides an in-depth review of the role and development trends of phraseology in modern linguistic theories. The evolution of phraseology is analyzed based on the theories of cognitive linguistics, anthropocentrism, and multimodality, and the cognitive and cultural layers of language are highlighted through the Sapir-Whorf hypothesis, Lakoff-Johnson metaphor theory, and Perlman multimodality models. Trends are discussed in detail under the influence of digital communication, globalization, corpus analysis, and machine learning. The results present phraseology as a central element in future models of language, emphasizing neurolinguistics and evolutionary linguistics, which offer new approaches for modern research.

Keywords: Phraseology, modern linguistics, cognitive linguistics, evolution, multimodality, anthropocentrism, globalization, corpus analysis, intersubjectivity, metaphor models, conceptual modeling, neurolinguistics, evolutionary linguistics, sociolinguistics, generative phonology, machine learning, diachronic changes, cognitive patterns, terminology, psycholinguistic approach.

ZAMONAVIY LINGVISTIKA NAZARIYALARIDA FRAZEOLOGIYANING O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Zokirova Sevara

Anotatsiya: Tezis zamonaviy lingvistika nazariyalarida frazeologiyaning o‘rni va rivojlanish tendensiyalarini chuqur ko‘rib chiqadi. Kognitiv lingvistika, antropotsentrizm va multimodallik nazariyalari asosida frazeologiyaning evolyutsiyasi tahlil etiladi, shuningdek, Sapir-Uorf gipotezasi, Lakoff-Jonson metafora nazariyasi va Perlman multimodallik modellari orqali tilning kognitiv va madaniy qatlamlari yoritiladi. Tendensiyalar raqamli aloqa, globallashuv, korpus tahlili va mashina o‘rganish ta’sirida batafsil muhokama qilinadi. Natijalar frazeologiyani tilning kelajak modellarida markaziy element sifatida taqdim etib, neyrolingvistika va evolyutsion lingvistikaga urg‘u beradi, bu esa zamonaviy tadqiqotlar uchun yangi yondashuvlarni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, zamonaviy lingvistika, kognitiv lingvistika, evolyutsiya, multimodallik, antropotsentrizm, globallashuv, korpus tahlili, intersubyektivlik, metafora modellari, kontseptual modellash, neyrolingvistika, evolyutsion lingvistika, sotsiolingvistika, generativ fonologiya, mashina o‘rganish, diakronik o‘zgarishlar, kognitiv naqshlar, terminologizatsiya, psixolingvistik yondashuv.

МЕСТО И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФРАЗЕОЛОГИИ В СОВРЕМЕННЫХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЯХ

Закирова Севара

Аннотация: В диссертация представлен углубленный обзор места и тенденций развития фразеологии в современных лингвистических теориях. Эволюция фразеологии анализируется с позиций когнитивной лингвистики, антропоцентризма и мультимодальности, а когнитивные и культурные слои языка рассматриваются с помощью гипотезы Сепира-Уорфа, теории метафор Лакоффа-Джонсона и моделей мультимодальности Перлмана. Подробно рассматриваются тенденции, возникающие под влиянием цифровой коммуникации, глобализации, корпусного анализа и машинного обучения. Результаты представляют фразеологию как центральный элемент будущих моделей языка с акцентом на нейролингвистику и эволюционную лингвистику, что открывает новые подходы для современных исследований.

Ключевые слова: фразеология, современная лингвистика, когнитивная лингвистика, эволюция, мультимодальность, антропоцентризм, глобализация, корпусный анализ, интерсубъективность, метафорические модели, концептуальное моделирование, нейролингвистика, эволюционная лингвистика, социолингвистика, генеративная фонология, машинное обучение, диахронические изменения, когнитивные паттерны, терминология, психолингвистический подход.

The development of modern linguistic theories allows us to study phraseology as a cognitive and cultural layer of language. Based on the hypothesis of E. Sapir and B. Whorf, phraseology sheds light on the connection between language and culture. This article analyzes the role and development trends of phraseology and opens modern paradigms of linguistics. In modern linguistic theories, phraseology occupies a place as an important section that reveals the cognitive and cultural layers of language, and its development trends are directed towards anthropocentrism, cognitive linguistics and intersubjectivity. Based on the hypothesis of E. Sapir and B. Whorf, phraseology is seen as a medium between language and culture, presenting phraseological units as a mirror of the national worldview. In cognitive linguistics (J. Lakoff and M. Johnson), phraseology analyzes language evolution and neural networks based on metaphors and conceptual models , since units metaphorically store human experience. Modern trends, including urban dialectology, sociolinguistics, and generative phonology, link phraseology to the evolutionary and multimodal origins of language; in multimodality theory (Perlman 2017), phraseological units are formed through the interaction between auditory and visual channels. Phraseology is systematized in modern linguistics through the study of multi-word units (MWEs), divided into categories such as idiomatic expressions, collocations, metaphors, proverbs, and slogans, which are determined by corpus analysis and statistical methods to determine the frequency and distribution of word combinations. In semantic analysis, phraseologisms provide idiomaticity, differing from literal meaning; for example, “kick the bucket” means death, and operates without logical connection of components, which reveals hidden patterns in machine learning.

Developmental trends include the integration of digital communication (new phraseologisms in social networks), the impact of globalization (cultural mixing), the impact of society (the impact of social changes on language), and evolutionary changes, which shed light on sociocultural consequences in English phraseology. Modern theories, moving from structuralism to poststructuralism, see phraseology as a paradigm reflecting the dynamics of language, emphasizing neurolinguistics and evolutionary linguistics. The development of phraseology is based on the theory of cognitive development, universal grammar, and monitor theory, emphasizing phraseological units as a means of social interaction in language learning; acoustic speech theory sees phonological and semantic integration, linking diachronic changes. In cognitive linguistics, phraseology studies the interaction between language and consciousness, analyzing the influence of language on cognitive processes, including memory, attention, and thinking. Phraseological units reflect cognitive patterns and express cognitive processes through metaphor and symbolism, for example, “time flies” (to pass quickly) or “to sink in debt” (to drown). They are considered as cognitive units, connecting abstract concepts with concrete images through metaphor and metonymy. The development of linguistics has connected phraseology with evolution and cognitive processes, illuminating its trends through sociolinguistic and generative approaches, which ensures the central place of phraseology and determines future integration models of language. In cognitive linguistics, the terminologicalization of phraseological units occurs through semantic changes, integrating them into scientific discourse, which creates specific meanings in such areas as linguistics, medicine, and sociology. Modern trends, including corpus analysis, experimental methods, and psycholinguistic approaches, see phraseology as a product of cognitive processes, which provides dynamic models of language. Phraseology remains a dynamic field in modern linguistics, revealing the cultural and cognitive foundations of language. Its development trends, based on evolutionary and intersubjective approaches, determine future integration models of language.

List of used literature

1. Jamolkhonov H. The current Uzbek literary language. Tashkent: Fan, 2004.
2. Sharipova O., Yuldoshev I. Fundamentals of Linguistics. Tashkent: National University of Uzbekistan, 2010.
3. Ermatov I. Current Uzbek literary language (Lexicology, phraseology, lexicography). Tashkent: Scienceweb, 2023.
4. Turaboyeva L. On the study of phraseological issues in the Uzbek language. Karakalpakstan State University, 2022.
5. Linguistic Theory. Tashkent: BuxDU, 2022.

EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI

Raimboyeva Mashhura, o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada eksport diversifikatsiyasi, uni mavjud imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari va amalga oshirish yo‘llari yoritib berilgan.
Аннотация. В статье рассматривается диверсификация экспорта, ее существующие возможности, особенности и пути ее реализации.
Abstract. This article discusses export diversification, its existing opportunities, specific features and ways to implement it.
Kalit so‘zlar. Eksport, diversifikatsiya, eksport diversifikatsiyasi, tovar, biznes, korxona.
Ключевые слова. Экспорт, диверсификация, диверсификация экспорта, товар, бизнес, предприятие.
Key words. Export, diversification, export diversification, commodity, business, enterprise.

Eksportni diversifikatsiya qilish eksport qilinadigan tovarlar sonining ko‘payishiga olib keladigan iqtisodiy jarayon bo‘lib hisoblanadi. Yakka tartibdagi eksport korxonasi va davlat darajasida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun diversifikatsiya zarur bo‘ladi. Diversifikatsiya - biznesni kengaytirishning yangi usullarini izlash, eksport qilish, ya’ni tovarlar turlari yoki ularning miqdorini ko‘paytirish va yangi eksport qiluvchi kompaniyalar bozoriga kirishdir [1]. Diversifikatsiya jarayonida iqtisodiy bazani mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi. Iqtisodiyot mustahkamlanadi va uchinchi tomon omillarining salbiy ta’siri kamayadi. Bu borada iqtisodiy diversifikatsiya ta’sir doiralari va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bo‘yicha boshqa chora-tadbirlar bilan birga amalga oshiriladi. Diversifikatsiya savdo shart-sharoitlari noqulay sharoitda qo‘llaniladi. Yomonlashayotgan bozor shart-sharoitlarini yengishga imkon beradi. Zamonaviy iqtisodiyotda eksportni diversifikatsiya qilish tovarlar assortimentini yangilashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, kichik korxonalarni yirik korxonalarning qo’shilgan qiymat zanjirida ko’rib chiqish mumkin va bu esa diversifikatsiyaga yordam beradi [2].

Har qanday diversifikatsiya bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan turlarga ajratiladi. Bu kompaniyani mavjud bilan o‘zaro bog‘langan yangi ishlab chiqarish sohasiga kiritish bilan bog‘liqdir. Masalan, eksport tovarlarining yangi turini ishlab chiqarishni boshlash shular jumlasidandir. Ulardan aloqasiz diversifikatsiya kompaniyaning hozirgi faoliyati bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan butunlay boshqa sohaga kirishi va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga asoslanadi. Shularga asosan, eksportni diversifikatsiya qilish bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan diversifikatsiya eksport xatarlarini diversifikatsiya qilishni taqozo qiladi.

Ko‘pincha eksportni diversifikatsiya qilish rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘sishni

tezlashtirishga imkon beradi. Eksportni yangi tarmoqlarga gorizontal ravishda diversifikatsiya qilish iqtisodiyotning qolgan qismida ijobiy tashqi ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki, eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlar xorijiy xaridorlar bilan aloqalar va xalqaro raqobatga ta’sir qilish tufayli dinamik o‘rganish faoliyatidan foyda oladi [3]. Birlamchi eksportdan ishlab chiqarilgan eksportga vertikal diversifikatsiya o‘sish bilan bog‘liq. Chunki, asosiy eksport tarmoqlari tarqalishlarni ko‘rsatmaydi. Shunga qaramay, eksportni diversifikatsiya qilish va o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik tadqiqotlarga asoslanadi. Eksportni diversifikatsiya qilish rivojlangan mamlakatlarning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi [4]. Shu bois, eksportni diversifikatsiya qilish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotning nisbatan kichik assortimenti va qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, birlamchi tovarlar ularning umumiy eksport daromadining salmoqli qismini tashkil qiladi. Bu investitsiyalar va bandlik nuqtai nazaridan kam rivojlangan mamlakatlarning makroiqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday qilib, eksportni diversifikatsiya qilish mavjud cheklovlarni yumshatish usuli hisoblanadi. Eksportni diversifikatsiya qilish "an’anaviy" eksportdan "noan’anaviy" eksportga o‘tishni nazarda tutadi. Shu bois, mamlakatlar eksportni diversifikatsiya qilishlari kerak. Bu esa eksport o‘zgaruvchanligini yengishga imkon beradi. Eksport portfelini diversifikatsiya qilish iqtisodiy o‘sishni kuchaytirishi va tezlashtirishi mumkin. Eksportning o‘zgaruvchanligi tavakkalchilikka yo‘l qo‘ymaydigan firmalarni iqtisodiyotga kerakli investitsiyalarni kiritish, makroiqtisodiy noaniqlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga zarar yetkazishi mumkin. Shunday qilib, eksportni diversifikatsiya qilish uzoq muddatda eksport daromadlarini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eksportni diversifikatsiya qilish iqtisodiy o‘sishda muhim rol o‘ynaydi. Bu borada eksportni diversifikatsiya qilishni rag‘batlantirish strategiyalari eksportni diversifikatsiya qilish foydali bo‘lishi mumkin. Ammo, mamlakat eksportini diversifikatsiya qilish mavjud muammolarni yengishga imkon beradi. Eksportning diversifikatsiyasiga ta’sir etuvchi potensial omillar, masalan, mamlakat hajmi va rivojlanish darajasi, savdo xarajatlari, mamlakatlar o‘rtasidagi masofa va ichki bozorga kirish xarajatlari ko‘proq diversifikatsiya bilan bog‘liq. Shunga asosan, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ega bo‘lgan barcha muvaffaqiyatli mamlakatlar eksportni diversifikatsiya qilishga imkon beradigan quyidagi strategiyalarga ega bo‘ladi:

- moliya sektorini rivojlantirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar moliya sektorini rivojlantirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar diversifikatsiyaga yordam beradi. Ya’ni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar eksport uchun ichki kapitalni ko‘paytirish, texnologiya va yangi mahsulotlarni eksportga uzatishni osonlashtirish, yangi va yirik xorijiy bozorlarga chiqishni osonlashtirish, texnik va boshqaruv ko‘nikmalarini oshirish orqali qabul qiluvchi mamlakatlar eksportini rag‘batlantirishi mumkin.

- xarajatlarni kamaytirish. Bu xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lib, eksportni diversifikatsiya qilish xarajatlarga sezgir bo‘ladi. Unga asosan, xarajatlar kamligi mahalliy kompaniyalarning eksport qilishda kamroq to‘siqlarga ega ekanligini anglatadi. Bu hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari, ichki transport xarajatlari, bojxona xarajatlari, port xarajatlari, ma’muriy xarajatlar va boshqalar kabi savdo xarajatlarini o‘z ichiga oladi.
- to‘siqlarni pasaytirish Kirish to‘siqlari va xalqaro savdo xarajatlarini kamaytirish rivojlanayotgan mamlakatlar eksport savatini diversifikatsiya qilishning muhim usuli bo‘lib hisoblanadi. Bu borada eksport marjasiga tarif stavkalari va imtiyozlarning o‘zgarishi ta’sir qilishi mumkin.
- amal qilish orqali o‘rganish. Endogen o‘sish modeli eksportni o‘rganish va eksport qilish orqali o‘rganish, shuningdek rivojlangan mamlakatlar amaliyotini o‘zlashtirish orqali ko‘proq diversifikatsiya qilinishi mumkin.
- hukumatning roli. Mamlakat hukumati eksportni rivojlantirishda yetakchi rol o‘ynashi kerak. Investitsiyalar sanoatning turli tarmoqlariga yo‘naltirilishi kerak. Shu tariqa hukumat investitsiyalarning ma’lum bir tarmoqqa yo‘naltirilmasligini ta’minlashi va shu orqali ko‘p tarmoqli sanoat bazasini yaratishi mumkin. Bu borada hukumat mamlakatga yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kerak.
- tadqiqot va ishlanmalar. Sanoat darajasini oshirish uchun tadqiqot va ishlanmalar sohasida harakat qilish mumkin. Bu tadqiqot va ishlanmalar faoliyatini va texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantiradigan soliq va moliyaviy imtiyozlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Davlat, bank tizimi va boshqa moliya institutlari bilan birga mamlakat eksportini diversifikatsiya qilish va mustahkamlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishi kerak.
- talab tarkibini o‘zgartirish. Bu borada tovarlarga bo‘lgan talabning ortishi va undan keyin mamlakat daromadlarining ko‘payishini anglatadi.

Xulosa shuki, eksportni diversifikatsiya qilish eksportga mo’ljallangan mahsulot va xizmatlar turlari va nomlarining ko’payishini anglatadi. Ya’ni, eksportni diversifikatsiya qilish iqtisodiy manevrlar uchun sharoit yaratadi va noqulay iqtisodiy shart-sharoitlarning iqtisodiyotga salbiy ta’sirini bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://utmagazine.ru/posts/10928-diversifikaciya-eksporta
2. Tabata S. Observations on Changes in Russia’s Comparative Advantage, 1994-2005 // Eurasian Geography and Economics. 2006. № 6 (47). C. 747–759.
3. Herzer, D., & Nowak-Lehmann D., F. (2006). What Does Export Diversification Do For Growth? An Econometric Analysis. Applied Economics, 38(15), 1825-1838. https://doi.org/10.1080/00036840500426983
4. https://customwritings.co/the-importance-of-export-diversification/

Profilaktika inspektorlari tomonidan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarni oldini olishda davlat organlari, muassasalari va jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi **guruh kursanti**
Gulmurodov Azizbek Bobir o‘g‘li

Annotatsiya:**Ushbu maqolada profilaktika inspektorlari tomonidan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarni oldini olishda davlat organlari, muassasalari hamda jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada jinoyatlarni barvaqt aniqlash, profilaktik nazoratni kuchaytirish, axborot almashinuvini yaxshilash va innovatsion yondashuvlarni joriy etishning samarali usullari tahlil qilingan.**

Kalit so‘zlar: profilaktika inspektori, jinoyatchilik, sog‘liqni saqlash, hamkorlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tuzilmalari, davlat organlari, ijtimoiy xavfsizlik.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga tajovuz qiluvchi jinoyatlarni barvaqt aniqlash hamda ularning oldini olish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, profilaktika inspektorlari faoliyatini samarali tashkil etish, ularning boshqa davlat organlari, muassasalar va jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday jinoyatlar nafaqat qonuniy tartibni buzadi, balki inson hayoti va salomatligiga bevosita zarar yetkazib, jamiyatning ma’naviy-psixologik muvozanatini ham izdan chiqaradi [1].

Profilaktika inspektorlari faoliyati bugungi kunda kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Ya’ni, ular jinoyatlarning oldini olishda nafaqat ma’muriy nazorat, balki ijtimoiy, psixologik va tarbiyaviy chora-tadbirlarni ham birlashtirib boradi. Shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar, odatda, oilaviy nizolar, ichkilikbozlik, ijtimoiy stress, ruhiy bosim yoki iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda sodir etiladi. Shu sababli, profilaktika inspektorining bunday holatlarda tezkor va to‘g‘ri harakat qilishi, hamda jamoatchilikni ogohlikka chorlay olishi muhimdir [2].

Bunda, albatta, turli davlat organlari va jamoat tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlikning uzviyligi katta o‘rin tutadi. Masalan, sog‘liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ruhiy nosog‘lom yoki oilaviy zo‘ravonlikka moyil shaxslar ustidan nazoratni kuchaytirish, mahalla faollari bilan birgalikda xavfli vaziyatlarni erta aniqlash, ta’lim muassasalari orqali yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish kabi chora-tadbirlar jinoyatlarning oldini olishda samarali natija beradi.

Profilaktika inspektori faoliyatida eng muhim jihatlardan biri bu — fuqarolarning ishonchini qozonishdir. Chunki, fuqarolar bilan yaqin muloqotda bo‘lmagan inspektor o‘z hududidagi

jinoyat xavfini to‘liq baholay olmaydi. Shu sababli, davlat organlari, sog‘liqni saqlash tizimi, o‘quv muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan axborot almashinuvini kuchaytirish zarur. Ayniqsa, jinoyatga moyil shaxslar haqida profilaktik ro‘yxatlar, ularning ijtimoiy muammolari, ish bilan ta’minlanganlik darajasi yoki oilaviy muhit haqidagi ma’lumotlarni tezkor olish imkoniyati inspektorlar faoliyatini samaraliroq qiladi [3].

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni ham ushbu jarayonlarda davlat organlari va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini muhim deb belgilaydi. Bu esa har bir tizim vakilining umumiy maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilishi, jinoyatchilikka qarshi yagona kompleks tizimni shakllantirishni talab etadi. Shu jihatdan, profilaktika inspektorining ishini faqat ichki ishlar tizimi doirasida emas, balki keng ijtimoiy hamkorlik muhiti asosida tashkil etish zarur.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda profilaktika faoliyatini takomillashtirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Masalan, “Profilaktika elektron platformasi” orqali xavfli toifadagi shaxslar, oilaviy zo‘ravonlik holatlari yoki jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan hududlar haqidagi ma’lumotlar yagona bazaga kiritilmoqda. Bu esa profilaktika inspektorlariga jinoyat xavfini tahlil qilish va chora ko‘rishda tezkorlik beradi [4].

Profilaktika inspektorlarining samarali faoliyati uchun ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Chunki shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar ko‘p hollarda psixologik turtki asosida sodir etiladi. Shu bois inspektorlarning ruhiy tahlil, muomala madaniyati, stressli vaziyatlarda muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan tanishtirish lozim.

Shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarni oldini olishda profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligi bevosita davlat organlari, muassasalar va jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorlikka bog‘liqdir. Hamkorlik tizimini takomillashtirish, profilaktika jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari. — 2023-yil.
3. Karimov, I.A. “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch”. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Shodmonov, S., & Jo‘rayev, A. “Profilaktika faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni”. — Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti, 2022.

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH: AQSH, GERMANIYA VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI QIYOSIY TAHLILI.

Choriyev Ulug'bek Rustamovich
Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, 2-kurs talabasi
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni ro`yxatdan o`tkazishning AQSH, Germaniya qonunchiligi bo`yicha o`rnatilgan tartibi, shuningdek ushbu davlatlardagi ro`yxatdan o`tkazish protsedurasidagi o`ziga xosliklar ko`rsatiladi, shuningdek, ushbu o`ziga xosliklarning ular qonunchiligiga kiritilishi, afzallik jihatlari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayni xususiyatlar tahlili asnosida ularni O`zbekiston qonunchiligiga kiritish-kiritmaslikning obyektiv jihatlari ko`rib chiqiladi va muallif tomonidan maqbul takliflar beriladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklidagi yuridik shaxslar ko`plab davlatlar amaliyotida eng ko`p tarqalgan yuridik shaxs bo`lganligi sababli ularni ro`yxatdan o`tkazishga doir to`g`ri va samarali normalarning o`rnatilishi davlatning iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi, shuningdek davlatimizda tabdirkorlikka oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga yordam beradi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, qilgan tadqiqot natijalaridan, Gazeta va jurnallardan, xorij mamlakatlari qonun hujjatlaridan maqsadli havolalar berildi. Ushbu mavzuni o`rganish qanchalik muhim ekanligi aks ettirildi.

Kalit so`zlar: Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (ayrim hollarda MCHJ, GmbH), BOI hisobot tizimi (Beneficial ownership information), ustav fondi.

REGISTRATION OF LIMITED LIABILITY COMPANIES: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE USA, GERMANY, AND UZBEKISTAN

Ulug'bek Rustamovich Choriyev
Tashkent State University of Law
Faculty of Public Law, 2nd-year student
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

ANNOTATION

This article discusses the procedures for registering limited liability companies under the laws of the United States and Germany. It outlines the distinctive features of the registration

process in these countries, analyzes how these features are integrated into their legal systems, and evaluates their respective advantages and disadvantages. Based on this comparative analysis, the author considers the feasibility of incorporating similar elements into the legislation of Uzbekistan and proposes reasonable recommendations. The relevance of the article lies in the fact that limited liability companies are among the most common forms of legal entities in many jurisdictions. The establishment of clear and effective registration norms positively influences a country’s economic performance and helps to improve business legislation. The article draws on the views of foreign and national scholars, academic research findings, newspapers, journals, and foreign legal acts. The importance of thoroughly studying this topic is emphasized.

Keywords: Limited Liability Company (LLC, GmbH), Beneficial Ownership Information (BOI) Hisobot System, Charter Capital.

РЕГИСТРАЦИЯ ОБЩЕСТВ С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА США, ГЕРМАНИИ И УЗБЕКИСТАНА

Улугбек Рустамович Чориев
Ташкентский государственный юридический университет
Факультет публичного права, студент 2 курса
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются процедуры регистрации обществ с ограниченной ответственностью (ООО) в соответствии с законодательством США и Германии. Описываются особенности процесса регистрации в этих странах, анализируется, как данные особенности реализованы в их правовых системах, а также оцениваются их преимущества и недостатки. На основе сравнительного анализа автор рассматривает возможность внедрения аналогичных положений в законодательство Узбекистана и предлагает обоснованные рекомендации. Актуальность темы объясняется тем, что общества с ограниченной ответственностью являются одной из самых распространенных форм юридических лиц в различных странах. Установление четких и эффективных норм регистрации оказывает положительное влияние на экономическое развитие и способствует совершенствованию законодательства в сфере предпринимательства. В статье приведены ссылки на мнения отечественных и зарубежных ученых, результаты научных исследований, статьи из газет и журналов, а также на нормативно-правовые акты иностранных государств. Подчеркивается значимость глубокого изучения данной темы.

Ключевые слова: Общество с ограниченной ответственностью (OOO, GmbH), система отчетности о бенефициарных владельцах (BOI hisobot), уставной капитал.

KIRISH.

Hammamizga ma’lumki, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar juda uzoq yillardan beri barcha davlatlarda tadbirkorlar uchun eng qulay va xavfsiz yuridik shaxs sifatida ko`rib kelinadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ancha uzoq yillardan beri deyarli barcha davlatlar qonunchiligidan o`z o`rnini egallay oldi. Albatta,har bir yuridik shaxsning “dunyoga kelishi” ular ro`yxatdan o`tkazilgandan keyin vujudga kelgani kabi mas’uliyati cheklangan jamiyatning ham davlat ro`yxatidan belgilangan tartiblarda o`tkazilishi ularning vujudga kelishiga sabab bo`ladi. Bu haqida huquqshunos olim Rahmonqulov ham o`z asarlarida ta’kidlab o`tadi, ya’ni: “Jamiyatni davlat ro`yxatdan o`tkazish jamiyatning paydo bo`lishi jarayonini yakunlaydi”[1]. Shunday ekan, ushbu ro`yxatdan o`tkazish jarayonini va qoidalarini o`rganish juda muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, biz ushbu maqolada asosan, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni davlat ro`yxatidan o`tkazish masalalarini tahlil qilamiz. Hozirgi davlatlar tajribasida bu bo`yicha turli davlatlarda turlicha tartiblarni ko`ramiz, bu esa o`z navbatida “Qaysi amaliyot eng qulayi?” degan savolni o`rtaga tashlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt tomonidan yaratilayotgan obyektlarga nisbatan mualliflik huquqini kimga berishga oid nazariy va amaliy muammolarni tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu muammolarni tahlil qilish asnosida ularga oid turli yechimlarni analiz qilish va ularning kamchiliklarini ko`rsatib o`tgan holda maqbul yechimni topishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo`llagan.

TADQIQOT NATIJALARI

AQSH qonunchiligi tahlili. Tadqiqotlarimizni AQSH amaliyoti bilan boshlaymiz. Bunda AQSH davlat tuzilish shakli federatsiya bo`lganligi uchun ham ro`yxatdan o`tkazishning har bir shtatda alohida tartibi o`rnatilgan. Biz bu tartib-qoidalarni Delavare shtati qonunchiligi asosida ko`rib chiqamiz. Delavare shtatining “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to`g`risida” gi qonuniga ko`ra, ro`yxatdan o`tkazishda quyidagi normalar mustahkamlangan. Mas’uliyati cheklangan jamiyat tashkil etish uchun bir yoki bir necha shaxslar ta’sis sertifikatini to`ldirishi kerak. Bunda quyidagi ma’lumotlar to`ldiriladi:

1) Mas’uliyati cheklangan jamiyatning nomi;
2) Mas’uliyati cheklangan jamiyatning manzili va uning registratsiya agentining manzili;
3) Ishtirokchilar xohishiga ko`ra boshqa masalalar[2].

[1] Х. Р. Размонкулов, С. С. Гулямов. Корпоратив хукук. Хукукшунослик олий укув юртлари учун дарслик. - Т.: ТДЮИ, 2007. 512 - б.
[2] https://delcode.delaware.gov/title6/c018/sc02/index.html

Bunda registratsiya agenti deyilganda huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega bo`lgan va ularni ro`yxatdan o`tkazadigan har qanday shaxs yoki tashkilot tushuniladi. Registratsiya agentligi bo`yicha turli xususiy tashkilotlar mavjud bo`lishidan tashqari, MCHJ tuzayotganlardan birortasini ham agent sifatida ko`rsatish mumkin.

Shuningdek, ro`yxatdan o`tkazishda quyidagilar ham talab etiladi:

1) Ta’sis hujjatini ro`yxatdan o`tkazish (articles of association)

2) Ustav tuzish;(Operational agreement)

3) Soliq to`lovchining id raqamini olish;

4) Bank akkaunti ochish;

5) BOI hisoboti topshirish. BOI to`liq shakli - beneficial ownership information bo`lib, o`zbek tilida foydali egalik to`g`risida ma’lumotlar deb tarjima qilish mumkin. BOI hisobotining asosiy maqsadi pul yuvish, soliqdan qochish va boshqa shu kabi bir qator moliyaviy jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan. Ma’lumki, korporativ huquqda yuridik adabiyotlarda korporativ nazoratning ikkita turi keltiriladi: Ex ante – kompaniya tashkil etilishidan oldingi nazorat va Ex post – kompaniya tashkil etilishidan keyingi nazorat. BOI hisoboti nafaqat ex ante nazoratning, balki ex post nazoratni ham amalga oshirishning muhim kafolati hisoblanadi. Bu hisobot 2024-yil 1-yanvardagi “Korporatsiyalar shaffofligi to`g`risida” gi qonun asosida ishlab chiqildi va 2024-yil 1-yanvardan mavjud kompaniyalar uchun ham, yangi ochilayotgan kompaniyalar uchun ham majburiy sifatida belgilandi. Bunda foydali egalik qiluvchilar, ya’ni MCHJ da 25 foizdan katta ulushga ega bo`lganlar haqida to`liq ma’lumot fincen portali orqali topshirish majburiy qilib belgilandi[3]. Shuningdek, hisobot topshirish uchun aniq muddatlar ham ushbu qonunda aniq qilib belgilab beriladi. 2024-yil 1-yanvar sanasidan oldin MCHJ ochgan biznes egalari bir yil muddat ichida, ya’ni 2025-yil 1-yanvargacha ushbu hisobotni topshirishi kerak. 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-yanvar oralig`ida biznes ochganlar 90 kun ichida, 2025-yil 1-yanvardan keyin ochilgan MCHJ lar esa 30 kun ichida topshirishi majburiy etib belgilandi. Belgilangan muddatdan o`tkazib yuborish kuniga 500 dollar jarima yoki 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga sabab bo`lishi belgilandi.

BOI hisobot tizimiga o`xshash tizim Buyuk Britaniya amaliyotida ham mavjud. Buyuk Britaniya amaliyotiga ko`ra bu People of Significant Control (PSC) deb ataladi va xuddi AQSH dagidek, 25 foizdan ortiq ulushga ega ishtirokchilar haqida boshlang`ich va davomiy hisobot topshirish nazarda tutiladi.

Germaniya qonunchiligi tahlili. Germaniya roman-german huquqiy oilasiga mansubligi uchun ham, Germaniya qonunchiligi o`zbek olimlari tomonidan ko`proq muhokama qilinishi ma’lum. Germaniya “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to`g`risida” gi qonunga ko`ra eng e’tiborni tortuvchi talab – bu minimal ustav kapitali[4]. Ya’ni Germaniyada MCHJ ochish

[3] https://www.fincen.gov/sites/default/files/shared/Corporate_Transparency_Act.pdf
[4] https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gmbhg/

uchun eng kamida kapitali – 25,000 yevro (kamida 12,500 yevro jamiyat ro‘yxatdan o‘tkazilguncha to‘lanadi) ustav kapitali bo`lishi qonunga ko`ra talab etiladi. Germaniya olimlarining asarlariga ko`ra minimal ustav kapitali talabi Germaniya qonunchiligiga 1892-yildayoq, hali endi MCHJ qonunchilikka kiritilgan yillarda joriy etilgan. Shuningdek, Timothy W. Guinnane buni o`z asarlarida yoritib bergan, ya’ni 1892-yilgi MCHJ ochishda ham 20,0000 mark kapital bo`lishi va uning 5,000 mark qismi korporatsiya ochilishiga to`lanishi kerak[5].

Shulardan kelib chiqqan holda bizningcha, hozirda Germaniya qonunchiligida mavjud 25,000 yevro minimal ustav kapitali talabi qo`yilishiga quyidagi asoslar mavjud:

Birinchidan, bu Germaniyaning huquqiy qadriyatlarini qonunchilikka singdirilishi sifatida e’tirof etiladi. Bunda Germaniya huquqiy qadriyatlaridagi tizimlilik, rasmiylik kabi g`oyalar alohida e’tirof etilishi kerak;

Ikkinchidan, kreditorlar huquqlari himoyasi. Cheklangan javobgarlik kafolat bilan kelishi shart prinsipi asosida kelib chiqadi. Biroq, bunda AQSH olimlari asarlarini o`qiydigan bo`lsak, ularda minimum share capital qo`yilmasligiga sabab sifatida kreditorlar huquqlari himoyasiga kuchli shartnoma huquqi orqali erishish g`oyasini ilgari surishadi.

Shunday bo`lsa-da, ko`pchilik 25000 yevro talabi tufayli MCHJ ochish ko`pchilik yangi biznes egalari uchun muammoli bo`lishini ta’kidlashadi. Aynan shuning uchun Germaniyaning “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to`g`risida” gi qonuniga 2008-yilda kiritilgan o`zgartirishlarga ko`ra qonunda MCHJ larning ikki turi keltirildi: Mas’uliyati cheklangan jamiyat - GmbH (Gesellschaft mit beschränkter Haftung) va kichik Mas’uliyati cheklangan jamiyat – UG yoki mini GmbH (Unternehmergesellschaft). Aynan kichik mas’uliyati cheklangan jamiyatlar yangi biznes boshlaganlar uchun qulay variant sifatida aytish mumkin. Chunki atigi 1 yevro ustav kapitali yetarli hisoblanadi. Ammo UG shunchaki asosiy MCHJ uchun poydevor sifatidagina ko`riladi va ular ham asta-sekin GmbH ga 25000 ustav kapitali bilan aylanadi. Bunga sabab sifatida esa UG shaklidagi bizneslar investorlar uchun kamroq jozibali hisoblanishini keltirishimiz mumkin.

Endi Germaniya qonunchiligidagi MCHJ ni ro`yxatdan o`tkazishning umumiy bosqichlarini sanab o`tamiz:

Birinchi bosqich, zaruriy hujjatlar tekshiruvi, GmbH nomini tanlash, maqsadini tanlash va bu bo`yicha ta’sis hujjatlari (Gesellschaftsvertrag) tayyorlash;

Ikkinchi bosqich, notarial tasdiqlatish;

Uchinchi bosqich, bank hisob raqami ochish;

To`rtinchi bosqich, Gewerbeampt – tadbirkorlarni ro`yxatdan o`tkazish sayti orqali ro`yxatdan o`tish;

Beshinchi bosqich, soliqdan ro`yxatdan o`tish;

[5] Guinnane, Timothy W., "Creating a New Legal Form: The GmbH" (2020). Discussion P apers. 1078. https://elischolar.library.yale.edu/egcenter-discussion-paper-series/1078

Oltinchi bosqich, faoliyatga doir zaruriy litsenziyalar bo`lsa, ularni olish;
Yettinchi bosqich, majburiy sug`urtalarni olish. Germaniya ijtimoiy sug`urta juda keng tarqalgani uchun majburiy sug`urtalar MCHJ lar uchun ham tatbiq etiladi. Xususan, bizness javobgarligi sug`urtasi, kiber himoya sug`urtasi vhkz.

**O`zbekiston qonunchiligi tahlili.** O`zbekiston Respublikasi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to`g`risida” gi qonunga umumiy holatda ustav kapitalining minimal miqdori belgilanmagan, biroq qonunning 14-moddasida “Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori litsenziya talablarida belgilanishi mumkin” degan norma mavjud. MCHJ larni ro`yxatdan o`tkazish esa 2017-yil 9-fevralda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 66-sonli qarori asosida amalga oshiriladi. Ushbu qaror Prezidentning tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag‘batlantirish maqsadida qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2646-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Unga ko`ra, tadbirkorlarni ro`yxatdan o`tkazishning bir darcha elektron tizimi ishlab chiqildi va ro`yxatdan o`tish protsessi soddalashtirildi. Xususan ayni 66-sonli qarorda keltirib o`tilgan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish tartibi to`g`risida” gi nizomga 1-ilovada tadbirkorlik subyektlarini ro`yxatdan o`tkazish sxemasi tasdilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish borasida soddalashtirilgan, tezkor va zamonaviy yondashuvga ega. Ammo bizningcha quyidagi takliflar orqali tizimni yanada takomillashtirish maqsadga yanada muvofiq bo`lar edi:

Birinchidan, AQSH va Britaniya davlatlari tajribasi asosida Korporatsiyalar shaffofligi bo`yicha qonunchilikni yanada takomillashtirish. Bunda BOI tizimini ko`rib chiqqan holda, qonunchilikka yangi normalar kiritish va bu orqali faqat ex ante emas, ex post nazorat tizimini ham kuchaytirishga harakat qilish zarur. Bunda onlayn monitoring tizimlarini kuchaytirish va bu orqali turli jinoyatlar sonini kamaytirishga erishishni maqsad qilish zarur.

Ikkinchidan, Minimal ustav kapitali bo`yicha iqtisodiy holatni va uning qadriyatlar masalasini hisobga olganda Konstitutsiyadagi erkin tadbirkorlik tamoyillariga rioya qilgan holda iqtisodiy barqarorlikka erishgungacha hozirgi pozitsiyada turish va asta-sekin majburiy ustav kapitaliga o`tish masalasini ko`rib chiqish. Albatta, bu bo`yicha bahsli

masalalar bisyor, xususan, Szalai, Akosning asarida ham bir qator davlatlarda minimal ustav kapitali qo`yilishi talabini shunchaki samarasiz degan argument asosida qonunchilikdan chiqarib tashlayotganini ta’kidlaydi[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X. P. Размонкулов, C. C. Гулямов. Корпоратив хукук. Хукукшунослик олий укув юртлари учун дарслик. - Т.: ТДЮИ, 2007. 512 - 6.
2. https://delcode.delaware.gov/title6/c018/sc02/index.html - AQSH Delavare shtatining “Ma’suliyati cheklangan jamiyatlar to`g`risida” gi qonuni.
3.https://www.fincen.gov/sites/default/files/shared/Corporate_Transparency_Act.pdf - AQSHning 2024-yil 1-yanvarda qabul qilingan “Korporatsiyalar shaffofligi to`g`risida” gi qonuni.
4. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gmbhg/ - Germaniyaning “Ma’suliyati cheklangan jamiyatlar to`g`risida” gi qonuni.
5. Guinnane, Timothy W., "Creating a New Legal Form: The GmbH" (2020). Discussion P apers. 1078.
6. Szalai, Akos, Reducing Minimum SHARE Capital in Limited Liability Companies: A Basic Model (December 2007). Hungarian Association for Law and Economics Working Papers No. 6, Available at
SSRN: https://ssrn.com/abstract=1414127 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.1414127

[6] Szalai, Akos, Reducing Minimum SHARE Capital in Limited Liability Companies: A Basic Model (December 2007). Hungarian Association for Law and Economics Working Papers No. 6, Available at
SSRN: https://ssrn.com/abstract=1414127 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.1414127

$Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasining elektron tuzilishini modellashtirish va tahlil qilish

Jumaniyozova Darmonjon Ròzmetovna
Xorazm Viloyati Qòshkòpir tumani 44-son maktabining fizika fani òqituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmalarining elektron tuzilishini modellashtirish va tahlil qilish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda elektron zonalar tuzilishining o‘zgarishi Sn konsentratsiyasiga bog‘liq holda o‘rganilgan. Kompyuter modellashtirish usullari yordamida energetik zonalar oralig‘i, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita o‘tishlar orasidagi farqlar, hamda qattiq qotishmaning optik va elektr xossalari tahlil qilindi. Natijalar Ge–Sn tizimining yarim o‘tkazgich sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish hamda nanoelektronika sohasida qo‘llash istiqbollarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: $Ge_{1-x}Sn_x$, yarim o‘tkazgich, elektron tuzilish, zona energiyasi, modellashtirish, qattiq qotishma.

Kirish

So‘nggi yillarda Ge–Sn asosidagi yarim o‘tkazgichli materiallarga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Buning sababi — bu materiallarning kremniy texnologiyasi bilan mos kelishi va optoelektron qurilmalarda qo‘llanilish imkoniyatlarining kengligidir. Ge–Sn tizimi, ayniqsa, infraqizil diapazonda ishlovchi detektorlar, lazerlar va yuqori tezlikdagi tranzistorlar uchun istiqbolli material sifatida e’tirof etilmoqda. $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasida Sn atomlarining miqdori oshishi bilan energetik zonalar oralig‘i kamayib boradi, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgich hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli ushbu tizimning elektron tuzilishini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Metodologiya

Tadqiqotda $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasining elektron tuzilishini modellashtirish uchun ab initio DFT (Density Functional Theory) asosidagi hisoblash usuli qo‘llanildi. Hisob-kitoblar Quantum ESPRESSO dasturi yordamida olib borildi. Ge va Sn atomlari uchun ultrasoft potensiallar tanlandi, energiya kesimi 60 Ry diapazonda o‘rnatildi. Brillouin zonasining tarmoq nuqtalari Monkhorst–Pack sxemasi asosida tanlandi. Sn atomlarining ulushi (x) 0,05 dan 0,3 gacha o‘zgartirilib, har bir holat uchun elektron energetik tuzilma hisoblandi. Modelni barqarorlashtirish uchun atomlarning geometrik optimizatsiyasi amalga oshirildi.

Natijalar

Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasida Sn miqdorining ortishi

bilan energiya zonalar oralig‘i (Eg) sezilarli darajada kamayadi. x = 0,05 da Eg ≈ 0,66 eV bo‘lsa, x = 0,3 da bu qiymat 0,39 eV gacha tushdi. Bu esa materialni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgichga aylantirish imkonini beradi. Band tuzilishining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sn atomlari valent zona maksimumini ko‘taradi va o‘tkazuvchanlik zonasining minimumini pasaytiradi. Shu tariqa, Sn kiritilishi materialning optik faoliyatini oshiradi va infraqizil diapazonda yorug‘likni yutish xususiyatini kuchaytiradi.

Munozara

Olingan natijalar boshqa nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan solishtirilganda yaxshi moslik ko‘rsatdi. Sn miqdorining oshishi natijasida Ge–Sn tizimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgich holatiga o‘tadi, bu esa optoelektron qurilmalar uchun muhim afzallikdir. Shu bilan birga, Sn kontsentratsiyasi haddan tashqari ko‘payganda kristall panjarasining deformatsiyasi kuchayadi, bu esa elektron harakatchanligini pasaytiradi. Shu sababli optimal Sn ulushi 0,15–0,20 atrofida tanlanishi tavsiya etiladi. Tadqiqotlar natijasida Ge–Sn qotishmasining lazer diodlari va infraqizil detektorlar uchun samarali material bo‘lishi isbotlandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasining elektron tuzilishi Sn konsentratsiyasiga sezilarli darajada bog‘liqdir. Sn atomlarining qo‘shilishi materialning energetik zonalar oralig‘ini kamaytiradi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgich xususiyatlarini shakllantiradi. Bu esa Ge–Sn tizimini zamonaviy optoelektron qurilmalar, lazerlar, va infraqizil sensorlar uchun istiqbolli material sifatida e’tirof etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oehme M. et al. “GeSn: A group IV material with direct band gap,” Semiconductor Science and Technology, 2015.
2. Wirths S. et al. “Direct bandgap GeSn alloys for optoelectronic applications,” Progress in Crystal Growth and Characterization of Materials, 2016.
3. Gupta S. et al. “Sn incorporation in Ge for bandgap engineering,” Applied Physics Letters, 2013.
4. Moontragoon P., Ikonic Z., Harrison P. “Band structure calculations of GeSn alloys,” Semiconductor Science and Technology, 2012.

$Ge_{1-x}sn_x$ yarim o‘tkazgichli qattiq qorishma zona tuzilishining xususiyatlarini o‘rganish

Jumaniyozova Darmonjon Ròzmetovna
Xorazm Viloyati Qòshkòpir tumani 44-son maktabining fizika fani òqituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada germaniy (Ge) va qalay (Sn) asosidagi $Ge_{1-x}Sn_x$ yarim o‘tkazgichli qattiq qorishmaning elektron zona tuzilishi, energiya bo‘shlig‘i (band gap) xususiyatlari hamda ularning x miqdoriga bog‘liqligi tahlil qilingan. Dastlabki hisob-kitoblar ab initio (DFT – Density Functional Theory) usulida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sn atomlarining ulushi ortishi bilan Ge matritsasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri zonali o‘tish xususiyatlari kuchayadi va band gap qiymati kamayadi. Bu esa $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimlarini infraqizil diapazondagi optoelektronika va yuqori tezlikdagi tranzistorlarda qo‘llash imkoniyatini ochadi.

Kalit so‘zlar: $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq eritma, yarim o‘tkazgich, zona tuzilishi, DFT, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tish, band gap, optoelektronika.

Kirish

So‘nggi yillarda kremniy (Si) va germaniy (Ge) asosidagi yarim o‘tkazgich tizimlarini yangi avlod nanoelektronika va optoelektronika qurilmalarida qo‘llash kengaymoqda. Germaniy asosidagi qattiq eritmalar orasida $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimi o‘zining moslashuvchan elektron struktura xususiyatlari bilan ajralib turadi (Dutt et al., 2024).

Kalay (Sn) atomlari Ge panjarasiga joylashganda panjaraning parametrlarini kengaytiradi, bu esa elektron va teshikning o‘tish energiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (Oehme et al., 2023). $x = 0{,}07–0{,}15$ oralig‘ida $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq eritmasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri zonali o‘tishga ega bo‘lishi kuzatilgan (Wirths et al., 2022).

Metodologiya

Tadqiqotda $Ge_{1-x}Sn_x$ ($x = 0{,}00; 0{,}05; 0{,}10; 0{,}15$) qattiq eritmalarining elektron zona tuzilishi ab initio hisoblash usuli — Zichlik funksional nazariyasi (DFT) yordamida o‘rganildi. Hisoblashlar uchun Quantum ESPRESSO 7.3 paketidan foydalanildi.

Hisoblash parametrlari

Pseudopotensial: PAW (Projector Augmented Wave);
Exchange-Correlation funksiyasi: PBE-GGA (Perdew–Burke–Ernzerhof);
K-to‘r zichligi: 8×8×8 Monkhorst-Pack panjarasi;

Kesish energiyasi: 45 Ry;
Panjaraning boshlang'ich parametri: a_0(Ge) = 5.658 Å, a_0(Sn) = 6.489 Å.

Panjaraning Sn ulushiga bog'liq kengayishi Vegard qonuni asosida hisoblandi:
[a(x) = (1-x)a_{Ge} + x a_{Sn}]

Shundan so'ng har bir tarkib uchun energiya zonalarining dispersiyasi va to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita band gap qiymatlari aniqlanib, ELF (Electron Localization Function) va DOS (Density of States) grafigi qurildi.

Natijalar
